

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA  
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**  
**O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA‘LIMI MARKAZI**

**O‘RINBOY BOBOYOROV, FARHOD XOLSAIDOV**

# **ADABIYOT**

*Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma*



Toshkent – „ILM ZIYO“ – 2006

*Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv metodik birlashmalari  
faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan nashrga  
tavsiya etilgan*

Ushbu qo'llanma barcha kasb-hunar ta'limi yo'nalishidagi talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, an'anaviy hamda interfaol dars usullardan foydalanishga moslashtirilgan.

Qo'llanmadan kollej talabalaridan tashqari shu sohada dars beruvchi o'qituvchilar ham foydalanishlari mumkin.

*Pedagogika fanlari nomzodi Ismoilova Munavvar Yusupovnaning  
umumiy tahriri ostida*

Taqrizchilar: Filologiya fanlari doktori **Bahodir Karimov**;

I-Toshkent Pedagogika kolleji til-adabiyot o'qituvchisi  
**Barno Sulaymonova**;

Toshkent Pedagogika kolleji til-adabiyot o'qituvchisi  
**Elmira Rashidova**.

## SO'ZBOSHI

Ma'lumki, kasb-hunar kolleji o'quvchilari ushuni Davlat Ta'lim Standartlarida adabiyot fanidan ham o'quvchi bilishi va yod olishi lozim bo'lgan me'yoriy ko'rsatkichlar mavjud. Kasb-hunar kollejiga qabul qilingan o'quvchilarning bilim saviyasi har doim ham bir xil bo'lavermaydi. Ma'lum tizimga tushib olish va yetarli bilim egallash uchun o'quvchi o'rta umumta'lim dasturi doirasidagi bilimlarni umumlashtirib, takrorlab o'lmog'i zarur. Qo'llanma an'anaviy hamda interfaol usuldagi darslar uchun mo'ljallangan. O'qituvchi mazkur qo'llanma asosida o'tkaziladigan darslarga maxsus tayyorlanmog'i va o'quvchilarga ham bajariladigan ish mazmunini oldindan belgilab bermog'i lozim. Darslarda ko'proq eslash, yodga olish usullaridan, badiiy asarlarni mustaqil mutolaa qilish yo'llaridan foydalaniladi.

Xalqimizning bebaho adabiy merosi bilan yosh avlodni yaqindan tanishtirishda ushbu qo'llanma maktab darsliklari orqali berilgan bilimlarni yanada mustahkamlaydi. Bundan tashqari, adabiy-badiiy matnlar ustida ishlash ko'nikmalarini o'stirish kabi vazifalarni bajarishga katta yordam beradi hamda o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatadi.

Qo'llanma no'anaviy usulda tuzilgan bo'lib, dars jarayonida o'qituvchidan ijodiy izlanish talab etiladi. Qo'llanmada badiiy asarlardan parchalar berilgani holda, mavzu yuzasidan tuzilgan savol va topshiriqlar asar bilan to'liq tanishishni talab etadi. Bu esa o'quvchilarni badiiy asarni to'liq o'qishga undaydi.

Ushbu qo'llanma mualliflarning no'anaviy yo'nalishda qo'llanma yaratishdagi ilk urinishlari bo'lganligi uchun ba'zi kamchiliklardan xoli bo'lmasligi tabiiy. Shu bois, bildirilgan fikr va mulohazalarni mamnuniyat bilan qabul qiladilar.

## **Yod olinishi lozim bo'lgan asarlari:**

- „Avazxon“ dostonidan parcha;
- hadislardan namunalari;
- hikmatlardan namunalari;
- Pahlavon Mahmud. Ruboiylardan namunalari;
- Lutfiy. Gʻazallardan namunalari;
- Alisher Navoiy. Gʻazal va ruboiylardan namunalari;
- Bobur. „Qaro zulfing“ gʻazali. Ruboiylaridan tanlab yod olinadi;
- Munis. „Doʻstlar. mensiz dame..“ gʻazali;
- Huvaydo. „Xoki poyi yaxshilar boʻl“ gʻazali;
- Uvaysiy. Gʻazallardan namunalari;
- Nodira. Gʻazallardan namunalari;
- Muqimiy. „Oshiq boʻlibman“ gʻazali;
- Fuzuliy. „Ahli yor..“ gʻazali;
- Hamza. „Boy ila xizmatchi“ dramasidan parcha;
- H. Olimjon. „Ishim bordir oʻsha ohuda“ sheʼri;
- E. Vohidov. „Yigʻlab keladur...“ va boshqa tanlangan sheʼrlari;
- Sh. Rahmon. „Titroq sezdingmi hech“ sheʼri.

## **Oʻquvchilar quyidagilarni bilishlari kerak:**

- badiiy asardagi yozuvchi maqsadini, bosh gʻoyani va obrazlar olamini;
- mumtoz adabiyot namunasi boʻlgan har qanday matnni ifodali oʻqishni;
- mumtoz sheʼriyatning janriy boʻlinishlarini;
- oʻrganilgan asarlarni matnini lugʻat yordamida, yod olingan asarlarni matnini lugʻatsiz sharhlay olishni;
- mumtoz adabiyot asarlari qahramonlariga reja asosida tavsif berish;
- mumtoz adabiyot timsollarining falsafiy, diniy va tasavvufiy asoslarini aniqlashni;
- mumtoz adabiyot namunalarini haqida mustaqil mulohazalar asosida taqriz yozishni;

- mumtoz adabiyot namunalari tarkibidagi nazariy tushunchalar hamda san'atlarni aniqlashni;
- XX asrdagi o'zbek adabiyotining shakllanish va rivojlanish tamoyillarini;
- shu davr asosiy badiiy asarlari matnini;
- adabiyot nazariyasi bo'yicha asarlarning janr va badiiy xususiyatlariga bog'liq tushunchalarni;
- badiiy asarlarni estetik jihatdan tahlil etishni;
- badiiy asar bo'yicha ma'ruza qilish, referat, insho yozishni.



## ADABIYOT SO‘Z SAN‘ATI

Adabiyot insonlarning ruhiy kechinmalarini so‘z orqali ifodalab kelgan san‘at turidir. So‘zning sehrli kuchini adabiyot vositasidagina his etamiz. Kishilik tarixi ildizlari qanchalik chuqur bo‘lmasin, uning ma‘lum bir tolasi bevosita adabiyot bilan uzviy bog‘liq. Antik adabiyot tarixida birinchi qalam sohiblari, adabiyotning ilk namoyandalari nomlari tarixdan bizga ma‘lum. Adabiyot insoniyatga tabiat va jamiyat haqida tasavvur va ma‘lumot beradigan manba‘dir. Inchunun, insoniyat yaralibdiki, aql-u zakovati tufayli hamisha izlanishda, o‘y-fikrlar qurshovida yashaydi. Hattoki onalarning bolalariga aytgan allalari ham ularning bolalari kelajagi haqidagi o‘y-fikrlari, orzu-umidlarini ifodalaydi.

Mashhur yozuvchi Abdulla Qahhor adabiyotni „atomdan kuchli“ deb ta‘riflagan edi. Insoniyat tafakkuri bu kuchni „o‘tin yorish“ kabi ishlarga sarflamasligini taqozo qiladi.

Inson tafakkurini shakllantiruvchi, unga sayqal beruvchi manba bu adabiyotdir. Adabiyot, ta‘kidlash joizki, har doim yaxshilik, ezgulik, vatanparvarlik g‘oyalarini ilgari suradi. Ertaklarning hammasi yaxshilik bilan tugaydi. Ezgu fazilatlar har doim ulug‘lanadi. Vatan muqaddasligiga hamisha tan beriladi.

Hayot inson uchun dunyoda eng aziz narsadir. Adabiyotda esa hayot go‘zalliklari, qahramonliklar, kishilarning hayot haqidagi tasavvurlari to‘la aks ettiriladi.

Har qanday badiiy asarga mo‘jiza deb qarab bo‘lmas, lekin har bir badiiy asar zamirida, ma‘lum ma‘noda, go‘zallikka, ezgulikka, fidoyilikka intilish yotadi.

Badiiy asarlardan o‘zimiz uchun nimalardir topsak, quvonamiz. Topganimiz orzularimizga hamohang so‘z, ruhiy iztiroblarimizga taskin bag‘ishlovchi ibora yoki dard-u hasrati-mizning ifodasi bo‘lishi mumkin. Bularning hammasi badiiy asarlar vositasida bizga yetib keladi.

Ijobiy qahramonlar vositasida ezgu ishlarimizni oxiriga yetkazib qo‘yishni istab qolamiz. Salbiy qahramonlarimiz esa, „qanday bo‘lmaslik kerak“ degan savollarimizga javob topib beradi. Demak, so‘zlarni o‘z o‘rnida ishlata bilish fazilati muhimligini qalban his etamiz.

Hazrat Navoiy „Muhokamat ul-lug‘atayn“ asarida aytadi:

.... Ko'ngil barcha ma'nolarni jamlagan ummondur, so'z — ko'ngil dengizidagi bir inju. Dengizdagi injuni g'avvos olib chiqqani va uning qiymatini tayin etganidek, ko'ngildagi so'z injusi so'zlovchi tarafidan bezaladi, qiymati ham anglash darajasining nisbatiga ko'ra belgilanadi. Injuning qiymati haqida: „darajalari ko'p“, hatto, „qiymati bir dirhamdan 100.000 dirhamgacha bo'lgan injular bor“ deyish mumkin...

So'z injusining qiymati bundan-da ulug', darajasi bundan-da yuksakdir. Uning ulug'ligi shu darajadagi, o'lik tanga ruh bag'ishlaydi. Ayni paytda, tirik jonni ruhdan mahrum etmog'i mumkin.

So'z ma'no ifodalash xususiyatiga, inson fikrlash salohiyatiga egadir. So'z — ma'no, inson esa bayon bulog'idir...

Yusuf Xos Hojib bu haqda deydi:

Donolik ramzi — so'z, bilib so'zlansa,  
Nodoning o'zi ham, so'zi qo'lansa.  
Ko'p so'zlab topmadim ochunda bir naf,  
Ko'zlangan bu naf ham so'z ko'pidin daf.  
So'zni ko'p so'zlamay, sizlab ayt, oz-oz,  
Tuman so'z tugunin shu bir so'zda yoz.  
Erkin so'z vajhidan taxtga egadir,  
So'z kim, er boshini pastga egadir.  
Bor so'zni keltirsam, sig'dirmas naql,  
O'zida bor odam bilar: so'z — aql,  
So'zlamodan, o'g'lim, seni ko'zladim.  
Ba'zan so'zim tuzlab, o'zim bo'zladim.  
Mendan ulush qolsa, yumushdan o'zga,  
Oltin-u kumushni teng ko'rma so'zga.  
Kumushsiz boshingga tushsa yumush ham,  
So'zimdanda keladi, yombi, kumush ham.  
O'tadan o'g'liga qolgani bu — so'z,  
O'talar so'zin tut, nafi ham yuzma-yuz.

### **So'zning sehrli kuchi.**

#### **O'zbek mutafakkirlari so'z qudrati haqida**

Adabiyot so'z san'atidir. U inson qalbi va ruhidagi nozik tovlanish va ohanglarni ilg'ab oladi, ularni so'z vositasida aks ettiradi.

Hayotda insonlar aynan bir xil bo'lmaganlari kabi, ularning qalb kechinmalari ham bir-biriga o'xshamaydi.

O'zbek adabiyoti xazinasi inson va uning ruhiy holatlarini mahorat bilan tasvirlagan bebaho vositadir. Ular hozirgi avlod ruhiyatida, qalbida ham hayajon uyg'ota oladi, ularning ma'naviy kamolotiga ijobiy ta'sir qiladi. Muhimi, ular faqat ma'rifiy bilimni oshiribgina qolmay, badiiy didimizni takomillashtiradi, bilimimizni oshiradi.

Ma'lumki, san'at turlari nihoyatda xilma-xildir. Tasviriy san'at, haykaltaroshlik, me'morchilik, teatr, kino, musiqa, raqs va badiiy adabiyot san'atning turlarini tashkil qiladi. Ularning barchasida yuksak badiiy ta'sirchan obrazlar yaratish ko'zda tutilgan. Ammo ular ana shu yagona maqsadga turli-tuman yo'llar bilan erishadi. Masalan, raqs harakatlar, tana a'zolarining ifoda imkoniyatlariga tayanadi. Musiqa tovushlar uyg'unligiga, tovushlarning hissiy ifodasiga bog'liq. Tasviriy san'at uchun ranglarning o'zaro mutanosibligi alohida ahamiyat kasb etadi. Rassomga bo'yoq va mo'yqalam yordam beradi. Haykaltarosh xom material (tosh, ganch, yog'och, metal)ga ishlov berish orqali go'zallik yaratadi. Adabiyot esa, bu san'atlardan so'z va ruhning beqiyos imkoniyatlari bilan farqlanadi.

So'zlar badiiy matnning yuzaga kelishiga omil bo'ladi, ammo har qanday matn va so'zlar ham badiiy adabiyotga daxldor bo'lavermaydi. Buning uchun so'z muayyan badiiyat, estetik vazifani bajarishi lozim. Shunga ko'ra ham badiiy adabiyot voqea-hodisalarni yoki insoniy kechinmalar, his-tuyg'ularni bayon qilmaydi, balki ularni tasvirlaydi.

Adabiyotning ta'sir kuchi nimada? U nimalarga bog'liq? Buning uchun yirik so'z san'atkorlari yaratgan ko'plab durdona asarlarining xalq orasida alohida hurmat va e'tibor qozonganligini eslash joiz.

Yusuf Xos Hojib XI asrda — 1069—70- yillarda „Qutadg'u bilig“ dostonini yozib tugatadi va uni qoraxoniylar hukmdorlaridan Tabg'ach Bug'ro Qoraxon Abu Ali Hasan binni Arslonxonga taqdim etadi. Hukmdor adibga mamlakatdagi eng yuqori mansablardan biri — Xos Hojib („eshik og'asi“) unvonini beradi. Hozirgi tilimizda u „ish boshqaruvchi“ga to'g'ri keladi.

Yana bir misol. Alisher Navoiy „Xamsa“ dostonini tugatgach, uni Husayn Boyqaroga sovg'a sifatida topshiradi. Husayn Boyqaro butun a'yonlari oldida Navoiyni otga mindiradi. O'zi esa xalq oldida uning oldiga tushib, jilovdorlik qiladi. Bu mamlakat podshosining buyuk iste'dod egasiga, s'oz san'atkoriga nisbatan hurmati va ehtiromi ramzi edi.



O'zbek xalqining ijodkorlarga nisbatan alohida hurmat va ehtirom bilan qarashi azaldan ma'lumdir. Mahmud Q'oshg'ariyning „Devonu lug'otit-turk“ asarida „Ardam bashi—til“ („Barcha fazilatlarining boshi tildir“) degan maqol uchraydi. Demak, til va badiiy so'zning qudratiga qadim zamonlardayoq ajdodlarimiz alohida e'tibor berishgan.

XI asr sharoitida Yusuf Xos Hojib shoirlarni „so'z teruvchilar“ deb ta'riflaydi. XIV asrda yashagan Sayfi Saroyi esa shoirlarni „so'z bulbuli“ deydi. Navoiy shoirlarni „ruh chamanining bulbullari“ga o'xshatgan edi.

So'z adiblar nazarida ham alohida, mo'tabar mavqega ega. Yusuf Xos Hojib til va so'zga katta baho beradi. U tilni bilim va aql- idrok tarjimoni, deb ataydi. Bu borada adibning ayrim fikrlarini eslash mumkin:

Kishi so'z bila qo'pti, bo'ldi malik,  
O'kush so'z bashig' yerka qildi kulik.  
(Kishi so'z tufayli ko'tariladi, podshoh bo'ladi,  
Ko'p so'z boshni yerga egadi.)

Kishidin kishika qumar-u so'z ul,  
Qumar-u so'zi tutsa asg'i yuz ul.  
(Kishidan kishiga qoladigan meros so'zdir,  
Meros so'zni tutsang, nafi yuz-yuzdir.)

Bunday fikrlarni adib Ahmad Yugnakiy ijodida ham uchramiz. U „adablar boshi til ko'dazmak (saqlamoq)dir“ deb Mahmud Qoshg'ariyning „Devonu lug'otit-turk“idagi maqolga hamohanglik bildiradi. Adib Ahmad so'zni dillarga shifo derkan, bunda badiiy so'zni e'tiborga olganiga shubha yo'q.

Sayfi Saroyi badiiy so'z qudratini shoirlar iste'dodiga bog'laydi. Shuning uchun u:

Jahon shoirlari, ey gulshani bog',  
Kimi bulbuldurur so'zda, kimi zog'—

deya shoirlarni ikkiga ajratadi. „So'zda bulbul“ bo'lganlarning ash'orlariga ta'rif-u tahsinlar aytadi.

Xorazmiy (XIVasr) nazarida o'z ona tilida paydo qilingan kitob ajdodlarning avlodlarga qoldirgan armug'onidir. Shoir ta'biricha, „shakarteg til bila ofamni“ tutish mumkin.

Alisher Navoiy soʻzga nihoyatda katta baho beradi. U:

Soʻz kim insonni judo ayladi hayvondin,  
Bilkim, guhari sharifroq yoʻq andin,—

deb taʼkidlaydi.

Adibning fikricha:

Jism boʻstoniga shajar soʻzdur,  
Ruh ashjoriga samar soʻzdur.

### *Tezis-reja*

1. „Adabiyot“ soʻzining maʼnosi haqida.
2. Adabiyotning inson ruhi va qalbidagi his-tuygʻular hamda kechinmalarni soʻz vositasida ifodalashi haqida.
3. Insoniyatni toʻlqinlantiradigan, hayajonga soladigan oʻy-fikrlar, kechinmalar, orzu-umidlarni ifodalay olgan badiiy asarlar adabiyotning eng oliy namunalaridir.
4. Inson qalbining betakrorligi kabi, badiiy asarlarning ham xilma-xilligi.
5. Adabiyotning eskirmasligi. Oʻzbek adabiyotidagi umrboqiy asarlar haqida.
6. Adabiyotning inson marʼrifiy va maʼnaviy kamolotidagi xizmatlari.
7. Soʻz adabiyotning quroli ekanligi.
8. Badiiy adabiyot va bayonchilik.
9. Soʻzning sehrli kuchi. Badiiy adabiyotning sirli olami.
10. Soʻz sanʼatining va adabiyotga daxldor kishilarning tarixda qadrlanganligi haqida. Sharqona ehtirom va sharqona lutf. Yusuf Xos Hojib va uning „Qutadgʻu bilig“ asari hamda Alisher Navoiy va uning „Xamsa“ asari haqida.
11. „Ardam bashi—til“ (Mahmud Koshgʻariy). „Til—bilim va aql-idrok tarjimoni“ (Yusuf Xos Hojib). Adablar boshi til koʻdazmak (saqlamoq)dir (Ahmad Yugnakiy).
12. „Shoirilar—soʻz teruvchilar“ (Yusuf Xos Hojib); „Soʻz bulbuli“ (Sayfi Saroyi); „...ruh chamanining xushxon bulbullari“ (Alisher Navoiy).
13. Adabiyotning jamiyat hayoti koʻzgusi ekanligi haqida. Hamma davrlardagi adabiyot orqali oʻsha davr haqida, oʻsha davr kishilarining mehnati, hayoti, yashash tarzi va sharoiti haqida maʼlumotga ega boʻlish mumkinligi. Oʻrxun-Enasoy obi-

dalari, „To‘maris“ va „Shiroq“ afsonalari, qadimgi qo‘shiqlar, afsonalar, maqollar, dostonlar, matallar, qasidalar, marsiyalarda xalq hayoti, orzu-umidlari, turmush tarzining ifodalanishi.

14. Eng qadimgi davr adabiyoti namunalarida qahramonlikning ifodalanishi.

15. XI asr va undan keyingi davr adabiyotida ta‘limiy-tarbiyaviy xususiyatlarning yetakchiligi.

16. O‘zbek adabiyoti tarixining taraqqiyot bosqichlari:

1) Eng qadimgi adabiy yodgorliklar („Avesto“, „To‘maris“, „Shiroq“, „Alpomish“).

2) Ilk o‘rta asrlar adabiyoti (O‘rxun-Enasoy yodgorliklari).

3) O‘rta asrlar adabiyoti (IX—XV asrlar).

4) XVI—XIX asrlar adabiyoti.

5) XX asr adabiyoti va XXI asr.



### **Savol va topshiriqlar**

---

1. San‘atning qanday turlarini bilasiz? Ularning o‘xshashlik va farqli jihatlarini aytib bering.
2. Fan bilan san‘atning farqli jihatlarini tushuntirib bering.
3. Nima uchun adabiyotni „so‘z san‘ati“ deymiz?
4. Adabiyotning boshqa san‘at turlari orasidagi o‘rniga oid fikrlaringizni umumlashtirib, gapirib bering.
5. So‘zning badiiy estetik vazifasi deganda nimani tushunasiz?
6. Adabiyotning ta‘sir kuchi to‘g‘risidagi fikrlaringizni gapiring.
7. So‘z haqida 10 ta maqol toping va ma‘nolarini sharhlang.
8. Adabiyot bilan hayotning o‘zaro munosabati haqida so‘zlang.
9. Adabiyotning boshqa fanlar bilan qanday aloqasi bor?
10. Obrazlilik nima?
11. Adabiyotning rivojlanish bosqichlari haqida nimalarni bilasiz?
12. O‘zbek adabiyotidagi ilk namunalar haqida gapiring.
13. Turkiy adabiyotga qaysi asarlarni kiritish mumkin?
14. Xalq og‘zaki ijodining eng qadimgi namunalari haqida gapiring.
15. „Avesto“ ning O‘rta Osiyo xalqlarining mushtarak yodgorligi sanalishi sabablarini izohlang.
16. Eng qadimgi nasriy asarlardan qaysilarini bilasiz?
17. O‘zbek adabiyoti tarixidagi janrlarni sanang.
18. Madaniy merosning bugungi kundagi ahamiyatlari haqida gapirib bering.

*„Dostonchilik tarixi“ mavzusidagi suhbatga tayyorlanishdan oldin quyidagi ma'lumotnomalar asosida maktab dasturida o'rganilgan dostonlar mazmuni va mavzu doirasini eslang*

### **„Alpomish“ dostoni**

<b>Dobonbiy</b>	Qo'ng'irotda elida Dobonbiy degan o'tdi.
<b>Alpinbiy</b>	Dobonbiyning o'g'li.
<b>Boybo'ri</b>	Alpinbiyning o'g'li.
<b>Boysari</b>	Alpinbiyning o'g'li.
<b>Shohimardon piri</b>	Boybo'ri va Boysari Shohimardon piring qabrida tunab, farzand tilaydi. „Aka-uka farzand ko'rib, qirq kecha-kunduz to'y berganda u qalandar qiyofasida kelib, chaqaloqlarga ot qo'yadi va Hakimbek bilan Barchinni bir-biriga atash tirib duo qildilar“.*
<b>Qo'ng'irotda eli</b>	Dobonbiyning eli.
<b>Hakimbek</b>	Boybo'ri yoshida Alpinbiy bobosidan qolgan o'n to'rt botmon yoyni ko'tarib, tortgani uchun Alpomish ataldi“.*
<b>Qaldirg'och</b>	Boybo'ri qizi.
<b>Barchin</b>	Boysari qizi.
<b>Qalmoq eli</b>	Boybo'ri Boysaridan zakot talab qilgani uchun, aka-uka o'rtasida nizo chiqib, Boysari Qalmoq eliga ko'chib ketadi.
<b>Toychixon</b>	Qalmoq podshohsi.
<b>To'qson alp</b>	„Qalmoq podshohsining to'qson alp bor edi“.*
<b>Qoraxon</b>	To'qson alpnin biri bo'lib, tushida Alpomish bilan g'oyibona do'st bo'ladi.
<b>Murod tog'i</b>	Alpomish bilan Qoraxon Murod tog'ida uchrashib, Qoraxon Alpomish nomidan Barchinga sovchi bo'lib boradi.
<b>Ko'kaldosh</b>	To'qson alpnin zo'ri.

<b>Ko'sa sinchi</b>	„Ko'kaldoshning Ko'sa sinchi degan sinchisi bor edi“.*
<b>Boychibor</b>	Alpomishning oti.
<b>Boboxon tog'i</b>	U yerga yetkach, Qalmoqlar Qoraxon bilan Boychiborni boylab, o'zlari jo'nab ketdilar.
<b>Rajabxo'ja eshon</b>	Alpomishning piri. U Qoraxoni boylovdan ozod qiladi.
<b>Do'non</b>	Ko'kaldoshning oti, Ko'kdo'non.
<b>Chibor</b>	Boychibor.
<b>Surxayl kampir</b>	Alpomish uning hiylasi bilan zindonda yetti yil qolib ketadi.
<b>Ultontoz</b>	Alpomishning o'gay ukasi.
<b>Qultoy</b>	Alpomish Qultoy qiyofasida to'yga kelib, dushmanlarini yengadi.
<b>Saman</b>	Qalmoqshohning oti.

### „Ravshan“ dostoni

<b>Go'ro'g'libek</b>	„Yovmit elida, Chambilning belida Go'ro'g'libek degan o'tdi“.*
<b>Yunus pari va Misqol pari</b>	„Go'ro'g'libek ularni Ko'hi Qofdan, Eram bog'idan keltirib, umr o'tkazar edi“.*
<b>Hasanxon</b>	„Go'ro'g'libek uni Vayangandan olib kelib, parvarish qildi“.*
<b>Avazxon</b>	„Go'ro'g'libek uni Xunxordan olib kelib, parvarish qildi“.*
<b>Xon Dalli</b>	„Hasanxon uni Arzumdan olib qochib, oldi“.*
<b>Gulqiz</b>	Avazxonning xotini.
<b>Gulanor</b>	Avazxonning qizi.
<b>Ravshanbek</b>	Hasanxonning o'g'li.
<b>Zulxumor</b>	Qoraxon podshohning qizi.
<b>Jiyronqush</b>	Hasanxonning oti.
<b>Shirvon</b>	Zulxumorning yurti. Ravshan bu yurtga kelib, bir kampirga o'g'il bo'ldi. Zulxumorning kanizi.
<b>Oqqiz</b>	Zulxumorning kanizi.
<b>Mayna</b>	O'rgatilgan qush.
<b>G'irko'k</b>	Go'ro'g'lining oti.
<b>Qoraxon</b>	Shirvon elining podshohi*

<b>Aynoq kal</b>	Ravshan o'g'il tutingan kampirning marhum katta o'g'lining nonxo'r polvoni.
<b>Jaynoq kal</b>	Aynoq kalning ukasi.
<b>Ersak kal</b>	Aynoq kalning ukasi.
<b>Tersak kal</b>	Aynoq kalning ukasi.

### „Kuntug'mish“ dostoni

<b>Kuntug'mish</b>	„Do'rmon elining Kuntug'mish degan polvoni bor edi“.*
<b>Oppoqoy</b>	Kuntug'mishning singlisi.
<b>Bug'raxon</b>	Zangar shahrining podshohsi.
<b>Shoir vazir</b>	Bug'raxonning vaziri.
<b>Toir vazir</b>	Bug'raxonning vaziri.
<b>Xolbeka</b>	Shoir vazirning qizi.
<b>Xolmo'min</b>	Toir vazirning o'g'li.
<b>Dog'iston</b>	„Xolbekaning ovozi Dog'istondan o'tdi“.*
<b>Bahragul</b>	Xolbekaning kanizi.
<b>Suratlash</b>	Xolbeka oyim unga o'zining rasmini qog'ozga soldirib, sandiqqa joylab, uni daryoga oqizadi.
<b>Kampir</b>	Podshohning qudasi. U Kuntug'mishni o'z uyiga olib keladi.
<b>Zamongul</b>	Kampirning qizi. Xolbekaning kanizi.
<b>Zamonqul</b>	Podshohning bir eski quli.
<b>Podshohning miroxo'ri</b>	Podshoh otboqarlari boshlig'i.
<b>Mirg'azab</b>	Jazolovchi amaldor.
<b>Azbarxo'ja</b>	Zangarlik savdogar.
<b>Cho'pon</b>	Kuntug'mishni ko'rgan, bolalarning kimligini bilgan yagona inson.
<b>Olim Sayyod</b>	Kuntug'mishning baliq yutgan bolasini tarbiyalaydi.
<b>Gurkiyob</b>	Kuntug'mishning cho'ponlar bo'ridan tortib olgan bolasi.
<b>Mohiboy</b>	Kuntug'mishning baliqchilar topib olgan bolasi.

\* parchalar dostonidan olingan.

---

## DOSTONLAR VA DOSTONCHILIK MAKTABLARI HAQIDA

### Doston

Doston o'zbek xalq og'zaki ijodining eng keng tarqalgan va yirik janrlaridan biridir. Uning yaratilishi xalqimizning ma'naviy-maishiy qiyofasi, ijtimoiy-siyosiy kurashlari, adolat va haqqoniyat, ozodlik va tenglik, qahramonlik va vatanparvarlik haqidagi ideallari bilan chambarchas bog'liqdir. Asriy kurashlar va ideallar uning tematikasi, g'oyaviy mazmuni, obrazlar sistemasi, sujet va kompozitsiyasi mohiyatini belgilaydi.

„Doston“ so'zi „qissa“, „hikoya“, „sarguzasht“, „ta'rif“ va „maqto'v“ ma'nolarida ishlatiladi. Adabiy termin sifatida bu atama xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotidagi yirik hajmli epik asarlarni anglatadi. Biroq yozma va og'zaki adabiyotdagi dostonlar hayotni tasvirlash vositalari va usullari jihatidan bir-biridan jiddiy farq qiladi.

Dostonlarda tarixiy voqelik xalq fantaziyasi asosida umumlashgan obrazlarda o'z ifodasini topadi. Binobarin, ularda epik umumlashtirish hukmronlik qiladi. Bunday umumlashtirish xalqning ijtimoiy adolat haqidagi ideallari va orzu-umidlari bilan yo'g'rilgan. Demak dostonga epiklik, monumentallik xos bo'lib, u kompozitsion va sujet qurilishi jihatidan murakkab voqea-hodisalarni qamrab oladi. Bunday voqea va hodisalar mazmunan qahramonlik xarakteriga ega bo'lib, ular xalq idealidagi bahodir atrofiga birlashtiriladi. Favqulodda kuch-qudratga ega bo'lgan bunday yakka shaxslarda butun bir xalqning orzu-umidlari, imkoniyat va intilishlari mujassamlashgan. Xalq dostonlarining tematik hamda janr xususiyatlari uning o'ziga xos uslubi va shaklini belgilaydi, ya'ni kuy va ijro bilan chambarchas bog'liq bo'lgan yirik hajmli va keng ko'lamlı dostonlarning poetik bayoniga ko'tarinkilik, tantanavorlik, an'anaviylik, she'riy, prozaik qismlarning davomiy almashinib kelishi xosdir.

### Doston kuylash tartibi

O'zbek dostonchiligida an'anaviy doston kuylash tartibi bor. Odatda doston kuylash kech kuzdan erta bahorgacha kechqurunlari uyushtirilgan. Baxshi taklif qilingan mehmonxonaga

barcha eshituvchilar uyning devorlari bo‘ylab qator qo‘r tashlab o‘tirishgan. Baxshini eng to‘rga o‘tqizganlar. Doston kuylash odatda kichik bir ziyofatdan keyin boshlangan. Baxshi dastlab bir yoki bir necha terma kuylaydi. Xorazm baxshilari esa, terma sifatida dostonlardan parchalar, Maxtumquli she‘rlaridan, pand-nasihatlar bilan bog‘liq turli parchalarni ijro qilganlar. Xorazmdan bo‘lak joylarda esa, ko‘p hollarda „Nima aytay?“ („Doston terish“) termasi bilan o‘tirganlarga murojaat etilgan. Bunda baxshi o‘zida va eshituvchilarda jiddiy termalardagi poetik asarlarni kuylash va tinglash uchun kayfiyat hosil qiladi. So‘ng tinglovchilarning xohishi yoki baxshining tanlashiga ko‘ra biror bir doston ijro etiladi. Odatda, dostonchilik o‘tirishlari tongga ulanadi. O‘zbek xalq dostonlarining ko‘pchiligi bir kun kuylashga mo‘ljallangan. „Alpomish“ kabi katta dostonlar esa ikki va undan ortiq kecha ijro etilgan.

## Dostonlar tasnifi

O‘zbek xalq dostonlari nihoyatda ko‘p qirrali bo‘lib, uzoq asrlar davomida yaratilgan va turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda kuylanib kelingan. Bu hol ularni muayyan turlarga bo‘lib o‘rganishni taqozo etadi: Qahramonlik dostonlari, romantik dostonlar, jangnoma dostonlar, ishqiyy-romantik dostonlar, maishiy-romantik dostonlar, tarixiy dostonlar.



### *Savol va topshiriqlar*

---

1. Maktabda o‘rganilgan dostonlar qahramonlarining o‘xshash jihatlarini ta‘riflang.
2. Mavzu jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lgan dostonlarni sanang.
3. O‘zbek dostonlarining milliy xususiyatlari haqida gapiring.

### **„Avazxon“ dostoni** *Tezis-reja*

1. Go‘ro‘g‘li haqida.
2. Go‘ro‘g‘lining farzandsizligi.
3. Xunxorsho bilan Go‘ro‘g‘li o‘rtasidagi nizo.
4. Bo‘ldiriq qassobning farzand ko‘rishi.



5. Go'ro'g'lining qassob o'g'lini asrab olishi.
6. Misqol pari va Yunus pari.
7. Bola tarbiyasi. Ism qo'yish.
8. Go'ro'g'lining qirq navkari va To'la botir.
9. Go'ro'g'li huzurida salomlashish.
10. Salomlashishdan so'nggi uch kunlik tanaffus.
11. To'la botir va askarlar suhbat.
12. Go'ro'g'li va To'la botir suhbat.
13. Go'ro'g'lining bazm uyushtirishi va unda Avazxonning ishtiroki.
14. To'la botir fitnasi.
15. Avazxonning kosani sindirib qo'yishi.
16. Navbatdagi shart.
17. Avazxonning arazlab ketishi.
18. Avazxonning ovga borishi va u yerdagi bir saroyga kirib qolishi.
19. Malika Bo'tako'z bilan uchrashuv.
20. Avazxonning malikadan chilim so'rashi.
21. Avazxon bilmagan haqiqat.
22. Go'ro'g'li va Avazxon suhbat.
23. Chambil sari yo'l.
24. Avazxonning o'z singlisi Guljamol bilan uchrashuvi.
25. Ota-ona diydori.
26. Xunxorsho taklifi.
27. Avazxon taklifni rad etdi.
28. Avazxon bandi etiladi.
29. Go'ro'g'lining Avazxonni izlashi.
30. Go'ro'g'li va Xunxorsho o'rtasidagi jang.
31. Avazxonning ozod bo'lishi.

### **„Avazxon“ dostonidan parcha**

G'ayrat qilib yuragimni shishirdim,  
 Obro' toping Xunxorshohning yurtidan,  
 Avval haqqa Hasandayin bolamni,  
 Qirq yigit – beklarim sizga topshirdim.  
 Ot chopasan baring qula – tuzlarga,  
 O'q otinglar g'aqillagan g'ozlarga!  
 Yosh demanglar mening Hasanxonimni,

Yosh ham bo'lsa sardor qildim sizlarga!  
Ot choparsan badbaxt tog'ning dashtiga,  
Hamma qoyil bo'lsin mardning ishiga.  
Yosh ham bo'lsa katta qildim baringga,  
Sardor qilib jig'a sanchdim boshiga,  
Sizni haqqa, bolam sizga topshirdim.  
Terarman ko'klamda tog'dan lolamni,  
Chambilga opkeldim qoshi qalamni.  
Qo'rchalashib o'rtaga olib turinglar,  
Bedimog' qilmanglar Hasan bolamni!  
Sizni haqqa, bolam sizga topshirdim.  
Hammang o'ynab-kulgin mana dunyoda  
Tovus degan qush taralar qiyoda.  
Bekbachchangni xushvaqt qilib qirq yigit,  
Mendan xizmat qiling sari ziyoda!  
Yot desa yotinglar, yur desa yuring,  
To'xta desa baring bulk etmay turing!  
Nima desa aytganginasin qilib,  
Hammang ertan bilan salomlar bering!  
Podshohim deb mendan ziyoda ko'ring!  
Chop desa chopinglar, chiq desa chiqing,  
Salom berib hammang qaddingni buking!  
Xizmat qilib, podshovachchaga yoqing,  
In'om-ehsonini oling qirq yigit!  
Urushsa, koyisa, janjal qilmanglar,  
Hech biroving yomon narsa demanglar!  
Bol Avazni Xunxorda opkelmasang,  
Tiriklay qaytib Chambilga kelmanglar!  
Uzab ketib meni qilmang intizor!  
Yosh bachchadir yovga oralab ketsa,  
Sahmon bilan Xoldor mahram polvonim,  
Girdin olib, bo'nglar zinhor boxabar!  
Egnida bordi farangi,  
Qo'lida nayza zaranggi.  
Ot qo'yadi beklar cho'lda,  
Kunduz kuni, goh qorong'i.  
Biz yuzli bo'lsak deyishib,  
Borib janjal qilsak deyishib,  
To'p-to'p bo'lib ot chopadi,  
Avazni opkelsak deyishib,

Olib qaytsak Avazni deb  
Satta yo'lbarslar jo'nadi.  
Ostida bedov erkalab,  
Odamlar qo'rqib qolg'alab.  
Go'ro'g'libekning oq tug'i,  
Ahmad ot chopsa so'lqillab,  
Tug' boshi Ahmad jo'nadi:  
Qirag'ay Shodmon jo'nadi.  
Kiyim-kechak chang bo'p ketdi,  
Tag'i qirq besh kun yo'l tortdi.  
Oy Misqol Eram bog'iga,  
Tomosha aylang tog' zog'iga!  
Qirq besh kun beklar yo'l yurib,  
Bordi Badbaxtning tog'iga.  
Necha qirdan, cho'ldan oshdi,  
Ko'rganlarning aqli shoshdi.  
Borib Badbaxtning tog'iga,  
Hasanxon namozgar tushdi.

Ana endi beklar tushib, huzurlanib, otlarini qashlab, shipirib, tong otguncha beklar tog'da yotdi. Tog'da buzruk bo'lar ekan. Tong otguncha buzruk tunab, beklar yotdi. Ana endi erta bilan tong otdi. Shunday heklar tog'ning boshiga qaradi. Shu, qarasa, tog'ning boshini yashil ola tuman cholib yotir. Buni ko'rib qirq yigit bildi: bu safar xatarli. Beklar bo'shshib ketdi, badaniga varaja kirib. Tong otib, yorug' bo'lib, namozdan forig' bo'lib, gohi yerda otini minib, gohi yerda yetaklab, kun yoyila-kun yoyila Badbaxt tog'ning boshiga chiqib oldi beklar. Bu Xunxorni ko'rgan yo'q ekan. Shunday qarasa, necha butxonasi, boshidagi angaratlari, tilladan bo'lgan qo'taslari, katta qo'hg'iroqlari bulutga [tegib], so'zlashib turibdi. Buni ko'rib aytdi: „Bu joy hinda shahariday shahar ekan. Qirq yigitlar darvozadan kirsak [xunxorliklar] darvozani qo'shirsak, har tarafdin sarboz qamsab kelsa, qilichning ostiga olsa, ichakka tiqqan go'shtday mayday-mayda qilsa... Avazxonsiz kun ko'rolmaymizmi? Yuring Chambilga ketamiz, dedi. Ana endi To'jak „botir“dan eshitmak darkor so'zni. Bu xunxorliklardan qo'rqib, „men cho'rtta navkar bo'lmayman“ deb, joni ko'ziga ko'rinib, Hasanxonga ishqibozligi esidan chiqib, bir so'z aytyapti, kallaginasini sholg'omday dum-dumaloq bo'lib:

O'zim sipohi bo'lmayman,  
Navkarligingni qilmayman.  
Ketaman Chambil eliga.  
Boxudo navkar bo'lmayman.  
Bergan em puling olmayman,  
Sipohilikdan men kechdim.  
Podshoga xizmat qilmayman.  
Saman otni jilayinmi,  
Men taltayib qolayinmi?  
Men sipohi bo'laman deb,  
Kundan burun o'layinmi?  
Ollo ursine qornimdan,  
Cho'rta sipohi bo'lmayman.  
Botmon tariqni olmayman  
(Xunxor) bilan janjal qilib,  
Qilich ostida o'lmayman.  
Hasanjon ol, ma pulingni,  
Cho'rta men navkar bo'lmayman.  
Nangi nomus, orim qoldi,  
Savdo, xaridorim qoldi.  
Xunxor elda o'layinmi,  
Uyimda so'lqillab turgan,  
Vatanimda, chiqqanimda,  
„Tez kel“, deb bilqillab qolgan,  
Oldiga kirib qolganda,  
To'ram deb jilvalar qilgan,  
Dostorni qoziqqa ilgan,  
Choponning yengidan ushlab,  
Chechib olib, dorga slogan,  
Qo'ynimda buralib yotib,  
Berroq yot, deb bag'riga olgan,  
Ishginasin yaxshi qilgan,  
Hamma gapni o'zi bilgan,  
Taxmalachi yorim qoldi.  
Qilig'i bejoyin yaxshi,  
Uni ko'rgan bo'lar baxshi;  
Ko'kragin qimirlatgan,  
Badanlarini tebratgan,  
Meni qo'yniga olib yotgan,

Issiqqina qilib bolqitgan,  
Toychalari silk-silk etgan,  
Sildiragan yorim qoldi.  
Choʻrtta sipohi boʻlmayman;  
Navkarligingni qilmayman.



### *Savol va topshiriqlar*

---

1. Avazxon necha yoshligida asrab olinadi?
2. Avazxonning singlisining ismi kim?
3. „Alpomish“ dostoni bilan „Avazxon dostoni“ oʻrtasidagi oʻxshash tomonlarni izohlang.
4. Xalq ogʻzaki ijodi namunalaridagi qahramonlarning prototiplari boʻlishi mumkinmi?
5. «Avazxon» dostonidan parcha yod oling.
6. Doston qahramonlarining ijobiy fazilatlarini daftaringizga qisqa qilib yozib qoʻying.



---

## AFSONALAR

### „Guldursun“ afsonasi

#### *Tezis reja*

1. Guliston shahri va xalqi haqida.
2. Gulistonga qalmoqlarning bostirib kelishi.
3. Ayovsiz jang.
4. Gulistonning qamal qilinishi.
5. Oziq-ovqatlarning tugashi.
6. Hiyla.
7. Qalmoqlar o'ljasi.
8. Shaharni tashlab ketmoqchi bo'lganligi.
9. Shoh qizi Guldursunning sotqinligi.
10. Guliston shahrining bosib olinishi.
11. Shahzodaning Guldursunga aytganlari.
12. Guldursunning o'ldirilishi.

### „Qaytar dunyo“ afsonasi

#### *Tezis-reja*

1. Qari otaning o'ylari.
2. Kelinning qariya haqidagi fikrlari.
3. O'g'ilining ishonuvchanligi.
4. Otani adashtirib kelishga kelishuv.
5. O'g'ilning otasini aldashi.
6. Tog'dagi uzoq yo'l.
7. Qariya kulgisi.
8. O'g'ilning hayronligi.
9. Otaning qaytar dunyo haqidagi hikoyasi.
10. O'g'ilning afsus chekishi.
11. Otasini qaytarib olib ketishi.



#### *Savol va topshiriqlar*

1. „Shiroq“ va „Guldursun“ afsonalarini taqqoslang. Bosh qahramonlar xarakteridagi qarama-qarshi jihatlarini sanab bering.
2. „Qaytar dunyo“ afsonasining yana qanday variantlarini bilasiz?
3. „Qaytar dunyo“ afsonasining qo'llanmada berilgan varianti bo'yicha sahna ko'rinishi tayyorlang.

## **O'rxun-Enasoy obidalarining adabiy-badiiy qimmatini. Tunyuquq va Kultegin bitiklari**

1. Mazkur obidalar ilk marotaba O'rxun hamda Enasoy daryolarining havzalaridan topilgan.

2. Yodgorliklarning topilishi va o'rganilishi XVIII asrdan boshlangan.

3. Yodgorliklarni topish, xalqqa taqdim etish va o'qiy olishda olimlardan Remezov; Iogann Strallenberg, Messershmidt; 1893-yil: Vilgelm Tomson, V. Radlovlarning xizmati.

4. Yodgorliklarning „tosh bitiklar“ deb nomlanish sabablari.

5. Yodgorliklar turkiy xalqlarning eng qadimgi dunyo qavmlaridan biri ekanligini tasdiqlaydi va ana shu tarixni badiiy tarzda hikoya qiladi. Unda asosan VI—VIII asrga oid voqealar aks etgan.

6. Turkiy xalqlar O'rta Osiyodan boshlab Dunaygacha bo'lgan joylarni idora qilishgan.

7. Dunyo xaritasida Turk xoqonligi degan mamlakatning yuzaga kelishi.

8. Turkiylar yashaydigan joylarga qiziqishning katta bo'lganligi sabablari.

9. „Tunyuquq“ bitiktoshining ikkita ustunga yozilganligi.

10. „Kultegin“ bitiktoshi.

11. „Bilga xoqon“ bitigi. U 80 satrdan iborat.

12. Runiy yozuvdagi yodgorliklar. Ularning toshga emas, qog'ozga va turli buyumlarga yozilgan namunalarining ham mavjudligi. Topilgan joylari: Talas vodiysi va Sharqiy Turkistondagi Dunxua manzillari.

13. Tunyuquq—shaxs nomi. U Eltarish xoqonning maslahatchisi va sarkardasidir. U o'zi haqida, turkiylarning o'z erkini qo'ldan berib qo'yish sabablari haqida, mustamlaka azobi haqida so'z yuritadi.

14. Tunyuquq buyuk vatanparvar shaxs timsolidir. U — vatan va yurt taqdiri posboni.

15. Tunyuquq obidasi vatan haqidagi madhiyadir.


16. Tunyuquq — kompozitsion jihatdan yetuk asar.



## Savol va topshiriqlar

---

1. Toshga bitilgan bitiklarning O'rxun-Enasoy obidalari nomini olish sabablari nimada?
2. O'rxun-Enasoy obidalarining topilgan yillari haqida gapiring.
3. Ularni o'rganish bilan shug'ullangan olimlarning nomlarini bilasizmi?
4. Yodgorliklar qanday mavzularda yaratilgan?
5. Tunyuquq qanday obraz? Tunyuquq siymosiga tavsif bering.
6. Darslikda mazkur mavzu bo'yicha berilgan matnni o'rganib chiqishga harakat qiling.
7. Tunyuquqning kuyunchakligi, o'z o'y-fikrlarini boshqalarga xavotir bilan yetkaza olishi matnda qanday tasvirlangan?
8. Tunyuquqning o'z vatani, qo'shini, xalqi bilan faxrlanishi, iftixori matnda qaysi so'zlar bilan tasvirlangan?
9. „Tunyuquq—buyuk vatanparvar shaxs“ mavzusida uy inshosi yozing.
10. Yodgorliklardagi xalq mustaqilligi, ona yurt daxlsizligi, shaxs va erk g'oyasi ifodalangan orinlarni belgilang.
11. Tunyuquqning buyuk shaxsga xos xislatlarini ko'rsatuvchi matn parchalarini belgilang.





---

## O'RTA OSIYONING QOMUSIY OLIMLARI

*„Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Xoja Ahmad Yassaviy, al-Xorazmiy, Beruniy, ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Bobur va boshqa ko'plab buyuk ajdodlarimiz milliy madaniyatimizni rivojlantirishga ulkan hissa qo'shdilar, xalqimizning milliy iftixori bo'lib qoldilar. Ularning nomlari, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan buyuk hissalarini hozirgi kunda butun dunyoga ma'lum“.*

*I. A. Karimov*

### *Al-Xorazmiy* (780—850)

---

Al-Xorazmiyning asl ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso bo'lib, 780-yilda Xivada tug'ilgan. Xorazmiy dunyoga mashhur matematik va astronom olim sifatida tanilgan. Xorazmiyning nomini tarixda qoldirgan buyuk asari „Al-jabr val-muqobala“ risolasidir. Bu asar keyinchalik matematika fanining alohida sohasi bo'lgan algebra faniga asos bo'lgan. Al-Xorazmiyning ilm sohasidagi buyuk xizmatlari bois uning nomi Yevropa mamlakatlarida ham mashhur bo'lgan.

Hozirgi zamon hisoblash texnikasida keng qo'llanayotgan „algoritm“ atamasi ham olim nomidan kelib chiqqan. U matematikaning nazariy masalalarini o'rganish bilan cheklanmay, ularning amaliyotga tatbiq qilinish yo'llarini ham ko'rsatib bergan. Xorazmiyning „Surat ul-ard“ („Yerning siyrati“) asari geografiya fani sohasidagi ulkan kashfiyot bo'ldi. Olim tuzgan „Astronomik jadvallar“ esa XII asrda arab tilidan lotin tiliga tarjima qilingan va Yevropa mamlakatlarida mashhur bo'lgan. Uning yer kurrasi kattaligini aniqlash borasidagi xizmatlari ham tahsinga loyiqdir. Shuningdek, Xorazmiyning „Quyosh soatlari to'g'risida“, „Tarix risolasi“, „Musiqqa risolasi“ singari asarlar yozgani ham ma'lum.

Al-Xorazmiy Ma'mun akademiyasining ilk tashkilotchilaridan va faol a'zolaridan biri edi. U 850 - yilda Bag'dod shahrida vafot etgan. Muhammad Xorazmiyning asosiy asarlari arab tilidan atoqli olim Ashraf Ahmedov tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan.

---

*Abu Rayhon Beruniy*  
(973—1051)

---

Oʻrta asr mutafakkirlari orasida Abu Rayhon Beruniyning alohida oʻrni bor. Xorazmlik bu alloma afsonalarga koʻra Navroʻz (21-mart) va Mehrjon (21-sentabr) bayramlaridan boshqa har kuni ilm bilan mashgʻul boʻlgan, juda koʻp tillarni bilgan.

Uning „Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar“ asari taqvim va yil hisobi, shuningdek, soʻgʻdiylar, qadimgi xorazmliklar, forslar, yunonlar, yahudiylar, xristian va musulmonlarning qadimiy bayramlari, urf-odatlarini toʻgʻrisida qimmatli maʼlumotlarni jamlagan. Shunga koʻra u Oʻrta Osiyo va butun Sharq xalqlari uchun muhim tarixiy manba hisoblanadi.

Mahmud Gʻaznaviy Xorazmni zabt etgach, Beruniyni Gʻaznaga olib ketadi. U Mahmudning harbiy yurishlarida ishtirok etadi. Hindiston tarixiga oid yirik asar yozadi.

Beruniyning „Hindiston“ nomli mashhur asari 1030- yilda yozilgan boʻlib, bu shoh asar Gʻarb va Sharq olimlari, shu jumladan, hozirgi zamon hind olimlari tomonidan yuksak baholangan. Mahmud Gʻaznaviyning Hindistonga qilgan yurishlaridan birida hamroh boʻlgan Beruniy u yerda sanskrit tilini oʻrgangan.

Olimning geografiya, minerologiya, astronomiya, kimyo va boshqa koʻplab fan sohalaridagi kashfiyotlari ham dunyo ilm-fani ravnaqiga bebaho hissa boʻlib qoʻshilgan.

---

---

## *Abu Nasr Forobiy*

(873—950)

---

Qomusiy olimlarimiz orasida Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug' Tarxon Forobiyning nomi alohida hurmat va ehtiromga sazovor. U 873- yilda Forobda tug'ilib, 950- yilda Damashqda vafot etgan.

Dunyo ilm ahli yunon olimi Aristotel(Arastu)ni birinchi muallim deb biladi, Forobiyni esa „Muallim us-soniy“, ya'ni „Ikkinchi muallim“ deb ataydi. Bunday sharaflı nomga u o'z zamonasi ilmlarining barcha sohasini mukammal bilganligi va bu ilmlar rivojiga qo'shgan katta hissasi, ayniqsa, yunon falsafasini sharhlab, dunyoga keng tanitganligi uchun sazovor bo'lgan. Forobiy „Arastu qonunlarining mohiyati haqida“ asarida davlat va huquq haqidagi qarashlarini keng bayon qiladi.

Boshlang'ich ma'lumotni ona yurtida olgach, u Toshkent, Buxoro, Samarqandda o'qiydi, bilimini yanada oshirish uchun arab xalifaligining yirik madaniy markazlaridan biri bo'lgan Bag'dodga boradi. Yo'l-yo'lakay Eronning Isfahon, Hamadon, Ray shaharlarida bo'ladi. Forobiy 70 dan ortiq tilni bilgan. U „Fozil shahar aholisining fikrlari“ asarida turli ijtimoiy tuzumdagi davlatlar haqida fikr yuritadi.

Forobiy 160 dan ortiq asar muallifidir. U yunon olimlari Platon, Aristotel, Evklid, Ptolomey, Porfiriy va boshqalarning asarlariga sharhlar yozgan. Bu sharhlar O'rta Osiyo va jahon olimlarining dunyoqarashini shakllantirishga, ularning Aristotelning materialistik dunyoqarashi bilan oshno bo'lishlariga yaqindan yordam bergan.

Hatto ibn Sino Aristotelning „Metafizika“ kitobini qirq marta o'qib chiqadi. Asar unga deyarli yod bo'lib ketadi. Ammo asarning asl ma'nosiga baribir to'la yetolmaydi. Ibn Sinoning bir kitobdor do'sti bo'lib, u har qanday yangi kitobdan olimni xabardor qilib turar edi. Bir kuni do'kondor unga yangi bir kitob ko'rsatadi. Bu to'liq tushuna olmagan o'sha kitob haqida ekanligini bilib, sotib olmaydi. Bu haqda ibn Sinoning o'zi shunday yozadi: „Bu ilmni bilishning foydasi yo'q ekan, degan xayolda uning ko'rsatishi

menga malol kelib, kitobni olishni rad qildim. Shunda dallol bu kitobning egasi pulga muhtoj, dedi. Men uni uch dirhamga sotib oldim. Kitob „Metafizika“ asarining maqsadlari haqida Forobiyning risolasi ekan. Uygay qaytdim-u, darrov uni o‘qishga tushdim. „Metafizika“ dilimga yod bo‘lib qolganligi sababli o‘sha zahotiy oq bu kitobning maqsadlari menga ochildi. Bundan juda xursand bo‘lib ketdim, ertasigayoq kambag‘allarga ancha narsa sadaqa qildim“.

Forobiy falsafa, arifmetika, geometriya, astronomiya, musiqa, tabiat, fizika, kimyo, meditsina, biologiya va boshqa fanlar sohasida katta shuhrat qozongan.

Uning axloq (etika), pedagogikaga oid asarlari ham e‘tirof etilgan. Shuningdek, ilmning tilshunoslik, she‘riyat, notiqlik san‘ati, xattotlikka oid asarlari keng tarqalgan.

Forobiyning tabiiy-ilmiy fanlar haqidagi qarashlari „Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi“ asarida atroflicha berilgan. Unda o‘rta asrlarda ma‘lum bo‘lgan 30 ga yaqin fanning ta‘rifi, ahamiyati ko‘rsatib berilgan.

„Yulduzlar haqidagi qoidalarda nima to‘g‘ri va nima noto‘g‘riligi to‘g‘risida“ risolasida osmon jismlari bilan yerdagi hodisalar o‘rtasidagi tabiiy aloqalarni, xususan, bulutlar va yomg‘irlar paydo bo‘lishi, quyosh issiqligi ta‘sirida bug‘lanishga bog‘liqligini, Oy tutilishiga Yerning Quyosh bilan Oy orasiga tushib qolishi sabab ekanligini ko‘rsatib beradi. Bu bilan u osmon jismlariga qarab foj ochuvchilar—astrologlarni fosh etdi.

Forobiyning ijtimoiy-siyosiy, axloqiy qarashlari ham alohida ilmiy ahamiyatga ega. U o‘rta asrlar sharoitida birinchi bo‘lib jamiyatning kelib chiqishi, maqsad va vazifalari haqida kuchli ta‘limot yaratdi.

„Baxt-saodatga erishuv haqida risola“ asarida jamiyatning kelib chiqishi, davlat va uni boshqarish, ta‘lim-tarbiya, axloq, ma‘rifat, diniy e‘tiqod, urush va tinchlik, mehnat, insoniy qobiliyat va boshqa mavzularda bahs yuritadi.



---

*Abu Ali ibn Sino*  
(980—1037)

---

Abu Ali ibn Sino ham buyuk qomusiy olimdir. Uning falsafa meditsina, astronomiya, zoologiya, botanika, geologiya, psixologiya, musiqa, axloq, mantiq, tilshunoslik, adabiyotshunoslikka oid bir necha asarlari mavjud. U badiiy ijod bilan ham shug'ullangan. Olimning to'liq ismi Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn al-Hasan ibn Ali ibn Sinodir. U hijriy 370 -(milodiy 980-) yilda Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'ilgan.

Ibn Sino o'tkir qobiliyat egasi edi. U atigi bir yil ichida „Qur'on“ ni qiroat bilan o'qib, yod oladi.

Ibn Sinoning shuhrati ko'proq tabobat ilmi bilan bog'liq. Ayniqsa, Buxoro amiri Nuh ibn Mansurni davolashda ishtirok etishi tabibning dovrug'ini oshirib yuboradi. Bu paytda u 16—17 yoshlar chamasida bo'lgan. Buning evaziga u saroy kutubxonasidan foydalanish huquqini qo'lga kiritadi. Ibn Sino Xorazm, Jurjon, Ray, Hamadon, Isfahonda ham yashab ijod etgan.

Ibn Sinoning eng yirik tibbiy asari „Al-Qonun fittib“ („Tib qonunlari“) kitobi bo'lib, unda olim ko'p yillar davomida olib borgan ilmiy-amaliy ishlarini umumlashtirgan.

„Tib qonunlari“ besh kitob, 14 jilddan iborat.

Ibn Sino tabiiy va aniq fanlar bo'yicha ham ko'plab asarlar yaratgan. Birgina astronomiyaga oid o'ndan ortiq asari ma'lum.

Musiqa bo'yicha uning beshta asari bor. „Javome ilm al-musiqiy“ („Musiqa bilimiga oid to'plam“) asari ularning orasida eng yirigidir.

Ibn Sino iste'dodli adib ham edi. Uning doston, qasida, g'azal, ruboiy, fardlari bizgacha yetib kelgan. Ularning asosiy qismi arab tilida bo'lib, bir qismi esa fors tilida yozilgan.

Ibn Sino qissalarining ko'pi ramziy—majoziy ma'noga ega.

„Yusuf qissasi“ „Qur'on“ asosida yaratilgan bo'lib, shu mavzudagi birinchi asardir.

„Risolat at-tayr“ („Qush risolasi“) ramziy-majoziy asar bo'lib, arab tilida yozilgan. Keyinchalik u boshqa tillarga tarjima qilingan. Unda tuzoqqa tushib qolgan qushlarning ozod bo'lish yo'lidagi harakatlari tasvirlab berilgan.

Ibn Sinoning bir qator tibbiy asarlari she'riy shaklda yozilganligini yuqorida aytib o'tdik. Uning sof she'riy asarlari ham anchagina. Ibn Sino she'riyati asosini falsafiy teranlik, keng mushohada, olam hodisalariga tiyrak aql bilan qarash kabi xususiyatlar tashkil etadi:

Umring ko'pi bilan bir-ikki nafas,  
Nafas esa kichik bir shamol-u sas.  
Shamolga tayanmish umring binosi,  
Mustahkam imorat yelga tayanmas.

(*Sh. Shomuhamedov tarjimasi*)

Inson umrining qisqaligi, shunga ko'ra uni g'animat bilish she'rdagi asosiy fikrdir. Ana shu qisqa umr binosini shamol (yel) ustiga qurmaslik kerak, demakki umrni behuda o'tkazmaslik lozim.

Ibn Sino she'rlarida ilm-ma'rifatni targ'ib etish, dunyo sirlarini bilishga intilish, axloqiy xislatlarni yuksaltirib borish kabi fikrlar asosiy o'rin tutadi. Ibn Sinoning adabiyot ravnaqiga qo'shgan hissasi faqat hadiyy ijod bilan cheklanmaydi. U she'r ilmiga doir bir qator ilmiy asarlar ham yaratgan. Ayniqsa, „Fann ash-she'r“ („She'r san'ati“) kitobi muhimdir. Unda yunon she'riyati turlari, uning shakllari haqida fikr yuritilgan.

She'riyatning nazariy masalalari uning „Musiqqa ilmi haqida katta to'plam“ asarida ham tadqiq etilgan.

„She'r,—deydi ibn Sino,— obrazli so'zlardan iborat bo'lib, ritmli, bir-biriga muvofiq iboralardan tarkib topgan hamda misralari bir-biriga teng, vaznlari qaytarilgan, oxirgi tovushlari bir-biriga o'xshash bo'lib kelgan satrlardan tuziladi“.

Ibn Sinoning buyuk xizmatlari behuda ketmadi. Butun jahon xalqlari olimning nomini katta hurmat bilan tilga oladi. Uning asarlari ko'plab xalqlar tillariga tarjima qilingan.



### *Savol va topshiriqlar*

---

1. „O'рта Osiyoning qomusiy olimlari“ mavzusidagi suhbatga tayyorgarlik ko'ring.
2. „Ma'naviyat yulduzlari“ kitobidan foydalanib, yuqorida nomlari zikr etilgan allomalarning hayoti va ijodiga doir o'ziga xos ma'lumotlarni aniqlang.
3. Mavzu bo'yicha biron allomaning ijodiga doir ma'ruza tayyorlashga harakat qiling.
4. Dunyo sahnasida o'zbek yoki turkiylar nomini baland ko'targan, ma'lum-u mashhur qilgan allomalar haqida yana qanday ma'lumotlarga egasiz?

## Yusuf Xos Hojib

*Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodiy faoliyati yuzasidan o'rt  
umumta'lim dasturi bo'yicha mustahkamlovchi savol va  
topshiriqlar*

1. „Qutadg‘u bilig“ asarining lug‘aviy ma‘nosini izohlang.
2. „Qutadg‘u bilig“ asarining bizgacha yetib kelgan nusxalari haqida nimalarni bilasiz?
3. „Qutadg‘u bilig“ asarining hajmi haqida nimalarni bilasiz?
4. „Qutadg‘u bilig“ asarining qahramonlari haqidagi tasavvurlaringizni gapiring.

*Juda aziz axir tiriklik kuni,  
Bekor ishga sarflab bo'lmagay uni.*

*Yusuf Xos Hojib*

### Tezis-reja

1. Yusuf Xos Hojib XI asrning 20- yillarda Bolosog‘unda tug‘ilgan.
2. „Qutadg‘u bilig“ — „Saodatga eltuvchi bilim“. (1069—1070- yillar).
3. „Qutadg‘u bilig“ — turkiy tildagi yozma adabiyotning ilk yirik asari. Donishmandlikning birinchi to‘plami.
4. „Qutadg‘u bilig“: Bolosog‘un-Qashqar-Qoraxoniylar hukmdori Tavg‘ach Bug‘raxon—„muqarram, eshik og‘osi“.
5. „Qutadg‘u bilig“ dostonini yaratishda muallifning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi.
6. „Qutadg‘u bilig“—„Hukmdorlar odobi“, „Mamlakatning tartib-usuli“, „Amirlar ziynati“, „Shohnomayi turkiy“, „Hukmdorlar nasihatnomasi“.
7. „Qutadg‘u bilig“ asarining qo‘lyozma nusxalari — „Vena“ (yoki „Hirot“), „Qohira“, „Namangan“.
8. „Vena“ yoki „Hirot“ nusxasi 1439- yilda Hirotida ko‘chirilgan. Uni topgan olim Vena Qirollik kutubxonasiga topshiradi. XIX asrning 20-yillarida topiladi, Istanbul. Uyg‘ur yozuvida ko‘chirilgan.

9. „Qohira“ nusxasi 1896- yilda Qohirada topildi.XV asrda arab yozuvida ko‘chirilgan.

10. „Namangan“ nusxasi 1913- yilda Namangandan topilgan. Sharqshunos olim A.Z.Validov. Arab yozuvida ko‘chirilgan.

11. „Qutadg‘u bilig“ 6500 baytga — 13000 misraga yaqin, 73 bob — fasldan iborat.

12. Suluv yuzni ko‘rmoqlik ko‘zga totlig‘,

Ko‘ngil orzu qilganin ko‘rsa ko‘ngilga totlig‘.

Ko‘z qancha qarasa ham, pardasi (chegarasi) bor,

Lekin qalb uchun chegara yo‘q.

13. Kuntug‘di degan odil podshoh bor edi.Oyto‘ldi degan oqil bir kishi uning xizmatiga kirish istagi bilan poytaxtga keladi,qiyinchiliklar ko‘radi va do‘stlar orttiradi. Ko‘samish (Istanilgan) ismli do‘stiga poytaxtga kelish sabablarini aytadi. U do‘stiga madad beradi, Kuntug‘dining Xos Hojibi bilan tanishtiradi. Oyto‘ldi suhbatda bo‘lib, Kuntug‘di saroyiga xizmatga olinadi. Oyto‘ldining xizmat vazifasi kundan-kunga ortadi va u vazir etib tayinlanadi. Saroyda uzoq vaqt xizmat qiladi, podshoh uning xizmatidan mamnun bo‘ladi. Biroq oilasi va uyini sog‘inib, podshohdan ruxsat olib, o‘z yurtiga qaytadi va o‘sha yerda vafot etadi.

Uning O‘gdulmish ismli o‘g‘li bo‘ladi. U ota so‘ziga amal qilib, saroyga kelib, xizmatga kiradi. Ota izidan borib, aqlliligi va donoligi bilan hukmdorni mamnun etadi. Kuntug‘di bilan O‘gdulmish orasida turli masalalarga doir suhbat va munozaralar bo‘ladi. Podshoh oqil va donishmand O‘zg‘urmishni saroyga taklif qiladi.U esa tarkidunyo qilgan ekan. Bir necha xat-xabar va oqil O‘gdulmish bilan bo‘lgan suhbatdan keyin Kuntug‘dining taklifini qabul qilib, saroyga keldi. O‘zg‘urmish bilan Kuntug‘di davlat idora ishlari, axloq-odob va boshqa masalalar bo‘yicha munozaralar qilishadi. O‘zg‘urmish Kuntug‘diga ko‘p o‘git va nasihatlar beradi.

14. Kuntug‘di—elik (hukmdor) — Adolat,Oyto‘ldi—vazir—Davlat, O‘gdulmish—vazirning o‘g‘li(keyinchalik vazir)—Aql, O‘zg‘urmish—zohid—ofiyat (qanoat).

15. „Bahor madhi“ — turkiy adabiyotdagi ilk qasida bo‘lib, u 59 baytdan iborat.



## Tilning fazilati

### *Tilning fazilati, foyda-zararlari haqida soʻzlaydi*

Uquvga, bilimga tilmoch — bu til,  
Kishini roʻshnolikka chiqargan ravon til deb bilgin.

Kishini til eʼzozlaydi, kishi (u tufayli) baxtga erishadi,  
Kishini til qadsiz qiladi, er boshini yoradi.

Til hovlida [yaʼni qafasda] yotgan arslon kabidir,  
Ey, qafasdagi (makkor) vahshiy boshingni yeydi.

Tili tufayli ozor topgan kishi nima deydi, eshit,  
Bu soʻzga amal qilgin, oʻz foydangga ishlat:

Til meni juda koʻp kulfatlarga soladi.  
(U) boshimni kesmasin, (men) tilimni kesayin.

Soʻzingga ehtiyot boʻl, boshing ketmasin,  
Tilingga ehtiyot boʻl, tishing sinmasin.

Xalqning tili yomon (doim) seni soʻzlagani-soʻzlagan,  
Kishilar feʼli hasadli, u sening etingni yeydi.

Bilimli [yaʼni xudo] tilga pishiq bilim bergan,  
Ey, til egasi, boshingni asragin.

Sening oʻzing esonlik tilasang,  
Tilingdan yarogʻsiz soʻzingni chiqarma.

Bilib soʻzlasa, soʻz donolik sanaladi,  
Nodonning soʻzi oʻz boshini yeydi.

Koʻp soʻzda ortiq foyda koʻrmadim,  
Yana (koʻp) soʻzlashdan naf topmadim.

Soʻzni koʻp soʻzlama, bir oz ozroq soʻzla,  
Tuman, ming soʻz tugunini (yaʼni jumbogʻini) shu bir soʻzda yech.

Kishi soʻz tufayli koʻtariladi, malik boʻladi,  
Koʻp soʻz boshni yerga egadi.

Ortiqcha soʻzlasa, tilni ezma (landi) deyiladi,  
Soʻzlamasa-chi, (uni) yana gung-lol deyiladi.

Garchi shunday ekan, muomalani ishga sol,  
Muomala ishga solinsa, kishini yuqorilashtiradi.

Til (ing) ni nihoyatda ehtiyot qilgin, bosh saqlanadi,  
Soʻz (ing) ni qisqa qilgin, yosh(ing) uzaytiriladi.

Tilning nafi talaydir, ortiqcha hovliqma,  
Goho til maqtaladi, goho soʻkiladi.

Garchi shunday ekan, soʻzni bilib soʻzla,  
Soʻzing koʻr uchun koʻz boʻlsin, (u) koʻra bilsin.

Bilimsiz shubhasiz aniq koʻrdir,  
Kel, ey nodon, bilimdan hissa ol.

Tugʻilgan oʻladi, koʻr, nom-nishonsiz qoladi,  
Soʻzingni ezgu soʻzla, oʻzing abad oʻlmaysan.

Kishi oʻzi ikki narsa tufayli qarimaydi;  
Biri—ezgu xulqi, biri—ezgu soʻzi.

Inson tugʻiladi, oʻladi, koʻrgin, uning soʻzi qoladi,  
Inson oʻzi oʻladi, oti (mangu) qoladi, nazar sol.

Oʻzing oʻlmas (yaʼni mangu) tiriklik istasang,  
Feʼlingni va soʻzingni ezgu tut, ey dono.

Tilni ancha madh etdim va soʻkdim (yaʼni yomonladim),  
Tilagim senga soʻzlagan gaplar (ni) (aytish) edi.

Hamma soʻzni yigʻsa, aql sigʻdirolmaydi,  
Kerak soʻzni soʻzlaydi, kishi (uni) yashirmaydi.

Soʻzimni men bahodir oʻgʻlimga soʻzladim,  
Oʻgʻlim, mendan tubandagi miyani (yaʼni aqlni) tingla.

Men soʻzimni senga soʻzladim, ey oʻgʻil,  
Bu pandni oʻzim senga berdim, ey oʻgʻil.

Mendan senga kumush, oltin qolsa,  
U (lar) ni sen bu soʻzga teng tutmagin.



## Savol va topshiriqlar

---

1. Yusuf Xos Hojib tilni arslonga o'xshatadi. Sabablarini nimada deb o'ylaysiz?
2. Shoirning „Bilim – ko'z nuri“ ifodasidan qanday ma'no angladingiz?
3. Shoirning turkcha so'zni tog' kiyigiga o'xshatish sabablarini qanday izohlaysiz?
4. Asarda xalq o'g'zaki ijodining ta'siri qaysi qirralarda yorqinroq ko'rinadi?
5. Muallif asar qahramonlarini nomlashda nimalarni nazarda tutgan?
6. Asarda odil shoh g'oyasi qanday namoyon bo'lgan?
7. Doston kompozitsiyasi va sujetida qanday o'ziga xosliklar mavjud?
8. Asarda komil inson qanday tasavvur etiladi?
9. „Yigitlikka achinib...“ qasidasida tilga olingan ijtimoiy-falsafiy g'oyalar haqida gapiring.
10. Shoir to'rtliklarining mavzu doirasi qanday.
11. To'rtliklarning ruboiylar bilan yaqinlik va farqli jihatlarini gapiring.
12. Yusuf Xos Hojibning badiiy mahorati haqida nimalar deya olasiz?
13. „Yusuf Xos Hojib ijodida komil inson talqini“ mavzusidagi inshoga tayyorgarlik ko'ring.



## *Imom Muhammad Ismoil al-Buxoriy*

(810—870)

### *Tezis-reja*

1. Muhaddislar hadislarini to'plab, ularning haqiqiyliklarini aniqlash bilan shug'ullangan olimlardir.

2. Muhaddislar orasida olti kishining dovrug'i olamni tutgan. Ulardan Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy, Abu Muhammad Abdulloh Muhammad ibn Yazid ibn Mo'jja kabilar o'rtaosiyolik.

3. Imom Buxoriy 810- yilda Buxoroda tug'ilgan.

4. Imom Buxoriy 18 yoshga kirganda bir qator ilmiy asarlar muallifi edi.

5. Imom Buxoriyning ustozlari haqida. Muhammad ibn Sallom al-Poykandiy, Abdulloh ibn Muhammad al-Ju'fiy, Shayx Doxiliy.

6. 16 yoshida akasi Ahmad va onasi bilan haj safari.

7. Balx, Kufa, Bog'dod, Xums, Damashq, Misr, Makka, Madina singari shaharlardagi hadishshunos olimlar huzurida dars olishi.

8. Imom Buxoriy hayotining so'nggi kunlarini Samarqandning Xartang qishlog'ida o'tkazadi va 870- yil 1- sentabrda vafot etadi.

9. Imom Buxoriyning asarlari:

„Al-adab al-mufrad“ („Adab durdonalari“), „Kitob asmo as-sahoba“ („Sahobalarning ismlari haqida kitob“), „Kitob af'ol il-ibod“ („Ibodot qiluvchilarning fe'l-atvori haqida kitob“), „Tarixi Buxoro“, „Kitob ul -favoid“ („Foydalar haqida kitob“), „Tarix us-siqot vaz-zuafu min ruvot il-hadis“ („Hadis roviylari qisqargan va zaif hadislar tarixi“). „Qazoyi as-sahoba vattob'in“ („Sahobalar va tobe'inlarning xulosalari“), „Tarixi kabir“ („Katta tarix“).

### **Hadislar—ma'naviy bilimlar qomusi**

1. „Hadis“ (arabcha) so'zining ma'nolari:

a) Yangi, yangi narsa, yangi ro'y bergan voqea;

b) So'z, hikoya, naql, rivoyat;

d) Muhammad payg‘ambar yoki uning sahobalari haqida hikoya qiluvchi xabar yoki rivoyat.

2. Hadislar muqaddas „Qur‘on“ dan keyin turuvchi muqaddas manba.

3. Hadislarning yuzaga kelish omillari:

a) Muhammad payg‘ambar aytgan gaplar;

b) Muhammad payg‘ambarimizning o‘zi qilib ko‘rsatgan amallar;

d) Paygambarimiz tomonidan ko‘rilgan yoki kuzatilgan ishlarning ta‘qiqlanmaganligi.

4. „Sunnat“ — yo‘l, ravish, odat.

5. Hadislardagi asosiy masala.

6. Hadislarni to‘plash zarurati.

7. „Muhaddis“ so‘zining ma‘nosi va mashhur muhaddislar.

8. Imom Muhammad Ismoil al-Buxoriy: bolalik va talabalik yillari.

9. Ustozlari va Haj ziyorati.

10. „Al-Jome‘ as-Sahih“.

11. „Al-adab al-mufrad“, „Kitob asmo as-sahoba“, „Kitob af‘ol il-ibod“, „Tarixi Buxoro“, „Kitob ul-favoid“, „Tarix us-siqot vaz-zuafo min ruvot il-hadis“, „Qazoyi as-sahoba vattobi‘in“, „Tarixi kabir“.

12. Hadislarning mavzu qamrovi.

13. „Yoshlikda olingan bilim toshga o‘yilgan naqsh kabidir“.

14. „Vatanni sevmog‘ imondandir“.

15. „Uch toifa kishilarning duosi hech shubhasiz Alloh Taolo qoshida maqbuldir: mazlum kishilarning duosi, musofirning duosi va ota-onaning duosi“.

16. „Qo‘shningizga yaxshilik qiling—tinch bo‘lasiz“.

## **Hadislardan namunalar**

**Oisha raziollohu anho rivoyot qiladilar:**

*„Janob Rasululloh sallallohu alayhi va sallam: „Agar ayol yaxshi niyat bilan o‘z uyidagi yeguliklardan sadaqa qilsa, unga xayr qilgani uchun, eriga ishlab topib kelgani uchun, savob teggaydir, dedilar“.*

**Miqom raziyallohu anhu rivoyot qiladilar:**

*Rasululloh (s.a.v) : „Hech kim o‘z qo‘li birlan topgan rizqidan*

*ko'ra lazzatliroq taom yemagan. Allohning payg'ambari Dovud alayhissalom ham o'z qo'llarining mehnati bilan tirikchilik qilganlar, deydilar“.*

**Abu Hurayra raziyallohu anhu rivoyat qiladilar:**

*„Rasulilloh (s.a.v.) bir quchoq o'tin terib, sotib, tirikchilik qiladigan odam tilanchilik bilan qo'l cho'zib, kun o'tkazadigan odamdan afzalroq .— deydilar“.*

*Biror narsa sotishda yoki xarid qilishda yoxud biror hukm chiqarishda oliyjanoblik ko'rsatgan odamni Alloh taolo o'z rahmatiga olur.*

**Anas ibn Malik raziyallohu anhu rivoyat qiladilar:**

*„Agar bir odam biror hosilning pulini pishmasidan oldin to'lab qo'yg'an bo'lsa-yu, so'ng unga kasal tegib, nobud bo'lsa, ko'rilgan zarar sotuvchining bo'ynidadir“.*

**Oisha raziyallohu anhu rivoyat qiladilar:**

*„Ey Rasululloh, mening ikki qo'shnim bor, ulardan qaysi biriga hadya qilayin? — dedim. Shunda ul zot: „Ulardan o'zingga eshigi eng yaqiniga,“ — deb marhamat qildilar“.*

**Sahl ibn Sa'd rivoyat qiladilar:**

*„(Hijriy yil hisobini) na Rasululloh (s.a.v.) ga vahiy kelgandan va na ul zot vafot etgan kundan boshlashdi.(Bu sana hisobini) Janob Rasulullohning aynan Madinaga kelgan kunlaridan boshlashdi“.*



### **Savol va topshiriqlar**

---

1. „Hadis“ so'zining lug'aviy ma'nosi nima?
2. Hadislar nima uchun mo'tabar manba sanaladi?
3. „Muhaddis“ kim?
4. Imom Buxoriyning ustozlaridan kimlarni bilasiz?
5. Hadislarning hozirgi zamonda qanday ahamiyati bor?
6. Hadislarda ulug'langan fazilatlar va qoralangan xislatlar haqida gapiring.
7. Muhaddislarning tarixiy xizmatlari nimada?
8. „Al-adab al-mufrad“ ning ma'nosi nima?
9. Ota-onalarni hurmat qilish bilan bog'liq bo'lgan hadislardan tanlab, yod oling.
10. „Hadislar va yozma adabiyot“ mavzusida uy inshosi yozing.

---

## Ahmad Yugnakiy

---

XII—XIII asrlarda yashagan yirik olim va shoir, turkiyzabon ijodkor, atoqli siymolardan biri „Hibat ul-haqoyiq“ („Haqiqatlar armug‘oni“) asari muallifi Ahmad Yugnakiydir. Ahmad Yugnakiy asaridan bizgacha saqlanib qolgan ba‘zi parchalar va uning asariga yozilgan sharhlar muallif ijodi haqida tasavvur hosil qilishga imkoniyat beradi. Uning bir asarida keltirilishicha, shoir hozir Chimkent viloyatiga qarashli Yugnak degan joyda tavallud topgan. Asar satrlarida qayd etilishicha, Ahmad Yugnakiy ko‘zi o‘jiz kishi bo‘lgan. Bir manbada keltirilishicha, uning asari o‘ndan ortiq bobdan iborat bo‘lgan. Alisher Navoiy o‘zining „Nasoyim-ul-muhabbat“ asarida uning nomini eslatib o‘tadi. Hatto Navoiy Husayn Boyqaroning o‘g‘li Baddiuzzamonga yozgan bir xatida „Hibat ul-haqoyiq“ („Haqiqatlar armug‘oni“)dan parchalar keltiradi.

Hozir Yugnakiy asarlarining uch nusxa qo‘lyozmasi Turkiyada saqlanadi. Dostonning Istanbul nusxasi 508 misra va o‘n to‘rt bobdan iborat. Uning I bobi tangri va uning ulug‘ligiga bag‘ishlangan bo‘lib, II bobi payg‘ambar va Chahoriyorgarga, III bobi beklarga, IV bobi asarning yozilishi sabablariga bag‘ishlanadi. V bobida ilmning afzallik tomonlari va uning madhi, VI bobida til odobi, VII bobida foniy dunyo haqida so‘z yuritadi. VIII bobda kishilardagi saxovat hamda baxillik kabi sifatlarga to‘xtaladi. U odamlardagi saxovatni maqtab, baxillikni qoralaydi, kishilarning insonligi mana shu ikkita sifat orqali namoyon bo‘lishini aytadi. Asarda boshqa ijtimoiy masalalarga bag‘ishlangan boblar ham bor. Oxirgi bobi xotimadan iborat.

Mana shulardan ko‘rinishicha, Ahmad Yugnakiy o‘z davrining zabardast shoirlardan biri bo‘lgan. Uning „Hibat ul-haqoyiq“ asari to‘la ma’noda ta’limiy asardir, hatto uni nasihatnoma, desak ham bo‘ladi.

Bunda muallif payg‘ambar, to‘rt xalifa va sahobalar madhidan boshlab, ilm-u fan o‘rganishning ahamiyati, nodonlikning zarari, tilni tiyish va odob- axloq haqida saboq bergan.

## „Hibat ul-haqoyiq“ asaridan parchalar

1. „Tug‘a ko‘rmas erdi adibning ko‘zi,  
Tuzatti bu o‘n to‘rt bob ichra so‘zi“.
2. „Hibat ul-haqoyiq“ — 14 bobdan iborat, 254 baytni tashkil qiladi.
3. Aya do‘st, biliglik yizin izlagil,  
Qali so‘zlasang so‘z bilib so‘zlagil.  
(Ey do‘st, bilimli kishi izidan bor,  
Agar so‘zlasang, o‘ylab, bilib so‘zlagil.)
4. Uqub so‘zla so‘zni, eva so‘zlama,  
So‘zung kizla, kezin bashing kizlama.  
(So‘zni uqib so‘zla, shoshib (behuda) gapirma,  
So‘zingni yashir, keyin boshingni yashirib yurma.)
5. Yolg‘onchi kishidan tezlikda o‘zingni uzoq tut,  
Sen umringni to‘g‘rilik bilan kechir.  
(Og‘iz va tilning bezagi to‘g‘ri so‘zdir,  
So‘zni to‘g‘ri so‘zla, dilingni beza.)
6. To‘g‘ri so‘z asal kabidir, yolg‘on (so‘z) sarimsoqpiyozdir.  
Sarimsoqpiyoz yeb, og‘izni achitmay, asal yegin.  
(Yolg‘on so‘z kasallik kabidir, chin so‘z shifodir.  
Bu so‘z to‘g‘risida (qadimda) shunday masal to‘qilgan.)
7. Ilmli kishi qimmatbaho dinordir,  
Johil, ilmsiz kishi bahosiz mevadir.  
Ilmli bilan ilmsiz kishi qachon teng bo‘ladi,  
Ilmli ayol kishi erdir, johil erkak ayoldir.
8. O‘kush, az teb aymas bezizlar tengiz,  
Bulut hadya qilsa ushaq qatrani.  
(Agar bulut zarracha suvni hadya qilsa,  
Dengiz oz demay to‘lqinlanaberadi).

### *Savol va topshiriqlar*



1. Ahmad Yugnakiyning tarbiya haqidagi fikrlari va qarashlarini o‘z tasavvuringizdagi misollar orqali bayon qiling.
2. „Hibat ul-haqoyiq“ ning ma‘nosi nima?
3. Ahmad Yugnakiyning „Hibat ul-haqoyiq“ asari kimga bag‘ishlab va qayerda yozilgan?
4. Adib Ahmad va Yusuf Xos Hojib o‘rtasida qanday fikrdoshlik bor?
5. Adiblarning so‘z bobidagi o‘xshatishlarini qiyoslang.
6. „Hibat ul-haqoyiq“ ning bir necha to‘rtliklariga sarlavhalar toping.



## Ahmad Yassaviy

„*Hamma ishni yolg'izlikda xudo bilan hal qilishim shart*“.

*Lev Tolstoy*

„*Dunyo mansab dema, uchma ishvaga, Do'stlardan ajrab ham yov boshiga yet*“.

*Ibn Sino*

### Tezis-reja

1. Ahmad Yassaviy — turkiy tasavvuf she'riyatining atoqli vakili.
2. Tug'ilgan yili noma'lum. Turkiston. Vafoti 1166—1167-yillar.
3. Ilk ustozlari: Yassi, mashhur turk mashoyixi, Arslonbob, Buxoro, Yusuf Hamadoniy.
4. Qoraxoniylar va Qoraxitoylar o'rtasidagi urush hamda uning dahshatli oqibatlarini haqida.
5. „Na onoda rahm qoldi, na otoda, Og'o-ini bir-biriga mojaroda. Musulmonlar da'vo qilur, ichar boda, Mastlig' bilan qarindoshdin kechdi, ko'rung“.
6. Shoir o'zi bilan o'zi beomon kurashuvchi ijodkor.
7. Xudo yo'li — „...nafs yo'lidan qutulmoq“ dir.
8. O'z-o'zini kechirmaslik sirlari.
9. Yassaviy samimiyati — oshkoralik.
10. „Tan so'zlamas, jon so'zlamas, imon so'zlar“.
11. „Sunnat ermish, kofir bo'lsa, berma ozor, Ko'ngli qattig', dilozordan xudo bezor“.
12. „Nafsga mag'lub shoh — qul, Nafsdan ustunlikka erishgan g'arib — shoh“.
13. Poklanish iztiroblari. „Olloh dardi — ishq o'tida dilni yoqmoq“.
14. „Dono topmay yer ostig'a kirdim, ma'no“.
15. Inson komillikka intilishi shart.
16. „Tufroq bo'lg'il, olam seni bosib o'tsin“.
17. Tuproq, suv — jannat mulki; shamol, olov — jannatdan boshqa joylarning mulki.

Ahmad Yassavining hayoti haqida juda kam ma'lumotlar bizgacha yetib kelgan. Uning „Hikmatlar“i va ba'zi tarixiy-adabiy manbalardagi izoh va ma'lumotlarga mavjud. Adib Yassi shahrida (Turkiston) ruhoniy oilasida tug'ilgan. Otasi Ibrohim Turkistonning taniqli shayxlaridan bo'lgan. Onasi Qorasoch momo nomi bilan mashhur.

Shoirning yoshligi og'ir kechgan. Otasi juda yoshligida vafot etgan.

*Yetti yoshda Arslon bobo izlab topdi,  
Har sir ko'rib parda birla bo'kib yopdi,—*

misralari ana shu mashaqqatli hayotiga ishoradir. Ayni paytda bu misralar mazmunida, Ahmad Yassaviyning Arslonbobday yirik mutasavvuf olim qo'lida tarbiyalanganligi haqida ham ma'lumot bor. Boshqa bir o'rinda: „Yetti yoshda Arslon boboga qildim salom,“ — deb yozgan edi u. So'ngra adib Buxoroga borib, Yusuf Hamadoniy qo'lida tahsil oldi.

Ahmad Yassaviy tasavvuf ilmini shu qadar yuqori darajada egallaydiki, xalq orasida „Madinada Muhammad, Turkistonda Xoja Ahmad,“ — degan naql paydo bo'ldi. Ahmad Yassaviy 1166- yilda vafot etgan. Uning shuhrati adib vafotidan keyin ham pasaymagan. Amir Temur unga alohida e'tibor bilan qaragani ma'lum.

1395—1397- yillarda Turkistonda Ahmad Yassaviyning eski qabri o'rnida yangi muhtasham maqbara qurilgan. Bu maqbara hozir ham mavjud.

Ahmad Yassaviyning yoshi haqida har xil ma'lumotlar yetib kelgan. Uning o'zi bir o'rinda:

*Oltmish uchga yoshim yetdi, o'tdim g'ofil,  
Haq amrini mahkam tutmay o'zim johil...*

deb yozadi. Boshqa o'rinlarda yoshi yuz yigirmaga yetganligi haqida ham qaydlar mavjud.

„Hikmat“lar Ahmad Yassaviyning merosini jamlagan asarlardir. Ularda 240 ga yaqin she'r bor. Ular xalq orasida „Devoni hikmat“ nomi bilan mashhur. Ahmad Yassaviy mutasavvuf shoir. Bu tasavvuf tariqatiga mansubligini bildiradi. Tasavvufdagi to'rt asosiy bosqich — shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat mohiyatini she'riy misralarga singdirgan Ahmad Yassaviy shu yo'nalishda katta shuhrat qozondi.

Ahmad Yassaviy she'riyatidagi obrazlar tuzilishi ham tassavvuf ta'limoti bilan, ham og'zaki ijod an'nalari bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Masalan, she'rlarda uchrovchi pir, darvesh, oshiq, obid, oqil, zohid, ishq, ummat, rasul, imon kabi obrazlar bevosita tasavvuf bilan bog'lansa, yo'l, rabot, karvon, o'q kabilar og'zaki ijod an'analari bilan aloqador holda yuzaga kelgan.

Nafs haqida gapirar ekan, Yassaviy uni insonning kamolotiga xalaqit beradigan yovuz va yaramas kuch sifatida baholaydi. Nafsning domiga ilinish insonni qanchalik yer bilan yakson qilishini juda yorqin ifodalarda ko'rsatib beradi.

## HIKMATLAR

Beshak biling, bu dunyo barcha eldin o'taro,  
Inonmag'il molingga, bir kun qo'ldan ketaro.  
Oto-ono, qarindosh, qayon ketti, fikr qil,  
To'rt ayog'lig cho'bin ot bir kun sanga yetaro.

Dunyo uchun g'am yema, Haqdin o'zgani dema,  
Kishi molini yema, sirot uzra tutaro.  
Ahli ayol, qarindosh, hech kim bo'lmaydur yo'ldosh,  
Mardona bo'l g'arib bosh, umring yeldek o'taro.

Quy Xoja Ahmad toat qil, umring bilmam necha yil,  
Asling bilsang, obi gil, yana gilga ketaro.

\* \* \*

Ma'rifatning bo'stonida jonin burg'on,  
Muhabbatning maydonida bosh o'ynag'on,  
Haqiqatning daryosidin gavhar olg'on,  
G'avvos yanglig' ul daryodin chiqmas bo'lur.

\* \* \*

Qudrat bo'lsa yuringiz, kuch bo'lmasa turingiz,  
Duo qila ko'ringiz, rizo bo'lung, do'stlarim.

Tilim so'rsam, qaror yo'q, g'arib bo'lsa so'rar yo'q,  
Yemishlarda halol yo'q, rizo bo'ling, do'stlarim.

Nafs yo'lig'a kirgan kishi rasvo bo'lur,  
Yo'ldin ozib, toyib, to'zib, gumroh bo'lur.  
Yotsa, qo'psa shayton bilan hamroh bo'lur,  
Nafsni tepkil, nafsni tepkil, ey badkirdor.

\* \* \*

Nafsdin kechib, qanoatni pesha qilg'on,  
Har kim topsa, rozi bo'lib, bo'yinsung'on,  
Yaxshilarga xizmat qilib duo olg'on,  
Andoq oshiq mahshar kuni armoni yo'q.

\* \* \*

Ishqqa tushding, o'tqa tushding, kuyib o'lding,  
Parvonadek jondin kechib axgar bo'lding.  
Dardga to'ldung, g'amga to'lding, telba bo'lding,  
Ishq dardini so'rsang hargiz darmoni yo'q.

\* \* \*

Nafsing seni boqib tursang, nelar demas,  
Zori qilsang, olloh sari bo'yunsunmas.  
Qo'lg'a olsang yobon qushdek qo'lg'a qo'nmas,  
Qolg'a olib, tun uyqusin qilg'il bedor.

\* \* \*

Mani hikmatlarim dono eshitsun,  
So'zim doston qilub, maqsudg'a yetsun.  
Mani hikmatlarim bir pir-u komil,  
Qay-u banda bo'lsa xudog'a moyil.



### *Savol va topshiriqlar*

---

1. „Devoni hikmat“ ning yaratilishi haqida nimalarni bilasiz?
2. „Devon“ dagi asarlarning janr xususiyatlari haqida nimalar deya olasiz?
3. „Hikmatlar“ da qanday axloqiy-ma'rifiy masalalar ifodalangan?
4. „Hikmatlar“ da ulug'langan insoniy fazilatlar haqida gapiring.
5. „Hikmatlar“ da qoralangan xususiyatlar haqida gapiring.
6. „Ahmad Yassaviy hikmatlari biz uchun mayoq“ mavzusida insho yozishga tayyorlaning.

  
**Nosiriddin Burhoniddin**  
**o'g'li Rabg'uziy**  


*Nosiriddin Burhoniddin o'g'li Rabg'uziy hayoti va ijodiy faoliyati yuzasidan o'rta umumta'lim dasturi bo'yicha mustahkamlovchi savol va topshiriqlar*

1. „Qissayi odam Safiy alayhis salom“ va „Qissayi Huh Nabiy alayhissalom“ qissalarining g'oyaviy mazmuni qanday?
2. Rabg'uziyning hayoti haqida so'zlang.

*Tezis-reja*

1. Rabg'uziyning bizga ma'lum bo'lgan asari: „Qissasi Rabg'uziy“.
2. Asar Nosiriddin To'qbo'g'a topshirig'i asosida yozilgan.
3. „Qissasi Rabg'uziy“ payg'ambarlar haqida bo'lib, 72 bob va qissalardan iborat.
4. Asar o'zbek nasrining eng qadimiy namunalaridan biridir.
5. Asar o'z ildizlari bilan muqaddas „Qur'on“ va „Hadis“larga, tarixiy manbalarga, xalq og'zaki ijodi namunalariga borib taqaladi.
6. Asarda muallif badiiy tafakkurining o'rni.

**Rabg'uziy hikoyatlari haqida**

Rabg'uziy hikoyatlarining asosini ko'pincha real hayotiy voqea-hodisalar tashkil etadi. Ularni ifodalash uchun mifologik, afsonaviy-xayoliy yoki hayotiy mantiq taqozo etadigan bayon uslubi tanlab olinadi. Masalan, insonlarning mast holda yurishini, umuman o'tkir ichimliklar ichishini qoralash maqsadida „Uzum hikoyati“ keltirilgan. Undagi asosiy qahramon Shaytondir. U to'g'ridan to'g'ri „Shaytoni mal'un“ deb ta'riflanadi. „Mal'un“ — „haydalgan, la'natlangan“ demakdir. Ana shu mal'un uzumning urug'ini o'g'irlagan. Bu hol oshkora bo'lib qolgach, uni Nuh payg'ambar huzuriga olib kelishadi. Shayton aybini bo'yniga oladi-yu, lekin urug'ni qaytarib berishdan oldin

uni uch marta sug'orishga imkon berishni so'raydi va rozilik oladi.

Chog'ir (ichkilik)ning paydo bo'lishi shu tarzda shayton nomi bilan bog'lanadi. Chog'ir ichgan odamning holati ham nihoyatda ta'sirchan o'xshatishlar bilan tasvirlanadi. Buning uchun tulki, yo'lbars, to'ng'iz obrazlaridan foydalanilgan.

Hikoyada Nuh payg'ambarning ulug'ligini ko'rsatuvchi dalillar ham keltirilgan. Xususan, shinni va sirkaning paydo bo'lishi bevosita ana shu payg'ambar faoliyati bilan bog'liq.

Rabg'uziy hikoyalarida qadimiy mifologik tasavvurlarning ildizlari ham ko'zga tashlanadi. Ma'lumki, miflarda dunyoviy hodisalarning paydo bo'lishi, ularning ilohiyot bilan aloqasi o'ziga xos tarzda izoh va „isbot“ etiladi. Bu jihatdan „Ilon va qarlug'och“ hikoyati diqqatga sazovor.

Unda mushuk bilan sichqon, ilon bilan baqa, ilon bilan qarlug'och (qaldirg'och), ari, inson va qushlar hamda boshqa hayvonot olami orasidagi o'ziga xos munosabatlar izohlanadi, badiiy tadqiq etiladi.

Namrud haqidagi hikoyatda inson xayolotining imkonlari madh etiladi. Unda Namrudning osmon mamlakatiga chiqishi tasvirlangan.

Hikoyada o'sha davr kishilarining osmon haqidagi tasavvurlari ham o'z ifodasini topgan. Ayni paytda hikoya mazmuni badiiy jihatdan to'la asoslangan va shuning uchun ham kishida zavq uyg'otadi. Shu bilan birga, hikoyada shuhratparastlik, takabburlik kabi illatlar qattiq qoralanadi. Erishgan muvaffaqiyatlardan boshi aylanib qolgan Namrud hech kimni pisand qilmaydigan kimsaga aylanadi, hatto xudoni ham tan olmaydi. Oqibatda u qattiq jazolanadi, og'ir dardga chalinib, xor-zorlikda halok bo'ladi. Bu ibratli hikoya har qanday o'quvchiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Rabg'uziy qissalari va hikoyalarida axloqiy-ta'limiy qarashlarni targ'ib qilish yetakchi o'rin tutadi. Deyarli har bir hikoyada shunday qarashlar aks etgan. Sulaymonning qarinchqa (chumoli) bilan so'zlashgan hikoyasida ham bu hol kuzatiladi.

Sulaymon—Dovud payg'ambarning o'n ikkinchi, kenja o'g'li. U ham boshqa akalariday „olim, faqih, oqil“ yigit edi. Dovudning podshohligi unga meros qoldi. Ammo otasiga o'xshab o'z hunarini hech qo'ymas edi. U tol novdalarini yig'ib, savat to'qib, sotardi.

O‘zbek adabiyotida payg‘ambarlar tasvirida Dovud va Sulaymon nomi ko‘p uchrab turadi. Ayniqsa, „taxti Sulaymon“ iborasi ko‘p qo‘llanadi. Rabg‘uziyning yozishicha: „Taxti bir yig‘och yer ichinda erdi. Ul taxtini oltun, kumush birla qilmish erdi“.

Sulaymonnig chumolilar podshosi bilan suhbat hikoyasi katta ma‘rifiy va axloqiy-ta‘limiy ahamiyatga molik. Unda kishilik jamiyatiga xos bo‘lgan ayrim illat va kamchiliklar ustida so‘z boradi. Hikoyada Sulaymon katta mavqega ega bo‘lgan, manman, kibrli, manfaatdor hukmdor sifatida gavdalanadi. Aksincha, qarinchqa—chumolilar podshosi dono, tadbirkor, xalq g‘amini yeydigan hukmdor, ma‘rifatparvar, olim, orif sifatida ko‘zga tashlanadi.

## „Qissasi Rabg‘uziy“ asaridan parchalar

### Hikoyatlar

#### *Uzum hikoyati*

Hikoyatda keltiribdurlarki, shaytoni mal‘un uzumning urug‘ini o‘g‘irladi. Hech vajah bila topolmadilar. Hamma hayvonlardin so‘rdilar. Hech qaysisi bilmadi, oxiri shaytonni tutdilar.

Shayton aytdi: —Uzumga uch marta suv quymoqni manga bersangiz, topib beray, — dedi. Nuh alayhissalom qabul qildilar. Sayton uzumning urug‘ini topib berdi. Vaqtiki kemadin chiqtilar, barcha urug‘ni ektilar, uzumning uch suvini shaytoni layin sug‘ordi: avval tulking qoni birla, andin sherning qoni birla, andin to‘ng‘izning qoni birla sug‘ordi. Aning bergan suvidin chog‘ir bo‘ldi, har kim chog‘ir ichsa, ko‘rmagan kishi birla tulkidek do‘stlug‘ og‘oz qilur. Andin mast bo‘lgonda yo‘lbarsdek bo‘lur, himmati jo‘sh bo‘lib, har kimga bir nimarsa berur. Andin mastroq bo‘lsa, to‘ng‘izdek yuraklik bo‘lub, hech ishdin qo‘rqmas, har qism yomon ishlar sodir bo‘lur, shayton bergan suvlar fe‘lidir.

Andin so‘ng, Nuh alayhissalom ikki marta suv berdilar, biri behishti zanjabildan erdi, andin shinni paydo bo‘ldi. Biri salsabildin, andin sirka paydo bo‘ldi... Bu nimarsalar har uyda bo‘lsa, uydan hargiz farishta kam bo‘lmas, deydurlar.

## *Yilon va Qarlug'och hikoyati*

Hikoyatda keltiribduurlarki, kemanding ichida uch nimarsa yo'q erdi; biri mushuk, biri sichqon, biri qo'ng'iz. Bu uch nimarsa kemada paydo bo'lgan... Sichqon qochib yurub, kemani teshdi, suv chiqqa boshladi, kema to'lub keladur, hammalaridin hush ketti... Munojot qildilar, xitob keldiki, bu sichqon ishidur. Yo'lbarsning peshonasini silagil, deb. Ani peshanasini siladilar, burnidan mushuk tushdi, sichqonni tutib yedi. Andin so'ng, Nuh alayhissalom aydilar: — Bir kimarsa bo'lgaymu, kemanding teshigini topib berkitgoy?

Yilon aydi: — Agar ushbu xizmatni bajo keltursam, nima berursiz? Nuh alayhissalom aydilar: — Nima tilasang, berurman.

Yilon aydi: — Nimaning go'shti shirin bo'lsa, shuni bersangiz.

Nuh alayhissalom qabul qildilar.

Yilon kirib izlab, teshikni topib, halqa bo'lub yotti, suv to'xtadi, kirgan suvni sochib ado qildilar. Teshikni mum birla berkitib xotirjam bo'ldilar. Vaqtiki, kemaga kirdilar... kema ravon bo'ldi... Olti oy suvning ichida yurdilar...

Vaqtiki, kemadin chiqtilar, yilon keldiki: — Yo Nuh, manga qilg'on va'dangizni bering, — dedi. Nuh alayhissalom Oruni buyurdilar, borib har nimarsaning go'shtini totgil, qaysi nimarsaning go'shti shirin bo'lsa, yilonga berayluk.

Ul borib, odamning go'shtidin totlig' go'sht yo'q ekan, deb kelur erdi, Qarlug'och borib so'rdiki: — Nimaning go'shti totlig' ekan? Oru aydi: — Odamning go'shti. Qarlug'och:

— Ey birodar, tilingni chiqorgil, man totib boqay, — dedi. Oru tilini chiqorgan hamon uzub oldi.

Oru gung bo'lub, g'ingg'ishlab bordi. Qarlug'och ham orqasidin kelib turdi. Harchand so'z so'rasalar, g'ingshib Qarlug'ochga qaraydur.

Qarlug'och aydiki: — Biyobonda manga uchrab: — „Baqaning go'shtidan totlig' nimarsa yo'q ekan“, deb holo kech kelganiga so zlayolmas.

Nuh alayhissalom Yilonga baqani buyurdilar. Ul zamondin bu zamongacha topsa baqani yer, topmasa tuproqni yer. Yilon bildiki, Qarlug'och odam farzandiga yaxshilik qildi. Oru manga bo'lishdi, deb, Yilon qarlug'ochga dushman bo'ldi.

Ul sababdin Qarlug'och odam farzandi birla bir uyda debdur.



## *Namrud hikoyati*

Bu andoq voqeaturki, Namrud layin karkasning to‘rt bolasini olib saqladi. Imkoni boricha, boqib tarbiyat qildi. Bu qushlar teva chog‘luq bo‘ldi. Andin bir sandiq qildurdi, ikki eshigi bor, sakkiz poyalik. To‘rt poyasi yuqori, to‘rt poyasi quyi erdi.

Yuqori poyasiga go‘shtlarni, quyi poyasiga qushlarni bog‘ladi. O‘zi jubba va javshan kiyib, bir vazni olib sanduqqa kirib o‘lturdi. Qushlar go‘shetni ko‘rib yemak umidida, yuqori qarab, bir kecha va kunduz uchdilar. Namrud layin yuqori eshikni ochib boqdi. Yer yuzi tamom ko‘rindi.

Qushlar go‘shetni olurmiz, deb uchgan sari go‘shet ham yuqori borur erdi. Yana bir kecha-kunduz uchdi. Namrud layin yuqori eshikni ochib boqdi. Osmonning yuzida bir qora boshdek nimarsa ko‘rindi. Osmon taqi ham boyonidekdur. Emdi ko‘kni tangrisiga bir o‘q otib boqay, deb bir o‘q otdi...

Namrud osmon mamlakatini ham oldim, dedi. Anda go‘shetni quyi poyasiga bog‘ladi. Qushlar go‘shetni ko‘rib, quyi olib yurdilar. Bu makruh hiyla birla osmonga chiqib tushdi.



### *Savol va topshiriqlar*

1. Rabg‘uziy qayerda tug‘ilgan?
2. „Qissasi Rabg‘uziy“ qanday asar?
3. Asarning yaratilishida „Qur‘on“ning ta‘siri haqida gapiring.
4. Dovud payg‘ambar bilan bog‘liq qissada qanday muammolar ko‘tarilgan?
5. Rabg‘uziy nima uchun ham shoir, ham nosir deyiladi?
6. „Rabg‘uziy — qissa va hikoyatlar ustasi“ mavzusidagi insho uchun reja tuzing va insho yozishga tayyorlaning.



## *Pahlavon Mahmud*

### *Tezis-reja*

1. Pahlavon Mahmud ruboiylarining uning qabri ustiga yozilganligi.

2. Adib haqida ma'lumot beruvchi manbalar: „Qomus ul-a'lam“ (Shamsiddin Somiy), „Otashkadayi ozariy“ (Lutf Alibek Ozor), „Majolis ul-ushshoq“ (Kamoliddin Husayn Fanoiy).

3. Qitoliy taxallusi bilan...

4. „Kanz ul-haqoyiq“ haqida.

5. Adib she'rlarida hayotiy falsafiylik:

Gurkiragan olov — dilim yo'ldoshi,  
To'lqin urgan daryo — ko'zlarim yoshi.  
Ko'zagarlar yasayotgan har ko'za —  
Ko'hna do'stlar xoki — qo'li yo boshi.

6. Juvonmardlik oqimiga xos tamoyillar.

7. „Quloq solgin Puryoyvaliy so'ziga“...

8. Oqillik darajasi.

9. Ma'rifatli va ma'nan boy shaxs butun insoniyatni ulug'laydi.

10. Pahlavon Mahmud haqidagi rivoyatlar.

### **Ruboiylar**

Toki bor g'ayrating, mardlikdan asar,  
Ahli ayolingni etma darbadar.  
Meva shoxi agar devordan ohsa,  
Yo'lovchilar unga beshak qo'l cho'zar.

\* \* \*

Gurkiragan olov — dilim quyoshi,  
To'lqin urgan daryo — ko'zlarim yoshi.  
Ko'zagarlar yasayotgan har ko'za —  
Ko'hna do'stlar xoki — qo'li yo boshi.

Alam kishanidan ozodlar bizlar,  
G'am rizqimiz-u doim shodlar bizlar.  
Hushyorlik ne, rang-u bo'yin bilmaymiz,  
Yor ko'zidek mastona zodlar bizlar.

\* \* \*

Oh tortgan chog'ingda yo'lga ko'z tutgil.  
Yo'lda quduq bordir, ehtiyoting qil.  
Do'st uyida mahram bo'lgan vaqtingda,  
Qo'lingni, ko'zingni, dilni tiya bil.

\* \* \*

Ulusga shoh emas, darvesh erur xesh,  
Ne ajab, chunki u darveshdir, darvesh.  
Buzuq devorlardan tashvish bor lekin –  
Siniq ko'ngillardan ko'proqdir tashvish.

\* \* \*

Yo'q osmonda, yerning yuzida ham tuz,  
Dengizning suvida, muzida ham tuz.  
Rizqim dasturxonni tuzsizdir, e voh,  
Ajab zamonki, yo'q tuzida ham tuz.

\* \* \*

Ey, charxi falak, zamonayi dunyoparvar,  
Teskari yurishing to'g'riga xatar :  
Nodon bosh ustida-yu, dono poymol,  
Yo rab, bu falakni et zer-u zabar.

\* \* \*

Har yoqdan g'am otgan toshni ko'raman,  
Ko'z ochsam chimirilgan qoshni ko'raman.  
Qachongacha poymol etib fikrimni,  
Tizza ko'zguna boshni ko'raman?!

\* \* \*

Ko'zguna berardim kechqurun sayqal,  
Boqdim unga tiniq bo'lgan bir mahal.  
Shuncha ko'p ko'rindi o'z aybimki, men  
O'zgalar aybini unutdim tugal.

Tun — ikkiqat xotin, ne tug'ar ekan?  
Zamona hukmidan ne yog'ar ekan?  
Umr avvalida ne keldi, ko'rdik,  
Ko'rarmiz, oxiri ne bo'lar ekan?

\* \* \*

Shikoyat qilma, ey ta'magir nopok,  
Tuproqdan or etmam, chunki o'zim xok!  
Cho'pni ham eltolmas bu suvdan hech kim,  
Gavhar senga bo'lsin, menga has xoshok!

\* \* \*

Umrimiz daraxtin past qilma, rabbi,  
Borliq sharobidan mast qilma, rabbi.  
O'zing karam bir-la mard yigitlarni,  
Nokastlarga zeridast qilma, rabbi.

\* \* \*

Olam fili qaytarolmas jur'atimiz,  
Charxdan zo'rroq qudratimiz — shavkatimiz.  
Gar chumoli kirib qolsa safimizga,  
Sher etajak uni darhol davlatimiz.

\* \* \*

O'z nafsingga bo'lgin amir, shunda mardsan,  
O'zgalarga bo'lma haqir, shunda mardsan.  
Yiqilganni tepib o'tish mardlik emas,  
Aftodaga bo'lsang dastgir shunda mardsan.

\* \* \*

Filday kuching bo'lsa ham, mur<sup>1</sup> bo'lib ko'rin,  
Moling oshib-toshsa ham, o'r<sup>2</sup> bo'lib ko'rin.  
Hammaning aybini bilganing holda,  
Hech narsa bilmaganday, ko'r bo'lib ko'rin.

---

<sup>1</sup> chumoli

<sup>2</sup> oddiy ma'nosida

Olam ishi boshida bo'lsaydi bir mard,  
Nomardning boshidan chiqarardi gard.  
Olam shuki, doimo misli nard o'yin,  
Nayrang bilan yutadi mardlarni nomard.

\* \* \*

Bir oqil deydiki: bo'lg'il vallomat  
Yoki vallomatga qila ko'r xizmat.  
Nomard xizmatiga yondoshma zinhor,  
O'ylagin, bu o'git qanday pur hikmat.

\* \* \*

Ko'nglim oppoq, na kek va na kinam bor,  
Dushmanim ko'p va lekin men hammaga yor.  
Mevali daraxtman, har bir o'tkinchi –  
Tosh otib o'tsa ham menga bo'lmas or.

\* \* \*

Qora tosh sira ham bo'lmas lojuvard,  
Toza qalbga yuqmas also chang-u gard.  
Quloq solgin Puryoyvaliy so'ziga,  
Qo'rqoqlardan biron chiqqanmidi mard.

\* \* \*

Borma aytmaganning dasturxoniga,  
Qo'l uzatsang, qadring ketar, noniga.  
Qo'shma o'zgalarning barra kabobin,  
Qotgan non-u sovuq suving soniga.

\* \* \*

Butkul falak ishi – javr ila jafu,  
Vafo ahli bo'lmas u bilan oshno.  
Vafoli kishining iti bo'laman,  
Kishidan it yaxshi, bo'lmasa vafo.

\* \* \*

Yerga aralashib yotar necha dil,  
Jahon zarralari – lab, tish yoki til.  
Yerdan unib chiqqan sunbul, yo gulni,  
Go‘zallarning sochi, yo yuzi degil.

\* \* \*

Dag‘al dili doim ezilgan bo‘lur,  
Talab yoli unga to‘silgan bo‘lur.  
Yomon yaxshi bilan kim kelisholsa,  
Dili shod-u, g‘amdan qutulgan bo‘lur.

\* \* \*

Podsholik istasang, bo‘l el gadosi,  
O‘zingni unut-u, bo‘l el oshnosi.  
El toj kabi boshga ko‘tarsin desang,  
El qo‘lin tutgin-u bo‘l xokiposi.

\* \* \*

Donish erur o‘tgan o‘qim nishoni,  
Dadillik manbayi – bilimim koni.  
Ezgulik osmonin mahbusiman men,  
Zanjirim – fazo-yu samo ummoni.

\* \* \*

Dimog‘imdan oxir savdo gul ochdi,  
Rasvolik pardasin tori til ochdi.  
Devonaligimdan boshimdagi dog‘,  
Butun vujudimdan gul yuz xil ochdi.

\* \* \*

Ma‘rifatning tili – cholg‘u noyimdir,  
Aqlim – qilich, sozim o‘q-u yoyimdir.  
Imtiyozlar mulkin shohi bilurkim,  
So‘z maydoni – ishg‘ol qilgan joyimdir.

\* \* \*

Nodon g‘iybatiga bo‘libman nishon,  
Qaytarg‘um hujumni, menman pahlavon!  
Malomat qilurlar johillar, chunki,  
Bilimda erurman nodiri zamon.

Soʻz oshigʻi, fayzli nafas istayman,  
Bir lutfda yuzlab havas istayman.  
Bu nokaslar loyiq emas tinglashga,  
Nozik soʻzga bir serhavas istayman.

\* \* \*

Necha yil ilm — hunar payida boʻldik,  
Necha yil zar-zavar payida boʻldik.  
Olam sirlaridan boʻlganda ogoh —  
Barisidan kechib, qalandar boʻldik.



### *Savol va topshiriqlar*

1. Pahlavon Mahmud haqidagi maʼlumotlar qaysi manbalarda mavjud?
2. „Puryoyvaliy“ soʻzining maʼnosi nima?
3. Shoir ijodidagi yetakchi janr qaysi?
4. Adib ijodidagi falsafiylik haqidagi fikrlaringizni ayting.
5. Shoirning badiiy mahorati nimalarda koʻrinadi?
6. Shoir ijodida koʻproq qaysi obrazlar uchraydi?
7. „Pahlavon Mahmud ijodida juvonmardlik gʻoyalarning aks etishi“ mavzusida insho yozishga tayyorgarlik koʻring.



## *Mavlono Lutfiy*

*Lutfiy hayoti va ijodiy faoliyati yuzasidan o'rtta umumta'lim dasturi bo'yicha mustahkamlovchi savol va topshiriqlar*

1. „Lutfiy“ taxallusining ma'nosini izohlang.
2. Lutfiyning nima uchun „Malik ul-kalom“ deb e'zozlashgan?

### *Tezis-reja*

- I. Lutfiy ijodi bo'yicha ma'lumot beruvchi manbalar:  
Alisher Navoiy. „Majolis un- nafa'is“, „Muhokamat ul-lug'atayn“, „Manoqibi Pahlavon Muhammad“, „Xutbayi davovin“;  
2. Davlatshoh Samarqandiy. „Tazkirat ush- shuaro“;  
3. Xondamir. „Habib us- siyar“, „Makorim ul- axloq“.  
4. Abdulla Qobuliy. „Tazkirat ut- tavorix“.  
5. Shamsiddin Somiy. „Qomus ul- a'lom“.  
6. Vozih. „Majmu'ayi manzum va mansur“.  
II. Taxallusi Lutfiy bo'lgan bu atoqli so'z san'atkori 1366 (1367)- yilda Hirot chekkasidagi Dehikanor degan joyda tug'ilgan va 99 yil umr ko'rgan. Manbalarda adib Lutfiyi Hiriy deb ham yuritiladi.

### III. Bizgacha yetib kelgan asarlari:

1. Sharafiddin Ali Yazdiyning „Zafarnoma“ nomli tarix kitobi asosida o'zbek tilidagi o'n ming baytdan ziyodroq masnaviy-dostoni borligi haqida ma'lumot.

2. Bizgacha turli davrlarda ko'chirilgan ko'p qo'lyozma devoni nusxalari yetib kelgan. Ularda g'azallar soni 200—280 ta atrofida. To'rtliklar esa 25—40 atrofida.

3. Lutfiy devonining eng eski va mo'tabar nusxasi 1511- yilda Hirotlik Mahmudbek ismli kotib tomonidan „Gul va Navro'z“ bilan bir kitob qilib ko'chirilgan nusxa bo'lib, u kitob bugungi kunda Londondagi Britaniya muzeyida saqlanadi.

4. Lutfiy lirikasining sehrlovchi kuchi. Bu uning dunyoviy (hayotiy)ligi va yuksak san'atkorlik bilan yaratilganligidir. Lutfiy lirikasi sodda, ravon va musiqiy, tili boy va shirali, badiiy



usul va vositalari xilma-xil va original, xalq ijodining samarali ta'siri bilan kamol topgan lirikadir.

5. „Gul va Navro‘z“ dostonidan parcha.

Necha vafog‘a va‘da qilg‘aysan, ey jafochi,  
Sen umrsen kishiga. hargiz vafo qilursen,

Ishim o‘tar davodin, tengri uchun tabibim,  
Kelgil, bu dardi dilga gar bir davo qilursen.

Mehrob qoshi sori zinhor boqma, zohid,  
Vayron bo‘lur namozing, barcha qazo qilursen.

Ey ko‘z, yuzuni ko‘rding, yoshing nag‘u to‘qarsen,  
Kechgan firoq elikdin ne mojaro qilursen?

Qon bo‘ldi ko‘ngil firoqingizdin,  
Jon kuydi ham ishtiyolingizdin.

Aql-u din bor edi bir chog‘da meni devonag‘a,  
Zulfuning savdosi etkurdi qaro yerga meni.

Necha sirrimni yashursam siynadin bexos ishq,  
O‘z-o‘zi faryod etarkin, aylagan rasvo meni.




### *Savol va topshiriqlar*


\_\_\_\_\_

1. Lutfiy va Navoiy munosabatlaridagi o‘ziga xosliklar haqida nimalar bilasiz?
2. Lutfiy g‘azallarini mavzulariga doir qanday guruhlarga ajratish mumkin?
3. Lutfiyning san‘atkorligini g‘azallarida ifodalangan tasvir vositalari asosida izohlang.





*Alisher Navoiy*  
(1441—1501)



*Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyati yuzasidan o'rtta umumta'lim dasturi bo'yicha mustahkamlovchi savol va topshiriqlar*

1. Shoirning „Mahbub ul-qulub“ asarining mavzusi nima?
2. „Hilm“ deb qanday fazilatda aytiladi?
3. „Tavoze“ va „saxovat“ soʻzlarining maʼnosini izohlang.
4. „Gʻurbatda gʻarib“ ruboiysining mazmuni haqida gapiring.
5. „Nizomiddin“ va „Mir“ soʻzlarining maʼnosini izohlang.
6. „Mantiq ut-tayr“ asarining muallifi kim? Bu asarning shoir tarjimai holi bilan qanday bogʻliqlik tomonlari bor?
7. Shoir tarjimai holidagi ushbu sanalar bilan bogʻliq boʻlgan voqealarni eslang: 1441- yil; 1447- yil; 1451- yil; 1453- yil; 1464- yil; 1469—1472- yillar; 1490- yil; 1483—1485- yillar; 1991- yil.
8. Shoirning eng soʻnggi asari qachon yozilgan va u qanday nomlanadi?
9. „Xamsa“ soʻzining maʼnosini bilasizmi?
10. „Hayrat ul-abror“ dostonining hajmini eslang.
11. Mehr, Suhayl, Jobir obrazlari shoirning qaysi asarida uchraydi?
12. „Sen agar zohir etting itlikni  
Men senga koʻrguzay yigitlikni,“—  
misralarining maʼnosini izohlang.
13. Navoiyning ustozlaridan kimlarni bilasiz?
14. „Badoyeʼ ul-bidoya“, „Navodir un-nihoya“, „Gʻaroyib us-sigʻar“, „Navodir ush-shabob“, „Badoye ul-vasat“, „Favoyid ul-kibar“ nomli devonlar haqida qanday maʼlumotlarga egasiz?

### **Hayoti va ijod yoʻli**

1441- y. — Hirotda tugʻildi.

1447- y. — Shohruh Mirzo vafot etib, temuriy shahzodalar orasida taxt uchun kurash boshlandi.

- 1451- y. — Iroqqa ketgan Alisherning oilasi Hirotga qaytdi.  
 1452- y. — Abulqosim Bobur Mirzo Xuroson taxtiga o'tirdi.  
 1453- y. — Alisherning otasi vafot etdi.  
 1457- y. — Abulqosim Bobur vafot etdi.  
 1464- y. — Alisher Navoiy Hirotga qaytdi.  
 1465- y. — „Devon“. Bu kitob bugun „Ilk devon“ nomi bilan mashhurdir.  
 1466- y. — Samarqandga ketadi.  
 1469- y. — Hirot taxtini Husayn Boyqaro egallaydi.  
 1469—1472- yillarda Husayn Boyqaro saroyida muhrdor bo'lib xizmat qildi.  
 1472—1476- yillarda Husayn Boyqaro saroyida vazir lavozimida xizmat qildi.  
 1476—1483- yillarda ikkinchi devon — „Navodir un-nihoya“ yaratildi.  
 1481—1482- yillarda „Vaqfiya“ asarini yozdi.  
 1483—1485- yillarda „Xamsa“ asari yaratildi.  
 1486- y. — „Navodir un-nihoya“ devoni yaratildi.  
 1487—1488- yillarda Astrobodga hokimlik qildi.  
 1488- y. — „Tarixi muluki Ajam“ asari yozildi.  
 1490- y. — „Xazoyin ul-maoniy“ asari yozildi.  
 1491- y. — „Risolayi muammo“ asari yozildi.  
 1495—1496- yillarda „Nasoyim ul-muhabbat“ asari yozildi.  
 1498—1499- yillarda „Munshaot“ asari yozildi.  
 1500- y. — „Mahbub ul-qulub“ asari yozildi.  
 1501- y. — Hirotta vafot etdi.

*Siz 9- sinfda Oybekning „Navoiy“ romani bilan tanishgan edingiz.*

*Quyidagi jadval asosida shu roman qahramonlarini eslang va Navoiy shaxsi haqidagi fikrlaringizni umumlashtirib, mavzuga tayyorgarlik ko'ring.*

<b>Navoiy</b>	Asarning bosh qahramoni, shoir, tarixiy shaxs.
<b>G'iyosiddin Kichkina</b>	Navoiyning otasi.
<b>Mirzo Qosim Anvoriy</b>	Shoir. Navoiy 4 yoshlarida uning baytlarini o'qib, otasini quvontirardi.
<b>Husayn Boyqaro</b>	Navoiy bilan birga katta bo'lgan, bir maktabda o'qigan temuriyzoada. Hukmdor.

<i>Farididdin Attor</i>	Shoirning „Mantiq ul-tayr“ asarini Navoiy ko‘p mutolaa qilar edi.
<i>Mavlono Lutfiy</i>	Asarda shoir yoshligida u bilan uchrashib, zehniga kutilmagan darajada yuqori baho berganligi eslanadi.
<i>Darveshali</i>	Navoiyning ukasi.
<i>To‘g‘onbek</i>	Zo‘ravon va noinsol soliqchi.
<i>Dildor</i>	To‘g‘onbek uni bir qishloqdan o‘g‘irlab kelgan edi.
<i>Majididdin</i>	Husayn Boyqaro saroyida vazir.
<i>Arslonqul</i>	Dildorni chin yurakdan sevgan dehqon yigit.
<i>Dildor</i>	Mag‘rur va sadoqatli qiz.
<i>Olloyor</i>	Xon harami darvozasini qo‘riqlovchi qul.
<i>Abdulxay</i>	Tabib.
<i>Mirzob</i>	Xon harami darvozasini qo‘riqlovchi posbon.
<i>Muzaffar Mirzo</i>	Shahzoda.
<i>Abulziyo</i>	Hiroflik dongdor, davlatmand, mashhur kishilardan biri, To‘g‘onbekning qayin otasi.
<i>Badiuzzamon</i>	Husayn Boyqaroning katta o‘g‘li, shahzoda.
<i>Abulmuhsim Mirzo</i>	Shahzoda.
<i>Muhammad Husayn</i>	Shahzoda.
<i>Mirzo</i>	Shahzoda.
<i>Abu Ma‘sum Mirzo</i>	Arslonqulning do‘sti.
<i>Zayniddin</i>	Erali jallodning o‘g‘li. U Dildor bilan dastlabki so‘roqni o‘tkazadi.
<i>Pirmat kalla</i>	Arslonqulning do‘sti.
<i>Sultonmurod</i>	Vazir.
<i>Xo‘ja Afzal</i>	Arslonqulning pochchasi. U Amir Temurga daxldor bo‘lgan qilichni Arslonqulga beradi.
<i>Chol</i>	Navoiy homiylik qilgan obodonchilik ishlarida ishlayotgan shaxs.
<i>Mirak Naqqosh</i>	

<i>Mavlono Zamoni</i>	Shoir, Badiuzzamonning hamsuhbatlaridan biri.
<i>Zulnun Arg'unbek</i>	Badiuzzamonning maslahatdoshi, qari sardor.
<i>Ziyovuddin Yusuf</i>	Jomiyning o'g'li.
<i>G'iyosiddin Dehkor</i>	Jomiy vafot etayotganda muttasil qur'on tilovat qilib o'tirgan kishi.

### „Farhod va Shirin“ dostoni qahramonlari

<i>Farhod</i>	Chin xoqonining o'g'li.
<i>Mulkoro</i>	Xoqonning vaziri.
<i>Qoran</i>	Farhod undan tosh yo'nish sirlarini o'rganadi.
<i>Boniy</i>	Farhod undan me'morchilikni o'rganadi.
<i>Moniy</i>	Naqqoshboshi, imorat ustasi.
<i>Iskandar oynasi</i>	Uni kim ochsa, kelajakdan voqif bo'ladi.
<i>Suhaylo</i>	U Farhodga Yunonistonga borish yo'li, yo'ldagi xatarlar, unga qarshi kurashishni o'rgatadi.
<i>Ahraman</i>	Qo'rqinchli o'rmonda yashovchi dev.
<i>Jahonnamo</i>	Butun dunyoni ko'rsatadigan jom. Jomi Jamshid.
<i>Suqrot</i>	Iskandar oynasini ochib, kelajakdan voqif bo'lmoqchi bo'lgan inson. Yunon mamlakatiga borib uch xatarni yengib, Suqrotga uchrashmog'i kerak.
<i>Shopur</i>	Savdogarlar orasidagi dono kishi.
<i>Mehinbonu</i>	Arman mamlakatining podshosi.
<i>Shirin</i>	Mehinbonuning jiyani, Farhodning sevgilisi, asarning bosh qahramoni.
<i>Xisrav</i>	Eron podshosi.
<i>Buzurg Ummid</i>	Xisravning vaziri.
<i>Firibgar</i>	U Farhodni aldab, behush qiladigan dori hidlattiradi.
<i>Sheruya</i>	Xisravning o'g'li.
<i>Bahrom</i>	Farhodning ko'kaldoshi.

## „Farhod va Shirin“

### Tezis-reja

1. Farhodning dunyoga kelishi.
  2. Farhodning bolaligi va tahsil yillari.
  3. Ilmlarni zukkolik bilan egallashi.
  4. Ishq haqida gapirganlarning hikoyalari zukkolik bilan tinglashi va ularga hamdardlik bildirishi.
  5. Farhodda noma'lum dardning paydo bo'lishi.
  6. Qasrlar qurilishi. Unda ustalar Boniy va Moniy o'z hunarlarini ko'rsatadilar. Farhodga ishning borishi haqida ma'lumot berdilar. U qurilishni kuzatishga boradi.
  7. Ustalar ishini tomosha qiladi.
  8. Farhod Qorandan tosh yo'nishni, Moniydan suvrat chizishni, Boniydan bino qurishni o'rganadi.
  9. Qasr bitadi. Qasrda bazmlar boshlanib ketadi. Bahor keladi, shoh va shahzoda bahorgi qasrda bazm qiladilar.
- Yoz va kuzda yozgi va kuzgi qasrda, qishda qishki qasrda bazm uyushtiriladi.

Lekin Farhodning dardi yo'qolmaydi.

10. Xoqon xonlik tojini o'g'li boshiga kiydirmoqchi bo'ladi. Lekin Farhod bosh tortadi.
11. Xoqon Farhodni o'z xazinasiga olib kirib, boylik bilan Farhodning ko'nglini ko'tarmoqchi bo'ladi.
12. Farhod xazinani tomosha qiladi. Ko'zi bir sandiqqa tushadi. Farhod sandiq sirini bilishni istaydi.
13. Sandiqdan bir oyna chiqadi. G'aybning siri. Oyna sirini bilishni istagan kishi Yunonistonga borishi kerak edi.
14. Farhod bilan Mulgoro ko'p kengashganlaridan so'ng, Yunonistonga qo'shin tortishga qaror qiladilar.
15. U yerda Suhaylo hakim Farhodning uch qahramonlik ko'rsatishini bashorat qiladi. Farhod bu qahramonliklarni qiladi: Ahraman devni va ajdahoni o'ldiradi. Ular saqlagan xazinani qo'lga kiritadi. Suqrot tog'i tilsimini ochib, jahon sirlaridan voqif qiluvchi oynani qo'lga kiritadi. So'ng Suqrotga yo'liqadi. Suqrot Farhodning kelajagidan xabar beradi. Seni ishq mojarolari va dard-alamlar chekish kutyapti,— deydi.
16. Farhod uya qaytib, xazinaga kirib, oynani ko'radi. Unda Shirin jamolini ko'rib, hushini yo'qotadi.

17. Farhod ko'zguda dasht, unda azoblanib ariq qaziyotgan odamlarni ko'radi. Ularning orasida bir yosh yigit ham mehnat qilardi.

Ko'zguda kishilar orasida Farhod o'z timsolini tanib qoladi. Ko'zgudagi Farhod bir go'zalning ruxsorini ko'rib yiqiladi. Farhod ham oynadagi oy yuzlini ko'rib, hushini yo'qotadi, butun saroy ahli oyoqqa turadi.

Oynadagi go'zal Farhod qalbidan o'rin oladi.

18. Farhod nima qilishni bilmay qoladi: muhabbatini qidirib ketsa, ortidan otasi qo'shin yuboradi, so'rab ketsa, odam qo'shib yuboradi. Farhod ishq o'ti bilan yonib, uydan keta olmay azoblanadi.

19. Xoqon Farhodning ahvolini ko'rib, unu tabibga ko'rsatadi. Tabiblar Farhodning zaiflashganini, uni dengizga sayohatga olib borish lozimligini aytadi. Xoqon bunga rozi bo'ladi.

Xoqon Farhodni dengiz sayohatiga olib chiqadi.

20. Dengiz safari. Shoh va shahzoda dengizdagi ko'p ajoyibotlarni tomosha qiladilar. Shu payt bo'ron boshlanadi. Farhodni qayiqqa tushiradilar. Shamol qayiqni olib ketadi.

21. Qayiq Yaman yurtiga borib, savdogarlarning kemasiga yo'liqadi.

22. Farhod ularni qaroqchilar hujumidan qutqaradi.

23. U yerda Farhod Shopur bilan tanishadi. Shopur Farhodning dardini bilib, u izlab yurgan, oynada ko'rgan yurt Armaniston ekanligini aytadi va u yerga Farhodni olib boradi.

24. Arman yurtiga kelgach Farhod oynada ko'rgan dasht va u yerda mehnat qilayotgan kishilarni ko'radi.

25. Farhod ulardan ish sharoiti to'g'risida so'raydi. Tog'da ariq qaziyotganlar ish sharoitlari, mamlakat hokimi Mehinbonu va uning jiyani to'g'risida ma'lumot beradi.

26. Farhod ularga yordam berishga jazm qiladi, zo'r natijalarga erishadi.

27. Mehinbonu va Shirin Farhodni ko'rish uchun yo'lga tushadilar.

Go'zallikda tengi yo'q Shirin tog'da ariq qaziyotgan Farhodni ko'radi va hayratda qolib, unga minnatdorchilik bildiradi.

28. Farhod Shirinni ko'rib, bu o'sha o'zi izlagan va sevgan qiz ekanligini biladi, hushini yo'qotadi.

29. Hushsiz Farhodni saroyga olib ketadilar.

Farhod hushsiz ikki kun yotadi. O'ziga kelgach, saroydan

tog'ga qochib keladi va ishini davom ettiradi. U Shirin tomonidan o'ziga ko'rsatilgan iltifotdan quvonib, yanada zo'rroq mehnat qiladi.

30. Shirin Farhod ishqida azoblanib, uni qidirtiradi. Mehinbonu Shirinning ishq iztirobidan xabar topadi va unga hamdardlik bildiradi.

31. Farhod ariqni qazib tugatadi, tog'da qasr va hovuz barpo etadi.

Ariqqa suv ochilish marosimi. Mehinbonu Farhodning qoshiga kelib, undan uzr so'rab, Shirin kelguncha suvni ochmay turish kerakligini aytadi.

32. Shirin keladi. Mehinbonu buyrug'i bilan Farhod ariqqa suv boylaydi. Xalq xursand bo'ladi.

33. Bu marosimda Shirin oti bilan loyga tiqilib qoladi, Farhod oti bilan uni ko'tarib olib chiqadi.

34. Mehinbonu va Shirin ishning yakunidan xursand bo'ladilar. Mehinbonu saroyda bazm qurib, unga Farhodni taklif qilmoqchi bo'ladi. Farhod rozi bo'ladi. Bazm boshlanadi. Farhod bazmda saroydagi o'n zukko qiz bilan ilm-fanning turli sohalari haqida bahslashadi.

35. Farhod Mehinbonuga bo'lgan yuksak hurmatini ifodalab, uning uchun jonini ham berishga tayyor ekanligini aytadi.

36. Mehinbonu Farhodning ishqidan xabar topib, unga hamdardlik bildiradi. Shirinni chaqirishni buyuradi. Shirin Farhodga uning hunari va ishlari uchun tashakkur aytadi. Farhod va Shirin muhabbatdan mast bo'lib, hushsiz yiqiladilar.

37. Shoh Xisrav. Unga merosxo'r kerak edi. U Shirinning ta'rifini eshitib, unga uylanishni istaydi. Arman yurtida esa Farhod va Shirin muhabbati to'g'risida gaplar tarqalgan edi. Xisrav Shirinni qo'lga kiritishni istab, Mehinbonu huzuriga sovcilar yuboradi.

38. Mehinbonu Xisrav sovcilariga bahona qilib, Shirin hali yosh, uni uzatishga erta, deydi.

39. Xisrav bundan g'azablanadi va Arman yurtiga yurish qiladi.

40. Mehinbonu kishilari bilan qal'aga qamalib oladi.

41. Farhod esa tashqarida yurar edi. Xisrav tosh ustida o'tirgan Farhodni ko'radi. Uning kimligini bilib, g'azablanadi. Uni tutmoqchi bo'ladi. Farhod ularni yaqinlashtirmaslikka intiladi. Xisravga yuzlanib, uning ishlari nohaqligini uqtiradi.

42. Xisrav Farhodning o'zini tutishidan jahli chiqadi. U vaziri



Buzurg Ummid bilan maslahatlashib, Mehinbonuga tahdidli xat yozadi.

43. Mehinbonu xatga qattiq javob qaytaradi. Xisrav Farhodni tutish uchun bir hiylagar kampirni yuboradi va uni qo'lg'a tushiradi.

44. Farhodning Shiringa oshiqligidan alamda yurgan Xisrav va Farhod orasida munozara bo'lib o'tadi. Farhodning mag'rurligidan va javoblaridan Xisravning jahli chiqadi. O'zining uning oldida o'qiz ekanligini sezadi. Farhod Xisravga „Sen meni azoblashdan xursand bo'lma, azoblanish mening niyatim,“ — deydi va o'zining muhabbati, Xisravga bo'lgan nafratini ifodalaydi. Xisrav Farhodning o'tli qalbini, uning xalq orasidagi obro'sini ko'rib, vahimaga tushadi. Uni o'ldirishdan qo'rqib, Sa'osil qo'rg'oniga qamab qo'yadi.

45. Xisrav Farhodni qo'riqlovchi nigohbonlarga uni qattiq nazorat qilishni buyuradi. Ularga agar Farhodni qo'yib yuborsalar, jazo tayinlanishini aytadi. Lekin ularning Farhodga rahmlari kelib, uni erkin qo'yadilar.

46. Farhod dasht kezadi.

47. Xisrav Farhodning bandi ochilganidan g'azablanadi.

48. Mehinbonu Shiringa Farhodning ahvolidan xabar beradi. Shirin ishqdan azoblanadi. Shopur Shiringa Farhod to'g'risida ma'lumot beradi. Shirin buni eshitib iztirob chekadi. Farhodga xat yozib, uni eltib berish uchun Shopurga topshiradi.

49. Farhod Shiringa javob xatini yuboradi. Shirin javob maktubini olib, muhabbat o'tida o'rtanadi. Xisrav ikki oradagi yozishmalardan xabar topib, Shopurni tutib, hibs etadi.

50. Xisrav Farhodni o'ldirish choralarini qidiradi. Bir makkor kampirni Farhodning oldiga yuboradi. Bu ayyor kampir, Farhodni aldab, Xisrav bilan Mehinbonu yarashdilar, Mehinbonu Shirinni Xisravga berishga rozi bo'ldi, Shirin esa bundan xafa bo'lib, o'zini-o'zi o'ldirdi, deydi.

51. Bu mash'um xabarni eshitib, Farhod bu dunyodan ko'z yumadi. Farhod sevgilisi Shirinning nomini aytib jon beradi. Butun dunyo, tabiat uning o'limidan motam tutadi.

52. Xusrav Mehinbonu huzuriga odamlarini yuboradi. Elchilar ham yaxshi gapirib, taslim bo'lishni, endi Farhod yo'qligini aytadilar. Mehinbonu ham qal'adagi xalq qiynalgani sababli yarashishga rozi bo'ladi.

53. Shirin esa Farhod dardida fig'on chekardi. U ham odamlarning ahvolini bilib, taslim bo'lishga rozilik bildiradi.

Mehinbonu Shirinning ahvoli yomonligini aytib, Xisravdan uni tog'ning bahavo joyiga yuborishini so'raydi.

54. Xisravning Sheruya ismli o'g'li bo'lib, ota va bolaning o'rtalari yaxshi emas edi. Sheruya Shirinni ko'rib, yoqtirib qoladi. Shirinning o'ziga ona bo'lib qolishidan cho'chib, Xisravni o'ldiradi. Shirinni o'ziga so'rattiradi.

55. Sheruya Shiringa ishqdan lof urib, uning uchun o'z otasini o'ldirganini aytadi.

56. Shirin, men Farhodni sevardim, uni oxirgi marta ko'rish uchun meni uning jasadi yotgan joyga olib boringlar, deydi. Shundan so'nggina, Sheruyaning shartiga ko'nishini aytadi. Sheruya rozi bo'lib, bundan xursand bo'ladi.

57. Shirin Mehinbonu bilan vidolashib, Farhodning jasadi yoniga boradi va shu yerda jon beradi.

58. Shundan so'ng Mehinbonu ham vafot etadi.

59. Farhodning ko'kaldoshi Bahrom keladi va o'ch oladi.

## Ruboiylar

G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,  
El anga shafiq-u mehribon bo'lmas emish.  
Oltun qafas ichra gar qizil gul butsa,  
Bulbulg'a tikondek oshyon bo'lmas emish.

\* \* \*

Zohid, senga hur, manga jonona kerak,  
Jannat sanga bo'lsun, manga mayxona kerak.  
Mayxona aro soqiy-u paymona kerak,  
Paymona necha bo'lsa to'la yona kerak.

\* \* \*

Jondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz,  
Sondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.  
Har neniki sevmak andin ortuq bo'lmas,  
Andin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.

## G 'azallar

### (O'n sakiz ming olam oshubi...)

O'n sakiz ming olam oshubi agar boshindadur,  
Ne ajab, chun sarvinozim o'n sakiz yoshindadur.

Desa bo'lg'aykim, yana o'n sakiz yil husni bor,  
O'n sakiz yoshinda muncha fitnakim boshindadur.

O'n sakiz yil, dema, yuz sakson yil o'lsa, uldurur,  
Husn shohi, ul balolarkim ko'z-u qoshindadur.

Hayrat etman husni naqshidaki, har hayratki bor,  
Barchasi ezid taolo sun naqqoshindadur.

Tan anga siym-u, ichinda tosh muzmar ko'nglidin,  
Aqlg'a yuz hayrat ul oyning ich-u toshindadur.

May ketur, ey mug'ki, yuz hayrat aro qolmish Masih,  
Bul ajablarkim, bu eski dayr xuffoshindadur.

To Navoiy to'kti ul oy furqatidin bahri ashk,  
Har qachon boqsang, quyosh aksi aning yoshindadur.

### (Kecha kelgumdur, debon...)

Kecha kelgumdur, debon, ul sarvi gulro' kelmadi,  
Ko'zlarimga kecha tong otquncha uyqu kelmadi.

Lahza-lahza chiqtim-u, chektim yo'lida intizor,  
Keldi jon og'zimg'a-vu, ul sho'xi badxo' kelmadi.

Orazidek oydin erkanda gar etti ehtiyot,  
Ro'zgorimdek ham o'lg'anda qarong'u kelmadi.

Ul parivash hajridinkim, yig'ladim devonavor,  
Kimsa bormukim, anga ko'rganda kulgu kelmadi.

Ko'zlaringdin necha su kelgay, deb o'lturmang meni,  
Kim, bori qon erdi kelgan, bu kecha su kelmadi.

Tolibi sodiq topilmas, yo'qsakim qo'ydi qadam  
Yo'lg'akim, avvalqadam ma'shuqi o'tru kelmadi.

Ey Navoiy, boda birla xurram et ko'nglung uyin,  
Ne uchunkim, boda kelgan uyga qayg'u kelmadi.

### (Ko'rgali husnungni zor-u...)

Ko'rgali husnungni zor-u muftalo bo'ldum sanga,  
Ne bafolig' kun edikim, oshno bo'ldum sanga.

Har necha dedimki, kun-kundin uzay sendin ko'ngul,  
Vahki, kun-kundin batarrak muftalo bo'ldum sanga.

Men qachon dedim: vafo qilg'il manga – zulm aylading,  
Sen qachon deding: fido bo'lg'il manga – bo'ldum sanga.

Qay pari paykarga dersen: telba bo'ldung – bu sifat,  
Ey pari paykar, ne qilsang qil manga, bo'ldum sanga.

Ey ko'ngul, tarki nasihat ayladim ovvora bo'l,  
Yuz balo yetmaski, men ham bir balo bo'ldum sanga.

Jomi Jam birla Xizr suyi nasibimdur mudom,  
Soqiyo, to tarki joh aylab gado bo'ldum sanga.

G'ussa changidid navoye topmadim ushshoq aro,  
To Navoiydek asir-u benavo bo'ldum sanga.

### Tuyuqlar

Yo rab, ul shahd-u shakar yo labdurur?  
Yo magar shahd-u shakar yolabdurur?  
Jonima payvasta novak otqali,  
G'amza o'qin qoshig'a yolabdurur.

\* \* \*

Yo qoshingdin necha bir o'q ko'z tutay,  
Otki, o'trusig'a oning ko'z tutay.  
Necha ko'rgach o'zga mahvashlar qoshin,  
Yangi oy ko'rgan kishidek ko'z tutay.

\* \* \*

Tiyg'i ishqing yorasidur butmagan,  
Dardini har kimga ochib butmagan.  
Hajr sahrosidur ohim o'tiding,  
Anda gul yoxud giyohe butmagan.

\* \* \*

Necha dedim ul sanamg'a bormog'in,  
Qilmadi ul tark oxir bormog'in.  
Munchakim xudroyliq ko'rguzdi ul,  
Aql hayrat qildi, tishlab bormog'in.

### **„Farhod va Shirin“ dostonidan parchalar**

Dedi: — „Qaydinsen, ey majnuni gumrah?!“

Dedi: — „Majnun vatandin qayda ogah?“

Dedi: — „Nedur sanga olamda pesha?“

Dedi: — „Ishq ichra majnunluq hamesha“.

Dedi: — „Bu ishdin o'lmas kasb ro'zi!“

Dedi: — „Kasb o'lsa hasdur ishq so'zi“.

Dedikim: — „Ishq o'tidin de fasona!“

Dedi: — „Kuymay kishi topmas nishona“.

Dedikim: — „Kuymagingni ayla ma'lum!“

Dedi: — „Andin erur joh ahli mahrum!“

Dedi: — „Qay chog'din o'ldung ishq aro mast?“

Dedi: — „Ruh ermas erdi tang'a payvast“.

Dedi: — „Bu ishqdin inkor qilg'il!“

Dedi: — „Bu so'zdin istig'for qilg'il!“

Dedi: — „No'shi labidin topqay el bahr?“

Dedi: — „Ul no'shdin el qismidur zahr“.

Dedi: — „Joningni olsa la'li yodi?“

Dedikim: — „Ushbudur jonim murodi“.

Dedi: — „Ko‘ksungni gar chok etsa bebok?“  
 Dedi: — „Ko‘nglum tutay ham ayla deb chok!“

Dedi: — „Ko‘nglung fido qilsa jafosi?“  
 Dedi: — „Jonimni ham aylay fidosi“.

Dedikim: — „Ishqdin yo‘q juz ziyon bud“  
 Dedi: — „Bu keldi savdo ahlig‘a sud“.

Dedi: — „Bu ishq tarki yaxshiroqdur!“  
 Dedi: — „Bu sheva oshiqdin yiroqdur!“

Dedi: — „Ol ganj-u, qo‘y mehrin nihoniy!“  
 Dedi: — „Tufroqqa berman kimyoni!“

Dedi: — „Joningg‘a hijron kinakashdur“,  
 Dedi: — „Chun bor vasl ummidi x (v) ashdur“.

Dedikim: — „Shahg‘a bo‘lma shirkatandesh!“  
 Dedi: — „Ishq ichra tengdur shoh-u darvesh!“

Dedi: — „Kishvar beray, kech bu havasdin“,  
 Dedi: — „Bechora, kech bu multamasdin!“

Dedi: — „Ishq ichra qatling hukm etgum!“  
 Dedi: — „Ishqida maqsudung‘a yetgum!“

Dedi: — „Bu ishda yo‘q sendin yiroq qatl“,  
 Dedi: — „Bu so‘zlaringdin yaxshiroq qatl“.





### *Savol va topshiriqlar*

1. Alisher Navoiyning turkiy adabiyot rivojidadagi o‘rni haqidagi fikrlaringizni yozing.
2. Alisher Navoiy devonlari nomlarini yoddan yozishga harakat qiling.
3. Shoir devonlari mavzu doirasiga e‘tibor bering. Devonlardagi mavzu bilan ularning nomlanishidagi bog‘liqliklar haqidagi fikrlaringizni yozing.
4. Navoiy qalamiga mansub bo‘lgan o‘zingiz yod olgan g‘azal-laringizni lug‘atsiz sharhlashga tayyorlaning.
5. Navoiy g‘azallaridagi lirik qahramon his-tuyg‘ulari va kechinmalari haqidagi fikrlaringizni ayting.

6. „Farhod va Shirin“ dostonining bosh qahramonlariga tavsif berishga tayyorlaning.
7. „Farhod va Shirin“ dostonidagi ramziy qahramonlar haqidagi fikrlaringizni umumlashtiring va ularning dostonga kiritilishi borasidagi mushohadalaringizni yozing.
8. „Farhod va Shirin“ dostonidagi o'y-fikrlari va xarakteri jihatidan o'xshash bo'lgan qaysi qahramonlar bilan „Xamsa“ning boshqa dostonlarida ham uchrashgansiz? Navoiyning maktabda o'rgangan dostonlarini eslang.
9. Shoir Nizomiy va boshqa xamsanavislardan farqli ravishda dostonda Navoiy Farhodni asosiy qahramon darajasiga ko'targan. Buning sabablarini nimada deb o'ylaysiz?
10. Alisher Navoiy ijodining sermahsulligi haqidagi fikrlaringiz qanday?



  
**Zahiriddin Muhammad Bobur**  
(1483—1530)  


*Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodiy faoliyati  
yuzasidan o'rtta umumta'lim dasturi bo'yicha mustahkamlovchi  
savol va topshiriqlar*

1. Boburning bizgacha nechta she'ri va ruboiylari yetib kelgan. (5-sinf)

2. „Har kimki“ deb boshlanuvchi ruboiyning mazmunini eslang.

*Siz 7-sinfda Xayriddin Sulstonovning „Saodat sohili“ nomli asaridan olingan parcha bilan tanishgan edingiz. Quyidagi ma'lumotlar asosida shu roman qahramonlarini eslang va Bobur shaxsi haqidagi fikrlaringizni umumlashtirib, mavzuga tayyorgarlik ko'ring.*

<i>Hofiz Ko'ykiy</i>	Asarning bosh qahramoni.
<i>Yusufiy</i>	Bobur saroyining mulozimlaridan biri.
<i>Mirzo Bobur</i>	Tarixiy shaxs, shoh va shoir.
<i>Muhammad G'azzoliy</i>	Imom hazrat.
<i>Sulton Muhammad</i>	Bobur qo'shinining yirik
<i>Do'ldoy</i>	lashkarboshilaridan biri.
<i>Humoyun Mirzo</i>	Boburning o'g'li.
<i>Hasan ali</i>	Lashkarboshi.
<i>Kichik xoja</i>	Saroy muhrdori.
<i>Malik xoja</i>	Kichik xojaning o'g'li.
<i>Gulbadanbegim</i>	7-8 yoshda, Mirzo Boburning qizi.
<i>Nusrat shoh</i>	Bangola hukmdori.
<i>Biban</i>	Afg'on amirlaridan biri.
<i>Boyazid</i>	Afg'on amirlaridan biri.
<i>Abul Muhammad</i>	Lashkarboshi, nayzador.
<i>Fotihxon Sarboniy</i>	Isyonchilar boshlig'i.
<i>Sherxon Sur</i>	Lashkarboshi.



## Hayoti va ijod yo'li

- 1483- y. — Farg'ona viloyatining poytaxti Andijonda tug'ildi.
- 1494- y. — Otasi vafot etdi. Toshkent hokimi Aysi ustiga qo'shin tortadi. Bobur otasi o'rniga hokim bo'lib, shoshilinch Aysiga yo'l oladi. Omad yosh hukmdorga kulib boqadi.
- 1497- y. — Bobur mingga yaqin kishi bilan yana Samarqandga otlanadi. Bobur shaharga kiradi.
- 1498- y. — 15 yoshda Samarqandni egallab oladi.
- 1499- y. — Andijonga qaytib, shaharni qayta egallashga muvaffaq bo'ladi.
- 1500- y. — Samarqand Shayboniyxon qo'liga o'tadi.
- 1501- y. — Zarafshon daryosi bo'yida, Saripul qishlog'i yaqinida Shayboniy qo'shini bilan qattiq jang bo'ladi.
- 1502- y. — Tanbalning Toshkentga yurishga tayyorgarlik ko'rayotgani haqida xabar keladi.
- 1503- y. — Bobur shiddat bilan Qobul va G'aznani jangsiz oladi.
- 1504- y. — 300 dan ziyodroq yigit bilan Afg'onistonga qarab yuradi.  
Shu yili „Xatti Boburiy“ deb atalgan alifbe yaratdi.
- 1505- y. — Boburning onasi Qutlug' Nigorxonim vafot etdi.
- 1507- y. — Bobur Hindistonni egallash rejasini tuzadi.
- 1510- y. — Shayboniyxon Marvda qamalda qolib yengildi va halok bo'ldi.
- 1512- y. — Bobur Hisorga qarab yo'l oldi.
- 1512- y. — Bobur Samarqandga yurish qildi.
- 1513- y. — Ubaydulla Sulton va Muhammad Temur Sulton Boburga qarshi yurish boshladi.
- 1519- yildan 1525- yilga qadar Hindistonga besh marta yurish qiladi.
- 1521- y. — Soliq ishlarini tartibga soluvchi „Mubayn al-zakat“.
- 1526- y. — Bobur qo'shini bilan Ibrohim Lo'diy qoshini o'rtasida hal etuvchi jang bo'lib, Bobur Hindistonni olishga muvaffaq bo'ladi va Shimoliy Hindistonda Boburiylar sulolasining hukmronligiga asos soladi. Dehlida Bobur nomiga xutba o'qildi. Xuddi shu yili Bobur dushmanlari tomonidan zaharlanib, tasodif tufayligina omon qoladi

- 1528- y. — Xo‘ja Ubaydulla Ahrorning „Volidiya“ risolasini fors-tojik tilidan o‘zbek tiliga she‘riy yo‘l bilan tarjima qildi.
- 1530- y. — Bobur Agrada vafot etadi.
- 1533- y. — O‘zining vasiyatiga ko‘ra, Qobulda qayta dafn etiladi.

### „Boburnoma“ zamonlar oshib ...

- 1826- y. — Jon Leyden bilan B.Erskin „Boburnoma“ ning o‘zbekcha va forscha nusxalarini solishtirib, uni ingliz tiliga tarjima qilishgan va Londonda nashr ettirishgan.
- 1828- y. — A.Keyzer „Boburnoma“ ning inglizcha tarjimasini qisqartirib nemis tiliga tarjima qildi.
- 1844- y. — R.M.Kaldekot „Boburnoma“ ning forscha tarjimasida asosida uni qisqartirib, ingliz tiliga tarjima qildi va Londonda nashr ettirdi.
- 1857- y. — Qozonda turkshunos rus olimi N.Ilminskiy tomonidan „Boburnoma“ asari nashr etildi.
- 1858- y. — Inglizlar so‘nggi Boburiy-Bahodirshoh II ni taxtdan tushirib, Birmaga umrbod surgun qiladi. Hindistonni o‘z mustamlakasiga aylantiradi.
- 1858- y. — Boburiylar sulolasi Hindistonni boshqardi.
- 1871- y. — „Boburnoma“ning tarjimasini Parijda nashr etildi.
- 1905- y. — Toshkentda G‘ulom Hasan toshbosmaxonasida „Mubayyinul-islom“ nomi bilan nashr etildi.
- 1905- y. — Londonda ingliz olimasi A.Beverij xonim „Boburnoma“ning Haydarobodda topilgan bir qo‘lyozmasini nashr ettirdi.
- 1910- y. — Ingliz sharqshunosi Denison Ross Kalkuttada Boburning Hindistonda ijod etgan she‘rlarini ingliz tiliga tarjima qilib, nashr ettirdi.
- 1912- y. — Istanbulda „Volidiya“ risolasi „Milliy tatabbu‘lar majmuasi“da bosilgan.
- 1917- y. — Petrogradida Bobur she‘rlari nashr ettirildi.
- 1921- y. — Bobur she‘rlari Uayt King tomonidan to‘ldirilib va tuzatilib, qayta nashr etildi.
- 1931- y. — Bobur she‘rlari Istambuldagi „Milliy tatabbu‘lar majmuasi“da bosildi.

- 1941- y. — H.Yoqubovning „Bobur“ nomli risolasi nashr etildi.  
 1943- y. — Bobur she'rlarining ruscha tarjimai nashr etildi.  
 1948- y. — „Boburnoma“ning badiiy xususiyatalri haqida dissertatsiyalar.  
 1949- y. — „Boburnoma“ kitob holida nashr etildi.  
 1954- y. — G.F.Blagovaning „Boburnoma“ tilining morfologiyasiga doir kitobi nashr etildi.  
 1960- y. — „Boburnoma“ga tuzatishlar kiritib, qayta nashr etildi.  
 1966- y. — Bobur asarlarining uch tomligi bosildi.  
 1969- y. — Hamid Sulaymon tomonidan miniaturalar nashr etildi.  
 1972- y. — „Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari uchun lug'at“ kitobi nashr etildi.  
 1972- y. — „Bobur va o'zbek adabiy tili“ risolasi.

## G'azallar

### „Qaro zulfig“

Qaro zulfig firoqida parishon ro'zgorim bor,  
 Yuzingning ishtiyoqida ne sabr-u, ne qarorim bor.

Labing bag'rimni qon qildi, ko'zimdin qon ravon qildi,  
 Nega holim yomon qildi, men undan so'rorim bor.

Jahondin menga g'am bo'lsa, ulusdin gar alam bo'lsa,  
 Ne g'am yuz muncha ham bo'lsa, seningdek g'amguzorim bor.

Agar muslih men, ar mufsid, va gar oshiqmen ar obid,  
 Ne ishing bor sening zohid, meningki ixtiyorim bor.

Fig'onim oshti bulbuldin, g'ami yo'q zarra bu guldin,  
 Basi Bobur, o'shal guldin ko'ngilda xor-xorim bor.

## Ruboiylar

Raftori-yu qaddig'a ravonim sadqa,  
 Bir boqishig'a ikki jahonim sadqa,  
 Og'zi-yu beliga bud-nobodim sarf,  
 Ko'zi-yu labig'a jism-u jonim sadqa.

Beqaydmen-u xarobi siym ermasmen,  
Ham mol yig'ishtinur laim ermasmen.  
Qobulda iqomat etdi Bobur, dersiz,  
Andoq demangizlarki, muqim emasmen.

\* \* \*

Yod etmas emish kishini g'urbatda kishi,  
Shod etmas emish ko'ngilni mehnatda kishi.  
Ko'nglim bu g'ariblikda shod o'lmadi, oh,  
G'urbatda sevinmas emish, albatta, kishi.

\* \* \*

Ko'ngli tilag'an murodig'a yetsa kishi,  
Yo barcha murodlarni tark etsa kishi.  
Bu ikki ish muyassar o'lmasa olamda,  
Boshini olib bir sarig'a ketsa kishi.

\* \* \*

Xotirg'a putur yetdi bu soz yangla, axi,  
Aytay senga, sen quloq solib angla, axi.  
Umringni bu kun xush kechur ahbob ila kim,  
Topulmog'usi ushbu kun tangla, axi.

### **„Boburnoma“ haqida**

Zahiriddin Muhammad Boburning „Boburnoma“ asari Boburning hayoti va ijodini o'rganishda birinchi manba bo'lib hisoblanadi. Nafaqat hayoti va ijodi, balki Boburning XV asr oxiri va XVI asr boshlaridagi zamondoshlari ham buyuk tariximizni o'rganishda katta bir dastur bo'lib xizmat qiladi.

„Boburnoma“ asarini o'qir ekanmiz, unda biz Boburning voqea-hodisalarga, do'st-u dushmanlariga bo'lgan munosabatini ochiq ifodalashini, o'z hatti-harakatlariga tanqidiy nazar bilan qarashini ko'ramiz. Bu esa asarning ilmiy, tarixiy ahamiyatini yana bir bor oshirib yuboradi.

Asar kuchli sinchkovlik bilan yozilgan bo'lib, unda har bir yil voqealariga, o'zbek o'quvchisi uchun notanish urf-udumlar, o'simlik va hayvonlar haqida keng va to'liq ma'lumot beriladi.

## „Boburnoma“dan parcha

Va Muhammad Humoyun bir ili edikim, Badaxshonda diydorlardin ayru tushub erdi, so'ngra bizni sog'inib, Badaxshonni Mirzo Sulaymonkim, aning kuyovi erdi, topshurub, bir kunda Qobulg'a kelur. Va Mirzo Komron Qandahordin Kobulg'a kelgan ekandur. Iydgoh ta muloqot qilib, hayron bo'lub, tavajjuh sababini so'raktur. Va Muhammad Humoyun bizni ishtiyoqimizni aytib, Mirzo Hindolni Qobuldan Badaxshonga yiborub, bizni tarafg'a yura berur. Bir necha kunda dorul xilofa Ograga yetib, o'shul soatkim, biz aning onasi bilan otini tutub, so'zlashib o'lturub erdukkim, yeta-o'q keldi. Ko'ngullar gul yanglig' ochilib, ko'zlar chirog'dek yorudi. Muqarrar har kun chashn edi, lekin aning o'zig'a to'y berib, xushhollig'lar qilduk. Va necha muddatgacha bir yerda bo'lub, musohibona bir-bir bilan suluk qilur erdik. Va alhaq suhbatga bebadal erdi va insonni komilkim derlar, o'shal erdi.

O'shal avqottakim, Muhammad Humoyun Badaxshondin keldi, Sulton Saidxonkim, Qoshg'ar xonlaridin erdi va xeshlig'i ham bizga bor erdi, Rashidxonni Yorkandga qo'yub, xayoli xom qilib, Badaxshon tarafg'a mutavajjih bo'lubtur va andin ilgarirog'kim, ul Badaxshong'a yetmay, Mirzo Hindol borib, Qal'ai Zafarg'a kirib ekandur. Sulton Saidxon uch oy qabal qilib, ilgidin ish kelmay qaytibtur.



Va bizga andoq yettikim, Qoshg'ariylar kelib, Badaxshonni oldilar. Biz Xoja Xalifani farmon berdukkim, Badaxshong'a borib, nechukkim, salohidiy bo'lsa, qilsun. Ul nofahmlig'din qabul qilmadi. Va Muhammad Humoyung'a aytdukkim, seni borg'oning nechuk bo'lg'ay? Ul javob berdikim, farmong'a chora yo'qtur, lekin ahd qilg'onmenkim, o'z ixtiyorim bilan diydordin ayrilmag'aymen. Aning uchun Mirzo Sulaymonni Badaxshong'a ruxsat berildi. Va Sulton Saidg'a bitidukkim, bovujudkim, bizdin necha huquq sizdadur, ajab keldikim, siz mundaq qildingiz. Alhol Mirzo Hindolni charlab, Mirzo Sulaymonni yiborduk. Agar huquqni manzur qilib, Badaxshonni Sulaymon mirzog'akim, bizni farzandimizdur, bersangiz yaxshi bo'lg'ay. Va, illo, biz gunohni o'zimizdin soqit qilib, merosni merosxorg'a topshurduk, bilsunlar. Va Mirzo Sulaymon andin ilgari kim, Qobulg'a yetgay, Badaxshonni dushman ilgidin qo'yub, amonlig' bo'lg'on ekandur. Va Mirzo Sulaymon Badaxshong'a borg'onidan so'ng, Mirzo Hindol Badaxshonni Mirzo Sulaymong'a topshurub, Hindistong'a mutavajjih bo'ldi.

Va Muhammad Humoyun Sanbalg'akim, aning joygiri erdi, ruxsat berildi. Olti oygacha anda edi; zohiran, ani yer va suyi xush yoqmasi. Isitma tutar ekandur, bora-bora uzoqqa tortar. Toonki, biz eshittuk, farmon berildikim. Dehlig'a kelturub, Deholidin kemag'a solib, keltursunlarkim, hakimi hoziqlar ko'rub dardig'a davo qilsunlar. Bir necha kunda daryo yo'li bilan kelturdilar va tabiblar har necha doru-darmon berdilar, yaxshi bo'lmadi. Mir Abulqosimkim, ulug' kishi erdi, arzg'a yetkurdikim, ushmundoq dardlarg'a darmon budurkim, yaxshi nimarsalardin tasadduq qilmoq kerak. Toinki tengri taolo sihat bergay. Mening ko'nglumga keldikim, Muhammad Humoyunning mendin o'zga yaxshiroq nimarsasi yo'q. Men o'zum tasadduq bo'layin, xudoy qabul qilsun. Xoja Xalifa, o'zga muqarrablardin arzg'a tegurdilarkim, Muhammad Humoyun sihat topar, siz bu so'zi nechun tilingizga kelturasiz. G'araz budurkim, dunyo molidin yaxshisini tasadduq qilmoq kerak. Bas, o'shal olmoskim, Ibrohimni urushida tushub erdi, Muhammad Humoyung'a inoyat qilib erdingiz, tasadduq qilmoq kerak. Tilga keldikim, dunyo moli aning evaziga nechuk bo'lg'ay, men aning fidosi qilurmankim, hol anga mushkul bo'lubtur. Va andin o'tubturkim, men aning betoqatlig'ini toqat kelturgaymen. O'shal holatta kirib, uch qatla boshidin o'rgulub, dedimkim, men ko'tardim har ne darding bor. O'shal zamon men og'ir bo'ldum, ul yengil bo'ldi. Ul sihat bo'lub qo'пти. Men noxush bo'lub yiqildim. A'yoni davlat va arkoni mamlakatni charlab, bay'at qo'llarini Humoyunni qo'lig'a berib, joynishinig'ig'a va valiahdlig'ig'a nasb qildim. Va taxtni anga topshurdim. Va Xoja Xalifa va Qanbar Alibek va Turdibek va Hindubek va o'zga xaloyiq ham bu nasoyihda bor edilar, borisi qabul qilib, band bo'ldilar.



### ***Savol va topshiriqlar***

1. Bobur asarlaridagi yetakchilik qiluvchi mavzu nimalardan iborat?
2. Boburning „Boburnoma“ asarining bugungi kundagi ahamiyati nimada deb o'ylaysiz?
3. Boburning Hindistondagi faoliyatiga bugungi kun nuqtayi nazaridan qanday munosabat bildirish mumkin?
4. Bobur va Boburiylar sulolasining Hindiston taraqqiyoti va madaniy hayoti haqidagi fikrlaringiz?
5. Bobur va boburiylar haqida hikoya qiluvchi qanday badiiy asarlarni bilasiz?

  
**Boborahim Mashrab**  
**(1640-1711)**  


*Tezis-reja*

1. Mashrabning dunyoga kelishi.
2. Mashrabning yoshlik yillari.
3. Ustoz huzurida ilk saboq.
4. Ustozlar va tahsil yillari.
5. Hukmdorlar bilan uchrashuv.
6. Mashrab hayoti va ijodi haqida ma'lumot beruvchi manbalar. „Shoh Mashrab qissasi“.
7. Mashrab ijodining o'ziga xosligi.
8. Mashrabning ilohiy kechilmalari va umuminsoniy fazilatlari.

Boborahim Mashrab 1640- yili Namanganda tug'ulgan. U otasidan erta yetim qoldi. Boborahim mahalla maktabida savod chiqardi, madrasada o'qidi, mulla Bozor Oxungga murid bo'ldi. Mashrab yoshligidanoq majnuntabiat, so'fiysifat qiyofa kasb etib boradi. 23 yoshlarida Qashqarga mashhur Ofoqxo'ja eshon huzuriga boradi. She'rlarining guvohlik berishicha, u 7 yil Ofoqxo'ja huzurida bo'lgan. „Mashrab“ taxallusini ham unga Ofoqxo'ja bergan. Mashrab piringing bir kanizagini sevib qoladi va buni sezgan Ofoqxo'ja Mashrabni majruh qilib, dargohidan quvib yuboradi. Shundan so'ng shoirning qalandarona hayoti boshlanadi. U Namangan, Xo'jand, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Makka, Madina, Istanbul kabi shaharlarni kezadi. Alloh oshig'i bo'lgan Mashrab tasavvufining naqshbandiya tariqatiga kirib, qalandarlik yo'lini tutdi. Mansur Halloj izidan bordi va u kabi o'lishni orzu qildi. G'azallarida tariqat odobi, maqsadi va mazmunini bayon qildi.

„Devonayi Mashrab“ qissasida Mashrab haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Mashrab So'fi Olloyor bilan uchrashadi, 18 yilgi ayriliqdan so'ng onasi va singlisi bilan diydor ko'rishadi.

Shoir 1711- yilda bu dunyodan ko'z yumdi.

## G'azallar („Mashrabman“)

Sanamning ishqida tinmay yurub, ovvora Mashrabman,  
Ko'zi yoshlig', qadi xamlig', dili sadpora Mashrabman.

Ko'ngulda zarracha dunyoni mehri bo'lmayin menda,  
Seni deb ikki olamdin kechib, bezora Mashrabman.

O'lib ketsam, lahad ichra so'ngakdin ketmagay darding,  
Jahonda topmadim choraki, men — bechora Mashrabman.

Anodin qay kuni bo'ldim, sening ishqingda oh urdum.  
Muhabbat dashtida yurgan bo'lib ovvora Mashrabman.

Muhabbat jomidin may tuttilar, ichmasga choram yo'q,  
Ko'zumdin qon yoshim tinmay oqar, xunbora Mashrabman.

Boshimga ming balo kelsa, tilarman vaslin, ey zohid,  
„Tilim kessang, to'yorim yo'q,—degan,diyora“ Mashrabman.

Xaloyiqlar meni quvlar, yomon deb har shahar borsam,  
Ajab mardud, ajab mahrum, ajab sangsora Mashrabman.

O'zumni xalq aro ixfolig'imni hech kishi bilmas,  
Dil-u jonim fido aylab, ajab ayyora Mashrabman.

Meni devona Mashrabg'a muhabbatdin bayon aylang,  
Namoz-u ro'zadin forig' bo'lib, sayyora Mashrabman.

## („O'rtar“)

Agar oshiqlig'im aytsam, kuyub jon-u jahon o'rtar,  
Bu ishq sirrin bayon etsam, taqi ul xonumon o'rtar.

Kishig'a ishq o'tidin zarraye yetsa, bo'lur giryon,  
Bo'lub besabr-u betoqat, yurak-bag'ri chunon o'rtar.

Nechuk toqat qilay, do'stlar, bu dard ila bo'lub hayron,  
G'amim boshqa, alam boshqa, yuragimni fig'on o'rtar.



Meni bexonumon tinmay kuyub har dam firoqingda,  
„Nigoro!“ deb oting aytsamki, shavqingdin zabon o‘rtar.

Qay-u til birla, ey jono, sening vasfing bayon aylay,  
Tilim lol-u ko‘zum giryon, so‘ngaklarni nihon o‘rtar.

Na qattig‘ kun ekan, dilbar, visolingdin judo bo‘lmoq,  
Mening ohim o‘tig‘a bul zamin-u osmon o‘rtar.

Yurakda dard-u g‘am qat-qatki, menda qolmadi toqat,  
Agar bir zarrasin bul vaqt desam, ishqi bayon o‘rtar.

Bu dard ila xarob o‘ldum, kelib holimni so‘rmassan,  
Unum chiqsa yurakdin, bu tan-u jon, ustixon o‘rtar.

Bu Mashrab dardini, jonoki, hech kim boshig‘a solma,  
Agar mahsharda oh ursam, bihishti jovidon o‘rtar.

### („Xohi inon, xohi inonma“)

Sensan sevarim, xohi inon, xohi inonma.  
Qondur jigarim, xohi inon, xohi inonma.

G‘am shomi firoqingda kabob etti falakni,  
Ohi saharim, xohi inon, xohi inonma.

Nogah sari zulfung sori bo‘ldum sanga moyil,  
Ey toji sarim, xohi inon, xohi inonma.

La‘ling g‘amidin ko‘nglum erur g‘uncha kibi qon,  
Gulbargi tarim, xohi inon, xohi inonma.  
Zahri g‘ami hajring meni o‘ldurg‘ali yetti,  
Ey labshakarim, xohi inon, xohi inonma.

Mashrab, bo‘lubon kuyingga chun barqi tajalli,  
Qolmay asarim, xohi inon, xohi inonma.



## *Savol va topshiriqlar*

---

1. Boborahim Mashrab hayotidagi eng muhim sanalarni qanday belgilagan bo'lar edingiz?
2. Mashrab ijodida unga ustozlik qilgan kishilarning o'rni haqidagi fikrlaringizni yozing.
3. Mashrab g'azallaridagi lirik qahramonning kechinmalarini qanday izohlaysiz?
4. Shoir she'riyatidagi boshqa klassiklardan farq qiluvchi ustuvorliklarni belgilang.
5. Shoirning siz yod olgan g'azalidagi she'riy san'atlarni belgilang.
6. Mashrabona falsafiy dunyoqarashning mohiyati nimadan iborat?
7. Tariqat haqidagi yoxud uning namoyandalari haqidagi tasavvurlaringizni daftaringizga yozing.
8. «Qissayi Mashrab»ni to'liq o'qib chiqing.
9. Mashrab qismatiga daxldor shaxslar haqida gapiradi.



---

***Shermuhammad Munis***  
(1778—1829)

---

**Hayoti va ijod yo'li**

- 1778- y. — Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog'ida dunyoga keldi.  
1794- y. — Navoiyning „Mezon ul- avzon“ asarini ko'chirdi.  
1797- y. — Navoiyning „Holoti Sayyid Hasan Ardasher“ asarini kitobat qildi.  
1801- y. — To'ramurod fitnasining mag'lubiyati munosabati bilan yozgan 36 baytlik qasida.  
1804- y. — Avazbiy Inoqning olamdan o'tishi.  
Lirik asarlardan iborat ilk devon.  
„Savodi ta'lim“ni tugalladi va devoniga o'z qo'li bilan ko'chirdi.  
1806- y. — Bosh miroblik lavozimiga tayinlanadi va „Firdavs ul-iqbol“ solnomasini yozishga kirishadi.  
1814—1815- yillarda o'z adabiy merosini hajman to'liq aks ettirgan mukammal devon yaratadi.  
1829- y. — Munis vabo kasaliga chalilib, vafot etadi.

**„Firdavs ul-iqbol“ solnomasidan  
parcha**

„...kichiklik ovoni, yigitlik anfuvonikim, hayot olamining navbahori va umr navbahorining ayyomi xujastaosoridur, ul fasl va bu mavsum taqozosi bila beparvolig' bodiyasidin jununtoz erdim va jaholat ma'rakasida arbadaboz, boshimda ishrat havosi vofir erdi, ko'nglimda nishot savdosi mutakosir. Goh arozil muholatatidin xotirim g'amparvar erdi, avbosh muvolifatidin zamirim mukaddar, goh ulamo xizmatidin sarbaland erdim va fuzalo suhbatidin bahramand. Agar falaki g'adorning gunogun hodisoti hujum qilsa, she'r mushohadasi bilakim, mahzunlar unsi va ma'munlar jalisidur, raf'i malolat qilur erdim. Agar zamoni nopoydorning rango-rang ofati g'uluv etsa, tavorix mutolaasi

bilakim, avzoyi ahli olam vuqufig'a sabab va kayfiyati suluki bani odam ittilo'ig'a boisdur, daf'i kulfat qilur erdim.

### „Munis ul-ushshoq“ devonidan parcha

„Andoqkim, ota va ona va ini mani bekas ibtilosig'a sazovor va motamkashlik halosiga giriftor qildi, nazm:

Tiyra qildim dudi ohimdin jahon koshonasin,  
Har birining so'gi anduhidin aylab nolalar.  
Laxta-laxta ashki xunofud ila qildim ravon  
Har biri hajrida bag'rimni qilib pargolalar.

Mundin o'zga yana navoyib va olomekim, sharh-u itnobi mujibi kuduratdur-nasibim bo'ldi. Har birining xazon tundbodi-dek zamirim gulistong'a guzar qilmog'idin umidim guli kulliy so'ldi. Ul asnoda har hodisag'a muvofiq abyoti dardomezkim, oshuftalar taniga o't solg'udektur. noyirayi oh yanglig' qonuni zamirimdin ko'prak zabona urur erdi va har sonihag'a mutobiq ash'ori kulfatangezkim, mahzunlar qarorin olg'udektur. shu'layi otashgoh yanglig' ziqlig' gulxani xayolimdin ziyodaroq bosh chekar erdi, goho tavoridan ko'ngulga soriy va goho badihatana tilga joriy bo'lur erdi... Va lekin ul asnoda gohi hexudlig'din ifoqat hosil bo'lub, mastliqdin hushyorliqqa vosil bo'lg'onda tabiati jibilliy va kayfiyat iqtizosi bilan ahyonon fuzalo xizmatig'a moyil va kitobxonliq suhbatig'a doxil bo'lur erdim. Sharafi xizmat natoyiji va asari suhbat mayomini bila tab'img'a kayfiyatlar yuzlanib va holatlar dast berib, nazm silkida mubayyan va vazn zevari bila muzayyan bo'lur erdi... Lojaram, devon tartibig'a shuru' etildi va oz fursatda itmom haddig'a yetildi... har nav' she'r bila orosta va har zayl nazm bila pirosta bo'ldi. Andoqkim, g'arro qasidalar va dilkusho g'azallar, fasohatoyin tarkibbandlar, latofattazyin qit'alar, sharif musaddas va muxammaslar, latif ruboiy va muammolar, shirin masnaviy va rangin tuyug'lar va g'ayruhum. Taxminan, olti ming baytdur... Agarchi aksar g'azal va ruboiylarkim, majoz yo'sinida ishq-u husn zohiri sifatida voqe erdi, valekin maoniyi haqoyiq bayonidin oriy va mavoizi daqoyiq nishonidin xoli ermas erdi. Chun anga ushshoq unsi ko'prak erdi, „Munis ul-ushshoq“ qa mavsum va ul ism bila shuhrat avroqig'a marqum“.

## „Do‘stlar, mensiz dame...“ g‘azali

Do‘stlar, mensiz dame ohangi ishrat qilmangiz,  
Siz ichib sahbo, meni xunxori hasrat qilmangiz.

Gar muyassar bo‘lsa bir mahjub ila bazmi nishot,  
Mensizin suhbat tuzarga mayl-u rag‘bat qilmangiz.

Topsangiz bazmi visole, anda yod etmay meni,  
Zor ko‘nglumni asiri dog‘i furqat qilmangiz.

Men kibi yo‘qdur aroda, mankub-u maxmur-u aysh,  
Kimsaga mendin ziyoda boda shafqat qilmangiz.

Ahli donish birla har dam aylangiz bazmi kitob,  
Jam‘i nodonlar bila izhori ulfat qilmangiz.

Do‘st, uldurkim, yomon kun yuz evurmas do‘stidin,  
Munis ahvolin ko‘rib, tarki muhabbat qilmangiz.

## „Munis ul-ushshoq“ asari haqida

Muhammad Rahimxon hukmronligining yettinchi yili Munis o‘z she‘rlarini to‘plab, „Devon“ tartib bera boshladi. Devonga kiritilgan she‘r turlari va baytlarining soni haqida shoir o‘zining „Munis ul-ushshoq“ asarida ma‘lumot berib o‘tgan.

„Munis ul-ushshoq“ devonida o‘z davridagi xalq manfaatlariga nomuvofiq bo‘lgan sharoitni tuzatish, ijtimoiy hayotni taraqqiyot iziga solish uchun ilm-hunarga va madaniyatga e‘tibor berish lozimligi haqida so‘z yuritiladi.



### *Savol va topshiriqlar*

1. Shoir yashagan davr adabiy muhiti haqida qanday ma‘lumotlar bera olasiz?
2. Shoir ijodida qanday o‘ziga xosliklar bor?
3. Shoirning yuqorida keltirilgan g‘azalini lug‘atsiz sharhlab berishga tayyorgarlik ko‘ring.

---

***Xo'janazar Huvaydo***  
*(Tug'ilgan yili noma'lum, vafoti taxminan 1780–1781-yillar)*

---

Xo'janazar G'oyibnazar o'g'li Huvaydo sulolasi o'shlik bo'lib, uning o'zi Farg'onaning Chimyon qishlog'ida tug'ilgan va umrining oxirigacha shu yerda yashab ijod qilgan. Uning tug'ilgan yili noma'lum. Huvaydo boshlang'ich ta'limni Chimyondagi maktabda oladi.

1994- yilda shoir tavalludining 209 yilligi arafasida, uning hayoti va ijodi haqida dastlabki dissertatsiya himoya qilindi. „Rohati dil“ dostoni chop etildi.

Huvaydo qarindoshlarining taxminiga ko'ra, 1704- yilda tug'ilgan. Otasi G'oyibnazar sharq olamida mashhur qashqarlik Ofoqxo'janing muridi bo'lgan. U ilimli, donishmand kishi edi. Chimyonda maktabdor eshon bo'lgan...

Tasavvuf ta'limi mohiyatidan kelib chiqib, u to'quvchilik hunari bilan ham shug'ullandi. Zamondoshlarining marsiya tarixlarida shoirning 1780-1781- yillarda vafot etgani aytiladi.

Shoir devoniga uning 351 g'azali, 28 ruboiysi, 41 to'rtligi, 3 muxammasi, 1 musaddasi, 1 musammani, 1 mustazodi, 3 masnaviysi va „Rohati dil“ dostoni kiritilgan.

Huvaydo o'z ijodida insoniyatning barcha ranj-u falokatiga keng ma'nodagi sabab nafs ekanini e'tirof etadi.

**„ROHATI DIL“ dostonidan parcha**

**Bayoni g'addoriyi dunyo**

Safar qildi banogoh uch birodar,  
Ag'o erdi, birisi erdi dodar.

Bir erdi ham ato birla anosi,  
Ki bir tuqqon edi har uchchalosi.

Borur erdilar onlar so'yi sahro,  
Tamosho qilibon ul cho'l-u daryo.

Duchor bo'ldi alarg'a yo'lda bir ganj  
„Xudo berdi,—dedilar,—bizga beranj“.

Dedilar: — „Emdi uch hissa qiloliq,  
Ichib-yeb fotiha birla bo'loliq“.

Uchovi dedilar bu so'zni ma'qul.  
Alarni mehri daryo ayladi cho'l.

Chu har kim hissasiga bo'lsa rozi,  
Emasdur hech hojat bizga qozi.

Inisig'a ag'olari buyurdi,  
Ani bir pora zar ilkiga berdi.

„Tavaqquf qilma emdi, ayla sur'at,  
Olib keltur,—dedilar,—bizga ne'mat“.

Inisi yo'lga kirdi, bo'ldi nochor,  
Bobur erdi yugurib suyi bozor.

Ag'olari chu ganj oldida erdi,  
Alarning ko'ngliga dunyo yugurdi.

Dedi dunyo: — „Ani o'ldurmak avlo,  
Ikki hissa qilibon olmak avlo“.

Dedi dunyo: — „Ani o'lturunglar,  
Bo'lub ikkisini beg'am olinglar“.

Inisin o'lturarin kor qildi,  
Pichoq, arg'omchini tayyor qildi.

Anga dunyo yugurib munga keldi,  
Ani ko'ngliga mundog' fikr soldi.

Dedi: — „Ey bachchayi beaqI-u nodon,  
Olursan,—dedi,—bas, moli farovon.

Ikovini bayakbor o'lturursan,  
Tamomi ganjini yolg'uz olursan“.

Alarni o'ltururga qildi angez,  
Nechuk yolg'uz ikovin o'ltiray tez.

O'shal dam ko'p xayol-u fikr qildi,  
Ko'ngulda ko'p bu ishni zikr qildi.

„Soloy emdi taom ichiga og'u,  
Yegandin so'ng o'lur bo'lg'ay ikovu.

Agar o'lsa qolur bo'lg'ay o'shal ganj,  
Manga bo'lg'ay muyassar ganji beranj“.

Taom ichiga ul dam zahr soldi,  
Alarni eltibon oldiga qo'ydi.

Muni mutti o'shal dam ikkalosi,  
Boshin kesti inisini ag'osi.

Inisin o'tturib diljam' bo'ldi,  
Taomlarni alar oldig'a qo'ydi.

Mohazarni qilib ul dam tanovul,  
Vafosiz bevafoqa bo'ldilar go'l.

Vafosiz dunyo uchun to'ktilar qon.  
Zamon o'tmay alar ham berdilar jon.

Biling, chandon kishidin qoldi bu ganj,  
Vafo qilg'on emas hech kimga beranj.

Muningdek nechalarni o'tturubdir,  
Alarning qonig'a ilkin yuvibdur.

Talab qil ma'naviy ganj, ey birodar,  
Varagna sandin avlo gov ila xar.

Talab qil, bo'lsa ganji boziyoni,  
Sanga bo'lg'ay chu umri jovidoni.

Kishi bo'lmasa ma'nidin xabardor,  
Ani odam dema, de naqshi devor.

Ketar, bil, andin insof-u diyonat,  
Kecha-kunduz bo'lur fikri xiyonat.



Aning ko'ngliga tushgay ko'p taraddud,  
Olay der dunyo molin ilkiga zud.

Yig'insa mol-u mulkat misli Qorun,  
Ko'zi to'yimas, qilay der boz afzun.

Bu dunyodin ketar dunyoga to'yamay,  
Ko'zininig uyiga to xok to'lmay.

Ilohi, saqlag'il mundog' balodin,  
Qutulg'aymiz bu yanglig' mojarodin.

### „Xoki poyi yaxshilar bo'l...“

Xoki poyi yaxshilar bo'l, xok bo'lmasdin burun,  
Bu qaro yer qo'yni senga chok bo'lmasdin burun.

Mo'mineni g'iybatidin munda o'gzing pok qil,  
Ando do'zaxni o'ti misvok bo'lmasdin burun.

Ko'rsatib ganji qanoat, och ko'zingni sayd qil,  
Ko'zlaringni kosasig'a xok to'lmasdin burun.

Xor-u xasni yastanib, qilma tama'din bir xase,  
Qabring uzra to'dayi xoshok unmasdin burun.

Qilma g'amgin mo'mineni, ko'nglini shod aylagil,  
Tong-la mahshar dashtida gamnok bo'lmasdin burun.

Ey Huvaydo, kechalar yig'lab yaqongni chok qil,  
Domani subhi qiyomat chok bo'lmasdin burun.



### *Savol va topshiriqlar*

1. Shoir yashagan davr va uning ijodini o'zingiz mukammal bilgan biron-bir klassik adib hayoti va ijodi bilan taqqoslang.
2. Shoir ijodida qanday mavzu yetakchilik qiladi?
3. Shoirning yuqorida keltirilgan g'azalini lug'atsiz sharhlab berishga tayyorgarlik ko'ring.

## *Uvaysiy*

*(1780- yillarda tug'ilib, 65 yoshida  
vafot etgan)*

*Uvaysiy hayoti va ijodiy faoliyati yuzasidan o'rta umumta'lim  
dasturi bo'yicha mustahkamlovchi savol va topshiriqlar.*

1. Uvaysiyning asl ismi kim?
2. Uvaysiyning ota-onalari haqida nimalarni bilasiz?
3. „Chiston“ so'zining ma'nosini izohlang.
4. Uvaysiy bilan zamondosh shoirlar haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?
5. Uvaysiy yashagan davr adabiy muhiti va ayollarning ijtimoiy hayotdagi o'rni masalasidan kelib chiqib, o'zbek adabiyotida shoirlar ijodining o'rni qanday baholanishini o'sha davr nuqtayi nazaridan belgilang.

Jahon Otin (Uvaysiy) ijodi o'zbek mumtoz adabiyotida o'ziga xos mavqega ega. U XVIII asrning 80- yillarida Marg'ilonning Childuxtaron mahallasida tug'ilgan. Otasi ikki tilda she'rlar yozgan adabiyot muxlisi edi. Onasi Chinnibibi otin edi. Akasi Oxunjon Hofiz ham Jahon Otinning tarbiyaviy kamolotiga munosib hissa qo'shadi. Uvaysiyi Hojixon ismli ziyoli kishiga uzatishadi. Hayoti yaxshi bo'lmay, Quyoshxon va Muhammad-xon ismli bir qiz va bir o'g'li bilan beva qoladi. U Nodira bilan yaqinligi tufayli Qo'qondagi xon saroyda ma'lum muddat yashaydi. 1840- yilda 65 yoshida Marg'ilonda vafot etadi.

Uvaysiy hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlar uning asarlari, tazkirlari, hozir Marg'ilonda yashayotgan qarindosh-urug'larining xotiralari orqali bizgacha yetib kelgan. Shoira ijodini izchil ilmiy yo'nalishda o'rganish XX asrning 30-yillarida boshlanadi. Cho'lpon „Yorqin turmush“ jurnalining 1933- yil 3- sonida „Uvaysiy“ nomli maqolasini e'lon qildi. Shoiraning she'rlari „O'zbek adabiyoti majmuasi“, „O'zbek poeziyasi antologiyasi“ kitoblariga kiritilgan.

Uvaysiy ijodini o'rganish 60-yillarda yangi bosqichga ko'tarildi. Shoira asarlari alohida devon holida nashr etildi. Bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari amaiga oshirildi.

Uning bir devoni O'zR FA Sharqshunoslik institutida saqlanadi. Devonda 269 g'azal, 29 muxammas, 55 musaddas, 1 murabba kiritilgan. „Shahzoda Hasan“, „Shahzoda Husayn“ va „Voqeati Muhammadalixon“ asarlari Muhammadshoh Yunusxon tomonidan kitobat qilingan.

1960- yillarda Andijonda shoira devonining uch nusxasi topildi. Ularning birinchisi 404 betdan iborat bo'lib, shoiraning evarasi tomonidan ko'chirilgan, o'zida 5628 baytni jamlagan. Ko'plab janrlarda yaratilgan asarlari bor. Ikkinchi nusxasi 161 bet, 2093 baytdan iborat. Uchinchi nusxa 228 bet, 1870—71- yillarda kitobat qilingan.

Uvaysiyning 3 ta dostoni bor.

Jahon Otin Uvaysiy she'riyati o'zbek mumtoz adabiyotida o'ziga xos mavqeda turadi. Uvaysiy deyarli barcha janrlarda qalam tebratgan. Shoira asarlarining mavzu va g'oyalari qamrovi teran, badiiyati barkamol. Ijodkor sifatida dunyo, olam mohiyatini anglash va ular haqidagi xulosalari faylasufona.

Uvaysiy she'riyatining bosh mavzusi ishq. Shoira ijodidagi ishqning mohiyati juda keng. Majoziy ishq, haqiqiy ishq, moddiy ehtiyojsizliklarning, ma'naviy ehtiyojlarning ulg'ayish ishq. Asarlaridagi muhabbat yaralmish va u orqali yaratuvchiga bo'lgan muhabbatdir. U o'z tushunchalarini va qarashlarini ifoda etar ekan, olam tashqi ko'rinishidan moddiy, ichki mohiyati bilan esa ilohiy degan tasavvurda turadi.

## G'azallari

Meni mahbubim, ey dilbar, o'shal nom ichra yastanmish,  
Tafakkur qilmag'il mazmuni payg'om ichra yastanmish.

Nechunkim orzu qilmay qo'lungdin boda ichmakni,  
Mayi vahdat sening ilkingdagi jon ichra yastanmish.

G'azab qilmangki piri dayr, ul yuz sori termulsam,  
Tajalliyi xudo ul husni gulfom ichra yastanmush.

Kel, ey soqiy, ayog'ing murda dillardin darig' etma,  
Masih anfosi kim ul boda oshom ichra yastanmush.

Tavakkul o'tina sol ahd-u paymoning ramad o'lsun,  
Ki, ey dil, bevafo'lig' va'dayi xom ichra yastanmish.

Ko'rubon donayi vaslin ki parvoz etma, ey zohid,  
Yuz oncha dard-u kulfat donasi dom ichra yastanmish.

Ko'rub Furqat tunin, ey Vaysiy, navmid o'lma vaslidin,  
Bilurmusen ki doim subh har shom ichra yastanmish.

\* \* \*

Qatra-qatra qon to'karkim intizoringdin ko'zum,  
Ko'z tutar shab-ro'z husni oshkoringdin ko'zum.

Barqi beparvo nigohingdin etar jong'a asar,  
Aylagay ummid lutfi beg'uboringdin ko'zum.

Yondirur hushing'a ko'rsam ko'zlaring mastonasin,  
Sadqa bo'lmasmu bu jismi purxumoringdin ko'zum.

Gar bahor olsa namoyon, bexabar olmas sahob.  
Olmasam tahsin emas husni bahoringdin ko'zum.

Maqdamingga necha ko'zlarni nisor etti azal,  
Munda ermas, anda haq etgan nisoringdin ko'zum.

Ixtiyorini ko'z-u ko'nglun beribdur nechalar,  
O'zgalardindur dema. beixtiyoringdin ko'zum.

Sabr maktabxonasiga kirdi dil olsa saboq,  
Ul sababdindur, fig'onkim, beqaroringdin ko'zum.  
Ko'rmagay Laylini Majnun ko'zi birla kimsalar,  
Ey nigori laylivash, ul yodgoringdin ko'zum.

Vaysiy shukr aylar chibin torincha, ey Majnun shior,  
Nur zohir qildi ul shab-ro'z toringdin ko'zum.

\* \* \*

Dilrabo, o'ltir, boshingdin misli gardun o'rgulay,  
Aqlimi barbod etibon misli Majnun o'rgulay.

Itlaring bag'rimni burda qildi, tanni resh-resh,  
Jori aylab qonlarimni joma gulgun, o'rgulay.

To ko'rub rasvolig'm or etma, ey xush ma'dani,  
Bovar etkil kecha-kunduzlarda maknun o'rgulay.

Lablaring hajrinda bag'rim laxta-laxta qon erur,  
Oqizib ko'z chashmasidin ashki purxun o'rgulay.

Soqiyo, jon yetti labga, va'da qil la'ling mayin,  
Garchi men lab tashnayi xummor mamnun o'rgulay.

Tangri xalq etmish meni muflis gadolardin netay,  
Yoq diram, yo'q toatim, ko'z yoshi Jayxun o'rgulay.

Demag'il Vaysiyini sen ul Vaysiyi bexonumon,  
Fahm qilg'il hasratin, holi digargum o'rgulay.





### *Savol va topshiriqlar*

---

1. Shoira o'sib ulg'aygan oila muhitining unga ta'siri haqida gapiring.
2. Sevgi izhori borasida sharq ayollariga xos bo'lgan xususiyatlarga munosabat bildiring.
3. Shoira g'azallaridagi lirik qahramon kechinmalarini, holatini ifodalashga harakat qiling.
4. Shoira yoshligida sevib mutolaa qilgan sharq klassiklarining nomlarini sanang.
5. Shoiraning Nodirabegim saroyidagi faoliyati haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?



  
**Nodira**  
(1792—1842)  


*Nodira hayoti va ijodiy faoliyati yuzasidan o'rta umumta'lim dasturi bo'yicha mustahkamlovchi savol va topshiriqlar.*

1. Shoiraning haqiqiy ismi kim?
2. Shoiraning yana qanday taxalluslari bor?
3. Uvaysiy va Nodiraning o'zaro munosabatlari haqidagi fikrlaringizni jamlab, adabiy aloqalar haqidagi suhbatga tayyorlaning.

Nodira (Mohlaroyim) o'zbek adabiyoti tarixida badiiy so'z ustasi va ma'rifatparvar shoir sifatida mashhurdir. U Andijonda tug'ilib, voyaga yetdi.

Nodira XIX asrning birinchi yarmida hukmdorlik qilgan Qo'qon xoni Umarxonning umr yo'ldoshi bo'lib, xon vafotidan keyin uning o'rniga taxtga o'tirgan yosh o'g'li Muhammad Alixonga homiylik qilib, davlat arbobi sifatida ham shuhrat qozongan. Shoiraning o'zbek va fors-tojik tillarida Komila, Nodira, Maknuna taxalluslari bilan jamlangan she'rlaridan iborat uchta devoni bizgacha yetib kelgan.

Shoira davlat arbobi sifatida mamlakatda tinchlik osoyishtalik barqaror bo'lishi, adolatning gullab-yashnashi yo'lidagi sa'y-harakatlari bilan bir qatorda ma'rifiy taraqqiyotni ko'zlab ko'p ishlarni amalga oshirgan. O'sha davrga oid manbalarda aytilishicha, Nodira atrofida ko'pgina olimlar, shoirlar, fozilalar, xattotlar yig'ilgan edilar.

Nodira bu vaqtda Navoiy, Mashrab, Bobur, Bedil, Fuzuliy, Amiriy kabi shoirlarning devonlarini ko'chirtirdi va shoirlarni yangi-yangi asarlar, dostonlar yozishga tashviq qildi.

1822- yil Umarxonning fojiali vafodidan so'ng, 14 yoshli o'g'li Madalixon Qo'qon xonligini boshqara boshladi. Nodira oqila, dono va tadbirkor ayol edi. O'g'li davrida mamlakatni baravar boshqaradi. Madrasa, masjid, hammom, karvonsaroylar qurdiradi. Ilm ahliga rahnamolik, faqirlarga homiylik qiladi.

1842- yil Amir Nasrulloh tomonidan qatl etiladi.

Nodiraning she'riy merosi bir nechta devonlarining qo'lyozmalari orqali bizgacha yetib kelgan. 1962-yilda Namanganda Nodiraning bir devoni topildi. Unga 180 ta asari kiritilgan edi.

Nodira muhabbat, sadoqat va vafu kuychisi. Hamfikir ustози, umr yo'ldoshi Umarxonning fojiali vafoti Nodira uchun katta zarba bo'ldi. Uning she'riyatida mahzunlik, g'amginlik mavzulari yetakchi bo'lib qoldi.

Furqat g'amida yolg'izlangan ko'ngil bir g'amgusorga ehtiyoj sezardi. Ana shu ehtiyoj shoira she'riyatini yuqori pog'onaga ko'tardi.

### G'azallar

G'unchadek og'zi ul lutfi guftori ajab,  
Sun ilgi yo'qdin izhor aylagan bori ajab.

Oldi ko'ngul qushlarin har lahza mushkin turrasi,  
Boli shohindurki, sayd aylarda tarrori ajab.

Baski Majnundir aning husniga gulshan gullari,  
G'unchalardindur chaman bo'ynida tumori ajab.

Ayladi oshufta ta'bimni parishon turrasi,  
Qildi baxtimni qaro xoli sitamkori ajab.

Ko'zidin ozurdadurmen, qoshidin ozurdaroq,  
Zor ahvolimga ozor uzra ozori ajab.

Har qachonkim noz etib chiqsa mayi gulfom ichib,  
Qon to'kar maydek damo-dam chashmi xumori ajab.

Yor vasli birla odat aylab erdim, Nodira,  
Andin ayru menga bir dam sabr izhori ajab.

\* \* \*

Ey labing jon-u kalomi jonfizo ruhi ravon,  
Oshikoro-u nihondur surating jon uzra jon.

Kokul-u shabrangdin qilding chamanlar oshkor,  
Nargisi badmastdin qilding xumistonlar ayon.

Charx uzra sonma kavkabkim charog'on tunlari  
Dudi ohim shu'lasini uchqunlaridindur nishon.

Poralar bo'ldi xayoling nuridin jon pardasi,  
Mohi tobon shu'lasidin o'ylakim bir kahkashon.

Soqiyo,maxmurman charx etti nokom-u zalil,  
Aylag'il bir sog'ari may birla shod-u komron.

Sen quyosh, men soyayi pomol hasrat tunida,  
Partavi altof ila berg'il quduratdin amon.

\* \* \*

Fig'onim, yor ishqini sabri ko'nglimdin judo qildi,  
G'am ilgini safhayi ahvolima sabti jafoni qildi.

Falakka yetkurub har kecha o'tlig' oh-u afg'onim,  
Muhabbat andalibi ko'nglumi otashnavo qildi.

O'shal Layli malohat nozanini mohruksorim  
Meni Majnun kabi sargashtayini dashtini balo qildi.

Parishonlig' yog'ildi boshima dardi muhabbatdin,  
Xayoli yor ishrat shomini ro'zi jazo qildi.

Na sabr-u hush qoldi , na qaror-u toqatim, yo rab,  
Ko'ngul ichra havoyini ishq bilmam na balo qildi.

Visolini topolmay, Nodira, mushkul erur holim,  
Ki bedodi muhabbat manga qattiq mojaroni qildi.

\* \* \*

G'ayrning bazmidadur ul mohi tobon har kecha,  
O'rtanur holim ko'rub sham'ini shabiston har kecha.

Xalq agar har yilda bir qurbonlig' aylar mohi iyd,  
Men qilurmen necha jon ul oyg'a qurbon har kecha.

Sen qilib ag'yorni bazmini ravshan, rashkidin,  
Sha'mdek jonimdadur dog'ini namoyon har kecha.



Mujdayi subhi visolingdin ko'ngulni jam qul,  
Kim erur zulfig kabi holim parishon har kecha.

Garchi uzding rishtayi ulfat meni mahjurdin,  
Shukrkim, yoding erur ko'nglimda mehmon har kecha.

Bazmi ishrat soz etib, sen may ichib, shodob o'lub,  
Men qilurmen nay kabi faryodi afg'on har kecha.

Voqif ermassen mening dardimdan, ey Isonafas,  
Kim taloshurman labing hijronida jon har kecha.

Necha kun boldi labing sahbosidin ayru tushub,  
Nodira ko'zdin to'kar yosh o'rnig'a qon har kecha.





### *Savol va topshiriqlar*

---

1. Nodira g'azallarining asosiy mavzusi nimalardan iborat?
2. Nodira g'azallarida u yashagan davr ruhi qanday aks etgan?
3. Nodira va uning atrofidagi adabiy muhit haqida nimalar deya olasiz?
4. Shoiraning davlat arbobi sifatidagi o'rni haqida so'zlang.



  
**Almai**  
**(1852—1891)**  


Fazlulloh Mirjalol o'g'li Almai 1852- yilda Toshkentning Qo'shtut mahallasida, bo'zchi oilasida tug'ildi. U dastlab eski maktabda, keyin esa Hastimom yonidagi „Mo'yi Muborak“ va Buxoro madrasasida o'qigan. Arab, fors tillarida g'azallar yozgan. Xattotlik san'atini o'rgangan. „Almai“ (arabcha) uning taxallusi bo'lib, „sinchkov“ va „ziyrak“ degan ma'nolarni anglatadi. U el orasida „Qori Fazlulloh“ nomi bilan mashhur bo'lgan. Qori— „qiroat qiluvchi“, „Qur'on o'quvchi“ demakdir.

Qo'qon madrasalaridan birida mudarrislik qilgan, bedilxonlik yig'inlarida qatnashgan. Almai uch tilda baravar ijod qilgan. U 39 yoshida vafot etgan.

„Kalila va Dimna“ asarini turkiy tilga dastlab Muhammad Bakriy, keyin Muhammad Niyoz, Mulla Temur va Almaiylar o'g'irgan. Asarning bosh qahramonlari Kalila va Dimna otliq ikki shoqoldir.

„Kalila va Dimna“dan parcha (*tarjima*)  
**Kabutar, tulki, laylak yoki birovlariga yo'l ko'rsatib,  
o'zlarini falokatdan qutqara olmaganlar  
haqidagi bob**

Roja barahmanga dedi: — Endi boshqalarga yo'l ko'rsatib, o'zi yo'l topolmagan odam haqida bir hikoya so'zlab bersang.

Barahman dedi: — Bunga kabutar, tulki va laylak haqidagi hikoya yaqqol misol bo'la oladi.

Roja so'radi: — U qanday hikoya ekan?

Barahman hikoyani boshladi:

— Bir kabutar juda baland bir xurmo daraxti ustiga zo'r mashaqqatlar bilan uya solgan edi. Bolalari tuxumdan chiqib, hali uchirma bo'lmasidan oldin bir tulki unga:

— Bolalaringni tashlamasang, hozir chiqib, hammangizni yeyman, — der edi.

Undan qoʻrqqan kabutar bolasini yerga tashlardi. Kabutarning ikki bolasi uchirma boʻlishiga yaqin qolganida bir laylak uchib kelib, oʻsha xurmo daraxtiga qoʻndi. Kabutarni gʻamgin koʻrib hol soʻradi:

— Kabutar singlim, senga nima boʻldi, nega buncha xafa koʻrinasan?

Kabutar dedi: — Ey aziz laylak, nima qilay? Bir tulki meni hol-u jonimga qoʻymayapti. Qay vaqt bola ochsam, u meni qoʻrqitib, bolalarimni olib ketadi.

Laylak dedi: — Bu safar tulki kelganida unga, men endi senga bolalarimni bermayman. Qoʻlingdan kelsa, daraxtga tirmashib chiq, u vaqtda bolalarim seniki, oʻzimga hech narsa qila olmaysan — uchib ketaman, degin.

Laylak kabutarga bu soʻzlarni uqtirgach, oʻzi uchib borib, suv qirgʻogʻiga qoʻndi. Tulki daraxtning ostiga keldi va odati boʻyicha qichqirib, doʻq qila boshladi. Kabutar laylak oʻrgatganidek javob berdi. Bunday javobni kutmagan tulki soʻradi: — Buni senga kim oʻrgatdi?

Kabutar dedi: — Laylak.

Tulki darhol daryo qirgʻogʻiga, laylakning yoniga keldi. Unga qarab dedi:

— Ey laylakjon, shamol oʻng tomondan esganda, sen boshingni qayoqqa oʻgirasan?

Laylak dedi: — Soʻl tomonga oʻgiraman.

Tulki soʻradi: — Soʻldan esganda-chi?

Laylak javob berdi: — Oʻng tomonga.

Tulki dedi: — Agar shamol har tomondan essa, nima qilasan?

Laylak dedi: — U vaqtda boshimni qanotim ostiga berkitaman.

Tulki dedi: — Bunday qilish mumkin emas, men ishonmayman. Sen boshingni qanoting ostiga ololmaysan.

Laylak dedi: — Olaman.

Tulki dedi: — Boʻlmasa, koʻrsat. Agar shunday boʻlsa, olloh qushlarni bizdan afzal qilib yaratgan ekan. Siz bir soatda qiladigan ishni biz bir yilda ham bajara olmaymiz, siz shunday ishlar qilasizki, unga bizning sira aqlimiz yetmaydi. Bilishimcha, siz boshingizni qanotlaringiz ostiga olib, sovuqdan va shamoldan saqlana olasiz. Ofarin, sizlarga. Qani koʻrsat, buni qanday qilasan?

Laylak boshini qanoti ostiga olgan ham ediki, tulki bir sapchib, tutib oldi va shunday siqdiki, bechoraning umurtqa suyagi sinib ketdi. Qanot va dumlarini yula turib, tulki dedi: — Ey, boshqalarga norin qilib berib, o'ziga atala ham pishira olmagan ahmoq! Sen kabutarga yo'l ko'rsatib, hiyla o'rgatding-u, lekin o'z joningni dushmandan qutqara olmading.



Tulki shu so'zlarni aytib, bir zumda laylakni yedi-qo'ydi.



### *Savol va topshiriqlar*

1. Almaiyning o'z davri tarjima adabiyotiga qo'shgan hissasi haqidagi fikrlaringizni gapiring.
2. O'zbek adabiyotidagi tarjima adabiyoti bilan shug'ullangan yana qaysi ijodkorlarni bilasiz?
3. „Kalila va Dimna“ asarining qahramonlariga tavsif bering.
4. Asar mazmunidan kelib chiqqan holda yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik kabi xususiyatlarning o'zbek adabiyotida va jahon xalqlari adabiyotida ifodalanishi haqida mulohaza yuriting.
5. Asardagi voqealar rivoji yuzasidan fikr va mulohazalaringizni gapirishga tayyorgarlik ko'ring.



  
**Muhammad Aminxo'ja Muqimiy**  
(1850—1903)  


*Muqimiy hayoti va ijodiy faoliyati yuzasidan o'рта umumta'lim dasturi bo'yicha mustahkamlovchi savol va topshiriqlar*

1. Muqimiy o'z „Sayohatnoma“ asarida safar sababi haqida nima deydi?
2. Muqimiyning zamondoshlarini eslang.
3. „Sayohatnoma“ qanday asar?
4. Shoir Buxoroda tahsil olgan madrasaning nomi qanday ataladi?
5. Shoirning „Tanobchilar“ she'ri qachon yozilgan?

Muhammad Aminxo'ja Muqimiy 1850- yilda Qo'qonda hunarmand oilasida tug'ildi. Uning otasi Mirzaxo'ja va onasi Bibioysha asli toshkentlik bo'lib, 1835—1836- yillarda Qo'qonga ko'chib borgan va u yerda novvoychilik kasbi bilan shug'ullanib, turg'un bo'lib qoladi.

Muqimiy boshlang'ich ma'lumotni zamonning oddiy maktablaridan birida oldi.

Muqimiyning onasi Bibioysha alohida fazilatga ega ayol edi. U o'z zamonining ziyrak, quvnoq va badiiy zavqi yuksak bo'lgan savodxon ayollaridan biri bo'lib, u ishtirok etmagan yig'inlarda uning o'rni yo'qlanar, fazilatlarini eslanar edi. Shuning uchun qo'qonlik ayollar uni sevib va erkalab, Xumorbibi deb ataganlar.

Xumorbibidagi bu ma'naviy xislat o'g'li Muqimiyga ham ta'sir etdi va unda juda erta estetik zavq uyg'onishiga sabab bo'ldi. Ziyrak Muqimiy bolalik vaqtidayoq, maktabda o'qib yurgan kezlari, she'r mashqiga kirishgan edi. Muqimiyning bizgacha yetib kelgan ijodiy merosi o'n ming misra atrofida deb tahmin qilinadi.

Turli manbalar orqali yetib kelgan Muqimiy poetik merosini asosan, she'riy asarlar tashkil etadi. Shoiridan qolgan ba'zi nasriy maktublar bundan mustasno. Muqimiyning she'riy asarlarini, janr xususiyatlariga qarab, quyidagi 4 guruhga bo'lish mumkin:

1. Lirika .
  2. Hajviyot.
  3. Sayohatnomalar.
  4. Maktubat.
- Muqimiy 1903- yil 25- mayda vafot etdi.

### „Ey, yori jonim...“ gʻazali

Oshiq boʻlubman, ey yori jonim,  
Vaslingni izlab, yoʻqdur majolim.

Bir yoʻqlamaysan kuygan qulingni,  
Koʻzlari jallod, nozik niholim.

Rahm ayla manga, ey bagʻri qattiq,  
Diydam toʻla qon, ey shoʻxi zolim.

Lab tashnalarga ayla nazora,  
Qaddi chu shamshod, qoshi hilolim.

Olding koʻngulni bir-ikki soʻzlab,  
Devona boʻldim, toʻti maqolim.

Har dam kuyarman, yodingʻa tushsang,  
Bir koʻrmaguncha yoʻqdur majolim.



Necha zamondir, koʻzdin nihondur,  
Oshiq Muqimiy, ey xasta holim.



#### *Savol va topshiriqlar*

---

1. Muqimiy asarlaridagi lirik qahramonning kechinmalarini qanday baholaysiz?
2. Shoirning oʻzingiz yod olgan gʻazalini sharhlang.
3. Shoir ijodidagi zamondosh ijodkorlardan farq qilib turuvchi jihatlar haqida gapiring.

  
**Muhammad Sulaymon o'g'li Fuzuliy**  
(1498—1556)  


*Mening shoirligim yolg'ondir, ammo,  
Fuzuliy she'riga oshiqligim rost.*

*Erkin Vohidov*

Muhammad Sulaymon o'g'li Fuzuliy sharqning mashhur shoiri, ozarbayjon xalqining buyuk mutaffakiridir. U 1498- yilda Iroqning Karbalo shahrida tug'ilgan. Fuzuliy dastlab maktabda, keyin esa madrasada ta'lim oldi. Tarix, meditsina, astronomiya, geometriya, logika va boshqa fanlar bilan shug'ullangan. Maktab yoshidayoq she'r yozishni mashq qila boshlagan. U ustoz Habibiyning qizini yaxshi ko'rib qolganini, unga atab she'rlar yozganini naql qiladilar. Shoir 1556- yilda vabo kasalidan vafot etadi.

Asarlari: „Laylov-u Majnun“ (1537), „Haft Jom“, „Anisul qalb“, „Rind-u zohit“, „Matla ul-e'tiqod“ kabi falsafiy dostonlar; „Sihat va Maraz“, „Bahguboda“, „Suhbat ul asmor“ kabi majoziy asarlar va boshqalar.

**„Etmazmidim?“ g'azali**

Ahli yor o'lsaydi tarki ishqiy yor etmazmidim?  
Ixtiyor o'lsaydi rohat ixtiyor etmazmidim?

Lahza-lahza suratini go'rsaydim ul shirin labing,  
San kibi, ey Besitun, ban ham qaror etmazmidim?

Yor-la ag'yori hamdam go'rmaga o'lsaydi sabr,  
Tarki g'urbat aylayub, azmi diyor etmazmidim?

Voizing kufri banim rasvolig'imdan qil qiyos,  
Onda sidq o'lsaydi, ban taqvo shior etmazmidim?

Ul guli xandoni goʻrmak mumkin oʻlsaydi bango,  
Santak, ey bulbul, gulistona guzor etmazmidim?

Dardimi olamda pinhon dutdigʻim nochordir,  
Ugʻrasaydim bir tabiba oshkor etmazmidim?

Ey Fuzuliy, dogʻi hijroni-la yonmish goʻnglimi,  
Lolalar ochsaydi sayri lolazor etmazmidim?



### *Savol va topshiriqlar*

---

1. Muhammad Sulaymon oʻgʻli Fuzuliyning sharq xalqlari adabiyotidagi oʻrni haqidagi fikrlaringiz qanday?
2. Fuzuliy gʻazallarining oʻziga xos tomonlari nimada deb oʻylaysiz?
3. „Etmazmidim“ gʻazali haqida oʻz fikringizni bayon eting.







## *Sa'diy Sheroziy*



Sadiy Sheroziyning tug'ilgan yili aniq emas. Ayrim manbalarda uning tug'ilgan yili 1184- 1193-, 1189 -yoki 1203—1210 -yillar orasi taxmin qilinadi. U sherozlik davlat xizmatchisi oilasida tug'ilgan. Bag'doddagi Nizomiy madrasasida o'qigan, o'rta va yaqin sharq mamlakatlarida ko'p marotaba sayohat qilgan. Sa'diy o'z ijodini lirik she'rlar yozishdan boshlagan. „Guliston“ va „Bo'ston“ asarlari sharq adabiyotida didaktik yo'nalishni boshlab berdi. Bu asarlar Turkiston madrasalarida o'quv qo'llanmasi sifatida xizmat qilgan. Sa'diy kulliyoti 19 bo'limdan iborat. Shoir 1292-yilda vafot etgan. „Bo'ston“ asari 1257-yilda yozilgan va she'riy usulda bo'lib, 10 bobdan iborat, ta'limiy-tarbiyaviy ruhdagi asar.

„Guliston“ asari esa 1258- yilda yozilgan bo'lib, 8 bobdan iborat va unda ham ta'limiy-tarbiyaviy ruhdagi hikoyalar, she'riy usulda yozilgan hikmatlar mavjud.

### **„Guliston“ asaridan parchalar**

#### *Hikoyatlar*

#### I

Deydilarki, bir kuni ovda No'shiravoni odilga kabob qilib bermoqchi bo'ldilar, lekin tuz yo'q edi. Qullardan birini qishloqdan tuz olib kelgani jo'natdilar. No'shiravon u qulga dedi: „Tuzning bahosini to'lab ol, toki tekinga olish odat qatoriga kirib, qishloq xarobalikka yuz tutmasin“. Undan so'radilar: „Shu zig'irday narsadan qishloqqa qanday zarar yetadi?“ No'shiravon javob berdi: „Avvalda olamda zulm oz edi, keyinchalik har bir kelgan odam biroz-biroz qo'shdi, natijada zulm hozirgi darajasiga kelib yetdi“.

Fuqaroning bog'chasidan sulton uzsa bir olma,  
Navkarlari qo'poradi daraxtlarning ildizin.  
Zo'rlik bilan beshta tuxum ola qolsa podshoh,  
Askarlari sixga tortar tovuqlardan besh yuzin.

## II

Deydilarki, bir zolim odam kambag'allarning o'tinlarini arzoniga olib, boylarga qimmat bahoda sotar edi. Bir pok vijdon odam uni ko'rib dedi:

Nima balo, ilonmisan, ko'rganingni chaqasan,  
Boyqushmisan, qaysi yerga qo'nsang, uni yiqasan?  
Sen-ku zulmingni bizga qilasan,  
Shunday qilolmaysan qodir xudoga.  
Yerda-ku zulmingni elga qilasan,  
Ularning qarg'ishi o'rlar samoga.

Zolim bu so'zga e'tibor bermadi, darg'azab bo'lib, qosh-qovog'ini uydi, quloq solmadi. Bir kuni kechasi oshxonasidan bir uchqun chiqib, o'tinxonasiga tushdi. Zolimning bor bisoti yonib ketdi. Uning rohat to'shagi o'rnida kultepa paydo bo'ldi. Ittifoqo, haligi pok vijdon odam zolimning uyi yonidan o'tib borardi. Zolimning o'z oshnalariga: „Bilmadim, bu o't mening saroyimga qayerdan tushdi ekan?“ degan savolini eshitgan boyagi aziz kishi: „Faqirlar qalbidan chiqqan ohning o'tidan“. — dedi.

Dilni yaralama, ohidan cho'chi,  
Bu yara biror kun sirtga tepadi.  
Birorta ko'ngilga bermagil ozor,  
Jahonni o'rtashga bir oh yetadi.

## III

Hotami Toyidan: „O'zingdan ko'ra saxiyroq biror odamni hech ko'rganmisan, yoxud eshitganmisan?“ — deb so'radilar. Hotami Toyi javob berdi: „Ha, ko'rganman, bir kun arab amirlarini ziyofat qilish uchun qirq tuya so'ygandim. Ittifoqo bir zarurat bilan sahroga chiqishimga to'g'ri keldi. U yerda cho'p-chumak terib dastalayotgan o'tinchini ko'rdim. Men unga dedim: „Nechun Hotamning uyiga bormaysan, axir, hozir bir talay odam uning ziyofat dasturxonida atrofida“. U dedi:

O'z mehnatidan non yegan kishi,  
Hotam minnatidan ozod yoz-qishi.

Hotam dedi: „Ana shu o'tinchini men o'zimdan ko'ra saxovatliroq deb bildim“.

## IV

Ikki aka-uka bor edi. Biri podshoh saroyida xizmat qilar, ikkinchisi esa o'z qo'l kuchi bilan tirikchiligini o'tkazardi. Bir kun boy aka faqir ukaga dedi: „Nega podshoh saroyida xizmat qilmaysanki, mashaqqatli mehnatdan xalos bo'larding?“.

Ukasi dedi: „Xo'sh, o'zing nega mehnat qilmaysanki, shoh oldida xo'rlanishdan qutularding? Axir hukamolar aytganlar-ku: „Oltin kamar taqib podshoh xizmatida turgandan ko'ra, o'z noningni yeb, tinch o'tirganing yaxshi!“.

Qo'lda elab xamir qilmoq so'nmagan ohak toshni,  
Oson ishdir amirga egishdan aziz boshni.

Qimmatli umrimiz ko'p isrof bo'ldi,  
Yoz-u qish nima yeb, ne kiyaman, deb.

Sen, qorin qurg'ur ham bitta nonga ko'ng'il,  
Ikki bukilishni o'zingga ko'rma ep.

## V

Eshitdimki, donishmandlardan biri der ekân: „Birov gapini tugatmasidan burun gapga aralashadigan kishidan ko'ra ortiqroq o'z nodonligini oshkor qiladigan odam bo'lmaydi“.

Ey oqil, so'zning ham bosh-oyog'i bor,  
O'zga so'zga so'zing qistirma zinhor.  
Aql-u hush egasi tadbirli inson  
So'z boshlar suhbatdosh jim bo'lgan zamon.

## VI

Bir kun bolalik nodonligi bilan onamga baqirdim. Onam qattiq xafa bo'lib, bir burchakka o'tirdi-da, yig'lab dedi: „Bolaligingni unutdingmiki, menga bunchalik qo'rslik qilyapsan?“.

Yo'lbars panja, filtan o'g'liga kampir,  
Ne xush so'zlar aytib, tashladi savol:  
„Esingda bo'lsaydi go'daklik chog'ing,  
Bag'rimda yotganing, murg'ak, bemajol.  
Qilarmiding menga bul kuni jafu,  
Sen sherdek yigit-u, men kekxa, behol?“



### *Savol va topshiriqlar*

1. „Guliston“ va „Bo'ston“ asarlarining bu tariqa nomlanishini qanday izohlaysiz?
2. „Guliston“ va „Bo'ston“ asarlari bir-biridan qanday farqlanadi?

---

## *Mahmudxo'ja Behbudiy* (1875—1919)

---

### Hayoti va ijod yo'li

- 1875- y. — Samarqandda tug'ildi.
- 1903- y. — „Qisqacha umumiy jo'g'rofiya“ kitobi yozildi.
- 1904- y. — „Bolalar uchun kitob“, „Islomning qisqacha tarixi“ kitoblari yozildi.
- 1905- y. — „Amaliyoti islom“.
- 1906- y. — „Xurshid“ gazetasida „Feleton“ nomli maqolasi bosildi.
- 1908- y. — „Rossiyaning qisqacha geografiyasi“ kitobini yozdi.
- 1911- y. — „Padarkush“ dramasini yozdi.
- 1912- y. — „Buxoro xonligiga sayohat“ asari yozildi.
- 1913- y. — „Padarkush“ dramasi kitob holida o'zbek tilida nashr etildi.
- 1914- y. — Turkiya va Misr safari. O'quv qo'llanmalari.
- 1917- y. — Umumturkiston musulmonlari quriltoyida Turkistonni Rossiyadan ajratib, mustaqil davlatga aylantirish g'oyasini o'rtaga tashladi.
- 1918- y. — „Musulmon ishchi va dehqon sho'rosi“ ga maorif xalq komissari bo'lib tayinlandi.
- 1919- y. — Buxoro amirining Shahrisabzdagi kishilari tomonidan hibsga olindi. Qarshi shahrida qatl etildi.

### „Padarkush“ dramasi haqida

Ma'lumki, Behbudiy o'zbek adabiyotida birinchi bo'lib, 1911-yilda drama yozgan. Bu bilan uni drama janrining asoschisi desak bo'ladi.

Unda boy va uning o'g'li Toshmurod haqidagi voqealarni zo'r mahorat bilan tasvirlab bergan. Bu esa Behbudiyning dramachilikda qalami o'tkirligidan dalolat beradi.

Boyning o'zi tarbiyalab voyaga yetkazgan tanti farzandi tomonidan o'ldirilishini bevosita farzandining yaxshi tarbiya

ko'rmaganligi, bolalikdan ilm-hunar egasi bo'lmaganligi oqibatida yuz berganini ko'rishimiz mumkin. Axir xalqimizda: „Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir“ degan naql bor. Behbudiy bu asarda ilmsizlik va ma'rifatsizlik oqibatida yigitlarning yomon yo'llarga kirib ketishini Boy va Toshmurod obrazlarida gavdalantiradi. Bu asarning hozirgi vaqtda ham yoshlarning kelajakda barkamol inson bo'lib yetishishlarida ahamiyati kattadir.

Bu asar yoshlar qalbida ilmsizlikka qarshi isyon uyg'otib, ularni kelajakda aqlli, dono va albatta, baxtli bo'lishlari sari yetaklaydi.

## „PADARKUSH“

### *Yoxud o'qimagan bolaning holi*

*(Turkiston maishatidan olingan ibratnoma)*  
*3 parda, 4 manzarali, birinchi milliy fojia*

(Dramadan parcha)

### **Qatnashuvchilar:**

**Boy** — 50 yashar.

**Toshmurod** — boyning o'g'li, 15—17 yashar.

**Domullo** — yangi fikrli bir mulla, 30—40 yashar.

**Ziyoli** — (ovro'pa libosida), o'ruscha o'qug'on, millatchi musulmon.

**Xayrullo** — boyning mirza-yu mahrami, 18—20 yashar.

**Tangriqul** — boyning qotili.

**Davlat ila Nor** — (bo'z bolalar).

**Liza** — rus xotini, qabiha shaklinda.

**Artun** — armani mayxonachi.

**Pristav**, 2 **politsiyachi**, 2 **qorovul**, boyning 3 nafar erkak hamsoyasi (qo'shnisi).

**Boyvuchcha xotin** — 35—40 yashar.

### *Ikkinchi parda*

Pivoxona manzarasi; boyvuchcha ila uch nafar kishi o'lturarlar.

**Tangriqul**. Bu oqshom bilmayman, nima uchun ichkilik meni tashlamaydur. Namozni digardan beri bir dujina shishani bo'shatdim. Dayusni pivosi qulog'imni qizitmadi. To'ldir, ichaylik! (Nor qadahlarni to'ldirar).

**Hammasi.** Toshmurod boyvachchani salomatligiga ura, ura, ura (icharlar).

**Davlat.** Jo‘ralar! Manovuni ichdim, endi yodinga Lizajon tushdi. Oh, Lizajon!

**Hammasi.** Oh, Lizajon, voh, Lizajon, qaydasan!

**Nor.** Zolim falak firoqig‘a kuydirdi mani; billohki, kelmasa bo‘miydi!

**Davlat.** Bu dod-u bedod ila hech nima bo‘lmas. Xo‘jayinni chaqiramiz, otam o‘ldi bazmi qilarmiz.

**Nor.** Qo‘lingni ber, ey, nomard, topding (qo‘lini siqar). Bo‘ldi.

**Davlat.** Ey, tutaberut Tangriqul! Daming chiqmaydur. Shuncha odam so‘zini o‘g‘irlab o‘ltirasan. Erga navbat, sherga navbat. Gap berib o‘ltur. Yo bu odamlarni pisand qilmaysanmi? Bizlarni ham yonimizga besh tangalik aqchamiz bor, jo‘ra! Bu mastlik rostlikdir. Qovog‘ingni ochib o‘ltur.

**Tangriqul.** Jo‘ralar! Sizlardan yashiraturg‘on so‘zimiz yo‘q. To‘g‘risini desam; manuni ichdim, qulog‘im qizig‘an, san Liza deding, endi o‘zim shunda bo‘lsam-da, hushim Lizaga, to Lizani kelturmasang, mani gapirtirolmaysan. Ammo gap kelturganingga Davlat zo‘r?

**Davlat.** G‘am yema, muddaong Liza bo‘lsa, shu zamon yoningga ko‘rarsan, kemasami? Boshini olarman.

**Nor.** Boyvachcha! Barishnaga tobingiz bormi?

**Toshmurod.** Mayli, odam yuhoringlar, bazm qilsun.

**Tangriqul.** Gap, gap ila vaqtni o‘tkararsizlar, buyuraturg‘on bo‘lsanglar, buyuringlar, ertaroq kelsun, kayf qilayluk. (*Davlat qo‘ng‘iroq chalar. Artun Armani mayxonachi kirar.*)

**Artun.** Nima deysan?

**Davlat.** Lizaga birovni buyur, kelsun!

**Artun.** Bunda!

**Davlat.** Ha, munda kelturmasdan mozorgami kelturarding?

**Artun.** Izvinit qilasan, surushdumda.

**Davlat.** Bo‘! Bo‘! Birovni yubor.

**Artun.** Bah, ne vor bilursen! Liza banga demishki, o‘n besh manatsiz banga kishi ko‘ndirma! Ha, o‘n besh manatda va faytun pulinida ver, geyin Nikolaya ko‘ndirayum Liza o‘lmasa, boshqasini getirsin, kayfing nechik?

**Davlat.** Avval kelturub, so‘ngra pulni olsang bo‘lmasmi? Aqcha olmayincha gelmez, bana ne! Sen o‘zing bilirsanki, u gavur qizi,

benimki degil (Mastlar bir-biriga hayron qararlar, kissalariga qo‘l soladurlar).

**Tangriqul.** Artun! Bir oz to‘xta, pul beramiz.

**Artun.** Bosh ustina, hozirim (*chiqar. Jo‘ralarni kayflari uchub, sukut etarlar*).

**Davlat.** Suz, ichaylik (*Nor suzib qo‘yar*).

**Tangriqul.** Pulni peshaki talab qilgani ishni belini sindirdi.

**Davlat.** Ish aksiga olsa, shunday bo‘lur. Pullaring bormi? Hammalaring chiqaring (hammasi chiqaradi. Davlat sanar, besh so‘m yetmas). Bu minan hech nima bo‘lmas. Bir ilojini topmoq kerak.

**Nor.** (*ta‘magirlik ila*). Ey, boybachcha, bizlarku kambag‘al, sizga nima! Kissangizdan pul chiqmaydur. Ana boybachchanning shakli (*qo‘li ila ko‘rsatur*).

**Davlat.** Parvo qilma, Nor! Men bir nimarsa o‘yladim, agar boyvachcha ko‘nsa.

**Tangriqul.** Nima ekan? Nima!

**Davlat.** To‘xta, nima ekanligini bilarsan. Avval boyvachchani salomatligiga ichaylik (*Tangriqul suzar, icharlar boyvachchanning salomatligiga*).

**Davlat.** Boybachcha! Bu kechadek chahorshanba suri oyda-yilda bir bo‘lur va yo‘q, bir kecha ming kecha bo‘lmas, agar qabul qilsangiz, Tangriqulni sizga qo‘sharman. Birga borib, otangizni sandug‘ini ko‘rsatursiz. Boshqa ishni Tangriqul bajaradur.

**Toshmurod.** Tangriqul aka, borasizmi?

**Tangriqul.** Ulfatlar buyursa, u dunyoga boraman. U-ku sizning hovlingiz.

**Davlat.** Sen nima dersan, Nor?

**Nor.** Men ham ko‘bni biri, bor desang, borarman.

**Davlat.** Yo‘q, ikkov bas. Ko‘rganlar badgumon bo‘lmasin. Bukunni ertasi bor.

**Nor.** Boybachcha! Otangiz sandig‘ining joyini bilarsizmi?

**Toshmurod.** Otamning yotadurg‘on uyinda.

**Davlat.** Yotadurg‘on uyni necha eshigi bor?

**Toshmurod.** Uch.

**Davlat.** Qaysi eshikdan kirarsizlar?

**Toshmurod.** Eshikning biri onamning uyindan ochilur, men kirib, hovli tarafidagi eshikni ocharman, so‘ngra Tangriqul akam kirar.

**Davlat.** Barakalloh! Ilgari ham o'g'rilik qilganga o'xshaysiz. Nor! To'ldur, ichaylik (*Nor to'ldirar, icharlar. Tangriqul va Toshmurodga qarab*). Endi boradurgansizlar?

**Tangriqul.** Albatta. Bormay nima bo'libdur (*Davlat to'pponchasini boyvachchaga berar. Nor etik sopidan pichoqni olib, Tangriqulga berar. Alar ehtiyot qilib turarlar*).

**Davlat.** (*ikkisiga qarab*). Yo'l bo'lsin, hotirlar!

**Tangriqul.** Olgani (*Davlat Tangriqulni bir chetga olib, ishorat va xufiya ma'lumot va amr berar*).

**Nor.** Omin olloh! (*hammasi*) Ollohu akbar! (*Davlat fotiha berar*).

### *Parda inar. Uchunchi parda*

(*Odat bo'yicha boy yotar krovat ustiga uyquda, uyni bir tarafga sanduq. Toshmurod bir eshikdan ohistalik ila kirar, bu tarafu tarafga qarab, boshqa bir eshikni ochar va bir chetga turar. Tangriqul kirar, qo'liga kalid va temir asbob, beliga pichoq, sandiq tarafga borib, kalid solar, sandiq ochilmas. Toshmurodga qaraydur. Ishorat ila maslahat so'raydi. Toshmurod sanduqni temir asbob ila sindirmog'ga amr berar. Tangriqul temir asbob ila sanduqni sindirar. Sanduqni ovozi ila boy uyg'onur. Boy cho'chib turar, kaltakni olib, voy, voy deb, Tangriqulga yugurar. Toshmurod kaltakni kelib ushlar. Tangriqul pichoq ila boyni qo'ltig'iga urar*).

**Boy** (*taraqlab yiqilar*). Voh, jonim! (*Jon uzar, tipirlar, xirillar*).

Tangriqul sandiqdan tanga xaltasini ko'tarar, pichoq va temir asbobni o'ziga berkitar, tashqaridan bir necha odam tovushi eshitilur.

**Odamlar.** Nima gap, birov dod dedi! (*Bir necha erkak ila boy xotuni kirarlar, Tangriqul ila Toshmurodni ko'rarlar*).

**Tangriqul.** Toshmurod, ot! (*Toshmurod havoga to'pponcha otar, qocharlar va hozir kishilarga siloh ko'rsatib*).

**Boyvuchcha.** Voy, zolim dastasidan, bu qanday kun edi, voy dod (*chapak chalar, boy ustiga o'zini tashlar, yuz va sochini yular*)! He, juvonmarg Toshmurod! Qon qus. Koshki chechakda ketsayding. Voy, padarkush Toshmurod! Voy, dodey!

**Domulla** (*kirar*). Onajon, sizga sabrdan boshqa chora yo'q. Bu badbaxtlik va musibatga sabab jaholat va nodonlikdir, bema'nilik



va tarbiyasizlikdir. Uyingizni nodonlik buzdi. Sizni beilmlik xonavayron qildi. O'g'lingizni beilmlik Sibirga yuboradi. Joningizdan aziz farzandingizni tarbiyasizlik balosi sizdan umri ayritadur. Bolangizni otasi tarbiya etmadi, o'qitmadi. Oxiri baloga uchradi, yomon rafiqlar yo'ldan chiqardilarki, qurboni jaholat bo'ldingiz.

**Boyvuchcha.** (*to'lg'anib*) oy, voy-voy bolam. Voy boyim, oh, voy u u u.

**Domulla.** Boyingiz-da nasihatga quloq solmadi va oxiri ushbu yomon hodisa paydo bo'ldi. Endi sizga ochig'i sabrdan boshqa iloj yo'qdir, onajon! Olloh sizga sabr bersun.

**Boyvuchcha** (*kamoli betoqatlik ilan oh vovoyla etar*). Dod, voy bolam, voy boyim, ikkisidan ham ayrildim, erimni mozorga, bolamni Sibirga yuboralar. Voy, voy, voy u u u!



### *Savol va topshiriqlar*

1. Behbudiyning o'zbek adabiyoyi taraqqiyotidagi o'rni qanday?
2. Behbudiyning millat ravnaqi va kelajagi haqida qayg'urib aytgan gaplari mazmunini izohlang.
3. Behbudiy asarlari qahramonlariga umumiy tavsif berish mumkinmi?
4. Behbudiy ijodida o'ziga xoslik nimalardan iborat?



**Abdulla Avloniy**  
(1878—1934)

---

**Hayoti va ijod yo'li**

- 1878- y. — Toshkentda hunarmand oilasida dunyoga keldi.
- 1885--1896- yillar — ta'lim olish yillari.
- 1894- y. — She'r yozishni boshladi.
- 1904- y. — Toshkentning Mirobod mahallasida yangi yo'nalishdagi jadid maktabini ochdi.
- 1907- y. — „Shuhrat“ nomli gazeta chiqardi.
- 1909- y. — Kambag'al, yetim-yesirlarga ko'mak beruvchi „Jamiyati xayriya“ degan uyushma tashkil etdi.  
„Birinshi muallim“ asarini yozdi.
- 1911- y. — „Ikkinchi muallim“ asarini yozdi.
- 1913- y. — „Turkiy guliston yoxud axloq“ asarini yozdi. 4 qismli „Adabiyot yoxud milliy she'rlar to'plami“ asarini yozdi.  
„Turkiston“ nomli teatr truppasi tashkil etildi va uning ishida faol qatnashdi.
- 1914- y. — „Sadoyi Turkiston“ gazetasida she'rlari bosildi.  
„Advokatlik osonmi?“
- 1916- y. — „Pinak“.
- 1917- y. — „Turon“ nomli gazeta chiqardi.  
„Biz va siz“.
- 1918- y. — „Ishtirokiyun“ gazetasi muharriri.
- 1921- y. — Maktablar ochish, xalqni savodxon qilish, o'zbek xotin-qizlarini o'qitish, o'qituvchilar va ziyoli vakillar tayyorlash ishlari bilan shug'ullandi.
- 1923- y. — Eski shahardagi xotin-qizlar va erlar maorif bilim yurti mudiri.
- 1924--1929- yillarda Toshkent Harbiy maktabi mudiri.
- 1930--1934- yillarda O'rta Osiyo universiteti til va adabiyot kafed-rasi mudiri, professor.
- 1933- y. — „Adabiyot majmuasi“.
- 1934- y. — Toshkentda vafot etdi.

## **„Turkiy Guliston yoxud axloq“ asari haqida**

1. Asar 1913- yilda yozilgan.
2. XX asr o‘zbek pedagogikasi tarixida asarning tutgan o‘rni.
3. Shayx Sa‘diyning „Bo‘ston“, „Guliston“ asarlariga doir an’analar ruhida yozilgan.
4. Adib asarni o‘z davrining maktablari, xususan, yuqori sinf o‘quvchilari uchun yozdi.
5. „Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir“.
6. Asr boshidagi xasta dil va bemor millat.
7. „Vatanni sevmog imondandir“.
8. „Axloq“.
9. „Tarbiya“.
10. „Yaxshi xulq“.
11. „Yomon xulq“.
12. Asarda millatga, vatanga sodiq farzandlar tarbiyalash zarurligi haqidagi fikrning ochib berilishi.
12. „Har bir millatning dunyoda borligini ko‘rsatadurgon oynayi hayoti til va adabiyotidir“.
13. Asarda islomning muqaddas kitoblariga murojaat qilinishi.
14. Axloqiy mavzudagi rivoyatlarning go‘zal va ixcham she‘riy parchalar bilan yakunlanishi.
15. Asarda tarixiy shaxslar hayoti va ijodiga murojaat qilinishi.

## **„Turkiy guliston yoxud axloq“ asaridan parchalar**

### *Axloq*

Insonlarni yaxshilikka chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurg‘on kitobni axloq deyilur.

Axloq ilmini o‘qib, bilub amal qilgan kishilar o‘zining kim ekanini, yer yuzida nima ish qilmak uchun yurganini bilur. Bir kishi o‘zidan xabardor bo‘lmasa, ilmni, ulamoni, yaxshi kishilarni, yaxshi narsalarni, yaxshi ishlarning qadrini, qimmatini bilmas. O‘z aybini bilur, iqrur qilub, tuzatmakka sa‘y qilgan kishi chin bahodir va pahlavon kishidur...

So'ylasang, so'yla yaxshi so'zlardan,  
Yo'qsa, jim turmoq'ing erur yaxshi.  
O'ylasang, yaxshi fikrlar o'yla,  
Yo'qsa, gung bo'lmog'ing yaxshi.  
Ishlasang, ishla yaxshi ishlarni,  
Yo'qsa, bekorlig'ing erur yaxshi.

### *Tarbiya*

Tarbiya „pedago'giya“, ya'ni bola tarbiyasining fani demakdur. Ilmi axloqning asosi tarbiya o'ldug'indan shul xususda bir oz so'z so'zlaymiz. Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtindan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o'rgatmak, yomon xulqlardan asrab o'sdurmakdur...

Axloqimiz binosining go'zal va chiroyli bo'lishiga tarbiyaning zo'r ta'siri bordur. Ba'zilar „tarbiyaning ta'siri yo'q, insonlar asl yaratilishida qanday bo'lsalar, shunday o'sarlar, tabiat o'zgar-mas:

Yomon hech tuzalmaydi darmon ila,  
Ipak o'lmas ip, rangi alvon ila.  
Boqing, bir daraxt mevasidur yomon,  
Bo'lur yaxshi payvand, parvo bilan.  
Bilur har kishi aslini rangidan  
Va yokim ulangandagi zangidan,“—

demishlar. Lekin bu so'z to'g'ri emasdur. Chunki tarbiyaning axloqqa albatta ta'siri bo'ludur. Oramizda masal borki, „Sut ila kirgan jon ila chiqar“, — mana bu so'z to'g'ridur.

„Beshikdan to mozorga borguncha ilm o'rgan“ demishlar. Bu hadisi sharifning ma'nosi bizlarga dalildur. Hukamolardan biri: „Har bir millatning saodati, davlatlarning tinchi va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'liqdur“, — demish. O'z bolalarini yaxshilab tarbiya qilmak otalarga farzi ayon, o'z millatining yetim qolgan bolalarini tarbiya qilmak farzi kifoyadur:

Har kishining dunyoda oromi joni tarbiyat,  
Balkim oxirida erur dorulamon tarbiyat.  
Tarbiyat hamroh etadur hur ila rizvonlara,  
Gar desam bo'lmas xato, jannat makoni tarbiyat.  
Moyafi zilli humodir tarbiyatning soyasi,  
Bizda anqo tuxmidek, yo'q oshiyoni tarbiyat.

## Yaxshi xulqlar


Bir qismini o'z nafsimizga, bir qismini bir-birimizga qarshi ishlatmak uchun kerakli bo'lgan yaxshi xulqlar: fatonat, sabr, hilm, intizom, diyonat, nazofat, g'ayrat, riyozat, qanoat shijoat, ilm, miqyosi nafs, vijdon, vatanni suymak, haqqoniyat, iffat, hayo, idrok, iqtisod, viqor, xavf va rajo, itoat, haqshunoslik, munislik, sadoqat, muhabbat va avfdur. Emdi bu yaxshi xulqlarni qo'lga olmak uchun ota-ona, muallim-ustodlarimiz hazratlarining hikmatli nasihatlarini jon qulog'i birla tinglab, doim xotirda tutmoq, axloqi yaxshi kishilar birla ulfat bo'lmak, axloqi buzuq, yomon kishilardan qochmak lozimdur.



### Savol va topshiriqlar

1. Abdulla Avloniy yoshligida qanday kasblar bilan shug'ullangan?
2. Shoir dunyoqarashiga ta'sir etgan omillar qaysilar?
3. Shoir tashkil etgan va muharrirlik qilgan gazetalarning nomini ayting.
4. Adibning ma'rifatparvarlik va milliy uyg'onish ruhi bilan sug'orilgan asarlarini sanang.
5. „Turkiy Guliston...“ asarining zamonaviy ahamiyati nimada?
6. Jadidchilik harakatida Avloniy qanday o'rin tutadi?



  
**Abdulla Qodiriy**  
(1894—1938)



*Abdulla Qodiriy hayoti va ijodiy faoliyati yuzasidan o'rtta  
umumta'lim dasturi bo'yicha mustahkamlovchi savol va  
topshiriqlar*

1. Abdulla Qodiriy haqida nimalarni bilasiz?
2. Adib hikoyalarini eslang.
3. 5- sinfda adibning „Jinlar bazmi“ hikoyasi bilan tanishgan edingiz. Asar qahramonlari haqida gapirib bering.
4. Adibning romanlarini sanang va ular qachon yozilganligini ayting.

### **Hayoti va ijod yo'li**

- 1894- y. — Toshkent shahrida bog'bon oilasida dunyoga keldi.
- 1913- y. — Ilk ijod faoliyatini boshladi.
- 1915- y. — „Baxtsiz kuyov“ fojiasi.
- 1919- y. — „O'tkan kunlar“ romani ustida ish boshlandi.
- 1919—1926- yillarda matbuotda maqola, hajviyalari bilan qatnashib bordi va „Oziq ishlari“ gazetasida muharrir bo'lib ishladi.
- 1921- y. — „Jinlar bazmi“ hikoyasi ilk bor „Sharq chechagi“ nomli bolalar jurnalida chop etilgan.
- 1924—1925- yillarda Moskvada oliy jurnalistika institutida tahsil oldi.
- 1929- y. — „Mehrobdan chayon“ romani bosib chiqarildi.
- 1934- y. — „Obid ketmon“ asari yozildi.
- 1936- y. — „Jinlar bazmi“ hikoyasi alohida kitobcha bo'lib nashr etildi.
- 1938- y. — Pinhona qatl etildi.
- 1958- y. — Uning qutlug' nomi, asarlari xalqqa qaytarila boshlandi.

## „KALVAK MAXZUM...“ hajviyasi haqida

O‘z vaqtida mushtumxonlarni yaxshigina kuldirdigan Qodiriy asarlaridan biri „Kalvak Maxzumning xotira daftaridan“ hajviy qissasidir. Bu asar 1923—1926- yillar mobaynida „Mushtum“ jurnalida, „Mushtum“ning bordi-keldisi“ rubrikasi ostida 21 sonda davomli bosilgan.

Yozuvchi Abdulla Qahhor bir suhbatda bu asar to‘g‘risida shunday degan edi:

— Men „Kalvak Maxzum...“ni birinchi bor o‘qiganimda „hajviyotda shunday priyomlar ham bor ekan-da,“ — deb hayratlangan edim...

Darhaqiqat „Kalvak Maxzum...“ hajviyatchilikda yangilik bo‘lgan qahramonning o‘ziga xos tili, turmush haqiqatidan yiroq sodda fikrlari hajvning asl omili, kulgining ayni boisi bo‘lib xizmat qiladi.

— Mening kulgilikda ishlatadigan necha turlik imzo, ya‘ni qahramonlarim bor: Kalvak Maxzum, Toshpo‘lat, Ovsar, Dumbul, Shilg‘ay va boshqalar. Agar siz shu imzolar bilan yozilgan kulgiliklarni tekshirib chiqsangiz, munda asli yozuvchining shaxsini tamoman ko‘rmaysiz. Faqat so‘zni imzo egasining o‘z og‘zidangina eshitamiz. Kalvak Maxzum obrazi orqali-da ko‘pdan haqiqiy hayot bilan aloqasi uzilgan xolis bir mahalla imomini ko‘rasiz, — deb yozadilar Qodiriy „Kulgu haqida“ nomli maqolalarida.

Albatta, bunday uslubda hajv yozish xiyla qiyin va mas‘ulyatli. Axir yozuvchi asarga o‘zidan biror og‘ir so‘z qo‘shishga haqsiz, u (yozuvchi) artist qabilida boshdan-oyoq rolga kirishi shart-da!..

Asar boshdan-oyoq qahramon — Kalvak Maxzum tilidan tarjimai hol—sarguzasht tarzida hikoya qilinadi. U jiddiy ravishda eskirgan domlalar tili va talaffuzida odob bilan o‘z ota-onasining qanday „ulug‘ zotlar“ bo‘lganini, otasining Toshkent muzofotida tutgan „beqiyos obro‘isini, ilmini va urfonini, o‘zining ana shunday zotlardan dunyoga barq urib kelganini, nihoyatda avaylanib tarbiya topganini, madrasada „zo‘r“ muvaffaqiyat bilan o‘qiganini, uylanishini va ko‘rgan-kechirganlarini erinmay hikoya qilib, o‘zining almisoqdan qolgan sodda fikr-aqidalari bilan o‘quvchilarni kuldirib boraveradi.

Bu asarni yozishga sabab birgina: inqilobgacha va inqilobdan so‘ng ham xalqimiz orasida mutaassiblik kuchli bo‘lgani, bunda asosiy rolni ana shu Kalvak Maxzumlar o‘ynagani hammaga ayon...

O'quvchilarimizda albatta „Kalvak Maxzum, tarixiy shaxs-mi?“ degan savol tug'ilishi mumkin. Ha, tarixiy shaxs.

Mahallamizda mulla Isoq domla degan bo'lardi. O'zi mahallamizning imomi, dadamdan yigirma yoshlar katta, o'rta bo'yi. qotmadan kelgan, chuvak, mosh-guruch soqolli, bir muncha husndor, tez-tez so'zlovchi, Buxoro madrasalarida yigirma yillab o'qib, qaytgan kishi edi. (Bu kishi 1940- yillarda vafot etdi). U dadam bilan juda „qalin“, ba'zan-ba'zan biznikiga takallufsiz kirib kelardi-da, dunyo voqiot-siyosatlaridan „suhbatlashib“ xabardor bo'lib ketar edi. Uning gaplari total-tatal, ba'zi yuritgan mulohaza-fikrlaridan kulmay iloj yo'q edi. Dadam u kishi bilan suhbatlashganda munozaraga kirishmas, faqat qisqa-qisqa javob berib, kulib o'tirar edilar.

\* \* \*

Josiyat bibim 1936- yil yozida 75 yoshida vafot etdilar. Shunda, ko'pchilik jamoa bilan fotiha o'qigani kelgan mulla Isoq domla eshik oldida odam kutib turgan Asomiddin tog'amni o'z yoniga chaqirib deydi:

— Bu, fotihaga kelayotgan kishilarni ro'yxatga olyapsizmi, inim?  
— Yo'q, taqsir, ro'yxat nima hojat? — dedi tog'am.

— Axir, siz, fotihaga kelganlarning hammasini yodingizda tuta olmaysiz-da. Ro'yxat tuzib qo'ysangiz, mulla Abdulla kelgach, topshirasiz. U kishi fotihaga kimlar kelgan-kelmaganligidan xabardor bo'ladilar...

(Habibulla Qodiriy)



### *Savol va topshiriqlar*

\*\*\*\*\*

1. Abdulla Qodiriyning o'zbek adabiyoti taraqqiyotidagi o'rni nimadan iborat?
2. Qodiriyning bolalik va yoshlik yillari haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?
3. Qodiriyning ilk ijodi qanday boshlangan? Qodiriyning birinchi asari qanday nomlanadi?
4. Qodiriyning jurnalist sifatidagi faoliyati haqida gapiring.
5. Qodiriyning hajviy asarlari qanday nomlanadi?
6. Qodiriyning ta'qib ostiga olinish sabablari nimada?





---

**Hamza Hakimzoda Niyoziy**  
(1889—1929)

---

*Hamza Hakimzoda Niyoziy hayoti va ijodiy faoliyati yuzasidan o'rtta umumta'lim dasturi bo'yicha mustahkamlovchi savol va topshiriqlar*

1. Shoir tug'ilgan shahar?
2. Shoirga qachon „Xalq yozuvchisi“ unvoni berilgan?

### **Hayoti va ijod yo'li**

- 1889- y. — Qo'qonda dunyoga keldi.  
1897- y. — Adabiyotga bolgan ixlosi boshlandi.  
1899- y. — O'zi she'r yoza boshladi.  
1899—1906- yillarda madrasada tahsil yillari.  
1908- y. — Namanganga borib, 7-8 oy davomida tahsil ko'rdi.  
1910- y. — Toshkentga kelib Qashqar mahallasida birinchi marta usuli savtiya (jadid) maktabini ochdi.  
1911- y. — Hajga yo'l olib, bir qancha shaharlarda ziyoratda bo'ldi.  
1914- y. — Marg'ilon va Qo'qonda maktab ochib, yo'qsil bolalarni o'qitdi.  
1915- y. — yilda yozilgan „Yangi saodat“ asari bosib chiqarildi. „Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari“ dramasi. „O'ch“, „Ilm xosiyati“ asarlari.  
1915—1917- yillarda „Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi“.  
1916- y. — „Turmush achchig'i“.  
1916—1918- yillar. „Loshmon fojiasi“.  
1917- y. — „Toshkentga sayohat“. „Ishchilar hayotidan“ asari.  
1917—1918- yillar „O'ch“, „Muxtoriyat yoki avtonomiya“, „Boy ila xizmatchi“, „Kim to'g'ri“, „Tuhmatchilar jazosi“ asarlari.  
1918- y. — Qo'qon va Farg'onada muallimlikni davom ettirdi.

- 1918—1920- yillar „Farg'ona fojiasi“ asari.  
 1919- y. — „Qizil qon ichida yosh gavdalar“ asari.  
 1920- y. — Xo'jandga kelib, Farg'ona frontlarida xizmat etdi va „Eshonlikda xiyonat“ asari yozildi.  
 1922- y. — „Paranji sirlari“.  
 1923—1924- yillar „G'olibiyat“.  
 1926—1928- yillar — „O'zbekiston Xalq yozuvchisi“ unvoni berildi. „Maysaraning ishi“ dramatik asari, „Burungi saylovlar“, „Burungi qozilar“, „Yallachilar ishi“.  
 1929- y. — Shohimardonda toshbo'ron qilindi.

## „Boy ila xizmatchi“ dramasidan parchalar

### Qatnashuvchilar:

- Go'fir** — boyning xizmatkori, 30 yoshlarda.  
**Jamila** — G'ofirning xotini, 16 yoshlarda.  
**Solihboy** — 50-60 yoshlarda.  
**Xolmat** — boyning xizmatkori, 30-35 yoshlarda.  
**Hojiona** — boyning onasi.  
**Poshshooyim, Xonzodaxon, Gulbahor** — boyning xotinlari.  
**Qodirqul** — mingboshi.  
**Rahima xola** — Jamilaning onasi.  
**Oyxon** — Gulbahorning onasi.  
**Hasan** — ellikboshi.  
**Sifat buvi, imom, to'ra, pristav, qozi va boshqalar.**

### *G'ofir monologi*

Ochlikdan sillam qurib. iligim puchaygan chog'imda ham sizlarga yalinmayman! Nahot, bu ko'zlardan oqqan jiggar qonlari, beva-bechora, yetim-yesirlarning oh-u zorlari ko'nglingizni yumshatmaydi? Qachongacha kimxob choponlar, yog'liq palovlar uchun boylarga zulm pichog'ini qayrab berasiz! Axir, bu duolar, rivoyatlar niqobiga yashiringan zulmdan, jafolardan biz sho'ri quriganlar kimga dod deymiz? Kimga! Bu g'urbatxonada notavon yig'laganlarning, afsus-nadomat chekkanlarning dod-u faryodini kim tinglaydi, kim?

## *To'rtinchi parda*

*Boyning yasatilgan uyi. Jamilaning boyga nikoh qilinganiga besh-olti kun bo'lgan*

**Jamila.** Qush edim, qanotimni qayirdilar, gul edim bulbulimdan ayirdilar. Sibir... Qanday qo'rqinchli, xunuk bir ot... Tilga olsam, etlarim junjikadi. U qanaqa joy bo'lsa ekan? Borsammikan? He, men nima deyapman? Qayerga ham bora olaman! Meni bu temir qafasga soldilar, ixtiyorimni qo'limdan oldilar. Aylanamda qancha poyloqchi, qancha qorovullar bor. (Kulib.) Men endi boy xotinman, ha, ha, ha, boy xotin! G'ofirjon menga nomahram! O'ho', qancha yig'ladim, yig'lay bersang ko'zingning yoshi ham tugab qolar ekan, ko'nikib ham qolar ekansan kishi. Mana endi yig'lamayman ham. Ko'zimga qatra yosh ham kelmaydi. O'limga ham tik qarab tura beraman. Ne qilay? Yashash uchun kurashdim, olishdim, boshimga tuproq sochib, faryod ko'tardim, faryod qadr-u qimmatini bo'lmadi. Birov, nimaga yig'laysan, deb so'ramadi. Ha, menday baxti qaroning kimga keragi bor? Xonzoda bo'lsa, xuddi qarg'aday go'shtimni poylab, tepamda uchadi.

### *Hojiona kiradi*

**Hojiona.** (kulib). Qizim Jamilaxon! Menga, keling, demaysan? Hojionaga salom bermaysan?

### *Jamila salom beradi*

Barakalla, qizim, barakalla... Men ikki yo'l haj qilgan, xudojo'y, bir tavfiq xotinman! Musulmonlarga yomonlikni aslo ravo ko'rmayman. Dilozorni xudo bandam demas. Men seni o'z onangdan ziyoda yaxshi ko'raman. Senga ikki og'iz shariatdan-tariqatdan gapiray, deb kirdim, bolam.

**Jamila.** Gapiring, Hojiona, gapiring... Ko'nglim shunday qorong'u... zora yorishsa...

**Hojiona.** Qizim, hali o'n gulingdan bir guling ochilgani yo'q. Hojionaday taqvodor, mehribon, badavlat xotinga kelin bo'lish har qanday qizning baxtiga uchramaydi. Shukur qil, bolam! Endi o'sha G'ofirni esdan chiqar. Kundoshlaringga ehtiyot bo'l... Ular bergan ovqatlarini yema! Eringni yaxshi hurmat qil! Darrov borib, salla, to'nini ol! Mahsisini o'zing tort. Eringga sekin gapir,

tovushingni kimsa eshitmasin... Unga sira tik qarab gapirma, gunoh bo'ladi. Ering bilan bir qatorda meni ham hurmat qil, savob bo'ladi! Shunday qilsang baxting ochiladi! Mana senga ko'rmana! O'z bisotimdan! (*Arzimagan bir narsani beradi.*) Seni namoz o'qimaydi deyishadi... Besh vaqt namozni kanda qilma! Bo'lmasa uyingdan farishtalar qochadi. (*Hojiona namoz o'qiydi.*) Men endi chiqay. Eringni bugun xursand qil, tuzukmi bolam. Xudo, mo'minlarga tavfiq ber, ko'pning qatorida imonimni basalommat saqla!



### *Savol va topshiriqlar*

1. Hamza ijodining boshlanish davri haqida nimalarni bilasiz?
2. Hamzaning o'zi tashkil etgan maktablar haqida gapiring.
3. „Maysaraning ishi“ komediyasi asosida qanday san'at asarlari yaratilgan?
4. Hamza so'zi va kuyi bilan aytiladigan qanday qo'shiqlarni bilasiz?
5. Hamzaning vatan, millat va el-yurt taqdiri, kelajagi haqida yozilgan qanday asarlari mavjud?
6. „Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari“ asari qahramonlariga ta'rif bering.
7. „Boy ila xizmatchi“ dramasi qahramonlariga tavsif bering.
8. „Boy ila xizmatchi“ dramasi g'oyaviy mazmuni haqida insho yozishga tayyorgarlik ko'ring.



---

## **Hamid Olimjon**

(1909—1944)

---

*Hamid Olimjon hayoti va ijodiy faoliyati yuzasidan o'rtta umumta'lim dasturi bo'yicha mustahkamlovchi savol va topshiriqlar*

1. 5-sinfda Hamid Olimjonning „Oygul bilan Baxtiyor“ nomli she'riy ertagi bilan tanishgan edingiz. Mazkur asarning manbalari haqida gapirib bering.

2. „Oygul bilan Baxtiyor“ asarining mazmuni va undagi go'zal insoniy fazilatlar haqida so'zlang.

3. Siz 7- sinfda shoirning „G'azal“ she'ri bilan tanishgansiz. She'r qanday janrda yozilgan?

### **Hayoti va ijod yo'li**

- 1909- y. — Hamid Olimjon Jizzax shahrida dunyoga keldi.  
1918- y. — Narimonov nomidagi to'liqsiz o'rtta maktabda o'qidi.  
1923- y. — Samarqandda o'zbek bilim yurtida o'qishni davom ettirdi.  
1926- y. — Shoirning „Kimdir“ deb nomlangan ilk she'ri „Zarafshon“ gazetasida e'lon qilindi.  
1928- y. — Bilim yurtini bitirib, O'zbekiston Davlat Pedagogika akademiyasiga o'qishga kirdi.  
1929- y. — „Ko'klam“ nomli dastlabki she'rlar to'plami nashr etildi.  
1931- y. — „Tong shabadasi“ hikoyalar to'plami.  
1932- y. — „Olov sochlar“ she'riy to'plami.  
1932- y. — „Baxtlar vodiysi“ she'ri, „Poyga“ to'plami.  
1936- y. — „Daryo kechasi“.  
1937- y. — „She'rlar“.  
1938- y. — noyabrda ulug' o'zbek shoiri Alisher Navoiyning 500 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan Navoiy komitetining mas'ul kotibi qilib belgilandi.  
1938- y. — „Zaynab va Omon“.  
1939- y. — „O'lka“, „Oygul va Baxtiyor“.  
1940- y. — „Baxt“ she'riy to'plami bosmadan chiqarildi.  
1944- y. — Avtomobil halokati natijasida vafot etdi.

## SHE'RLAR

### „Ishim bordir o'sha ohuda“

*(Ilhom parisiga)*

U menga ko'rinar har zamon,  
Fikrimni chulg'aydi beomon,  
O'tlarga tashlaydi xo'p yomon—  
Ishim bordir o'sha ohuda.

U ko'rinar soydagi suvda,  
Bir paridir toza, osuda...  
Qoyalardan uchar bemalol,  
Qushlar ko'rsa titrab qolar lol—  
Ishim bordir o'sha ohuda.

Tunda uxlamadim axtarib,  
Kutib turdim buloqqa borib,  
U-chi? Qoqib o'tdi qanotin,  
Oq bulutlar bag'rini yorib—  
Ishim bordir o'sha ohuda.

U yurganda ochilar gullar,  
Baxmalga burkanar bahoriy cho'llar,  
U bor yerda jonlanar hayot,  
Uni ko'rsa chayqalur ko'llar—  
Ishim bordir o'sha ohuda.

O'lkasidan o'tar shabboda,  
Sevinch bilan to'lug'dir jomi:  
Go'zallarga u tutar boda,  
Ko'rsa kelar pari ilhomi,—  
Ishim bordir o'sha ohuda

Qo'shig'ini tinglar Qashqa tog',  
Og'ushida mangudir bahor,  
Chiroyida zarra yo'qdir dog',  
Dalasida yozda uxlar qor—  
Ishim bordir o'sha ohuda.

Usiz mening tinchim yo'qolur,  
Usiz yurak cholg'usiz qolur,  
Usiz esdan chiqar odatim—  
Unutilar bor sodatim,  
Ishim bordir o'sha ohuda.

## „O‘rik gullaganda“

Derazamning oldida bir tup  
O‘rik oppoq bo‘lib gulladi...

Novdalarni bezab g‘unchalar  
Tongda aytdi Hayot otini,  
Va shabboda qurg‘ur ilk sahar  
Olib ketdi gulning totini.

Har bahorda shu bo‘lar takror,  
Har bahor ham shunday o‘tadi.  
Qancha tirishsam ham u beor  
Yellar meni aldab ketadi.

Mayli deyman va qilmayman g‘ash,  
Xayolimni gulga o‘rayman;  
Har bahorga chiqqanda yakkash,  
Baxtim bormi, deya so‘rayman.

Yuzlarimni silab, siypalab,  
Baxting bor, deb esadi yellar.  
Etgan kabi go‘yo bir talab,  
Baxting bor, deb qushlar chiyillar.

Hamma narsa meni qarshilar,  
Har bir kurtak menga so‘ylar roz.  
Men yurganda bog‘larga to‘lar  
Faqat baxtni maqtagan ovoz:

„Mana senga olam-olam gul,  
Etagingga siqqanicha ol,  
Bunda tole’ har narsadan mo‘l,  
To o‘lguncha shu o‘lkada qol.

Umrida hech gul ko‘rmay yig‘lab  
O‘tganlarning haqqi ham senda.  
Har bahorni yig‘lab qarshilab  
Ketganlarning haqqi ham senda...“

Derazamning oldida bir tup  
O‘rik oppoq bo‘lib gulladi...

## „Sevgi“

Bir tutam gul tutib boqding ko‘zimga,  
Dedingki: „Esdalik bo‘lsin buni ol...“  
O‘zimni yo‘qotdim, ne deding menga?  
Tutganing gulmidi va yoki xayol?

„Butun yoshligimiz jangdadir bukun,  
Jangda yechilmoqda sevgi qismati.  
Jangdadir yigitlar, jangdadir qizlar,  
Havoda uchadi mahublar xati.

Agarda qaytmasam bu mendan yodgor“  
Deding-da, ko‘rindi ko‘zlaringda nam.  
„Agar sevar bo‘lsang unutmaz zinhor...“  
Uzun kipriklaring ostida shabnam.

Menga ne kerakdir bu yolg‘iz qolish?  
Sensiz ololmasman aslo men nafas,  
O‘limdan og‘irdir sendan ajralish,  
Torgina qalbimga keng dunyo qafas.

Orqangdan qolmasdan jo‘nadim jangga,  
Qo‘zi ketgan kabi qo‘yning izidan.  
Go‘yo quyosh oyni kuzatganiday  
Ot olib orqangdan kezmakdaman man.

Sen otash ichida urarsan javlon,  
Dushman qolmasin deb sevgan elimda.  
Men ham qafas olib to‘kmakdaman qon,  
Elim va yorimning nomi dilimda.

Men yovni qiraman jangda beomon  
Seni axtaraman bir nafas tinmay.  
Bir qo‘lda qilichim, bir qo‘lda qurol,  
Sevguvchi qalbimda nola qilar nay.

Senga yuborganim otashin bo‘sa  
Yengil shabbodadek uchar havoda.  
Jang bo‘lgan joylarda labingni izlar  
Va ba‘zan darbadar kezar samoda.



Balki uchrashmasmiz biz endi mangu,  
Bo'samiz ham qolar balki sargardon,  
Lekin sevishganlar qaytmas o'limdan,  
Lekin mangu qolar ikki tomchi qon.

Dunyoda, albatta, bir o'lmoq bor-ku!  
Hech ajab emasdir o'lsak jang aro.  
Yov bilan kurashda oqsa qonimiz,  
Bo'lmay el oldida yuzimiz qaro.

O'limdan qo'rqmagan erlar qonidan  
Juda tabarrukdir qizarsa tuproq.  
O'sha qon do'stlarning yoritib yuzin,  
Zafar yo'llarini qilsa oydinroq.

Jismimiz yo'qolur, o'chmas nomimiz,  
G'alaba to'yida bo'larmiz biz ham.  
Aziz do'stlar bilan uchrashib xandon,  
Qadrdon ellarga qo'yarmiz qadam.




Bug'doy boshog'iday ko'kka intilib,  
Men shunda tuproqdan ko'tararman bosh.  
Sening qonlaringdan o'sar qizil gul,  
Yoqutga aylana soylardagi tosh.

Dunyoni yoritar bizning sevgimiz,  
Ikkimiz hech qachon o'lmasmiz aslo.  
Yor-u do'stlarimiz, sevgan elimiz,  
Bizdan rizo bo'lib topar tasallo.




### **Savol va topshiriqlar**

1. Shoirning qo'shiq qilib aytilgan qanday she'rларini bilasiz?
2. Shoirning ona obrazi tasvirlangan asarlarini sanang.
3. Shoirning „O'rik gullaganda“ she'ridagi o'xshatish, sifatlash va istioralarni tahlil eting.
4. „Hamid Olimjon – lirik shoir“ mavzusidagi inshoga tayyorgarlik ko'ring.

***Pirimqul Qodirov***  
*(1928-yilda tugʻilgan)*



*Pirimqul Qodirov hayoti va ijodiy faoliyati yuzasidan oʻrta  
umumtaʼlim dasturi boʻyicha mustahkamlovchi savol va  
topshiriqlar*

1. Adibning eng birinchi asari qachon yozilgan va u qanday nomlanadi?
2. Adibning tarixiy asarlarini sanang.
3. 6- sinfda „Avlodlar dovoni“ asaridan berilgan parcha qanday nomlangan? Unda qaysi davr voqealari haqida soʻz yuritiladi? Asarning qahramonlari haqida gapiring.

### **Hayoti va ijod yoʻli**

- 1928- y. — Tojikistonning Shahriston tumaniga qarashli Keng-koʻl qishlogida tugʻilgan.
- 1950- y. — „Studentlar“ qissasi.
- 1953- y. — „Oilamiz“.
- 1954- y. — Yozuvchilar uyushmasiga oʻzbek adabiyoti boʻyicha maslahatchi boʻlib ishga kirdi.
- 1958- y. — „Uch ildiz“.
- 1960- y. — „Qora koʻzlar“.
- 1963- y. — Til va adabiyot institutida ilmiy xodim .
- 1969—1978- yillar „Yulduzli tunlar“ romani.
- 1973- y. — „Jon shirin“ hikoyasi.  
„Xalq tili va realistik proza“ risolasi.
- 1974- y. — „Til-dil“ risolasi, „Akromning sarguzashtlari“ hikoyasi.
- 1977- y. — „Yayra institutga kirmoqchi“, „Olmos kamar“.
- 1980- y. — „Najot“.
- 1981—1987-yillar „Avlodlar dovoni“ romani.
- 1993- y. — „Botirlar va baxillar“.
- 1997-y. — „Ona lochin vidosi“.

## „YULDUZLI TUNLAR“

*(Asarni o'qib tugatgach, quyidagi reja asosida voqealar rivojini eslang va qayta hikoyalashga tayyorlaning.)*

*Birinchi qism*

**Arosat.**

**Quva**

1. Yomg'ir yog'ayotgan payt. Majnuntol tagida Tohir bilan Robiya suhbatlari. Robiyaning Andijonga ketmoqchiligi. Tohirning ham Andijonga, tog'asi Mavlono Fazliddinning uyiga borishi haqidagi fikr.

2. Mavlono Fazliddin. Ahmad Tanbal va Yusuf Yoqubbek tashriflari. Sirli tintuv.

3. Tohir ota-onasi bilan iftorlik qilayotgan mahal Mavlono Fazliddinning ko'ch-ko'ronlari bilan kirib kelishi.

**Axsi.**

**Ajalga davo yo'q**

1. Umarshayx Mirzoning saharlik vaqtidagi suhbatlari.

2. Umarshayx Mirzo kabutarxonada. Marg'ilonga qanotlik choparlarni yuborish istagi va yuborilishi. Umarshayx Mirzoning kabutarxona tomidan jarlikka tushib ketishi.

3. Ahmad Tanbalning Jahongir Mirzo tomonidan, Qosimbekning ota vasiyatiga ko'ra Bobur Mirzo tomonidan taxt uchun kurashishlari.

**Andijon.**

**Gul va quyun**

1. O'n ikki yoshli Bobur Mirzoning ilm va mahorat o'rganish bilan bandligi.

2. Ota vafoti haqidagi xabar. Qo'qonning berk darvozasi. O'sh sari yo'l. Ahmad Tanbal va Yoqubbekning orzusi. Andijondagi saroyda beklar va mulozimlar yig'ilishi. Darvesh gov iltijosi. Yasoq. Rad javobi olgan elchilar.

**Quva.**

**Jasoratning jazosi**

1. Mulla Fazliddin yosh podshoh Bobur Mirzo huzuri sari.

Mulla Fazliddin xazinasi. Quvasoy ko'prigi. Tohir, Mahmud, Umrzoq, juvozkash yigit.

2. Mulla Fazliddin va Xonzoda begim.
3. Mirzo Bobur qurdirgan birinchi imorat.
4. Sulton Mirzo maktubi.  
Xonzoda begim, Qutlug' Nigorxonim, Qosimbek bahsi.  
Mashvarat.
5. Ahmad Tanbal o'ljasi.  
Mukofot.
6. Mulla Fazliddin — podshohning xos me'mori.  
Fazliddin xonadoniga Tohir tashrifi.  
Tohir—podshoh navkari.
7. Samarqandga yurish haqida qaror.  
Ali Do'stbek maslahati.  
„Qalbingizga quloq soling, Boburjon“

### **Samarqand. Zafar va kulfat**

1. Yetti oylik Samarqand qamali.  
Zafar.  
Tuhfa.  
G'oyibona muhabbat.
2. Samarqand bo'ylab tanishuv.
3. Odamlarga non ulashildi.  
Robiya haqida surishtiruv.  
Mamat bilan suhbat.
4. Darvozaning Xonqulibekka ochilishi.  
Xo'ja Abdullani Andijonga kiritishmadi.  
Bobur betob.  
Maktub.  
Andijon.  
Uvol bo'lgan orzular.  
Fazliddinning hibsonaga keltirilishi va ozod etilishi.  
Xo'ja Abdulloning o'ldirilishi.  
Tohir Bobur huzuri sari.  
Xo'jandda Tohir bilan Bobur uchrashuvi.  
Marg'ilon va O'sh muvaffaqiyati.  
Ahmad Tanbal pistirmasi.  
Tohirning yordami.  
Oysha begim Bobur mirzo haramida.  
Shayboniyxonning Samarqandga yurmoqchiligi.  
Boburning rejalari.

## **Samarqand. Hal qiluvchi olishuv**

1. Sulton Mahmud, Sulton Ali, Zuhra begim.
2. Sulton Ali va Zuhra begim Shayboniyxon huzurida. Muhammad Solih, Qambariy va Ko'pakbiy suhbat. Shayboniyxonning mulla Abdurahim bilan suhbat.
3. „Joynamozim — taxtimdan baland“. Bobur Shahrisabzda. Mansur baxshi.
4. Samarqand uchun kurash. Sulton Ali Mirzoning o'ldirilishi.
5. Boburning zafari. Fozil Tarxon o'limi. Tohirning Robiyani topishi.
6. Oysha begim Samarqandga keladi. Mavlono Binoiy. Alisher Navoiyga maktub.
7. Boburshoh-ota: Faxrinisoning qutlug' qadami. Shayboniyxon zafari. Bobur qamalda. Vido. Shayboniyxonning Xonzodabegim bilan bog'liq maktubi.

### **„YULDUZLI TUNLAR“ romanidan parcha**

#### **Quva. Qil ustida turgan taqdirlar**

Milodiy 1494- yilning yozi. Saraton issig'ida Farg'ona vodiysining osmoniga chiqqan quyuq bulutlar kuni bo'yi havoni dim qilib turdi-yu, kechki payt birdan jala quyib berdi. Qizil tuproqli tepaliklar orasidan o'tib kelayotgan sersuv Quvasoy qon qo'shib oqizilgandek qip-qizil bo'lib ketdi.

Soy bo'yidagi majnuntollar panasida bir yigit bilan qiz shivirlashib gaplashmoqda edi.

— Robiya, inon, men tirik bo'lsam, senga balo-qazoni yo'latmasmen!

— Tangrim sizni ham panohida asrasin, Tohir og'a Yog'iyning ming-ming askari bor. Qaysi biriga bas kelursiz? Ana, qochqinlarga qarang!..

Tohir orqasiga o'girilib, Quvasoyning quyi tomonlariga ko'z yugurtirdi. Pastda qamishzor botqoqlik va uning ustidan o'tgan uzun yog'och ko'prik bor edi. Ko'prikdan chumoliday behisob

odamlar, otlar, mollar, aravalar tizilib o'tib kelayotgani yomg'ir pardasi orasidan elas-elas ko'zga chalinar edi.

Samarqand podshosi Qo'qonni bosib olib, qo'shiniga talatgan va Marg'ilonga hujum qilgan edi. Bosqinchilar shahar-u qishloqlarni talash bilan qanoatlanmay, ko'hlik qizlarni cho'rilikka olib ketishar edi. Burring hammasini eshitgan odamlar yovdan qochib, tinch joy izlab bormoqda edilar.

— Ulusning sho'ri qursin! — dedi Tohir. — Kasofat podsholar urushmay turolmasa. Biridan qochsang, boshqasiga tutilsang. Undan ko'ra qochmaymiz! Tavakkal. Peshonaga bitilgani bo'lur!

Tohir yomg'irda ho'l bo'lib, badaniga yopishib turgan qalami yaktak ustidan xanjar taqib olgan edi. Robiya xanjarga qo'rqa-pisa ko'z tashladi-da:

— Qaydam, — dedi. — Otamlar meni qo'rg'onga eltib qo'ymoqchilar.

— Qaysi qo'rg'onga?

— Andijon qo'rg'onida amakim borlar-ku.

Tohir Robiyaning hoziroq jo'nab ketishidan cho'chiganday uning bilagidan oldi. Ilgarilar hurkovich ohudek tutqich bermaydigan Robiya hozir allanechuk yuvosh bo'lib qolgan edi. Uning xina qo'yilgan qo'llari gulday chiroyli. Boshiga otasining qora jun chakmonini yopinib chiqqan ekan. Yomg'irda ho'l bo'lib og'irlashgan chakmon uning nozik bo'yniga og'irlik qildi. Robiya chakmonni yelkasiga tushirdi. Shunda yoqasining bitta bog'ichi yechilib ketdi-yu, qizg'ish marmarday silliq bo'ynining pasti ko'rindi. Yashil nimchasi o'n yetti yoshlik qizlardagina bo'ladigan tolma belidan quchib, qattiq ko'kraklarini mahkam chirmab turar edi.

Bolalikdan Robiya bilan devordarmiyon qo'shni bo'lib o'sgan Tohir uning qanchalik jozibali qiz ekanini, bosqinchi bek va navkarlar mana shunaqa qizlarga qanchalik o'ch bo'lishini go'yo endi astoydil his qildi.

Bu yil bahorda ota-onalari ularni unashtirib qo'ygan paytlarida ham Robiya Tohirga hozirgichalik chiroyli ko'rinmas edi. Ramazon oyi o'tgandan keyin ularning to'ylari bo'lishi kerak. Tohir Robiya bilan hademay bir yostiqqa bosh qo'yishlariga ishonib, bexavotir yurgan edi. Biroq endi urush dovuli Quvaga yaqinlashib kelayotgan shu xatarli damlarda Robiya unga har qachongidan ham aziz, har qachongidan ham g'animat ko'rindi.

Tohir Robiyaning Andijon qo'rg'onida birorta bo'yni yo'g'on bekning tuzog'iga ilinib qolishi mumkinligini o'yladi-yu:

— Yo'q! — dedi. — Meni desang qo'rg'onga borma!

Robiya Tohirning baxmalday mayin mo'ylovi tagida xiyol titrab turgan labiga va iztirob bilan chaqnayotgan qo'ng'ir ko'zlariga tikildi.

— Mening ham sizdan yiroqqa ketkim yo'q... Lekin ne qilay... Qo'rqamen!..

Tohir qizni chakmon bilan birga quchib, bag'riga bosdi. Robiyaning mayin soch tolalari yigitning yuziga tegdi, bir lahza ikkovining nafasi nafasiga qo'shilib ketdi. Tohir qizning badani titrayotganini sezdi-yu:

— Chindan qo'rqaningmi bu, Robiya? — dedi. — Senga ne bo'ldi?..

— Men bir vahimali tush ko'rdim, Tohir og'a! Ilohi tushim o'ng kelmasin!..

Endi Tohir ham xavotirlanib, qizni quchog'idan bo'shatdi-da, uning katta-katta bo'lib ketgan ko'zlariga qaradi:

— Yomon tushmi?

— Aytishga ham tilim bormaydir.

— Tushga nelar kirmas!..

— Sizni bir qora ho'kiz xanjarday shoxlari bilan suzib... Yo'q! Yo'q! Eslasam, etim junjikib ketadir!

Tohir yomon bir falokatni oldindan sezganday yuragi uvushdi:

— Shoshilmay gapir! Suzgan bo'lsa, qon oqdimi?

— Qon? Ha, ha.. Qon tirqirab ketdi.

— Unday bo'lsa qo'rqma. Tushdagi qon — yorug'lik. Otam doim shunday deydi.

— Tangrim shu ta'birni rost keltirsin! Tohir og'a, men... Agar Andijonga siz bormasangiz... men ham ketmasmen. Neki bo'lsak, shu yerda... birga..

Majnuntol barglari orasidan sirqib tushayotgan yomg'ir tomchilari qizning payvasta qoshlariga, tig'iz kipriklariga tekkan. Tohirning nazarida, Robiya yomon bir baxtsizlik bo'lishini hozirdan sezib, ko'ziga yosh olayotgandek ko'rinardi.

— Mendan ko'p xavotirlanma, Robiya. Men bir dehqon odammen. Havo ochilsa, dalaga chiqib qo'shimni haydaymen. O'rog'imni o'ramen. Yog'iyning menga ne ishi bor? Lekin sen... ehtiyotingni qil. Andijon qo'rg'onida amakilaring bor...

— Andijonda sizning ham mulla tog‘oyingiz borlar-ku! Yo birga ketaylikmi?

Tohir o‘ylanib qoldi. Uning Andijonda me‘mor bo‘lib ishlaydigan Fazliddin tog‘asi el orasida tanilgan mashhur odam. Quvasoy botqog‘ining ustidan o‘tgan mana shu uzun yog‘och ko‘prik ham mulla Fazliddin chizib bergan tarx bo‘yicha qurilgan. Andijon arkida mulla Fazliddin samoviy naqshlar va ko-shinlar bilan bezab qurgan devonxona tojdor Umarshayx mirzoga ma‘qul bo‘lgandan keyin unga to‘bichoq ot va bir hamyon oltin in‘om qilganini Tohir ham eshitgan. U tog‘asining shahar qo‘rg‘onidan tashqaridagi Bog‘ot mahallasida turishini biladi. Mulla Fazliddin Quvada turgan paytlarida Tohirga xat-savod o‘rgatgan edi. Endi jiyani panoh istab borsa, qanoti tagiga olishi mumkin. Lekin bu yerda chol-kampirlar nima derkin? Tohir — yolg‘iz o‘g‘il, javob bermasliklari mumkin. U Andijonga Robiya tufayli borishini esa ota-onasiga aytishdan uyaladi... Balki buni Robiyaning akasi Mahmud aytar?

— Robiya, mayli, iloji bo‘lsa, Andijonga birga keturmiz. Lekin dadamlarni ko‘ndirish oson emas... Mahmud og‘ang eshikdami?

— Do‘konga chiqqan edilar. Iftorgacha kelurlar. Nima edi?

— Iftordan so‘ng biznikiga o‘tsin. Maslahat bor.

— Xo‘p, men aytamen.

Robiya yuzini Tohirning keng ko‘kragiga bosdi;

— Tangrim bizni bir-birimizga ko‘p ko‘rmasin! — dedida, majnuntol shoxlari orasidan chiqdi.

Soy bo‘yida turgan bo‘sh mis ko‘zani yomg‘ir tomchilari chertib-chertib qo‘yadi. Robiya ko‘zaga qarab suvga kelganini esladi va uni to‘ldirib, uylari tomon ko‘tarib ketdi.

Qalliqilar odamlarning ko‘zidan yiroqda yashiriqcha uchrashib yurar edilar. Qiz uzoqlashib ketgandan keyin Tohir ham majnuntollarning panasidan chiqdi.

Shunda Robiyaning tushiga kirgan qo‘rqinchli voqea uning esiga tushdi-da, noma‘lum bir xatar vujudiga larza solib o‘tdi...

Bu yilgi ro‘za yoz chillasiga to‘g‘ri kelgan, jazirama kunlarda tong sahardan kechqurun qorong‘i tushguncha tuz totmay och yurish ko‘p odamning sillasini quritar, huning ustiga tashnalik



azobi qo‘shilardi. Ro‘zadorlar kunni qanday kech qilishlarini bilmay, tezroq qosh qorayishini intizorlik bilan kutishardi.

G‘ira-shira qorong‘ilikda Quva masjidining minorasidan azon tovushi eshitildi. Urush tahlikasi qanchalik kuchli bo‘lmasin, dasturxon atrofiga yig‘ilgan odamlar ro‘zasini ochayotgan paytda ochlik va tashnalikdan qiynalgan vujudlari rohatlanib, dunyo g‘amlari birpasga bo‘lsa ham xayollaridan uzoqlashdi.

Tohir kekxa ota-onasi bilan birga iftor qilmoqda edi. Dasturxondan sedanalik issiq non va handalak hidi keladi. Non yeb, bir kosadan qatiqli osh ichganlaridan keyin Tohir Andijonga ketish haqidagi gapning uchini chiqarishga chog‘landi.

Shu payt kimdir qamchi dastasi bilan darvozani taqillatdi. Hovlida yotgan kekxa ko‘ppak it yo‘g‘on va xirri tovush bilan vovulladi. Tohir o‘rnidan turgan edi, otasi:

— Ehtiyot bo‘l! — dedi ovozini pasaytirib. — Avval kimligini so‘rab bil.

Tashqarida yomg‘ir tingan, lekin osmon bulutli, qorong‘ilikda hech narsani ko‘rib bo‘lmas edi. Tohir darvozaxonaga yaqin bo‘rib:

— Kim? — deb so‘radi. Ko‘ppak qattiqroq hura boshladi. Tashqaridagi odam ovozini balandlatib:

— Tohir, jiyan? — deb so‘radi. — Och, men tog‘oyingmen!

Tohir tashqaridagi ovozni tanib, ochiq darcha orqali ichkariga:

— Aya, Fazliddin tog‘oyim! — dedi-yu, chopib borib darvozaning zanjirini tushirdi.

Ichkaridan chiqqan chol-kampirlar mehmon bilan ko‘ri-shayotganda Tohir qorayib turgan ikki g‘ildirakli soyabon aravani ko‘rdi. Aravaga qo‘shilgan otning egari ustidan kimdir paypaslanib tushmoqda edi.

— Mulla tog‘a, arava sizdanmi?

— Ha, jiyanirn. Ko‘ch-ko‘ronim bilan keldim.

— Shunaqami? — dedi Tohir hayron bo‘lib. Uning ko‘nglida boya tog‘asini ko‘rganda yongan quvonch endi tashvishli o‘ylar bilan almashindi. Tohirning Andijondagi panohi — mana shu tog‘asi edi. Tog‘asi ko‘chib kelgan bo‘lsa, Tohirning qo‘rg‘onga boradigan yo‘li bekilgani shu. Robiya nima bo‘ladi?

— Tohir, nega ag‘rayib turibsan? Yuklarni tushirishgin! — dedi onasi. — Mullo tog‘oying yomg‘irda ko‘p azob tortganga o‘xshaydir.

— E, azob ham gapmi, opa! Arava loylarga tiqilaverib jonimizdan to'ydirdi. Yo'llar tirband. Qochoqlar behisob.

Tohir aravadan yuk tushirayotib, otning sag'risiga qo'li tegib ketdi. Shunda qo'lga shilimshiq loy ilashganini sezdi. Loy otning sag'risigacha chiqqan bo'lsa, bu bechoralar kela-kelguncha qanchalik qiynalganikin? Hamma yovdan qochib Andijonga qarab ketayotganda, bular nega Quvaga ko'chib kelganikin? Tohir qanor qopga solingan yukni aravadan tushirmoqchi bo'lganda tog'asi:

— Hushyor bo'l, juda og'ir, ikkovlashib ko'taringlar,— dedi aravakashga.

Tohir qopning ichida uncha katta bo'lmagan po'lat sandiq borligini sezdi. Mulla Fazliddin o'tda kuymaydigan, suv kirmaydigan bu sandiqni Quvaning temirchi ustalariga buyurtma berib yasattirgan edi. Uning ichida tarhlar, loyihalar, suratlar saqlanardi. Mulla Fazliddin uch yil Samarqandda, to'rt yil Hirotida tahsil ko'rgan, o'sha yoqdan me'morlik san'ati bilan birga musavvirlikni ham o'rganib kelgan edi. Hirotida jangnomalar ichiga suratlar chizish odat tusiga kirgan, mavlono Behzod chizgan Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro tasvirlari rasmiy doiralarda shuh-rat topgan, lekin Samarqandda, xususan, Farg'ona vodiysida odam shaklini chizish hali ham qur'on nomidan qattiq taqiqlanib kelmoqda edi. Shuning uchun mulla Fazliddin o'zi chizgan suratlarini mana shu po'lat sandiqda doim maxfiy saqlar edi.

Tohir qopdagi po'lat sandiqni aravakash bilan ko'tarishib uyga olib kirishdi.

Mulla Fazliddin ho'l bo'lib og'irlashgan piyozi chakmoni va etigini dahlizda yechib qoldirdi. Oyog'iga charm kavush kiyib, obrez chetida bet-qo'lini yuvdi. So'ng boya Tohirilar o'tirgan dasturxonlik uyga kirdi.

Uning chakmonidan o'tgan yomg'ir kalta yenglik abosini nam qilgan edi. Lekin yoz oqshomi iliq bo'lganligi uchun kiyim almashtirish esiga kelmadi. Yo'lda qat-tiq toliqqanligi uchun durust ovqat ham yemadi. Faqat bir-ikki tilim handalak yediyu uch-to'rt piyola choy ichdi. Aravakash yigit ikki kosa to'la qatiqli osh ichgandan keyin otlariga qarash uchun hovliga chiqib ketdi.

— Obbo! Mulla Fazliddin-ey! — dedi Tohirning otasi uzun

oq soqolini o'ychan ezg'ilab. — Zap kelibsiz-da. Shu notinch kunlarda birga bo'lganimizga ne yetsin!

Hamma yog'iydan qochganda biz ajdahoning komiga yaqin kelib qolganimiz g'alati bo'ldi, — deb mulla Fazliddin jiyaniga ma'yus ko'zlari bilan qaradi.

— Biron sabab bilan kelgandirsiz-da, mulla tog'a?—so'radi Tohir.

— Sabab shukim, jiyan, urush boshlansa, qurilish to'xtaydi, me'morning keragi bo'lmay qoladir...

— le, axir, sizni podshoning o'zi xizmatiga olgan emas-midi?

— Podsho Axi qo'rg'onida mudofaa bilan ovora.Toshkent xoni Mahmudxon ham Xo'jand tomondan bizga qarshi qo'shin tortib kelmoqda emish. Qashqar hokimi Abubakir dug'lat degan yana bir bosqinchi sharqdan O'zganning ustiga bostirib kelmishdir.

Tohirning keksa otasi qo'rqib, yoqasini ushladi:

— Yo tavba! Bu yoqda Samarqand qo'shini... Uch tomonimizdan yog'iy bostirib kelibdimi, a? Bu ne ko'rgulik, mulla Fazliddin? Axir bu podsholar sal murosa qilsalar bo'lmaydimi, a? Hammasi bir-biriga qarindosh emish-ku. Shu rostmi?

— Ha, rost. Toshkent xoniga bizning podshomiz kuyov bo'ladir. Qo'qonni talab, bizning ustimizga qo'shin tortib kelayotgan Samarqand podshosi Sulton Ahmad mirzo esa bizning podshomiz bilan bir otadan bo'lgan og'a-inidirlar. Yana bu ikki podsho bir-birlariga quda bo'lmoqchi edilar. Samarqand podshosining qizi bizning valiahdimiz Bobur mirzoga besh yasharligidan unashtirib qo'yilgan edi. Shundan bilingki, og'a iniga, qaynota kuyovga qarshi qilich ko'tarib chiqmishdirlar!

— Yo poka parvardigor! Oxirzamon degani shumikin, mulla Fazliddin?

— Bilmadim, pochcha. Har qalay, yomon tojdoorlarning zamionasi oxirlab qolayotganga o'xshaydir. Koshki, o'zlari bilan o'zlari olishib, bizni tinch qo'ysalar! Urushning butun jabru jafosi el-ulusning boshiga tushadir.

— Sho'rimiz bor ekan-da!

— Ha, tole bo'lmasa qiyin ekan! Men ne-ne orzular bilan ilm-hunar o'rganib kelgan edim! Vatanimiz bo'lmish Farg'ona

vodiysida Samarqanddagidek, Hirotdagidek madrasalar-u ko'rkam obidaiar qurmoqchi edim. Bu saltanat-u podsholardan ne qolur? Hammasi nom-nishonsiz ketgay! Bizdan yodgorlik bo'lib qolsa Ulug'bek madrasasidek, Navoiy Unsiyasidek san'at asarlari qolur!

Mulla Fazliddin og'zidan chiqib ketgan so'nggi gaplardan xavotirlanib, eshik tomonga qarab qo'ydi. Uning saroy ahliga yaqin yurib, ayg'oqchilardan yurak oldirib qo'yganini Tohir ham sezdi.

— Mulla tog'a, so'zlayvering, bu yerda hamma o'z-o'zimiz... Andijon qo'rg'onidan nechun sizga joy bermadilar?

Mulla Fazliddin so'nggi kunlarda boshdan kechirgan mudhish hodisalarni eslab, bir lahza og'ir sukutga ketdi...

O'tgan kuni xufton paytida mulla Fazliddin o'zlaridan besholti uy narida turadigan bir xattot oshnasinikida iftor qilib o'tirganda qandaydir noma'lum kishilar uning uyiga bostirib kiradi. Hovlidagi it vovullab qo'ymaganda uni qilich bilan chopib tashlaydilar. Bugun bu yerga aravani minib kelgan xizmatkor yigitning og'ziga latta tiqib, qo'l-oyog'ini bog'laydilar-u qaznoqqa tashlaydilar. So'ng uyga kirib, tintuv o'tkazadilar va po'lat sandiqni ko'radilar. Lekin uni ochishning ilojini topolmay, qulfini bolta bilan urib sindirishga kirishadilar.

Qilich bilan chopilgan it qattiq vangillaganda devor-darmiyon qo'shnilar bir falokat bo'lganini sezadilar. Ulardan biri chiqib mulla Fazliddindan xabar olmoqchi bo'lsa, darvoza qarshisidagi daraxt panasida bir odam to'rtta otning jilovidan ushlab turibdi. Uning yuzi qora niqob bilan bekitib olingan, faqat ko'zlari ko'rinadi. Ichkaridan esa po'lat sandiq qulfiga urilayotgan bolta tovush eshitiladi...

Mulla Fazliddinga qadrdon bo'lgan qo'shni uning uyiga yomon odamlar tushganini sezadi-yu, darhol xattotnikiga chopadi. Undan voqeani eshitgan mulla Fazliddin uyiga yugurib keldi.

Po'lat sandiqning qulfini sindirib ochib, undagi qog'ozlarni titkilayotgan bosqinchilar uy egasini ko'rib, darchadan ayvonga sakrashdi.

— To'xta, nobakor! — deb mulla Fazliddin bittasining qarshisidan chiqqan edi, yuziga qora niqob tutgan ayiqday zo'r yigit uni yelkasi bilan urib chetlatdi-da, ko'chaga otildi. Bosh-

qalari ham ko'chadagi otlariga minib, bir lahzada g'oyib bo'lishdi.

Mulla Fazliddin ularni quvlab yetolmasligini sezdi-da, to'sto'polon bo'lgan uyga qarab intildi va ochiq yotgan po'lat sandiqning tepasiga keldi. Tokchada qo'shaloq sham yonib turibdi. Uning yorug'ida aralash-quralash bolib ketgan, ba'zi joylari yirtilgan loyihalar va chizmalar ko'zga tashlandi. Sandiq ichida podshoh in'om qilgan oltinning bir qismi hamyoni bilan turgan edi. Shu yo'q. Lekin hozir mulla Fazliddinning ko'ziga oltin ham ko'rinmas edi. Uning butun xayoli sandiq tubidagi maxfiy tagqutini bekitib turgan silliq mis parchasida edi. Uni chapga sekin surgan edi, tagqutining kalit solinadigan joyi ochildi. Mulla Fazliddin atrofiga alangladi — uyda boshqa odam yo'q, qo'shnisi qaznoqdagi xizmatkorning oyoq-qo'lini yechish bilan ovora edi. Mulla Fazliddin qo'ynidan kichkina kalit olib, tagqutining qulfiga soldi. Qulf ochilgandan keyin tagqutining mis qopqog'ini sekin ko'tardi-yu, yupqa jild ichidagi suratlarni ochib ko'rdi... Keksa bog'bonning daraxt payvand qilayotgan payti... Chilmahram tog'laridagi ov tasviri... Eng pastda chang chalayotgan go'zal bir qizning surati...

Bu — Umarshayx mirzoning qizi. Andijon chorbog'ida podshoh oilasi uchun tillakori ko'shk qurgan paytlarida o'n sakkiz yoshlik Xonzoda begim uning musavvir ham ekanligini bilib qolib, o'zining suratini chizdirgan. Mulla Fazliddin bu ishni yashiriqcha qilgan. Agar shariat peshvolari uning odam suratini chizganini bilib qolishsa, sog' qo'yishmaydi. Yana tag'in go'zal malika bilan yashiriqcha til biriktirib surat chizgani qizning podshoh otasiga ma'lum bo'lsa bormi, mulla Fazliddinni tilkapor qilib tashlashlari hech gap emas.

Shu sababli hozir uni eng qattiq qo'rqitgan narsa— bu suratning bosqinchilar qo'liga tushib qolish ehtimoli edi. Xayriyatki, ular sandiq tagida maxfiy tagquti borligini sezishmabdi. Lekin sandiqni otlariga o'ngarib ketishsa nima bo'lardi? Unda tagqutidagi suratlarni ham albatta topib olishardi...

Xizmatkor yigit sal o'ziga kelgandan so'ng, mulla Fazliddin undan va qo'shnisidan voqeaning tafsilotlarini so'rab bildi, o'zining ko'rganlariga buni taqqoslab, shunday xulosaga keldiki, uning uyiga tushganlar — oddiy o'g'rilar emas, balki qaysi bir zo'ravon bekning yigitlari.

Ular uyni tintib nimani qidirishgan? Tarxlarni tashlab ketishibdi. Demak, suratlarni izlashgan... Mulla Fazliddinning surat chizishini biladigan odam... unda qasdi bor bek yuborgan bo'lishi kerak bu yigitlarni!..

Iztirobli o'ylar tuni bilan mulla Fazliddin ko'ziga uyqu qo'ndirmadi. Urushning alg'ov-dalg'ovida tobora bo'yni yo'g'on bo'lib ketayotgan bebosh beklar esiga tushgani sari ko'ngli bezovta bo'lardi.

Andijonlik beklardan Hasan Yoqub degani shu yili bahorda mulla Fazliddinni chorbog'iga chaqirtirib, katta bir ish topshirmoqchi bo'ldi.

— Mirzo hammomidan ham ulkanroq bir hammom qurdirmoqchimen... Yozda salqinlaydigan marmar xonalari bo'lsin...

Yoqubbek ovozini pasaytirib davom etdi.

— Chiroylik asira qizlar sotib olg'aymen. Oltinim yetarli. O'sha qizlar hammomning marmar hovuzida cho'milganda men o'ltirib tomosha qiladigan maxfiy tuynuklari ham bo'lmog'i lozim. Uqdingizmi? — deb Yoqubbek xaxolab kuldi-da, gapning xulosasini aytdi.

— Ana shu hammomning tarxini o'zingiz chizing. Qurilishiga ham siz sarkor bo'ling. Qancha haq tilasangiz beray. Xo'pmi?

Me'morlikni muqaddas bir san'at deb ishongan mulla Fazliddin Yoqubbekning shahvoniy niyatlarini eshitib nafrati keldi:

— Janob bek, uzr, men harom ishdan qo'rqamen!..

— Nimasi harom?.. Men hammomni o'z aqchamga qurdirgaymen!

— Hammomga maxfiy tuynuklar qo'yib quradigan sarkorlar bosh-qa... Siz o'shalarga murojaat qiling. Menga Mirzo hazratlari pokiza bir dargoh qurdirmoqchilar. Shu kunlarda madrasa tarxini chizish bilan bandmen. Ruxsat eting, men boray...

O'rinlaridan turganda Yoqubbek mulla Fazliddinga o'qrayib ko'z tikdi:

— Lekin men aytgan gap shu yerda qolsin, janob me'mor. Aks hol-da...

— Albatta, bu gap shu yerda qolur! Lekin siz ham mendan ozurda bo'lmang. Ora ochiq! Ma'qulmi, janob bek?

— Ma'qul!

Mulla Fazliddin shu bilan bu bo'yni yo'g'on bekdan qutuldim, deb o'ylagan edi. Lekin bundan o'n besh kuncha burun Ahmad Tanbal degan bir badavlat bek mulla Fazliddinni so'roqlab, kechki payt uning uyiga keldi. Ikkovlari xoli qolganda Ahmad Tanbal cho'ntagidan bir hamyon oltin oldi-da, mulla Fazliddinga uzatdi:

- Taqdir, mana shu oltinni olingu bitta surat chizib bering.
- Qanaqa surat?

Yoshi yigirma beshlardan oshgan bo'lsa ham, yuziga hali durust soqol chiqmagan, ko'sanamo Ahmad Tanbal og'zini me'morning qulog'iga yaqinlashtirib shivirladi:

- Malikamizning surati kerak menga!
- Qaysi malikamiz? — sergaklanib so'radi mulla Fazliddin.
- Chorbog'da tillakori ko'shk qurganingizda ko'rgansiz... Xonzoda begim... O'zi ham sizning san'atingizga ixlosmand emish-ku...

Mulla Fazliddinning yuragi taka-puka bo'lib ketdi. Nahotki bu bek po'lat sandiqdagi suratdan xabardor bo'lsa!

— Kim sizga shunday dedi?... Men me'mormen... Men faqat imoratlarning suratini chizamen...

— Mendan yashirmang, janob me'mor! Men shariat peshvosi emasmen. Surat chizishni bizda man qilganlariga men ham qarshimen! Hirotda Shohruh mirzo Boysunqur mirzo uchun qurdirgan saroyning devorlari go'zal qizlar surati bilan bezalgan ekan. To'g'rimi?

— To'g'ri-yu, lekin... Har joyning o'z tosh-u tarozisi bor. Agar Xonzoda begimning surati haqida siz aytgan gapni podshoh hazratlari bilib qolsalar, nima bo'lishini o'ylaysizmi?

— Bilmagay! — deb shivirladi Ahmad Tanbal. — Ikkovimizdan boshqa hech kim ogoh bo'lolmagay! Xo'p deng! Mang, oltinni oling!

— Shoshmang, bek. Meni surat chizadi, deb sizga kim aytdi?..

— Eshitdik-da!

— Kimdan?... Hasan Yoqubbekdanmi?..

— Hasan Yoqubbek bir bog'bondan eshitgan ekan...

„Demak, Ahmad Tanbalning bu yerga kelganidan Hasan Yoqubbek xabardor! — o'yladi mulla Fazliddin.— Bular birgalashib meni qo'lga tushurmoqchi bo'lsa kerak. Sendek qurbaqataxlit bek uchun Xonzoda begimning suratini chizib berib, men ahmoq emasmen!“

— Janob Ahmadbek, kamina bog'larning suratini chizganda bir chetiga bog'bonni ham tasvirlashim mumkin. Me'morlik san'ati buni inkor etmaydi. Ammo malikaning suratini chizish uchun menda na san'at bor, na haq va na jur'at!

— Xullas, mening so'zimni yerda qoldirmoqchimisiz?

— Boshqa ilojim yo'q. Meni ma'zur tuting, janob bek. Bunday taklif bilan kelish siz uchun ham xatardan xoli emas!

— E, men buzdillardan emasmen! — deb Ahmad Tanbal qahr bilan o'rnidan turdi va yirik tishlarini irjaytirib qo'shib qo'ydi: — Lekin siz mening shahdimni qaytarganingiz uchun hali pushaymon bo'lursiz!

Bu tahdid mana endi to'rtta bosqinchining qiyofasiga kirib, qorong'ida uning uyiga bostirib kelgan bo'lsa ajab emas. Qurolsiz, navkarsiz mulla Fazliddin Ahmad Tanbalday yuz-ikki yuztadan qurolli yigitlari bor beklarga qanday bas keladi? Lekin «bo'lari bo'ldi», deb indamay yuraversa, bu quturgan bek ertaga beshbattar yomonliklar qilishi mumkin emasmi?

Mulla Fazliddin ertalab podshoh in'om qilgan to'bichoq otni mindi-da, shahar dorug'asi qabul qiladigan mahkamaga yo'l oldi. Uzun Hasan ismli ingichka, novcha dorug'a askarlikka odam olish va shaharni yaqinlashib kelayotgan dushmandan himoya qilish tashvishi bilan band ekan. Mulla Fazliddinning arzini qayoqqadir ketmoqchi bo'lib shoshilib turgan paytda tingladi-da:

— Tarxlaringizga tegmay, hamyoningizni olib ketgan bo'lsa, bu to'qaydan chiqqan o'g'rilarning ishi, — dedi. Yog'iy tashvishidan qutulsak, to'qaylarni o'g'rilardan tozalagaymiz... Hozir ahvolni ko'rib turibsiz!...

Qo'l qovushtirib tikka turgan mulla Fazliddin dorug'aga yaqinroq keldi:

— Mening boshqa gumonim bor, janob dorug'a, — dedi.

So'ng Ahmad Tanbalning surat chizdirmoqchi bo'lganini, rad javobi olganda esa achchiqlanib ketganini aytib berdi,

— Kimning surati? — deb dorug'a qiziqib qoldi.

Mulla Fazliddin Xonzoda begimning nomini tilga olishga qo'rqdi.

— Parilar suratimidi? Yaxshi tushunmadim.

— Sandig'ingizda parilar surati bormidi? Bosqinchilar shuni olib ketibdirmi?

— Surat o'zi bo'lmasa neni olib ketsin! Men hazrati oliylari buyurgan madrasa tarxini chizish bilan bandmen. Suratlashlikka vaqtim yo'q. Sandiqda xomaki loyihalarim bor edi, xolos.



— Ular joyida qolganmi, axir? Undoq bo'lsa Ahmadbekdan nechun gumonsiramoqdasiz?

— Sababini aytdim, janob dorug'a! Taftish o'tkazishingizni so'raymen!

— Ahmadbek — sultonlar avlodidan ekanini unutmagan bo'lsangiz, men eslatib qo'yay. Hazrati oliylarining katta xotinlari Fotima begim Ahmadbekka qarindosh bo'lurlar. Fotima begimning chaqirig'i bilan Sulton Ahmadbek bugun azonda poytaxtimiz Axsiga ketdilar.

„Agar o'sha bek sandiqdagi suratlarni qo'lga tushirsa, Axsiga eltib, podshoh oilasiga ko'rsatmoqchi bo'lgan-mi? — degan o'y mulla Fazliddinning ichini muzlatib o'tdi. — Bular mening qonimga shunchalik tashnami? Balki Ahmad Tanbal Xonzoda begimni ham shu surat orqali qo'lga tushirmoqchidir? Hali uylanmagan bu bek podshoga kuyov va Xonzoda begimdek go'zal qizga er bo'lishni jon-dili bilan istasa kerak!“

O'rgimchak to'riga o'xshash yopishqoq bir balo atrofni o'rab kelayotganini sezgan mulla Fazliddin jon-jahdi bilan bu to'rni yirtib, chiqib ketishga urindi:

— Janob dorug'a, men sizdan adolat istab keldim!

Podshoh hazratlari meni sizning himoyangizga topshirgan edilar! Agar bosqinchilarni topib jazo bermasangiz, men podshoh hazratlarining huzurlariga panohtab istab ketishga majbur bo'lurmen!

— Ammo shuni bilingki, janob me'mor, hazrati oliyning huzuriga sizdan ham oldin ba'zi bir gaplaringiz yetib borishi mumkin!

— Ya'ni, qaysi gaplarim, janob dorug'a?

— Ba'zi me'morlar o'zlarini podshohlardan ham baland qo'yarmishlar. „Bu taxt-u saltanatlar benom-u nishon yo'qolur, faqat me'mor-u musavvirlar yaratgan zo'r san'at asarlari tirik qolur“, degan gustoxona aqidalar bizga ma'lum!

Mulla Fazliddin bugun Quvada pochchasining uyida bexosdan aytib yuborgan bu e'tiqodini boshqa ishongan odamlariga ham aytgan paytlari bo'lgan edi. Ana shu ishonganlaridan allaqaysisi ayg'oqchilik qilib, bu gapni dorug'aga yetkazganini, endi dorug'a buni podshohga dasturxon qilib olib borishi mumkinligini sezdi-yu, badanidan sovuq ter chiqib ketdi. Lekin dorug'aga sir boy berish qanchalik xatarli ekanini payqab:

— Bu hammasi ig'vo! — deb xitob qildi. — Janob dorug'a, sizning ustingizdan ig'vo qiluvchilar ham oz emas! Buni bilursiz! Men Andijonda neki bino qilgan bo'lsam, hammasiga Mirzo hazratlarining nomlarini bitmoqdamen! Arkdagi devonxonani ko'ring! Chorbog'dagi ko'shkni ko'ring! Men ularning biror joyiga o'z nomimni yozibmenmi?“ Qani, ig'vogarlar dalil keltursinlar! Men hammasiga Mirzo hazratlarining muborak nomlarini bitganmen! Demak, tarixda mening nomim emas, Mirzo hazratlarining nomi qolsin, deganmen! Shundoqmi, yo'qmi? Qani ayting!

Dorug'a bu mantiqli dalillarni rad etolmasdan:

— Shundoqlikka shundoq, ammo...

— Ammosi yo'q, janob dorug'a! Siz meni bosqinchilardan himoya qilish o'rniga, ayg'oqchilarning tuhmatiga ishonadigan bo'lsangiz, men alhol Axsiga borib, Mirzo hazratlariga arz qilurmen!..

Uzun Hasan bu do'qni pisand qilmay:

— Mayli, boring, arz qiling! — dedi. — Lekin shuni bilingki, atrofimizni yog'iy bosgan bu xatarli damlarda podshohga me'mordan ko'ra navkar zarurroq! Ahmadbekdek, mendek jangovar beklar uchun podshoh hozir sizdeklardan qanchasining bahridan o'tur!

— Axsiga borganda ko'rurmiz, deb mulla Fazliddin mahkamadan shaxt bilan tashqariga chiqdi. Uning vajohati hoziroq Axsiga, podshoh huzuriga arzga boradiganga o'xshardi.

Lekin u o'tlanib uyiga qaytayotganda sal hovuridan tushdiyu, Uzun Hasan aytgan so'nggi gaplarda achchiq bir haqiqat borligini sezdi. Yov qurshovida qolayotgan Umarshayx mirzo bitta me'morni deb yuz, ikki yuzdan navkari bor zo'ravon beklarga qarshi bormasligi aniq. Ahmad Tanbal bugun Axsida — shoh saroyida. Agar u mulla Fazliddinning malika suratini chizgani haqida gap tarqatsa... Lekin Ahmad Tanbal buni qanday payqaganikin? Mulla Fazliddin Xonzoda begimning suratini chizish uchun u bilan tillakori ko'shkda pinhon uchrashganda buni zimdan ko'rib qolgan kanizlar yoki savdarlar bo'lsa. Ahmad Tanbal shuning bir chetini eshitib, haligi hamyonni ko'tarib kelganmikin? Bosqinchi yigitlarini ishga solib ham maqsadiga yetolmagan bu yovuz bek endi shoh saroyiga borib peshgirlik qilishi mumkin. Agar u o'zi eshitgan mish-mishni haramdagi ayol-

lar orqali podshohning qulog'iga yetkazsa... Umarshayx mirzo bo'y yetgan qizining qayoqdagi bir me'mor bilan yashiriqcha uchrashib, surat chizdirganini o'z sha'niga katta isnod deb bilishi aniq. Shoh iskovuchlari ishga tushirilsa, mulla Fazliddin yashirib yurgan suratni topib olib, Ahmad Tanbalning gapiga dalil qilish qo'llaridan keladi. Ana undan so'ng shoh qiziga isnod keltirgan musavvirni ming qiynoqlarga solib o'ldirishlari turgan gap!

Mulla Fazliddin Xonzoda begimning suratini chizish bilan nechog'liq xatarli ishga qo'l urganini endi astoydil his qildi. Agar surat qo'lga tushsa, u qiz ham malomatga qoladi. Dunyo busiz ham tashvish-tahlikaga to'la!.. Mulla Fazliddin tagqutidagi malika suratini titroq qo'llar bilan jilddan oldi. Ig'vogar ablahlarga dalil qoldirmaslik uchun buni yo'q qilishi kerak! Mulla Fazliddin o'choqda yonayotgan olovga yaqin bordi.

Rangli bo'yoqlar bilan ishlangan mo'jazzgina suratdagi go'zal qiz shu payt unga tirik bir odam bo'lib ko'rindi. Alanga yolqinida qizning kipriklari, lablari bilinar-bilinmas nafis harakatlar qilayotganga o'xshab ketdi. Qizning aqlni shoshiradigan jozibasi bor edi. Bu joziba mulla Fazliddinni har galgiday yana sehrlab oldi, boyagi tahlika xayolidan uzoqlashib, qalbida iliqlik tuyg'ular uyg'ondi. „Nahotki men bu qizga oshiq bo'lsam? — hayrat ichida o'ylandi mulla Fazliddin. — Qora xalq orasidan chiqqan menday bir suratkashning shoh qiziga muhabbat qo'yishi kulgili emasmi? Yo'q! Men faqat o'zim chizgan suratga — o'z ijodimga mehr qo'rganmen, xolos! Boshim omon bo'lsa, bunday suratni yana chizgaymen!“.

Shu o'y bilan suratni o'tga tashlamoqchi bo'lib egildi. Qiz tasviri olovga yaqinlashganda yuzi qizarib bo'g'riqqandek, ko'zlari esa chaqna ketgandek ko'rindi. Mulla Fazliddin tirik odamni o'ldirayotgandek, seviklisini o'tga tashlayotgandek seskanib orqaga chekindi. Ichki bir ovoz uni «Qo'rqqos!» degandek jerkidi. „Dushmanlaring ustingga bostirib kelayotgani yo'q-ku! Ahmad Tanbal ham Axsida. Bilib qo'y, sen bunday go'zal suratni ikkinchi marta chiza olmassen! Tasvirga bunchalik tirik joziba baxsh eta olganing — takrorlanmas bir ilhomning natijasi. Botir bo'lsang, qutqarib qolursen!“.

Mulla Fazliddin suratni tagqutiga qaytarib soldi-yu, xizmatkor yigitni chaqirdi.

Ko'chlarni yig'ishtir! Aravani qo'sh! Quvaga jo'nagaymiz!.. Tez!.. Tezroq!

Mana hozir opasining uyida o'tirib, yuz bergan voqeani pochchasi bilan jiyaniga so'zlab berar ekan, po'lat sandiqda Xonzoda begimning surati borligini ularga ham aytmadi. Bu sirni u hech kimga bildirmoqchi emas edi...

— Vo darig'! — deb Tohirning otasi og'ir uh tortdi: — Bizning suyangan tog'imiz siz edingiz, mulla Fazliddin!..

Endi siz ham quvg'inga uchragan bo'lsangiz...

— Nachora? Hammamizning ham taqdirimiz qil ustida turibdi!

— Podshohga arzga borsangiz, dodingizga yetmasmikin, mulla tog'a?

— Bu to'polonlar bosilsa, bir marta borib arz qilishim aniq. Agar dodimga yetsa yetdi, yetmasa, yana Hirotga qaytib keturmen! Alisher Navoiy Shifoia degan bino qurdirmoqchi, deb eshitgan edim. Olamda biz uchun yongan yagona umid chirog'i o'sha siymo bo'lib qoldi.

— Hirot orzusini qilmang, mulla Fazliddin. Farg'onada ham hunaringizning qadriga yetadigan odamlar bor. Quvaning ko'prigi sizning rejangiz bilan qurilgan edi. Xalq haligacha sizni duo qilib yuribdir.

— Xalq! Qani endi bu ko'prikdan faqat xalq o'tsa! Erta-indin bu ko'prikdan yog'iy qo'shinlari o'tib kelur! Xalqning boshiga yog'iladigan balolarni o'ylasam, bugungi jalalar selga aylanib, o'sha ko'prikni oqizib ketmaganiga afsus qilamen! Agar yog'iy, bu tomonga o'tolmasin deb, o'sha ko'prikni hozir yondirib yuborsalar, men jon deb rozi bo'lur edim!

„Chindan ham, — o'yladi Tohir o'zicha, — yog'och ko'prik. Yog' sepsa yonur. Yog'iy faqat shu ko'prikdan o'tishi mumkin. Kechuv ham yo'q. Hammayoq botqoqlik, qamishzor. Agar ko'prik yondirilsa yog'iy o'tolmagay!“ Tohir kutilmagan joydan najot yo'lini topganday bo'ldi. Tasavvurida gavdalangan yong'in alangasidan go'yo uning hadani qizib ketganday tuyuldi. Robiyani halo-qazodan asraydigan eng zo'r qalqon ana o'sha olov bo'lishi mumkin! Tohir qaltis istakdan ko'zlari yonib otasiga qaradi. „Aytammikin? Yo'q! Rozilik bermas. Yolg'iz o'g'ilmen. Tog'am... nozik odam, aralashmagani ma'qul. Tavakkalchi yigitlardan topishim kerak!“

Tohir sekin o'rnidan turib, hovliga chiqdi. Osmonni to'ldirgan bulutlarning yirtig'idan birda-yarim yulduzlar ko'rinib qoladi. Uylar chiroqsiz. Ko'chalar sukutda. Ahyon-ahyonda kuchuklar hurgani eshitiladi.

Iftorlik qilib chiqqan Mahmud Tohirga darvoza oldida uchradi. Robiyaning akasi bo'lgan bu kosib yigit Andijon qo'rg'oniga ketishdan gap ochgan edi:

— E, bu niyatlar hammasi puchga chiqdi! — deb Tohir unga tog'asidan eshitganlarini aytib berdi.

Mahmudni ham birdan g'am bosib:

— Endi qaydan najot izlaymiz, e xudo! — dedi.

— O'zing uchun o'l yetim, degan gap bor, Mahmud... Yur, darvozaxonaga kiraylik. Bir sir aytamen. Og'zingdan chiqarma! Ko'prikni yondiramiz!..

— Qanday qilib? — hayrat bilan so'radi Mahmud.

Tohir unga o'zining rejasini shivirlab tushuntirdi.

— Yog' sepsak, yog'och tez yongay. Bildingmi?

— Jinni bo'libsən! Ko'prikda soqchilar bor-ku.

— O'zimizning beklar qo'ygan soqchilarmi? Hali yog'iy yaqin kelsa hammasi qo'rg'onga qochgay. O'shanda biz...

— Yo'q, shoshma! Axsidan bizning podshomiz qo'shin tortib kelayotgan emish. Bu ko'prik hali o'zimizga kerak!..

— Podshoying qo'rg'onidan chiqsa shu kungacha chiqar edi! Ana, Marg'ilon ham boy berilibdi! Podshodan darak yo'q!..

— Bilmasam, kadxudo guzarda ishontirib aytdi.

„Podsho hazratlari yo'lda, erta-indin himoyamizga yetib kelishlari aniq!“ — dedi.

— Chindan yo'lga chiqibdimi-a?

— Ha, o'z qulog'im bilan eshitdim! Bultur podshomiz yog'iy bilan Xo'janddan nari Xovosga borib urushgan ekan-ku. Quva Axsiga Xovosdan yovuqroq emasmi?

— Yovuqlikka yovuq-ku!.. Zora sen aytganing rost chiqsa-ya, Mahmud?

— Ha, axir, ko'prikka soqchilarni bekorga qo'yganlarmi?.. Podshomiz erta-indin kelib jonimizga aro kirgay... Mana, ko'rursen!..

Shu topda Tohiniing ko'nglida ham umid uchqunlaganday bo'ldi. U qorong'i osmonning uzoq bir chetida — Sirdaryodan narida joylashgan Axi tomonga intizor ko'zlar bilan tikildi.





## *Savol va topshiriqlar*

---

1. Pirimqul Qodirov tug'ilgan joyning nomini ayting.
2. Adibning ilk qissasini bilasizmi?
3. Adibning ilk romani qanday nomlanadi?
4. „Yulduzli tunlar“ romanidagi voqealar qaysi davrda bo'lib o'tgan?
5. „Yulduzli tunlar“ romanining davomi bo'lgan asarning nomini ayting.
6. Adibning talabalar hayotidan hikoya qiluvchi asari qanday nomlanadi?
7. Nizom, Hamidabonu obrazlari siz maktabda o'qigan qaysi asarda uchraydi?
8. „Yulduzli tunlar“ romanidagi ma'rifatparvar shaxslar obrazi haqida gapiring.
9. Adibning tarixiy asarlar yozish omillarini eslang.
10. Adib asarlaridagi qaysi qahramonlarni o'zingizga ideal qilib olishingiz mumkin?
11. Mulla Fazliddin chizgan ayol suratida kimni aks ettirgan?
12. Otasi vafot etganda Bobur qayerda edi?
13. Alisher Navoiy tomonidan barpo ettirilgan, ma'nosi „Do'stlik uyi“ bo'lgan inshoot qanday nomlanadi?
14. „Yulduzli tunlar“ romani qachon yozilgan?
15. „Yulduzli tunlar“ romanidagi birinchi hikoya kim haqida?
16. Asarning qolgan bo'limlari yuzasidan mustaqil reja tuzib, daftaringizga yozing.



  
**Erkin Vohidov**  
(1936- yilda tugʻilgan)



*Erkin Vohidov hayoti va ijodiy faoliyati yuzasidan oʻrta umumtaʼlim dasturi boʻyicha mustahkamlovchi savol va topshiriqlar*

1. Shoirning oʻz davrida „millat tarixi fani“ vazifasini oʻtagan sheʼrini eslang.
2. Shoirning sheʼriy toʻplamlarini eslang.
3. Shoir tarjima qilgan asarlarni eslang.
4. Shoirning birinchi sheʼriy toʻplami qanday nomlanadi va u qachon nashr etilgan?
5. Shoirning „Nido“ dostoni haqida gapiring.

### Hayoti va ijod yoʻli

- 1936- y. — Fargʻona viloyatining Oltiariq tumanida oʻqituvchilar oilasida tugʻildi.
- 1960- y. — Dorilfununni tugatib, sobiq „Yosh gvardiya“ nashriyotiga ishga kirdi.
- 1961- y. — „Tong nafasi“ nomli birinchi sheʼriy toʻplami.
- 1962- y. — „Qoʻshiqlarim sizga“.
- 1964- y. — „Mening yulduzim“, „Nido“.
- 1965- y. — „Lirika“.
- 1967- y. — „Palatkada yozilgan doston“.
- 1969- y. — „Oltin devor“ komediyasi qoʻyildi.
- 1969- y. — „Yoshlik devoni“.
- 1971- y. — „Hozirgi yoshlar“.
- 1975- y. — Nemis shoiri Gyotening „Faust“ tragediyasini oʻzbekchalashtirdi.
- 1980- y. — „Muhabbat“, „Tirik sayyoralar“.
- 1999- y. — „Oʻzbekiston qahramoni“ unvoni berilgan.
- 2000- y. — Toʻrt jildli „Saylanmalar“.

## SHE'RLAR

### Teranlik

(*Shoira Zulfiyaga*)

Teranlikni qidirmadim ummonlardan,  
Insonlardan topdim uni, insonlardan.  
Teranlik bu – nur yog‘ilgan yuzlardadir,  
Teranlik bu – o‘ychan boqqan ko‘zlardadir,  
Teranlik bu – aytilmagan so‘zlardadir.  
Mayingina chimirilgan qoshlardagi,  
Nuqra – nuqra qirov qo‘ngan sochlardagi,  
Bo‘ronlarda egilmagan boshlardagi  
Teranlikning ta‘rifiga so‘z bormikan?...  
Mash‘um yillar dilga solgan ozoridan,  
Onalarning hasratidan, oh-zoridan,  
Odamlarning yuragida ummoni bor,  
Ummonlarning sokinligi, to‘foni bor,  
Uvillarning zilzilasi ko‘kraklarda,  
Mash‘um urush dog‘i hali yuraklarda,  
Hassos qalbdan oqqan eng pok tilaklarda.  
Umidlarda hayot qadar teranlik bor,  
Ko‘ngildagi sabot qadar teranlik bor.  
Teranlikni qidirmadim ummonlardan,  
Insonlardan topdim uni, insonlardan.

### Yangi yil munojoti

Vaqtning chopqirligiga hayratim tugamasdir,  
Yilning o‘tishi go‘yo chaqnagan chaqmoq misol .  
Yil nadir, umr o‘zi aslida bir nafasdir,  
Eshikdan kirib shu on darchadan chiqmoq misol.

Besh yuz yil yashar emish, tog‘ ahli bir qabila ,  
Sabrni maslak bilib, qanoatni toat deb.  
Uy tiklamas emishlar birgina sabab ila,  
Shu ozgina umrga ranj chekmoq na hojat deb.

Bu- ku bir afsonadir, aslida ahli olam  
Odamdek yashash istar shu besh kunlik dunyoda.  
Jahondan umid uzmas umri o‘tib borsa ham,  
Yoshi ulg‘aygan sari o‘rzulari ziyoda.



Bolam deb nihol ekar, nabiram deb uy solar,  
Mendan ham biror yodgor avlodimga qolsin, der.  
Dil tubida umrbod yashar oydin xayollar,  
Vatanim kamol topsin, millatim yuksalsin, der.

Insondek yashamoqning asli shudir ma'nosi,  
Yurt sevgisi bizlarga yurakdagi qondandir,  
Bu muqaddas tuyg'uda ajdodlarning nidosi,  
Hadis so'zi — Vatanga muhabbat imondandir.

Imonimni butun qil, yurtimni nurafshon qil.  
Pok, halol yo'llaringga bizni yo'lla, ilohim.  
Vatanim kemasini dolg'alardin omon qil,  
Bu poyonsiz ummonda o'zing qo'lla, ilohim.

Yuraklarga mehr sol, adovatdan qil yiroq,  
Bukungi zahmatlarning oqibati qut bo'lsin.  
Erkka tashna elimning baxti bo'lsin yarqiroq,  
Osmoni yorug' bo'lsin, nasibasi but bo'lsin.

## RUHLAR ISYONI

(Doston)

*Muqaddima*

*Tug'algansan ozod, mudom  
Ozod bo'lib qol!*

*Nazrul Islom*

Bu dunyoning  
Quvonchi kam,  
Dard-u g'ami — ziyoda,  
Ammo g'amdan qochmoqning ham  
Tadbiri ko'p dunyoda.  
Kimning dildosh  
Bor ulfati,  
Dardin unga to'kadi.  
Yolg'izlarning bor kulfati  
Dil tubiga cho'kadi.  
Kim najotni sokin tunning

Uyqusidan soʻraydi.  
Kim gʻamini  
Nikotinning —  
Tutuniga oʻraydi.  
Dil zahmiga malham topar  
Kim habib,  
Kim tabibdan.  
Kim qochmoqqa aylar safar  
Gʻam atalgan raqibdan.  
Gar bularning  
Yoʻq imkoni,  
Soʻnggi chora etmoq bor.  
Kulfat toʻla bu dunyoni  
Shartta tashlab ketmoq bor.  
Lek olamda bir dard borki,  
Unga sira najot yoʻq.  
Bu azobga kim duchorki,  
Unga kun yoʻq,  
Hayot yoʻq.  
Bu mashaqqat  
Ichgan bilan  
Dil tubiga choʻkmaydi.  
Uni hech kim yuragidan  
Hech kimsaga  
Toʻkmaydi.  
Xalos etmas bitta arqon,  
Nuqta qoʻymas  
Bitta oʻq.  
Chidamoqqa yoʻqdir imkon,  
Qochmoqqa ham  
Chora yoʻq.  
U jon bilan ketsa dildan,  
Sukut qolsa yurakda,  
Odamzodning  
Ruhi bilan  
Yashayberar falakda.  
Bu — shoirning dilin ezgan  
Istibdodning dardidir.  
Yurakdan qon boʻlib sizgan  
Isteʼdodning dardidir.

To'lg'og'ida bu alamning  
Tanho ingroq — xonish bor.  
Abadiyat  
Jahannamning  
Otashida yonish bor.

*Abadiyat haqida rivoyat*

Roviy aytar:  
Allazamon —  
Aliaqaysi ma'voda  
Falokatga uchrab karvon  
Poyoni yo'q sahroda,  
Bu nogahon  
Tasodifan  
Barcha o'tib dunyodan,  
Shu tasodif amri bilan  
Omon qoldi  
Bir odam.  
Belbog'iga osganicha  
Quruq ko'za — suvdonni,  
Kezdi necha  
Kunduz, kecha  
Bu dashti bepoyonni.  
Keza-keza oxir toldi,  
Umid uzdi jonidan.  
Bir payt nogoh chiqib qoldi  
Bir chashmaning yonidan.  
Yiqilganча suvga behol  
Lab cho'zganda tashna tan,  
To'lqinlandi birdan zilol,  
Sado chiqdi chashmadan:  
„Shoshma, yo'lchi,  
Ichursan, bas,  
Muzdek, tiniq, to'laman.  
Ammo bilki,  
Oddiy suvmas,  
Obihayot bo'laman.  
Azob chekding ko'p sahroda,  
Mayli,

To'yib ichib ol.  
Meni ichgan bu dunyoda  
Mangu yashar bezavol.  
Ol, ich, -  
Yasha davron surib  
Abadiy bu dahr aro,  
Ammo  
Meni ichmay turib,  
Fikr qilgin avvalo.  
Hayotga-ku, to'yimas ko'zing,  
Yashaysanmi umrbod?  
Mangu hayot uchun o'zing  
Yaraysanmi,  
Odamzod?  
Mangulik der odam nasli,  
Lek insoniy tafakkur-  
Adabiyat nadir asli,  
Qila olmas tasavvur".  
Yo'lchi hayron,  
Yo'lchi sergak,  
Bu qandayin chashmadir?  
Ichay desa — cho'chir yurak,  
Ichmay desa — tashnadir.  
Qiynoq ichra  
O'yga toldi,  
Suv labida o'ltirib.  
Oxir  
Obihayot oldi  
Ko'zasiga to'ldirib.  
O'ylay-o'ylay nari ketdi —  
Ul sehrlil buloqdan.  
Nogoh  
Hazin sas eshitdi —  
Sado keldi yiroqdan.  
Bordi,  
E, voh, yotar bir bosh  
Qum ustida benajot.  
Nola chekar,  
To'kar ko'zyosh,  
„La'nat, deydi, ey, hayot!

O'sha suvdan ichdim nega?  
Afsus!“ der-u o'kinar.  
Yo'lchiga u:  
— Rahm et menga,  
O'ldir, — deya o'tinar.  
Ming yil avval  
Shu buloqdan  
Suv ichganman, cho'mganman.  
Yashayverib,  
Bu qiynoqdan  
O'zni qumga ko'mganman.  
Umr ko'rdim haddan bisyor,  
Hech toqatim qolmadi.  
Yer yuzida  
Mening biror —  
Hamsuhbatim qolmadi.  
Azob bormi  
Bundan ulug',  
Dahshat bormi ziyoda ?  
Menga yerda tiriklik yo'q,  
O'lim ham yo'q dunyoda.  
Yo'lchi boqdi  
Hayratda lol  
Tirik inson qabriga,  
So'ngra qumga cho'kdi behol,  
Rahmat aytdi sabriga.  
O'z holiga ming shukr etdi,  
Yig'ib so'nggi sabotni-  
Qum ustiga  
To'kib ketdi  
Yo'lchi obihayotni.  
Yo'lchi ketdi  
Bo'lib xoli  
Mangulikning g'amidan.  
Totib qoldi  
Cho'l niholi  
Obihayot namidan.  
Ildiziga uning alhol  
Tomchi yetdi,  
Shu faqat,

Yillar o'tib, o'sha nihol  
Chinor bo'ldi oqibat.  
Shundan chinor  
Uzoq yashar,  
Shundan chayir tanlari.  
Mangulikdan kechib bashar  
Foniy umr tanladi.  
Kel, ey ko'nglim,  
Bizning hayot  
Emas ekan jovidon,  
Bu dunyoda izla najot,  
Yasha faqat shodumon.  
Bu hayotning yarmi rohat,  
Yarmi g'amdir,  
Shukr qil.  
Umring uzun bo'lsa — rahmat,  
Agar kamdir,  
Shukr qil.  
Shu oftob-u  
Ming bir ohang,  
Ming bir rangli bu dunyo  
Senikidir,  
Hayot esang,  
Hayot esang avvalo.  
Ham shavq bilan,  
Ham dard bilan  
O'tar ekan bu damlar.  
Omon bo'lsin  
Sen anglagan,  
Seni anglar  
Odamlar.

## **Birinchi fasl**

### *Shoir qalbi*

Tun bilan kun,  
O't bilan suv  
Bir-biriga zolimdir.  
Koinotda

Azal,  
Mangu  
Isyon ruhi hokimdir.  
Zamin uzra qor quyunin  
Yog'dirganda charx-falak,  
Qish qahriga egmay bo'yin,  
Isyon qilar  
Boychechak.  
Qora bulut zulumotga  
Chulg'aganda samoni  
Chaqmoq — nursiz bu hayotga  
Yorug'likning isyoni.  
Tug'ilarkan, dod der go'dak,  
Ko'ksi to'la fig'ondir.  
Jajji mushti  
Naq g'unchadek,  
Bu-o'limga isyondir.  
Qaro qilgan  
Ko'k daftarin  
Qorong'ulik qasdiga,  
Tong yig'adi nur lashkarin  
Shafaq tug'i ostiga.  
Yer-u ummon,  
Burjlar aro  
Gohi oshkor, goh pinhon,  
Ibtidodan to intiho  
Hukm surar g'alayon.  
Sobir inson yuragida  
Qanoatki barqaror,  
Kosa yanglig' sabr tagida  
Otash yanglig' Isyon bor.  
Kuy, g'azali odamzodning  
Darddir, ezgu armondir.  
Yaralishdan,  
Iste'dodning —  
Tabiati — isyondir.  
Shoir yurak — Pok tilagi,  
Imonidir basharning.  
Armon to'la yurakdagi  
Isyonidir basharning.

\*\*\*

Nazrul Islom  
Bu dunyoga  
Shoir bo'lib tug'ildi.  
Ilhom otli pok ziyoga  
Go'dak qalbi yo'g'rildi.  
Nigohidan  
Sehrii nur  
Borliqqa nur taradi.  
Koinotgau tahayyur  
Ko'zi bilan qaradi.  
Tunlar unga berdi xayol,  
Shavq atadi kunduzlar.  
Gullar g'azal aytdi xushho!,  
Ertak aytdi  
Yulduzlar.  
Ulg'aydi u,  
O'smir bo'ldi,  
Yetdi yigit yoshiga.  
Ishq otli qush kelib qo'ndi  
Nazrulning ham boshiga.  
U ham yondi bag'ri kabob,  
Ham ochildi chun bahor.  
Hijron berdi totli azob,  
Visol etdi baxtiyor.  
Goh shodlik,  
Goh alamidan  
Dil chashmasi ochildi.  
Uning hassos qalamidan  
Ishqiy baytlar sochildi.  
Bu dunyoga  
Nazrul Islom  
Shoir bo'lib tug'ildi.  
Ibtidodan yoniq ilhom  
Shu'lasiga yo'g'rildi.  
Yetti asr avvalgidek  
Bo'lsa edi zamonlar,  
Balki Xusrav Dehlaviydek  
Bitar edi dostonlar.  
Tug'ilsaydi Nazrul agar



Yarim ming yil ilgari,  
Bitar edi ruboiylar  
Mirzo Bobur singari.  
Agar  
Necha zamon o'tib  
Kelmasa bu davronlar,  
Bedilona g'azal bitib  
Tuzar edi devonlar.  
O'zga edi ammo fursat,  
O'zga edi el dardi.  
Zamon uning yonib turgan  
Yuragini so'rardi.

\* \* \*

Shoirni u tug'ilmasdan  
Gado qilgan edilar.  
O'z yurtida  
O'z yurtidan  
Judo qilgan edilar.  
O'rab uning naq yurakdek  
Ona Hindistonini,  
Zobitlar oq o'rgimchakdek  
So'rardilar qonini.  
Bir tomonda,  
Yovni emas,  
Bir-birini beomon —  
So'yar edi taqvodan mast  
Hindu bilan musulmon.  
Bir tomonda  
Na uy ko'rib,  
Na bir to'shak, och, xarob,  
Ko'chalarda hayot qurib,  
O'lim topgan behisob.  
Ganga oqar ko'zyosh bo'lib,  
Jamuna lim bo'lib qon.  
Bori butun bardosh bo'lib  
Najot kutar  
Hindiston.

Har nechakim zo'r iste'dod,  
 Toshqin ilhom.  
 U nega!?  
 Xalqing yotsa chekib faryod  
 Yaramasang kuniga.  
 Shoir esang,  
 Shoir bo'lib  
 Nega kelding hayotga,  
 Eling yotsa dardga to'lib  
 Kelolmasang najotga?!  
 Ne shoirsan,  
 Tashbehlarning  
 Bormi asli keragi,  
 Bo'lmasa el g'ami — darding  
 Yuraging —  
 El yuragi?!  
 Nazrul Islom  
 Hind xalqining  
 Zardobini yutardi.  
 Nazrul Islom  
 O'z qalbini  
 Bayroq qilib ko'tardi.  
 Yuragida to so'nggi dam  
 Isyon o'ti so'nmadi  
 Haqsizlikka ko'ndi olam,  
 Ammo shoir ko'nmadi.  
 Ko'rgilik bu, dedi hindu  
 Taqdir, dedi musulmon.  
 Lekin  
 Zo'rlar zulmiga u  
 Tan bermadi hech qachon.  
 O'zni o'tga otdi aniq,  
 Joni borki,  
 Kurashdi.  
 Umri uning  
 Mangu yoniq  
 Qo'shiqlarga tutashdi.





## *Savol va topshiriqlar*

---

1. „Ruhlar isyoni“ dostonining mavzu doirasi nimalardan iborat?
2. „Ruhlar isyoni“ dostonida bir nechta rivoyatlar berilgan. Bu rivoyatlar doston mavzusi bilan qanday bog‘lanadi?
3. Dostonga epigraf qilib olingan  
„Tug‘ilgansan ozod,  
mudom ozod bo‘lib qol“  
misralari muallifi kim?
4. Dostonning epigrafi dostonning mazmuni bilan qanday bog‘lanadi?
5. „Bizni bizga dushman qilib“ satridagi „bizlarni aniqlang. Nega ikkalasi ham „biz“?
6. „El uchun jon tikkan shoir  
El dushmani ataldi“  
misralari qanday ma‘no bildiradi?
7. O‘zbek xalqining ham Nazrul Islom taqdiriga taqdiri o‘xshash shoirlari bormi? Ularni taqqoslang. (Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, ...)
8. Asar qahramonlari misolida odil va oqil hamda johil kishilar xatti-harakatini tahlil qiling.
9. „Ruhlar isyoni“ dostonida keltirilgan rivoyatdagi hakim o‘zi bilan olib ketgan hikmat haqida mulohaza yuriting.
10. Rivoyatdagi hakim bilan Nazrul Islom shaxsida qanday umumiylik bor?
11. Haqsizlikka ko‘ndi olam,  
ammo shoir ko‘nmadi...  
satrlarini izohlang.
12. Shoir dostonida nima uchun aynan Bedil, Dehlaviy va Bobur shaxslariga murojaat qilgan?



  
**O'tkir Hoshimov**  
(1941- yilda tug'ilgan)



*O'tkir Hoshimov hayoti va ijodiy faoliyati yuzasidan o'rta umumta'lim dasturi bo'yicha mustahkamlovchi savol va topshiriqlar*

1. „Bolaligimni eslasam, iliq yoz kechalari esimga keladi...“  
Parcha adibning qaysi asaridan olingan?
2. Adibning qaysi asarini mustaqil o'qigansiz?
3. „Dunyoning ishlari“ asarining bosh qahramoni kim?
4. Adibning „Urushning so'nggi qurboni“ hikoyasi qaysi davr voqealarini o'z ichiga oladi?
5. „Urushning so'nggi qurboni“ hikoyasidagi qahramonlarni eslang.

### **Hayoti va ijod yo'li**

- 1941- y. — Toshkent shahrida ishchilar oilasida tug'ilgan.
- 1962- y. — „Po'lat chavandoz“ nomli ilk kitobi chop etildi.
- 1963- y. — „Cho'l havosi“ asari.
- 1964- y. — Toshkent Davlat universitetini tugatdi.
- 1966- y. — „Toshkent oqshomi“ gazetasida bo'lim mudiri bo'lib ishlay boshladi.
- 1970- y. — „Odamlar nima derkin“ , „Shamol esaveradi“ , „Bahor qaytmaydi“ asarlari.
- 1973- y. — „Qalbingga quloq sol“.
- 1974- y. — „Birovning tashvishi“.
- 1975- y. — „Uzun kechalar“.
- 1976- y. — „Nimalar bo'ldi“.
- 1979- y. — „Nur borki, soya bor“.
- 1980- y. — „Quyosh tarozusi“.
- 1982- y. — „Dunyoning ishlari“ .
- 1984- y. — „Ikki eshik orasi“.
- 1991- y. — Adibga „O'zbekiston xalq yozuvchisi“ unvoni berildi.
- 1993- y. — „Tushda kechgan umrlar“.
- 2000- y. — „Daftar hoshiyasidagi bitiklar“.

## „BAHOR QAYTMAYDI“ romanidan parcha

Muqaddam o‘z darvozasi oldiga yetib kelganida tun yarmidan og‘gan, oy allaqachon botib ketgan edi. Derazalarda ham, darvozada ham chiroq ko‘rinmasdi.

— Adang ishdan kelmbdilar, — dedi Muqaddam xuddi tushunadiganday Shavkatga qarab. U yo‘lda uyg‘ongan, ammo g‘ingshimay jimgina kelayotgan edi.

Muqaddam darvoza peshtoqidagi teshikchaga cho‘zilib, qo‘l suqdi. Kalit yo‘q edi.

— „Tashlab ketmbdilar-da, — dedi u pichirlab. — Voy, esim qursin, o‘zimda ham bor-ku“. U ketayotganida kalitning bittasini tashlab ketganini, ikkinchisini plashining cho‘ntagiga solib olganini esladi.

Havo ochiq bo‘lgani uchunmi, salqin shamol esib turardi. Muqaddam bolaning shamollab qolishidan cho‘chib, shoshapisha eshikni ochdi, g‘ishtin zinalardan ayvonga chiqdi. Chiroqni yoqdi.

Xuddi shu payt yotoqxonada ichida ham chiroq yongani eshik oynasidan ko‘rindi. Ichkarida kalit shiqiriab, eshik lang ochilib ketdi.

Muqaddam qo‘rqanidan birdan orqaga chekindi. Bolani tashlab yuboray dedi. Eshik oldida ich kiyimdagi Alimardonning gavdasi ko‘rindi.

— Odamning yuragini yorib yuboray dedingiz! — Muqaddam erkalash ohangiga to‘lgan ovoz bilan Alimardonni koyidi. Keyin jilmayib Shavkatni baland ko‘tardi. — Mana bizlar keldik...

U Alimardonning chehrasiga qaradi-yu, qo‘rqib ketdi. Erining turqi shu topda dahshatli bo‘lib ketgandi. Uning rangi quv o‘chgan, negadir titrar, ko‘zlarining qorachig‘i kichrayib, dum-dumaloq bo‘lib qolgandi. Nihoyat, uning tili kalimaga keldi:

— Muqad...

Muqaddam hayron bo‘lib, ichkariga mo‘raladi. Avvaliga hech nima tushunmadi. Divan-karavot ustida qo‘rquvdan shumshayib o‘tirgan yarim yalang‘och xotinni ko‘rdi-yu, birdan hammasiga tushundi.

— A-a-a! — deb qichqirib yuborgancha, dahshat ichida

orqasiga chekindi. Ayvonning burchak-burchaklari, jimjit hovli iztirobli chinqiriqdan larzaga keldi.

— A-a-a!!

Shavkat qoʻrqib ketib, chirillab yigʻlay boshladi. Muqaddam uni bagʻriga bosganicha hovliga otildi...

...Alimardon turgan yerida haykalday qotib qolgan, Hozir nimadir qilish kerakligini, qandaydir muhim, juda muhim bir ish qilish zarurligini bilar, ammo oʻylab topa olmasdi. Ha, topdi! Shavkatni olib qolishi kerak!

U oʻzi qilib yurgan ishlari uchun qachondir javob berishga majbur boʻlishini oldindan bilar, ammo bu kun xuddi shu bugun yetib kelishini bilmagan edi. „Kelmayman deb ketgan odam darrov qaytib kelishini kim bilibdi?!“ Bir lahzada uning xayolidan bir kechalik huzur uchun Klarani uyiga olib kelib, kechirilmas xato qilib qoʻygani, endi hammasi tamom boʻlgani chaqmoqday yaraqlab oʻtdi. Bu xato boshqa bir fojiani boshlab kelishini, Muqaddam uni hech qachon kechirmasligini endi aniq tushundi. Oxirida eng katta fojiani ham tushundi. Yoʻq, u oʻgʻlini, oʻzi uchun shu qadar yaqin boʻlib qolgan, yuragining bir parchasiga aylangan Shavkatni endi hech qachon koʻrolmasligini oʻyladi-yu, zinadan yalang oyoq pastga otildi. Yoʻq, yalinib-yolvorib boʻlsa ham, toʻxtatib qolish kerak.

Alimardon zax yerda sakrab-sakrab Muqaddamning ketidan yugurdi. Darvoza tagida yetib oldi.

— Muqad..., — dedi halloslab.

Muqaddam birdan oʻgʻirilib qaradi. U entikib nafas olar, qorongʻida oʻt boʻlib yonib ketgan koʻzlari charaqlar edi.

— Muqad..., — dedi Alimardon qoʻl choʻzib. — Men...

— Qoch, vijdotsiz! Yoʻqol, iflos! Yuvuqsiz! — dedi Muqaddam chinqirib. Birdan qoʻlidan Shavkat sirgʻalib tushib ketayotganini sezib qoldi-da, koʻtarib mahkam bagʻriga bosdi.

Eshikdan otilib chopib chiqib ketdi. Uning yigʻlagisi kelar, ammo yigʻlay olmas, turtinib-turtinib chopib borar, bola chirillab yigʻlar edi. Bir yerga borganda oyogʻi toyib ketdi. Ammo Shavkatni qoʻyib yubormadi. Choʻkkalab olganча bolani mahkamroq bagʻriga bosdi. Beixtiyor orqasiga qaradi. Kattakon uy vahima ichida qorayib koʻrinar, bitta, faqat bitta derazadan iflos nur toʻkilib turardi.

Shundagina u Shavkatning boshiga yuzini bosganча oʻksib-oʻksib yigʻlab yubordi. Ha, u sezar edi. Erining sayoqligini, oʻziga

xiyonat qilayotganini sezar edi. Ammo bu xayoldan dahshatga tushib, o'zini aldar, uni pok deb o'ylashga majbur etardi o'zini.

Bir vaqtlar mana shu uyga yor-yor bilan kirib kelganini haligina orziqib eslamaganmidi!

Ha, bu yuvuqsiz boshidan uni baxti qaro qilgan edi. Oxirida ham baxtsiz qildi! Shuncha yillardan beri bir so'zini ikki qilmay hukmiga bo'ysunib kelganida, vaqti kelib allaqanday xotinlar bilan to'shagini harom qilishini bilganida edi!

Munchalar sho'r bo'lmasa bu peshanasi!

U hamon hiqillab-hiqillab borar, qayoqqa ketayotganini o'zi bilmas, uyiga qaytay desa, badjahl otasining g'azabidan qo'r qar, osmoni falakda osilib turgan yulduzlar sovuq ko'z yosh to'kib yum-yum yig'lar, faqat Shavkat ovunib qolgan edi. U onasiga nima bo'lganini tushunmoqchiday qorong'ida ko'zlarini javdiratib borardi...

\* \* \*

Mudhish bir tumanlik ichida adashgan ikki yil o'tdi. Alimardon qancha may ichganining, qancha ayollar bilan ulfatchilik qilganining hisobiga yetmadi. Bir ko'ngli Klaraga uylangisi keldi-yu, aynidi. Endi u televizorda kam ko'rinar, konsertlarda onda-sonda chiqib qolar, odamlar o'zini olqishlamayotganini ko'rib jini qurishar, lekin odamlar ham endi unga zor emas edi!

Vokzal gavjum, maydonchadagi skameykalar to'lib ketgan. Birov chamadoniga yonboshlab mudrar, birov papiros tutatib, xayol surib o'tirar, boshqalar do'kondan kitob tanlar edi.

Alimardon kimdir o'zini chaqirganini anchadan keyin eshitdi. Burilib qaradi-yu, qarshisida xiyol egilib turgan Mutal Qodirovni ko'rdi. Mutal sportchilardek tarang kulrang jemper kiyib olgan, shuning uchun bo'lsa kerak, gavdasi yanayam ixchamroq ko'rinardi.

— Birovni kutyapsizmi?

Alimardon uning gaplashgisi kelib turganini payqab yana ijirg'andi.

— Odamlarni tomosha qilyapman. Ular sizni har kuni tomosha qiladi. Siz ham bir tomosha qiling, axir. Odamlarni yaxshi ko'rasiz-ku! — U Mutalning ko'zlariga tikandek qadalib so'radi.

— Yaxshi ko'rasizmi, axir?

Mutal boshini ohista silkitdi.

— Ana, barakalla! — Alimardon huzur qilib kuldi. — Shular orasida bugun sizga guldasta tutib, ertaga unutib yuboradigan beburdlar horligini bilasizmi?

Mutal boshini quyi solgancha kafti bilan stol ustidagi non ushoqlarini bir chekkaga yig'ishtira boshladi. Uzoq o'ylab turdi-da, bir qarorga kelgandek ishonch bilan bosh ko'tardi.

— Bilaman! Lekin shular orasida ming yillardan buyon „Munojot“ni, „Cho'li iroq“ni chalib kelayotgan, Navoiyning g'azallarini bolasiga o'rgatib kelayotgan odamlar ko'p-ku! Axir o'zingiz xalq qo'shiqlarini yaxshi ko'rasiz-ku! Shunaqa ashulalarni qayta-qayta aytgansiz-ku!

Alimardon u bilan hech qachon shunaqa dangal gaplashmagan edi. „Tiling burro-ku!“ — deb o'yladi hamon ermak qilib jilmayib turarkan. Keyin parvo qilmagandek qo'l siltadi. Shosha-pisha vokzal binosiga yopirilib kirayotgan odamlarga imo qildi.

— Mana shularning ichida bulturgi olmani uch bahosiga pullash, xuddi o'ziga o'xshagan odamlarni laqillatish uchun chiqqanlar yo'qmi? Erining qo'ynini puch yong'oqqa to'ldirib, begona erkakning sochini iscash uchun kurortga ketayotgan xotinlar yo'qmi? Nechtasini topib beray?

Mutal bu safar ham unga xotirjam qarab qo'ydi.

— Bor...

Alimardon mamnun qiyofada stolni shatillatib urdi.

— Har kim o'zining baxtini o'ylaydi. Siz xalqqa xizmat qilyapman, nom qozonyapman, deb kerilib yuribsiz. Bular bo'lsa sizni sahnaga chiqarib qo'yib, yuraginging hovurini bosadi.

Mutal sekingina xo'rsinib qo'ydi. Bolalarcha sodda yuzida armon ko'lankasi paydo bo'lganini ko'rib, Alimardon ich-ichidan kuldi. „So'taksan hali, qo'g'irchoqsan! Payti kelib ko'zing moshdek ochiladi!“

— Qishlog'imizning tepasida Qodirobod degan bog' bor, — dedi Mutal uning gapini eshitmagandek. — Kecha o'sha bog'ga bordim. Bir vaqtlar otam adirdanyuz gektar joy ochib, bog' qilgan ekan. O'lganidan keyin bog'ni otamning nomiga qo'yishgan. — U derazadan maydonga o'ychan qarab qo'ydi. — Mardon aka, men otamni tanimayman. Faqat bitta surati qolgan. Dengizchilarning kokilli shapkasini kiyib tushgan surati... Urushdan keyin bir odam otamning qanday o'lganini onamga gapirib



berganini eshitib qolganman. — U negadir horg'in qiyofada jilmayib qo'ydi. — Zerikmadingizmi?

— Gapiravering, — dedi Alimardon yana ermak qilib. — Siz bilan ko'pdan buyon gaplashmaganmiz.

Mutal uning kinoyasiga parvosizgina qarab qo'ydi.

— Otam suv kemasida xizmat qilarkan. Bir kuni qirg'oqqa razvedkaga chiqishibdi. Nemislar otam bilan o'sha odamni ushlab olibdi. Keyin otamning oyog'ini osmondan qilib, qayiq orqasiga bog'lashibdi-da, suvga tashlashibdi. Otam tipirchilab-tipirchilab tinchib qolganidan keyin dengizga uloqtirib yuborishibdi.

Alimardon bo'g'ziga suv tiqilib tipirchilayotgan odamni to'satdan ko'z o'ngiga keltirdi-yu, vujudi muzlab ketdi.

— O'sha paytda, — dedi Mutal o'ziga-o'zi gapirayotgandek sekingina, — otam siz aytayotgan iflos odamlarni emas, chinakam insonlarni o'ylagan bo'lsa kerak... Otamning bitta xatini doim asrab yuraman, — dedi Mutal anchadan keyin xo'rsinib. — „Dunyoda odamlarni yaxshi ko'rishdan ham kattaroq baxt yo'q“, deb yozgan ekan.

Oraga jimlik cho'kdi. Hali kun erta bo'lgani uchunmi, qahvaxonada odam siyrak, stollar bo'sh, atrof jimjit edi.

— Onam boshqa turmush qurmadi, — dedi Mutal o'ylanib. — Avvaliga bu narsada hech qandoq sir yo'qdek edi. Onam bo'lganidan keyin men uchun yashasin-da, deb o'ylardim. Mana, o'zim ham uylandim. Bolalik bo'ldim. Onamning qadrini endi bila boshladim. Meni deb hamma narsadan voz kechish oson bo'lmaganini endi tushundim.

„Nima keragi bor shu gaplarning?“ deb o'yladi Alimardon birdan ko'ngli cho'kib. U boyagi ermak qiluvchi kulgilari birdaniga yo'qolganini, Mutalning gaplariga ilk marta jiddiy e'tibor bera boshlaganini o'zi ham sezmay qoldi. Uning ko'z o'ngida onasi jonlandi, qiziq, u hech qachon onasini o'ylamagan ekan. O'lganidan keyin ham, onam men uchun yashagan edi-ku, degan gap xayoiiga kelmagan ekan. Axir uning otasi ham urushda o'lgandi-ku! Uning onasi ham, shu bolam odam bo'lsin, deb yarim ko'ngil bilan o'stirgan edi-ku! Nahotki mana shu bola bilgan gapni u tushunmasa!

— Bunaqa onalar ko'p bo'lsa kerak, — dedi Mutaluning xayolini uqib turgandek. — Bilmadim, nimagadir men shunaqa deb o'ylayman.

Alimardon shu topda nimadir deyish kerakligini bilar, ammo

gapirolmas edi. Uzoq vaqtlardan beri, onasi vafot etganidan beri birinchi marta uning ma'yus boqishlarini aniq tasavvur etdi. Keyin negadir Shavkatni — o'zining Shavkatini ko'z o'ngiga keltirdi-da, tag'in ko'nglida o'sha ayovsiz sog'inch dardi uyg'ondi.

— Men odamlarni yaxshi ko'raman, — dedi Mutal unga parvo qilmay. — Yo'q, otamning vasiyati tufayli emas. O'zim yaxshi ko'raman. Odam bolasi tug'ilgan paytida pokiza bo'ladi-ku. Uning umrbod shunaqa pokiza bo'lib qolishi sizga, menga, hammaga bog'liq emasmi?

Alimardon yana allanima demoqchi bo'ldi. Mutal yana gapirtirmadi.

— Alimardon aka, men sizning qo'shiqlaringizni o'rganib artist bo'lganman, — dedi Mutal unga ma'yusgina boqib.

Alimardon uning rost gapirayotganini bir qarashdayoq payqadi. Ammo hech nima demadi. Chamasi, Mutalga ham bularning hammasi baribir edi.

— Sizga nasihatgo'ylik qilishga haqqim yo'q. O'zingiz bilasiz, dunyoga kelgandan keyin biron-bir maqsadi bo'lishi kerak-da odamning, siz aytganday tomoshabinning qarsagini eshitish, nom qozonishga ishqiboz emasman. Dunyoda hamma narsa o'tkinchi. Yana ellik yildan keyin birov meni eslaydimi, yo'qmi, unisini bilmayman. Menga buning qizig'i ham yo'q. Men yuragimdagi xursandchilikni ham, alamimni ham odamlarga — tomoshabinlarga to'kib solaman. Mening ashula aytishdan maqsadim shu...

...Alimardon Mutalning qachon turib ketganini bilmadi.

Shu topda alamli bir muammo uning yuragini o'rtar edi. Nahotki mana shu bola, kuni kecha o'zining qo'shiqlarini o'rganib, sahnaga chiqqan mana shu go'dak bilgan narsani Alimardon bilmasa? Nahotki Alimardonning shuncha mehnatlari bemaqsad ketgan bo'lsa?! Nahotki u dunyoga kelib, durustroq niyat bilan yashamagan bo'lsa?

\* \* \*

To'y tarqay deb turgan edi. Birdan shamol ko'tarildi-yu, zum o'tmay bo'ronga aylandi. Shamol shiddat bilan quyunday yopirilar, hovlidagi olchalarning shoxlarini qarsillatib, ayqash-uyqash qililar, uzun stol ustidagi dasturxonlarni shartta ko'tarib, taq-

simchalarni chil-chil qilib yuborardi. Odamlar chuyllab qolishdi. Kuyov-kelin o'tirgan joydagi palak uzilib tushdi...

...Mashina peshanasidagi oynaga chirsillab yomg'ir tomchilari urildi. Yana yuz qadamcha yo'l bosganlaridan keyin sharros jalaga aylanib ketdi. Tomdan oqib tushayotgan suv oynani butunlay to'sib qo'ygan, yo'l yaxshi ko'rinmas, g'ildiraklar tagida suv shovillab oqardi.

Alimardon boyadan beri xayolini chuvaltirib yuborgan fikrlardan bir qarorga keldi-yu, tormozni bosdi. Shodivoyga qarab qo'ydi-da, iloji boricha xotirjam gapirishga urinib so'radi:

— Kabirning uyi qayerda? — U ovozining titray boshlaganidan g'ijiniib, bir lahza jim qoldi. Yanayam xotirjamroq gapirdi. — Agronom Kabir...

— O'rmonchini aytasizmi? — Alimardon qorong'ida Shodivoyning hayrat bilan tikilib turgan ko'zlarini aniq ko'rdi. — Nimaga edi?

Alimardon teskari qarab oldi.

— Ko'rmoqchi edim, — dedi bo'g'ilib. — Eski tanishmiz.

Shodivoy yana o'sha beg'araz ohangda shang'illadi:

— Qo'ysangiz-chi, mehmon! Bugun biznikida qo'noq bo'lasiz.

Alimardon qat'iyat bilan ta'kidladi.

— Yo'q! Kabirnikiga tushaman.

Mashina suv shovillab oqayotgan toshloq ko'chadan yana avaylab yurib ketdi. Alimardon yo'ldan ko'z uzmay borar, ammo hech nimani ko'rmas, hayajondan tomog'i qaqrab yutinolmas, rul chambaragidan ushlagan qo'llari qaltirar, hozir qandaydir noxush, mudhish bir voqea ro'y berishini sezib, yuragi titrardi.

Devori oqlangan do'kon oldidan o'tganlaridan keyin Shodivoy Alimardonning qo'liga sekin turti.

— Keldik.

Yana bir chaqmoq chaqdi-yu, tor ko'cha yorishib ketdi.

— Xizrni yo'qlasangiz bo'larkan, mehmon, — dedi Shodivoy momoqaldiroq ovozini bosish uchun hayqirib. — Ana, Kabirning o'zi!

— Mehmon olib keldim. Toshkentdan...

Alimardon yuragini kemirib tashlayotgan azobli g'ashlikni yengib, gandiraklaganacha yurib ketdi. U o'zining raqibini ko'rib qo'ygisi kelar, uning nimasi o'zidan ortiqroq ekanini, Muqaddam bu odamning nimasiga uchganini bilib olishga urinardi.

„...To‘pori qishloqi-ku! — U g‘ijinib yuzini burdi. — Hali shu hayvon mening o‘g‘limga ota bo‘lib yuribdimi?..“

Alimardon istehzoli jilmayib qo‘ydi-da, qo‘lini tortib oldi. Kabir hamon undan ko‘z uzmay turar, chamasi, qayerda ko‘rganini eslay olmas edi.

— Oynatog‘qa chiqqandim. — Keyin u Alimardonga qaradida, tag‘in qaytardi. — Marhamat!

— Bo‘lmasa men to‘yxonaga qaytaveraymi?

Alimardon Shodivoy o‘zidan ruxsat so‘rayotganini anchadan keyin tushundi.

— Boravering! — dedi qayrilib qaramay.

Ular pastak eshikdan egilib, hovliga kirishdi. Tag‘in chaqmoq chaqdi. Hovlidagi besh-olti tup olmalarning yomg‘irdan qizargan shoxlari, etakdagi qorong‘i otxona bir zum yorishib ketdi.

Uning yuragi gupillab ura boshladi. Tubsiz alam, nafrat, allanechuk o‘kinch tuyg‘ulari aralashib, uning vujudini larzaga solar, hech nimani ko‘rmas, tasmollab qadam tashlab borardi. Kabir otni qo‘yib yubordi-da, o‘zi oldinga o‘tib yo‘l boshladi. Derazadan tushib turgan qizg‘ish nurni kesib o‘tib, eshik oldiga borishdi.

— Qani, — Kabir eshikni ochdi. — Bemalol kiravering.

Alimardon endi engashib, tuflisining bog‘ichini yechayotgan edi, ichkari tomondagi eshik g‘iyqillab ochildi-da, do‘mboqqina bola yugurib chiqdi.

— Ada! Ada! — dedi u yangroq, ingichka ovoz bilan.

Alimardon ko‘pdan buyon izlab yurgan narsasini birdaniga topganday, beixtiyor qaddini rosladi. Bu ovoz, o‘zi hali hech qachon eshitmagan, ammo o‘ziga shu qadar qadrdon bo‘lgan yangroq ovoz uning quloqlariga o‘qday kirdi.

Bola maykachan bo‘lib olgan, qop-qora ko‘zlari shodlikdan porlar, peshanasidagi bir tutam sochi o‘ziga quyib qo‘yganday yarashib tushgan edi.

— Ada! — dedi bola tag‘in o‘sha yangroq ohangda. Keyin qo‘lchalarini keng yozganча chopib kela boshladi. Shu topda u onasining og‘zidan don olayotganida qanotlarini pirpiratib turgan qushchaga o‘xshardi.

Kabir kavshandozga cho‘nqayib olganча qulochini keng yozdi.

— Qani! Qani! Otosh bolam, bobosh bolam! Achom! Achom!

— Ato-om! — dedi bolakay ham shirin til bilan.

O'g'li quchog'iga kelib urilishi bilan Kabir dast ko'tarib oldida, yuz-ko'zlaridan o'pa boshladi. Bolakay dadasining mo'ylovi tekkanidan qitig'i kelgan bo'lsa kerak, hadeb qiqirlar, boshini orqasiga tashlaganча qotib-qotib kulardi.

Alimardon suratday jonsiz bo'lib qolgan, ko'zlari o'tday yonib, ularga tikilib turardi.

— Qani, amaqingga salom ber-chi. — Kabir bolani yerga qo'yib, maqtanganday Alimardonga qarab qo'ydi. — Katta yigitda, bu! Har kuni dadasining ishdan kelishini poylab, uxlamay o'tiradi.

Ammo bolakay Alimardonga yotsirab qarab qo'ydi-da, kattalarday qoshini chimirib, hurpayib oldi.

— Voy tentag-ey, salom berishni esingdan chiqarib qo'ydingmi?— Kabir kuldi.— Yovvoyi-da, amakisi, yovvoyi bu.— Keyin Alimardonga qarab iltifot qildi.— Qani yechining, chiqing. Men otni arqonlab qo'yay. Hammayoqni payhon qilib tashlaydi.— U ichkaridagi eshikka qarab qichqirdi.— Hoy, onasi, mehmon keldi!

Kabir chiqib ketishi bilanoq Alimardon beixtiyor bolaga talpindi.

— Shavkat! — dedi pichirlab. U butun borlig'i bilan bolaga talpinar, shuncha yildan beri yuragining tubida ojiz titrab turgan nozikkina bir tor bor ovozi bilan jaranglay boshlagan, eng baland avjiga chiqib vujudini larzaga solar, turgan yerida yaproqday qaltirar edi.

Alimardon bir qarashdayoq otalik mehri bilan shu bola Shavkat ekanini, o'zining o'g'li, yagona ovunchog'i ekanini aniq bilib olgandi.

U tufisini ham yechmay, namatga oyoq qo'ydi. Ikki qo'lini olg'a cho'zib chaqirdi.

— Beri kel-chi, — dedi ovozi titrab. — Menga o'g'il bo'lasanmi?

Bola undan hurkkanday yonlamasi tisarilib-tisarilib tokcha oldiga borib qoldi.

Alimardonning ko'ksini to'ldirgan bir nido bo'g'zidan otilib chiqdi:

— Shavkat!

Bola allanarsani sezgandek shartta burilib qaradi. Alimardon uning ko'zlarida o'zining ko'zlarini aniq ko'rdi, qichqirib yubordi:

— O'g'lim!

Lekin shu ondayoq vahimaga to'la yana bir qichqiriq burilib qarashga majbur qildi uni. Bu oh chekishmidi, qo'rqinch to'la nidomi, har holda yurakni o'rtab yuboruvchi bir un edi. Alimardon qotib qoldi. Ostonada oddiygina ko'ylak kiyib olgan, bosh yalang Muqaddam turardi. Uning ko'zlari katta-katta ochilib, rangi devor bo'lib ketgan edi. Ha, bu Muqaddam edi. Bir vaqtlar uning o'ziniki bo'lgan, hozir esa bir olam nariga ketib qolgan begona Muqaddam edi.

Alimardon boshi aylanib ketayotganini, ko'z o'ngida xira halqachalar pirpirayotganini sezib turar. hozir bir ofat bo'lishini, allaqanday dahshat ro'y berishini bilar, ammo tili kalimaga kelmas edi.

— O'g'lim! — dedi u nihoyat pichirlab. Tomog'i xippa bo'g'ilib, gapirolmay qoldi. Telbalarday siltanib Shavkatga talpindi.

— Shavkat, — dedi titroq qo'llarini cho'zib. — Kel, bolam, — u Shavkatning qarshisida cho'kkalab quchog'ini ochdi. — Kel, o'g'lim... — dedi pichirlab. — Bitta bag'ringa bosay.

Bola labini burib tisarildi. Muqaddamning etagidan ushlab orqasiga yashirindi.

Bu qandoq bedodlik! Bu qanday jazo! O'g'il o'z otasidan tonsa! Shu ondayoq dahshatli bir haqiqat uning yuragini qiy-malab tashladi. Nega tonmasin? O'zi ham qachondir bolasidan tongan emasmi?

Alimardonning shuncha yillardan beri tosh bo'lib ketgan diydasi birdan erib oqdi. Ha, u ko'pdan beri— Muqaddam ketib qolgandan beri bitta dard bilan yashar edi. Bu dard kunduzlari xayolini, kechalari uyqusini olib qochar edi! Endi bilsa — bu otalik dardi ekan. Insonlikning qo'l yetmas baland cho'qqisi ekan! Mana, o'sha dardining malhami! Mana o'g'li! Mana! Shundoqqina oldida turibdi!

U Shavkatni mahkam bag'riga bosib oldi. Uning yuz-ko'zidan allanechuk tanish bir bo'y — o'z hidi anqib turgan sochlaridan o'pa boshladi. Baxtiyor bir tuyg'udan to'lg'anib negadir jilmaydi.

— Tentagim... Men sening otangman, bildingmi, otangman!

Shavkat birdan lablari burilib yig'lab yubordi. U chirqillab yig'lar, onasiga talpinar, ammo Alimardonning quchog'idan chiqib ketolmas edi.

— Yig'lama, Shavkat... — dedi u pichirlab. Bolaning yuzlaridan o'pa boshladi.

Shavkat battar yulqinib, oyoq-qo'llarini silkitardi.

To'satdan Alimardon o'g'liga ozor berayotganini tushunib qoldi. Ichki bir kuch majbur qildimi, qo'yib yubordi.

Shavkat yig'lagan cha yana onasining etagiga yopishdi. Muqaddam hamon toshday qotib turar, esi og'ib qolganga o'xshar edi.

Shavkat onasini qo'yib yubordi-da, chopqillab narigi uyga kirib ketdi. Alimardon uning silkinib borayotgan do'mboq qo'lchalarini ko'rdi. U bolaning ketidan uch-to'rt qadam yuridda, to'xtab qoldi. Shundagina u bu bolaning hech qachon o'ziniki bo'lmasligini his etdi.

— Shavkat! — U ochiq qolgan eshikka qarab oxirgi marta so'nik, umidsiz ovozda pichirladi-da, hammasi tamom bo'lganini tushundi.

Shartta burildi-yu, telbalarcha ikki hatlab, ostonaga tushib qoldi. Uning ko'zlari olayib ketgan, ammo hech nimani ko'rmas edi.

Eshikni taraqlatib ochdi-da, hovliga otildi. Zimiston qo'ynida Kabirga urilib ketganini ham, yugurib borib, mashinaga o'tirganini ham sezmad.

Mashinani keskin burdi-da, daryo-daryo suv oqayotgan tor ko'chadan yeldirib ketdi.

Mashina shiddat bilan qaltis tog' yo'lidan uchib ketdi. Bir zumda qishloqning tosh devorlari orqada qoldi.

Ko'kda momoqaldiroq faryod soldi. Chaqmoqning bir lah-zalik sovuq nuri g'amgin bosh egib turgan tog'larni, yomg'irdan yaltirab ketgan qizg'ish qoyalarni, yo'lning shundoqqina chekkasidan tik tushib ketgan jahannam jarligida ilonday bilanglab oqayotgan soyni yoritib o'tdi. Ammo uning ko'zlari hech nimani ko'rmas, tasavvurida faqat bir narsa — o'z otasidan yotsirab, yig'lab, uyga qochib kirib ketgan Shavkat, silkinib borayotgan qo'lchalari turar, alamdanda vujudi qaltirab, oyog'i og'riganiga qaramay, bor kuchi bilan gazni bosar edi.

Mashina shiddat bilan yelib, ikki chetiga omonat panjaralar o'rnatilgan taxta ko'prikdan o'tib ketdi. Ko'prik yog'ochlari lopillab, ayanchli g'iyqillab qoldi. Yo'lning eng xavfli joyi — eng chuqur jarlik yaqinlashib kelardi.

Alimardon hamon gazni bosar, barbod bo'lgan umidlari haqqi, xazonga aylangan umri haqqi, barcha alamlari haqqi ko'zlariga yosh quyulib kelardi. Nimasi qoldi uning? Nimasi qoldi axir?! Sahnam? Shon-shuhratmi? Nima qoldi, o'zi! Nima! Oxirgi.

eng oxirgi umidi, tanho suyanchigʻi yuz oʻgirdi-ku undan. Tagʻin nima kerak endi? U hamon shiddat bilan yelib borarkan, koʻz yoshidan tomogʻi xirillab, oxirgi marta pichirladi. — Oʻgʻlim-im!

Toʻsatdan u koʻnglida xushnud bir yengillik sezdi. Qalbi sokin tuygʻularga toʻlib-toshganday boʻldi-yu, rul chamberagini chirpirak qilib chapga burib yubordi.

Mashina bir yonboshiga ogʻa boshladi. Shundagina u xato qilayotganini, yomon ish qilayotganini tushunib qoldi. Koʻz-lari dahshatdan olayib tormozga yopishdi. Ammo mashina allaqachon jahannam labiga borib yetgan edi.

Zum oʻtmay dahshatli suron togʻ-toshlarni larzaga soldi. Gʻamgin qoyalar qilib qoʻygan gunohidan oʻzi qoʻrqib ketganday ingrab yubordi...

*Asarni oʻqib tugatgach, quyidagi reja asosida voqealar rivojini eslang va qayta hikoyalashga tayyorlaning.*

1. Kuz.
2. Kuz tashvishlari.
3. Qishloq chekkasidagi uy.
4. Alimardonning qoʻrqinchli tushi.
5. Xayol.
6. Goʻzal tabiat.
7. Ota-ona orzusi.
8. Anvar.
9. Anvarning birinchi ish kuni.
10. Hasad.
11. Muqaddam.
12. Sodda va dilkash Anvar.
13. Qonqus. Anvar aytgan hikoya.
14. Muqaddam va Alimardon: tanishuv.
15. Muqaddamga tanish uy.
16. Dilrabo kuy va sohir ovoz.
17. Qaltis „hazil“.
18. Muqaddam uyiga kira oladimi...
19. Anzirat xola savollari.
20. Lobar. Jahongir xayoli.
21. Lobar sirdan ogoh boʻldimi?
22. „Qizlar dadil yigitlarni yaxshi koʻradi...“ mi?
23. Xiyonat.



24. Alimardon va Iqbol xola.
25. Shifokor topshirig'i.
26. „Musiqā redaksiyasi“da.
27. To'y taraddudi.
28. To'y.
29. Baxtli lahzalar.
30. Shuhrat cho'qqisi sari.
31. Biz bilgan va bilmagan Muqaddam.
32. Darz ketgan muhabbat.
33. Iqbol xola Anvarni uylantirmoqchi.
34. Nafrat.
35. Sahna madaniyati.
36. Adashgan muhabbat.
37. Zufar Hodiyeovich tanbehi.
38. Adoqsiz olqishlar.
39. Xotiralar...
40. Anvarning to'yi.
41. O'zgalar bilan...
42. Shuhrat cho'qqisi.
43. Chekinish.
44. Mutal Qodirov.
45. Shodiyona.
46. Tojikiston safari.
47. Muqaddam.Orzular og'ushida.
48. Oilaviy baxt.
49. Zufar Hodiyeovich maslahati.
50. Baxtli oila.
51. Lobarning to'yi.
52. Oynatog'da to'y.
53. Klara bilan uchrashuv.
54. Ota uyida.
55. Yarashish uchun harakat.
56. Muqaddam xiyonatni kechirmaydi.
57. Vido.
58. Sokin tabiat.
59. Qishloq sari yo'l.
60. So'nggi manzil.
61. Yana bahor...

*„Bahor qaytmaydi“ asari  
asosida yozilgan erkin ijodiy inshoni sinchiklab o‘qib  
chiqing va har bir xathoshiga sarlavha toping. Bu  
mavzudagi inshoni siz qanday yozgan bo‘lar edingiz?*

O‘tkir Hoshimov... O‘zbek adabiyotining o‘ziga xos obro‘ga, o‘ziga xos mavqega ega bo‘lgan zabardast adibi. Asarlarida hamisha mehr haqida, hamisha odamiylik haqida, hamisha insoniy go‘zal fazilatlar haqida so‘z yurituvchi inson.

Adibning „Bahor qaytmaydi“ nomli asari yana hayotning, inson umrining va inson shuhratining boqiy emasligi haqida so‘z yuritadi. Insonlarni odamiylikka, yutuqlardan esankiramalikka, shuhrat cho‘qqisining yuki naqadar og‘ir ekanligini his etishga undaydi doim. „Bo‘ston qishlog‘iga og‘ir, vazmin qadamlar bilan kuz kirib keldi,“ — deya boshlanadi asar. Asarning boshlanishidanoq asarning ruhi, kayfiyati bevosita dimog‘ingizga uriladi.

Alimardon To‘rayev asarning bosh qahramoni. Asarda katta yo‘l boshida turgan navnihol yigit sifatida ilk ko‘rinish beradi. Do‘sti Anvarning yordami uni shuhrat pillapoyalari sari ildam harakat qilishga undaydi, Alimardon uchun bir qancha imkoniyatlarning tug‘ilishiga sababchi bo‘ladi. Shuhrat ko‘zini mast qilgan hofiz bora-bora hech kimni nazarga ilmay qo‘yadi. Sadoqat, vafo, odamiylik kabi xislatlar u uchun begonaga aylanadi. Konsert rejissiyorining talablarini mensimayda, lekin shu bilan birga, asar boshida juda shiddat bilan kelgan shuhrat o‘zining noma‘qul xislatlarimi yoki o‘z-o‘zini tez yo‘qotishi natijasidami, sekin-asta so‘na boradi.

Bizning xalqimiz hamisha oilani muqaddas sanab kelgan. Nikohdan tashqari ishqiy munosabat xalqimiz uchun hamma zamonlarda ham noma‘qul ish sifatida baholanib kelingan. Ajdodlarimiz o‘z oilalariga nisbatan hamisha poklikni, to‘g‘ri-likni shior qilib olgan. Shunday xalqning farzandlari hamisha halol bo‘lmog‘i, sadoqatli va pokiza bo‘lmog‘i lozim. Yosh avlodni bu yo‘sinda tarbiyalash uchun biz kattalar sof sharqona tarbiya olmog‘imiz, shunday tarbiya sohibi bo‘lmog‘imiz lozim.

Muqaddam... O‘zbek ayollaridagi sabr timsoli. O‘zbek ayollaridagi sadoqat timsoli. Yana xalqimizgagina xos bo‘lgan, mo‘min va muslimalargagina xos bo‘lgan pokizalikka, sofligicha halolikka intilgan beozor, beg‘ubor hayo timsoli. Muhabbatni o‘zi izlagan qalbdan topadi-yu, lekin sevgining sarob bo‘lish ehtimoli uni asir etadi.

O‘n to‘qqizga to‘lgan qiz bu vaqtda oilada anchayin begonasirab qoladi. Bu balog‘at bekatida turgan qizlar uchun, deyarli hech qayerda yozilmagan, lekin anchagina jo‘n bo‘lgan. agar shunday atash mumkin bo‘lsa, qoida. Muqaddam shunday o‘ylar, hislar girdobida yashab bir qancha muddatdan buyon Anvarning sevgi haqidagi suhbatlari jarayonida nisbatan dadil, nisbatan qat‘iyroq so‘zlar, ehtirosli dil izhorlari kutayotgan pallada edi. „Men buni Anvar akamdan kutgan edim“, — deya o‘yga tolardi ba‘zan. Kutilmaganda sodir bo‘lgan xato uni Anvardan kechishga majbur qilgan bo‘lishi mumkin.

Anvar esa o‘zbekona tarbiya topgan, o‘zi va o‘zgalar nomusini har narsadan ustun qo‘yuvchi kamtargina, shu bilan birga yaxshigina soddadil, bo‘z yigit edi. Shu ma‘noda uni Alimardon aytganidek „...latta“, — deb ham ayta olmaymiz. To‘g‘ri, u haddan tashqari soddadilligi sabab, balki nihoyatda ishonuvchanligi sabab, o‘z sevgisiga erisha olmadi, lekin u do‘stidan va hatto, sevgilisidan vafo, sadoqat ko‘rmagan paytda dunyoda inson yaxshi yashashi uchun, to‘kis hayot kechirishi uchun sevgigina eng muhim omil bo‘la olmasligini o‘z vaqtida va to‘g‘ri tushunib yeta olgan shaxs. Ba‘zi asarlarda bo‘lgani kabi u endi sobiq sevgilisiga ergashmaydi, sevgi-muhabbat deya o‘zbekona g‘ururiga gard yuqtirmaydi (agar adib o‘sha davr ruhidan kelib chiqqani holda bu yo‘lni tanlaganida, asar nihoyatda bo‘sh va ishonarsiz chiqqan bo‘lar edi), o‘zining nihoyatda toza va ehtirosli sof muhabbatiga sodiq qoladi. Hatto xayolan ham o‘zi muqaddas deb bilgan sevgisiga gard yuqtirishni xohlamaydi. Do‘stining unga va shu bilan barobar keyinchalik o‘z oilasiga xiyonat qilgan paytlarda ham u do‘stini tushinishga xarakat qiladi va hamisha ezgu ishlarga shoshiladi.



## Savol va topshiriqlar

---

1. „Bo‘ston qishlog‘iga kuzning og‘ir-vazmin qadamlar bilan kirib kelishini“ qanday tasavvur etasiz? Kuzning shunday kirib kelishi hayotiy haqiqatga yaqinmi?
2. Anvarning Alimardonga munosabati haqida o‘ylab ko‘ring. Anvar o‘z fe‘li bilan shunday qismatga mahkum deb o‘ylaysizmi?
3. Alimardon bilan Mutalning odamlar haqidagi fikrlarini bir-biridan ajratib oling. Haq va nohaq o‘rinlarga diqqat qiling va tahlil qilishga harakat qilib ko‘ring.
4. „Odamlarni yaxshi ko‘rish“ eng katta baxt deb o‘ylaysizmi? Qalbingizga quloq solib ko‘ring-chi, siz ham odamlarni yaxshi ko‘rasizmi?
5. Alimardonning o‘g‘li Shavkat bilan to‘qnashuvi sahnasini ko‘z oldingizga keltiring. Insonga taqdim etilgan hayotni qanday o‘tkazish ko‘p jihatdan insonning o‘ziga ham bog‘liqligi haqida mulohaza yuriting.
6. Muallif Alimardon fojiasini tabiat bilan bog‘lashga uringanligining sabablari nimada deb o‘ylaysiz?
7. Asarda Alimardonning shuhrat pog‘onalaridan ko‘tarilib borish sabablari haqida gapiring.
8. Alimardon bilan Muqaddam munosabatlarining darz ketish sabablarini o‘ylang. Uning ildizi nimada deb o‘ylaysiz?
9. Muqaddam Alimardonning xiyonatini kechirmasdan to‘g‘ri ish qildimi?
10. Muqaddamning ota-onalari haqidagi tasavvurlaringiz va ularning ruhiy kechinmalari haqidagi o‘ylaringizni gapiring.
11. Anvarning do‘sti uchun qilgan eng katta yaxshiligi nimada deb bilasiz?



**Abdulla Oripov**  
(1941- yilda tug'ilgan)

*Abdulla Oripov hayoti va ijodiy faoliyati yuzasidan o'rta  
umumta'lim dasturi bo'yicha mustahkamlovchi savol va  
topshiriqlar*

1. Shoir tug'ilgan qishloqning nomi qanday ataladi?
2. Shoir Erkin Vohidovning „O'zbekim“ qasidasi bilan shoirning „O'zbekiston“ she'ri o'rtasida qanday yaqinlik bor?
3. Shoirning „O'zbekiston“ she'ridagi qaysi qahramonlarni „Millat iftixori“ deb atash mumkin?

**Hayoti va ijod yo'li**

- 1941- y. — Qashqadaryo viloyatida tug'ildi.  
1958- y. — ToshDUning filologiya fakultetiga o'qishga kirdi.  
1960- y. — „Tilla baliqcha“ .  
1963- y. — „Buloq“.  
1964- y. — „Albomga“.  
1966- y. — „Onajon“.  
1968- y. — „Ilg'or ishchi va chaqqon muxbir qissasi“.  
1974- y. — „Yurtim shamoli“ she'ri.  
1978- y. — „Jannatga yo'l“ dostoni.  
1980- y. — „Hakim va ajal“ dostoni.  
1980- y. — „Saflar pokligi deb...“  
1981- y. — „Najot qal'asi“.  
1984- y. — „Yillar armoni“ to'plami.  
1988- y. — „Ranjkom“ nomli doston.  
1991- y. — „O'zbekiston xalq yozuvchisi“ unvoni berildi.  
1998- y. — „O'zbekiston qahramoni“ unvoni berilgan.  
2000—2001-yillar — To'rt jildli „Tanlangan asarlar“.

**SHE'RLAR**

**ONA**

Ka'ba qopqasida turgan, ey posbon,  
Avval onalarning ochgin yo'llarin.  
Onalar poyiga tiz cho'k o'shal on,  
Tavof qil, ko'zga surt, o'pgin qo'llarin.

Hojar onamizning nidosi sabab,  
Ka'bada ko'z ochgan Obi zam-zam ham.  
Bir umr talpinmish onaga qarab,  
Ne-ne payg'ambarlar, ko'zlarida nam.

Qavmimni ranjitib qo'ymayin, ammo  
Tobut yasab kelgan er zoti doim.  
Onalar bag'riga faqat beshik jo,  
Hayotbaxsh allalar aytgan, muloyim.

Sho'rlik odamzodning toleyi uchun  
Eng avval onalar qilsin ibodat.  
Zora, gunohlardan pok bo'lgay ochun,  
Onalar o'tinchi topib ijobat.

Ka'ba qopqasida turgan, ey posbon,  
Avval onalarning ochgin yo'llarin.  
Onalar poyiga tiz cho'k o'shal on,  
Tavof qil, ko'zga surt, o'pgin qollarin.

## O'ZBEK QOMUSI

Men bechora bir odamman,  
Ertangi kunim,  
Ne bo'lishin bilmaydigan ojiz bandaman.  
Yer-u osmon o'rtasida topmagan qo'nim,  
Botinimda botmon tosh-u zohir xandaman.

Yolg'izlikning rutubatli ko'chalarida,  
Ne-ne oltin fasllarim o'tdi junjikib.  
She'riyatning tund qorong'u ko'chalarida  
Yiroq-yiroq yulduzlarga boqdim entikib

Ig'vo, hasad, fitna bilan to'lgan bu hayot,  
Har onimda mingta etdi bir hasratimni.  
Xira tuman orasida butkul koinot,  
G'ira-shira ilg'ar edim mamlakatimni.

Eslar edim Buxoriyni, Yassaviyni ham,  
Ha, ha, ayri tushmagandi xotirotimdan,

Faqat ular chalinardi ko'zimga mubham,  
Lekin sira ketmas edi xayolotimdan.

Ham Temurbek, ham Ulug'bek, Alisher, Bobur,  
Sizlar tuzgan ul saltanat-Saltanat bo'ldi.  
Ulug' tarix Turkistonga cho'ng guvoh erur,  
Davlat edik, davlat edik, u davlat bo'ldi!

Emukdoshim, ay, qardoshim, quloq tut menga,  
Ushbu ko'hna kakhashonda mag'rur tutgin bosh.  
Sen zaminga loyiqdirsan, zamin ham senga,  
Senikidir endi bu yer, seniki quyosh.

Qo'lingda erk, boshda yalov, tilingda surud  
Vataning bor, bola - bog'chang, or-nomusing bor  
O'zbekiston deb atalgan muqaddas hudud,  
O'z Davlating , Mamlakating, o'z Qomusing bor.

## XALQ

Hamma narsa o'tadi, mansab, shon-u shavkat ham,  
Shirindan shirin qolur, talxdan esa qolur talx.  
Bir kuni tuproq bo'lur, tengsiz shamsi tal'at ham,  
Faqatgina xalq yashar, faqatgina qolur xalq.

Gohida ko'zda yosh-u gohida xandon bo'ldik,  
Gohida bolg'a bo'lsak, gohida sandon bo'ldik,  
Axiyri kulib tole, sohibi davron bo'ldik,  
Faqatgina xalq yashar, faqatgina qolur xalq.

Nomingni qaro degan — paxtaginam, senmisan,  
Lo'ppi deya yutganim — laxtaginam, senmisan,  
Avaxtada bosh urgan taxtaginam, senmisan?!  
Faqatgina xalq yashar, faqatgina qolur xalq.

O'zbekning peshonasin po'latdan yaratmishdir,  
Yumushini malomat, zahmatdan yaratmishdir,  
Bir so'z bilan aytganda — mehnatdan yaratmishdir,  
Faqatgina xalq yashar, faqatgina qolur xalq.

Tinglasang tunganmaslik afsonasi bor bu el,  
Sarkardasi, shoiri, taronasi bor bu el,  
Ming oqilga arzirlik devonasi bor bu el,  
Faqatgina xalq yashar, faqatgina qolur xalq.

Farishta emasdirmiz, ushbu gapim sir emas,  
Har uchragan eshon-u, har sallalik pir emas,  
Lekin dasturxon haqqi, ko'nglimiz hech kir emas,  
Faqatgina xalq yashar, faqatgina qolur xalq.

Janggozlarda jon bergan bobolarni unutmang,  
Moshog terib non bergan momolarni unutmang.  
E'tiqod, imon bergan duolarni unutmang,  
Faqatgina xalq yashar, faqatgina qolur xalq.

Amalparast, lo'ttiboz bo'lmagan qachon axir,  
Sak bir nima yemasa og'zi bo'larmish taxir,  
Bizning barchamiz shohmiz, bizning barchamiz faqir!  
Faqatgina xalq yashar, faqatgina qolur xalq.

O'tganlarni yod etmoq qolgandir shariatdan,  
Inson sharafi yuksak millat-u tariqatdan,  
O'zbekka bul fazilat yuqumishdir tabiatdan,  
Faqatgina xalq yashar, faqatgina qolur xalq.

Olimmi yo paxtakor, kim bo'lmasin — odamdir,  
Ya'ni Alloh bandasi — har biri bir olamdird,  
O'zbekim o'z validam, o'zbekim o'z otamdir,  
Faqatgina xalq yashar, faqatgina qolur xalq.

Ayon gapki, adolat elning ko'z, qoshi bo'lur.  
Urgani un oshi-yu, so'ksa so'k oshi bo'lur,  
Yurt og'irin tortolgan asli yurt boshi bo'lur,  
Faqatgina xalq yashar, faqatgina qolur xalq.

Kattakon yo'lga chiqding, yo'ldoshing bo'lay, xalqim,  
Farzandingman, qo'llaysan, qo'ldoshing bo'lay, xalqim.  
Hasrating ko'p dilingda, dildoshing bo'lay, xalqim,  
Faqatgina xalq yashar, faqatgina qolur xalq.



## BAYRAM

Toki tirik ekan dunyoda odam,  
Unga hamroh erur goh shodlik, goh g'am.  
Ertang ne bo'lishin bilmasman, ammo  
Tinch o'tgan har kuning, albatta, bayram.

Yordan ayri kechsa—har lahza abas,  
Vafosiz do'stini ham do'stim dema, bas.  
Keng jahon sen uchun bo'lmasdan qafas,  
Tinc ho'tgan har kuning, albatta, bayram.

Demagil, chopqirdir omadim manim,  
Hech qachon belanmas loylarga sha'nim.  
Ustingdan yozmasdan bir nomard g'anim,  
Tinch o'tgan har kuning, albatta, bayram.

Oddiy narsalarni ko'zga ilmay goh,  
Olis yulduzlar deb chekamiz oh-voh.  
Boshingni qotirmay yoningdagi moh,  
Tinch o'tgan har kuning, albatta, bayram.

Olamda bazm-u aysh uchrar alomat,  
Bemorga bormikan undan halovat.  
Mayliga yovg'on ich, lekin salomat,  
Tinch o'tgan har kuning, albatta, bayram.

Eng avval tinch bo'lsin ko'ksingda vijdon,  
Tinch bo'lsin el-u yurt, Vatan jonajon.  
G'uborga chulg'anmay shu yer-u osmon,  
Tinch o'tgan har kuning, albatta, bayram.

Yashashning shavqin sur sira tolmasdan,  
She'ring yoz, paysalga endi solmasdan.  
Faqat qartayganda sevib qolmasdan,  
Tinch o'tgan har kuning, albatta, bayram.

## SHARQ HIKMATI

Taxtga talpinasan g'azabga to'lib,  
Chiqarmoq bo'lasan olamshumul chang.  
Har oyna ko'targan Iskandar bo'lib,  
Temur sanalmagay har qandayin lang.

O'zbekning davlati qaror topgan chog',  
Maymunjon terardi qaysi bir nasling.  
O'z yurtning sha'niga tushirmagin dog',  
Axir odam erur sening ham asling.

Har kim shoh bo'lay der ilojin topsa,  
Uringay, tarixga kelsa ham malol.  
Falak chappa ketib, omading chopsa,  
Sharqning bir hikmating yaxshi anglab ol:

Podshoh deganlari kun-u tun bedor,  
Xalqining mehribon doyasi bo'lur.  
Bejiz aytmaganlar, asl hukmdor  
Xudoning yerdagi soyasi bo'lur.



### *Savol va topshiriqlar*

SHARQ HIKMATI SHARQ HIKMATI SHARQ HIKMATI SHARQ HIKMATI SHARQ HIKMATI SHARQ HIKMATI SHARQ HIKMATI SHARQ HIKMATI SHARQ HIKMATI SHARQ HIKMATI

1. Abdulla Oripovning mustaqillik yillari ijodi haqidagi fikrlaringizni ayting.
2. Adib she'riyatining asosiy g'oyasi nimada deb o'ylaysiz?
3. Adib she'rlaridagi lirik qahramon haqidagi tasavvurlaringizni gapiring.



---

***Shavkat Rahmon***  
***(1950—1996)***

---

*Shavkat Rahmon hayoti va ijodiy faoliyati yuzasidan o'rt  
umumta'lim dasturi bo'yicha mustahkamlovchi savol va  
topshiriqlar*

1. Shavkat Rahmonning qanday she'riy to'plamlarini bilasiz?
2. Shoirning Ispaniya safari haqidagi ma'lumotlarini eslang.

XX asr o'zbek she'riyatining zabardast vakili Shavkat Rahmon 1950- yilning 12- sentabrida O'sh shahrida tug'ulgan. Uning ota-onasi savdo ishlari bilan shug'ullanganlar. Ular haftalab uyda bo'lmas, uying barcha yumushlari Shavkatning zimmasida bo'lardi. Bolalikdan g'ayratli va baquvvat bo'lgan Shavkat 13 yoshida ta'til chog'i g'isht zavodiga ishga kiradi.

1966- yil o'rtta maktabni tugatib, Toshkent Davlat universitetining filologiya fakultetiga hujjat topshiradi. Biroq ketma-ket ikki yil tanlovdan o'tolmaydi. Shundan so'ng O'sh viloyati gazetasida harf teruvchi, keyinchalik musahhah bo'lib ishlay boshladi. Bu yerda Shavkat taniqli shoir, samimiy inson Tursunboy Adashboyev nazariga tushib qoladi va she'rlari gazetada ketma-ket bosila boshladi. So'ng Moskvadagi Adabiyot institutiga tanlov asosida qabul qilinadi.

1975- yilda Shavkat Rahmon Moskvadagi tahsilini tamomlab, Toshkentga keldi. Bir qator nashiriyotlarda muharrilik qilish bilan birga qizg'in ijod bilan mashg'ul bo'ldi.

1996- yilda shoirga „O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi“ unvoni berildi.

Shavkat Rahmon qisqa umr kechirdi. U 1996- yilda uzoq davom etgan og'ir kasallikdan so'ng vafot etdi.

## Hayoti va ijod yo'li

- 1950- y. — O'sh shahrida tug'ilgan.  
1966- y. — O'rta maktabni bitiradi.  
1973- y. — Moskvada tahsilni tugatib Toshkentga qaytdi.  
1978- y. — „Rangin lahzalar“.  
1981- y. — „Yurak qirralari“.  
1983- y. — „Ochiq kunlar“.  
1984- y. — „Gullayotgan tosh“.  
1986- y. — „Uyg'oq tog'lar“ she'riy to'plami va Ispaniyaga ijodiy safar.  
1987- y. — „Hulvo“ she'riy kitobi chop etildi.  
1989- y. — „Lorka“, saylanmaning ispanchadan o'zbekchaga tarjimasi nashr etildi.  
1996- y. — Shoirga „O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi“ unvoni berildi va shu yili vafot etdi.  
1997- y. — „Saylanma“.

## SHE'RLAR

### TITROQ SEZDINGMI HECH...

Titroq sezdingmi hech,  
bir zum lahzada—  
xatar-la yuzma-yuz turgan chog'ingda?!  
Tubsiz jar labida oniy larzadan  
titrab kelganmidi joning og'zingga?!  
Nopoklar poklarga qilganda tuhmat,  
titramay aytdingmi keskir so'zingni.  
Bolangning yodiga ne qilding tuhfa,  
asrab qololdingmi o'zing o'zingni?!

Qaltis lahzalar bor—  
dosh bermak mushkul,  
biroq chidaganlar tirik xotirda,  
goho elitarlar — nafasi mushkin,  
goho ko'rinarlar ko'zingga tig'day.  
Osmondan kelganday tuban odamlar—  
biri chinor kesar,  
biri kesar til.

Butun qilmishlarin qarasang jamlab,  
namoyon bo'ladi surati qotil.  
Qaltis lahzalar yo'q,  
qaltis umr bor,  
mo'r-malax nom aro yolg'iz noming bor.  
Lahzada tuproqqa aylanib tursang,  
demakki, ichingda bitta xoin bor.  
O'ldir,  
ichingdagi xoinni o'ldir,  
valida ko'ziga boqishdan avval,  
ma'shuqa qoynida yotishdan avval,  
zulmat ummoniga botishdan avval.  
Yo'ldir bu, nafsning botqog'i emas,  
qilichning damiday chaqnagan yo'ldir.  
Bu yo'lda  
yuzingni burishdan avval,  
o'ldir,  
ichingdagi xoinni o'ldir.

### HALI BIROR ISHNI...

Hali biror ishni uddalamadim,  
hali hech kimsani qilmadim rozi,  
behuda o'tibdi go'zal umrimning  
Qanchalab chiroyli bahori, yozi.  
Farog'at borligin unutib qo'ydim,  
bag'rimga chaqinlar tegdi daf'atan,  
Sendan-da ulug'roq narsa yo'qligin  
Sochim oqarganda angladim, Vatan!  
Buncha kech angladim.  
Nega buncha kech...  
Anglasam loaqal o'ttiz yil avval,  
loaqal tug'ilmay turib anglasam...  
Ko'rgan bo'larmidim seni mukammal.  
Hali asl Vatan bo'lmog'ing uchun  
ovozi toshlarni yorar kuychilar,  
qanchalar sehrigar shoirlar kerak,  
qancha bilim kerak,  
qancha kuch-chidam.

Umrim ko'chkilarday jimjit, shiddatli,  
butkul tinmoq uchun bir kun bemalol  
faqat yaxshi bo'lmoq judayam kamdir,  
juda kamlik qilar yashamoq halol.  
Naqadar kechikib angladim seni,  
chaqinlar yo'q qilsa mani daf'atan,  
ayt, qandoq chidayman bunday xo'rlikka,  
ayt, qandoq yotaman qa'ringda, Vatan!

### Agar...

Tuhmatdan yiqilsa  
birorta do'stim,  
men-chi xilvatlarda berkinib yotsam.  
Bu ham yetmaganday ancha vaqt o'tib,  
poklikdan so'ylasam,  
xotira sotsam.  
Yo'q. bo'lmas,  
yashardim boshimni egib,  
kezardim umrbod yurtma-yurt oshib.  
Odamzod ko'ziga qarolmasdan tik,  
ko'ksimga osilgan bo'lardi boshim.  
Yo'q. yo'q, yo'q...  
Albatta birga bo'lardim  
tamug' malaylari ishga tushgan chog'.  
Do'stim-la yonma-yon turib o'lardim  
ehtimol, o'lardim undan oldinroq.



### Savol va topshiriqlar

1. Shoir ijodidagi yetakchi g'oya nimalardan iborat?
2. Shoir ijodidagi o'ziga xosliklar haqida gapiring.
3. Shoirning Ispaniya haqidagi taassurotlari haqida nimalar deya olasiz?



---

**Tohir Malik**  
(1946- yilda tugʻilgan)

---

Oʻzbek adabiyotida Tohir Malik oʻzining „Somon yoʻli elchilari“, „Zaharli gʻubor“, „Chorrahada qolgan odamlar“, „Falak“, „Charxpalak“, „Bir koʻcha, bir kecha“, „Soʻnggi oʻq“, „Shaytanat“ singari asarlari bilan tanilgan va kitobxonlarning yozuvchisiga aylangan ijodkordir.

Bir qator hukumat nishonlari va mukofotlari bilan taqdirlangan. Oʻzbekiston Xalq yozuvchisi Tohir Malik 1946- yil dekabrda ziyoli oilada dunyoga keldi. Barcha tengdoshlari singari u ham urushdan keyingi turmush qiyinchiliklarini boshdan kechirdi.

Taniqli oʻzbek adibi va tarjimoni Mirzakalon Ismoiliy Tohir Malikning togʻasi boʻlib, uni 1949- yilda „xalq dushmani“ sifatida qamoqqa olishdi.

„Kechasi uygʻonib ketib qaragam, ayam rahmatli qora chiroq nurida doʻppi tikib oʻtiribdilar. Qoʻllari ishda-yu, koʻzlarida yosh. „Nega yigʻlayapsiz?“ — deb soʻradim, javob bermadilar. Sababini oradan yillar oʻtib bildim. Togʻamning „xalq dushmani“ emasligi maʼlum boʻlib, „oqlanib“ chiqqanida 2- sinifda oʻqirdim. Dastlabki mashqlarim oʻshanda boshlangan, ammo yozganlarimni talabchan togʻamga koʻrsatishdan choʻchir edim“, — deb eslaydi adib.

Dastlabki hikoyasi 1960-yilda „Gulxan“ jurnalida chop etildi. 1963-yilda Tohir Malik Toshkent Davlat universitetining kechki jurnalistika boʻlimiga oʻqishga kirib, kunduzi qurilishda duradgor, gʻisht tashuvchi boʻlib ishlay boshladi. U ijodga doir mashqlarini davom ettirar ekan, ustoz togʻaning: „Oʻzing bil-magan narsani yozma“, „Boshqalar yurgan yoʻldan yurma, oʻz yoʻlingni top“ degan ikki oʻgitiga hamisha amal qildi. Shu bois Tohir Malik oʻzbek adabiyotida kam eʼtibor berilgan fantastika janriga qoʻl urdi va bir qator asarlari bilan kitobxonlar eʼtiborini qozondi. Uning „Falak“ qissasi rus tiliga tarjima qilinib, Moskvada va boshqa respublikalarda chop etildi.

Tohir Malik „Tong yulduzi“ gazetasi, O‘zteleradiyo, „Guliston“ jurnali, „G‘afur G‘ulom“, „Cho‘lpon“ nashriyotlari, Yozuvchilar uyushmasi, „Yoshlik“, „Sharq yulduzi“ jurnallarida faoliyatini davom ettirdi. U qayerda ishlamasin, hayotni, insonlarni, ularning tabiatini yaqindan o‘rgandi. Yozuvchi asarlarini o‘qir ekansiz, ularda tasvirlangan eng yomon odamlardan ham ba‘zan nafratlanmaysiz, ularga achinasiz. Nega shunday? Chunki yozuvchi insonlarni, ularning ichki kechinmalari, ruhiyatini sinchiklab o‘rganadi va kitobxonni ham mana shu ruhiy olamga olib kiradi, uni shu holatga solgan sababni tahlil qilishga va xulosa chiqarishga yo‘naltiradi.

„Alvido, bolalik“ asari Tohir Malik ijodida alohida o‘rin tutadi. Asardagi asosiy mavzu—hech kim jinoyatchi bo‘lib tug‘ilmaydi, bolani atrof-muhit, jamiyatdagi turli illatlar jinoyatchiga aylantiradi. Bu haqida adibning so‘zi shunday edi: „Men o‘smirlar va yoshlarning jinoyat ko‘chasiga kirib qolayotganlariga befarq qarab turolmayman. Bolalar axloq tuzatish koloniyalariga har borganimda yuragim eziladi. Ozod, erkin yashab, hunar o‘rganadigan bolalar bu yerga qanday tushib qoldilar?! Nahot jinoyat olami ularga jozibali ko‘rinsa?! Man jinoyat olamini „Shaytanat“, ya‘ni shaytonlar yetovidagi zulmkorlar deb atab, „ehtiyot bo‘ling, jigarlarim, bu ko‘chaga yaqin yo‘lamang. Boshi berk bu ko‘chani adog‘ida faqatgina azob topasiz,“ — demoq niyatida yozdim. Yozganlarimni ogohlantirish deb qabul qilishingizni istar edim“.

## „ALVIDO, BOLALIK“ asaridan parcha

### KECHA QAYERDA EDIK

*yoxud har ehtimolga qarshi topilgan bahonalar haqida hikoya*

Adabiyot o‘qituvchisi jurnalni stol ustiga qo‘ydi-da, dumaloq ko‘zoynagini burni uchiga qo‘ndirib, shifga razm soldi.

— Demak, gap bunday: o‘ttizinchi yillar adabiyotini o‘rganishni kechiktiramiz. RayONO dan topshiriq bo‘ldi, bugun siz bizga „Baxtli bolalik“ degan mavzuda erkin insho yozib berasiz.

— Hamma yozadimi?

— Bu nima deganlari bo‘ldi, Zoirali bo‘tam, sizga alohida taklif lozimmi, yo‘?



— Inshoni erkin deyapsiz-ku?

— Nomi shunaqa, bo'tam. Qani, qog'oz olib, ish boshlanglar. Vaqt ketmasin.

— Samad aka, biz bolalikdan o'tdik-ku, nimasini yozamiz?

— Hali o'tib bo'lganingizcha yo'q, Zoirali bo'tam, endi o'tyapsiz. Qilayotgan ishingizga o'zingiz to'g'ri baho bera olgan oningizdan boshlab bolaligingiz bilan vidolashasiz. Ha, ha, aynan vidolashasiz. Bolalik qaytmas bo'lib ketadi. Bolalik sizning xotirangizga ko'chadi. Vaqti kelib, bu xotira vijdon azo-biga soladi, vaqti kelib, nimalarnidir qo'msashga majbur qiladi. Xullas, sizni har ko'ygga soladi. U bilan vidolashishga oshiqmang. Bolalik — hayotning asl pallasini, undan ko'proq bahramand bo'lishga intiling. Asaldan keyin turli achchiqlarga duch kelasiz.

— Samad aka, shularni yozsak-chi? „Baxtli bolalik“ emas, „Alvido, bolalik“ desak-chi?

— Bo'tam, ko'p aqlli bolasiz-ku, biroq ayrim vaqtlarda kaltafahmlik qilib qo'yasiz. Tushuning, „Baxtli bolalik“ menga emas, RayON Oga kerak. Shu bois men bilan tortishmang. Ishni boshlang.

Bolalarni sizlab, yumshoq gapiruvchi bu odam ko'pincha o'z ishini o'zi qiyinlashtirardi. Bolalar uni bo'shang deb bilib, baravar tortishishdan tap tortishmasdi. Ba'zan butun dars tortishuv bilan o'tardi. Kitob o'qishni jonidan ham yaxshi ko'radigan Zoir ko'pincha bahs boshlab qolardi.

Samad aka bugungi bahsga barham berish uchun deraza oldiga bordi-da, qo'lini orqasiga qilib, hovliga tikilib oldi.

Sinfda shivir-shivir, qog'ozlar shitiri boshlandi. Asror daftar orasidan ikki varaq yirtib olib „Baxtli bolalik“ deb yozdi-da, o'ygga toldi:

„Zoir to'g'ri aytdi. Insho erkin bo'lganidan keyin hammani majbur qilishning nima keragi bor? Hamma o'zini baxtli deb hisoblaydimi? Ana, Turob, akasining jasadini Afg'onistondan olib kelishdi. Onasi bunga chidamay jinni bo'lib qoldi. Hozir jinnixonada. Yetti bola otasining o'ziga qolgan. „Men baxtliman...“ deb boshlaydimi inshosini. Manzura-chi? Otasi ketib qolgan. Onasi ikkovi turadi. U nima deb yozadi? Otaullaga ham qiyin. „Men baxtliman, chunki otamning puli ko'p“ deya olmaydi. Aslida-ku, ular pulning ko'pligini baxt deb bilishadi. Lekin ochiq ayta olishmaydi. Pul dengiz bo'lib mavjlanadi ularning uyida. Biroq o'zlari xohlaganicha ishlata olishmaydi. Bu baxtmi yo

baxtsizlik? Har holda nima deb yozarkin u boyvachcha? Bunaqa gaplarga Zoir usta, qotirib tashlaydi. Umuman, baxtli bola u. Ota-onasi injener, uyida o'zi-yu singlisi. Gazetaga xabar yozadi. Nima istasa shunga erishadi. Ergash-chi? Otasi aravakash. Dars tugashi bilan somonbozorga yuguradi. Shuni yozadimi? Agar Dilfuzalarga ham shu mavzu berilsa u nimani yozadi? Ikki oyog'i qirqib tashlangan otasining injiqliklari. onasiz qolishning naqadar baxtsizlik ekanini bayon qiladimi? Xo'sh, o'zim-chi? O'zim nimani yozay, kechagi voqeanimi yo otam bilan to'yma-to'y yurishimnimi? Otamning o'yinchi xotinga suykalishinimi? Ming la'nat!" Asror xayoliga kelgan fikrdan titrab, o'zini tutolmay qoldi. Ruchkani stol ustiga taq etib urdi. O'ziga tikilgan nigohlarni tuyib, boshini egdi. Ich-ichida nimadir qizib, ko'kragini yondirdi. U sinfda o'tira olmasligini sezib, shart o'rnidan turdi-da, chiqib ketdi.

Eshikni yopa turib, „Boss kasal bo'pqopti“ degan ovozni eshitdi.

Asror hech narsaga qaramay, ko'chaga chiqdi. Kinoteatr qarshisidan o'ta turib yana o'sha joylariga qaradi. Ne ko'z bilan ko'rsinki, Qamariddin sigaret tutatib o'tirardi. Yonida ikki yugurdagi. Qamariddin Asrori ko'rib imladi.

— Kecha qayerda eding? — dedi u Asror yetib kelgach.

— Kinodaydim.

— Vo, professor bu, ko'rdilaringmi? Bashkasi ishlaydi. Sen kecha meni ko'rganing yo'q, demak. Qayoqdan ham ko'rarding? Kecha men yo'lda edim. Andijondan keldim bugun ertalab. Poyezddan endi tushib turibman. Mana biletim, — u shunday deb ko'krak cho'ntagidan poyezd biletini olib ko'rsatdi.

„Demak, ertalab vokzalga borgan, biletini o'sha yerda kimdandir so'rab olgan, yo o'margan. Ishi pishiq buning“, deb o'yladi Asror.

— Demak, gap bunday bratishka, hamma qayerdaligini yaxshi biladi. Kecha hech qanday voqea yuz bermadi. Bugun sabanto'y.

— Mening vaqtim yo'q.

— O'zing bilasan. Bilib qo'y: bashkangni yo'qotma. O'zingga qiyin. Meni hech qanday qarmoq ilintira olmaydi. Sen maktabda professor bo'lsang, men u yoqda... — Qamariddin panjalarini panjara qilib ko'rsatdi, — akademik bo'lib kelganman. Omon qolaman, desang, mendan uzoqlashma.

— Salimning yarasini bog'ladingmi?

— Salimning ishi besh, undan xavotir olma. Sen faqat qo‘rqmasang bas, bu yog‘i „okey“ bo‘ladi.

Qamariddinning gapidan keyin Asror o‘ylanib qoldi. „Hozir bu yerdan ketib, qayoqqa ham borardim. Uyga qaytsam, hisob berishim kerak. Bir o‘zim shaharda sanqib yuramanmi?“ Shu fikrga kelib, Qamariddinning yonidan joy oldi.

Asror o‘tirishi bilan Qamariddin yonidagi ikki bolani „sigaret olib kellaring“, deb turg‘izib yubordi.

— Darsdan qochdingmi? — dedi Qamariddin, Asrorga diqqat bilan tikilib.

— Qochmadim, chiqib ketdim. — Asror maktabdagi voqeani aytgisi kelmadi.

— Professor, basharangda rang qolmabdi. Shunchalik qo‘rqyapsanmi? Sen qo‘rqma. O‘zim o‘tirsam ham seni tortmayman. Bolalarga ham tayinlayman. Sen yo‘qsan oramizda. Men baribir qamalib ketaman. Bugun bo‘lmasa, ertaga. Senga o‘n besh yil vaqt beraman. Agar o‘n besh yilda professor bo‘lolmasang, o‘g‘rilarga qo‘shib yuboraman.

Qamariddin shunday deb uning yelkasiga sekin mushtladi. Asror uni hazillashyapti, deb o‘yladi. Yo‘q, Qamariddinning ko‘zida quvlik yo‘q edi. Qarashlari jiddiy, hatto o‘ychan edi.

— O‘ninchini bitirib, uyingdan chiqib ket. Gapimga xafa bo‘lma. Otang seni o‘qitgisi kelmayapti. Seni men o‘qitaman. Pulim bor. O‘ninchini bitirgan kuning beraman. Ungacha qamalib ketsam, xat bilan ma‘lum qilaman. Kitobni falon joydan, falon odamdan olib yubor, desam, pulni tushunaver. O‘zing olib ishlatasan. O‘qimay yurib pulni yeb yuborsang... o‘ldiraman.

Qamariddin keyingi gapni sovuqqina qilib aytdi. Asrorning eti seskandi. Qamariddin gapni qanday sovuqqonlik bilan aytsa, shunday sovuqqonlik bilan amalga oshirishi mumkin edi. Asror bunga kecha guvoh bo‘ldi. Qamariddin talato‘pda shoshib ham qolmadi, hayajonlanmadi ham. O‘lgan odamning cho‘ntagini kavlab pulini oldi-da, suv bo‘yiga sudrab keldi. Keyin to‘rt kishi ko‘tarib anhorga otishdi. Qamariddin shunchaki tosh irg‘itgandek otdi. Keyin „jo‘nalaring, bugun biz ko‘rishmadik“, dedi. Ovozida zarracha hayajon, qo‘rquv sezilmadi. U kunda, kunora mol so‘yib yuradigan qassoblardek xotirjam edi.

Asror uchun Qamariddinning bu himmati yangilik emas. Qamariddin ko‘pdan beri „Seni o‘qitaman, professor bo‘lasan“, deb yurardi. Lekin Asror buni hazil deb tushunardi. Asror

Qamariddinni avvaliga shunchaki mayda yo‘lto‘sar, kissavur deb o‘ylagan edi. Ayniqsa, uni dastlab chaqirib pul talab qilganida shu fikrda edi. Keyin qo‘rquv tufayli unga yaqinlashib qolgach, fikri o‘zgara boshladi. Qamariddin yo‘lto‘sarlik qilmas edi. Ayniqsa, yosh bolalarga tegmas edi. Yonidagi bolalar Qamariddin yo‘q paytdagina bu ishga qo‘l urishga jur‘at etishardi. Qizig‘i shuki, Qamariddin yosh bolalarga tegishga yo‘l qo‘ymasdi, ammo biron bir bolaning bu ishga qo‘l urganini bilgach, uni jazolamasdi ham. Asror uning mana shu jumboqli fe‘lidan ajablanardi.

Qamariddinning yonidan sira pul arimasdi. Bolalarni hami-sha mehmon qilib yurardi. Uning vujudida ham mehr, ham vahshiylik yashiringan edi. Asror qachon mehr, qachon vahshiylik bosh ko‘tarishini bilmas edi. Mana hozir Qamariddin mehr hukmiga bo‘ysunib o‘tiribdi. U bekordan bekorga gapirmaydi. Aytganini qiladi. Pul beraman deydimi, beradi. Uraman, desa — uradi. O‘ldiraman, desa — o‘ldiradi, tamom!

Asror ham, boshqa bolalar ham Qamariddinning armonini bilishmaydi. Qamariddinning dardi ichida. Faqat bir marta, kayf qilib o‘tirib, Asrorning bo‘ynidan ushlab, peshonasini peshonasiga bosib xo‘rsingan: „Mening ham o‘qigim kelardi, student bo‘lib yurgim kelardi. Olim bo‘lib, oq „Volga“larda kerilib yurgim keladi.“ — degan edi. Ana shunda Asror uning qalbida katta dard, alam borligini sezgan edi.

Hozir Qamariddinning o‘sha xo‘rsinib aytgan gaplarini esladi. „Demak, o‘zi erisholmagan darajani menga in‘om etmoqchi“, degan to‘xtamga keldi.

— Senga bir maslahat aytay: anavi marjaga uylan, yaxshi ko‘rmasang ham uylan. Uning yuragi yarimta. Uylangin-u, ammo burningdan ip o‘tkazib olishiga yo‘l qo‘yma.

Qamariddin „marja“ deb Dilfuzani nazarda tutgan edi.

— Uni... yaxshi ko‘rmayman, bilasan-ku...

Ha, Qamariddin biladi. Sochi kalta qirqilgan, durkun bu qiz bolalar uyidan qaytib, shu maktabga qatnay boshlagach, uning atrofida o‘ralashadiganlar ko‘payib qoldi. Otasi u ahvolda, onasi yo‘q, deb unga tinchlik bermay qo‘yishdi. Bir kuni ikkitasi qizning yo‘lini to‘sib xiralik qilayotganida Asror kelib o‘rtaga tushdi. Ikki bola uradigan bo‘lsa, Asror bas kelolmas edi. Lekin bolalar Asrorning Qamariddin degan homiysi borligini bilishardi. Shu-shu Asror Dilfuza bilan maktabga birga kelib-ketib yurib, qizni bu balolardan qutqardi.

Dilfuzaning ko'ngli chinakam yarimta edi. Uyda dardini eshitadigan dardkashi yo'q edi. Maktabda ham, ko'chada ham yo'q edi bunday dardkash. Shundanmi, bora-bora Asror uning ko'ziga avliyo bo'lib ko'rina boshladi. Dardini ham, hasratini ham unga aytadigan bo'ldi. Dilfuza yaxshi kiyinib yuradigan sinfdoshlariga havas qilardi. Ammo otasining nafaqasi tirikchilikka arang yetardi. Amakilarining topish-tutishlari yaxshi bo'lgani bilan qarashmas edi. Asror bundan xabar topib, to'yda otasidan yashirib qolgan pullarni Dilfuzaga sarf eta boshladi. Avval chiroyli sumka olib berdi. Keyin tufli... Dilfuza Asrori mana shu mehribonliklari evaziga yaxshi ko'rib qoldi. U Asrorning rahmdilligi tufayligina shunday qilayotganini tushunib yetmagan edi. Buni Qamariddingina bilardi. Bolalar uyida o'sgani uchun qiz uning ham himoyasida edi. Bir kuni Shomil Asror yo'g'ida Dilfuzaga tegajog'lik qilganida Qamariddindan ko'radiganini ko'rgan edi. „O'z og'ayningga nomardlik qilishni o'rgansalaring kallalaringni olaman“, deb do'q urgach, Dilfuza guruhda erka singilga aylandi.

— Ma, marjangga ber! — Qamariddin cho'ntagidan bitta yuztalikni olib, Asroga uzatdi.

— Olmaydi, kechagi odamnikimi?

— Ishing bo'lmasin, beraver, o'zirniki de. Otasiga yangi arava olish kerak, deyayotuvding-ku?

— Sen xuddi bir yoqqa ketadigan odamga o'xshab gapiryapsan, — dedi Asror pulni olib, cho'ntagiga solar ekan.

— Ba'zi gaplarni vaqtida aytib qo'yish kerak. Ketishga hech qayoqqa ketmayman. O'zi safardan bugun keldim-ku? — Qamariddin shunday deb ishshaydi. Endi u tamom boshqa odamga aylandi. Undagi mehr qayoqqadir yashirindi. Asrorning ko'z oldiga uning kechagi holati — o'likning cho'ntaklarini kavlashi keldi.

— Qamar, sen nimaga o'likning pulini olding? — Asror shunday deb uning g'ilay ko'zlariga tikildi. Bu ko'zlardan biror ma'no uqmoqchi bo'ldi. Qamariddin esa unga javoban yana xunuk ishshaydi:

— Pul — xalq mulki, u suvda chirimasligi kerak.

Shu javob kifoya edi. Asror nafasini yutdi. Bu orada ikki yugurdak sigaret keltirdi. Asror Qamariddinning maqsadini shunda bildi: Asror bilan guvohlarsiz gaplashmoqchi ekan.

Qamariddin „baribir qamalib ketaman“ deb to'g'ri aytgan

edi. Garchi kechagi voqeadan qutulib qolish chorasini ko'rib qo'yan bo'lsa ham, ertaga yo keyingi oydami yuz berajak voqeadaga qo'lga tushishiga amin edi. Qadimgi yunonlar odamni hayot ummonidagi qayiqqa, taqdiri esa shu qayiq yelkanlariga urilib yuruvchi shamolga qiyos etgan ekanlar. Qamariddinning kemasi adog'i ufqqa tutash bepoyon dengizda emas, balki atrofi qoyalalar bilan o'ralgan ko'rfazda ekanini biladi. U o'zi istagan kengliklarga chiqib ketolmaydi. Yo'q, agar astoydil istasa, chiqib ketishi ham mumkin. Lekin bunga o'zida ishonch yo'q. O'zini-o'zi shu ko'rfazga moslagan, taqdir shamoli turib, qoyalarga urilishi tayin ekaniga ishontirgan. Ayni choqda, atrofidagi odamlarga ishonmay qo'yan. Ayniqsa, kayf qilganida odamlar uning ko'ziga yomon bo'lib ko'rinaradi. „Eh, siz, to'yanlar!..“ deb g'ijinaradi.

Nima uchun bunday deyayotganini bolalar bilishmaydi, tushunishmaydi. Bilish uchun, Qamariddin bo'lib tug'ilish, Qamariddin bo'lib yashash, u totgan zahar-zaqqumlardan totish kerak.

Qamariddin otasi kimligini haligacha bilmaydi. Onasini uchinchi sinfga borayotganida ilk bor ko'rgan. Bor gapni keyinroq buvisi aytgan. „Tug'ilganingni bilib, xursand bo'ldim. Onang chiqadigan kuni guldasta ko'tarib borsam, bir o'zi kelyapti. Maqsadini tushundim. U yosh edi. Umrini badnom qilgisi kelmagan. Turmush qurib, yaxshi bo'lib ketar, devdim. Seni menga berishmadi. Haqqim yo'q ekan. Lekin ismingni men qo'yanman: oydek yuzi yorug' bo'lib yursin, deb Qamariddin qo'yanman, bolam...“ Qamariddin buvisining nima uchun haqqi yo'qligini ancha keyin, uning o'limidan keyin bildi. Avvalo u buvi emas, mutlaqo begona— Qamariddinning onasi unikida ijarada turib, ona-bola tutinishgan ekan. Ikkinchidan, bu ayol hali uncha qari bo'lmasa ham, sihati yomonligi uchun pensiyaga chiqqan ekan. Qamariddin tug'ruqxonada ko'z ochib, bolalar uyida tetapoya bo'ldi, bolalar uyida esini tanidi. Ota-ona mehri, kindik qoni to'kilgan joy, degan tushunchalar unga begona edi.

Qamariddin notanish odamlar kelib bolalarni olib ketishlarini bilgach, qandaydir umid bilan kimningdir kelishini, boshini silashini, mahkam quchoqlab o'pishini intiq kutardi. Odamlar kelishardi, ammo uni olib ketishmas edi. G'ilay bo'lgani, ayiqpolvonday xunuk yurishini yoqtirmaymi, uni hech kim

chaqirmas, boshini silamas, mahkam quchoqlamas, o'pmas edi. U faqat buvisidan umid qilardi. Ammo buvisi nima uchundir uni olib ketmas edi.

Ota-onasi kelishidan umidlari uzilganda bolalar to'planib olib afsonalar to'qishardi.

— Mening dadam bilan oyim kosmonavt bo'lishgan. Quyoshgacha uchib borib, qaytib kelishayotganida benzinlari tamom bo'lib qolib, portlab ketishgan, uyda rasmlari bor, — deydi uyi bor-yo'qligini aniq bilmaydigan do'mboq qizcha. Qamariddin u bilan o'ynashni yaxshi ko'rardi. Hozir, yillar o'tgach, uning ismini unutgan. Hamisha ota-onam kosmonavt edi, deyavergach, kattaroq bolalar uni Tereshkova, deb chaqiradigan bo'lishgan edi.

Bu afsonalarning yolg'on ekanini hamma bilardi, lekin hech kim yolg'on deb masxaralamasdi. Shundanmi, ayrim bolalar o'zlari to'qigan afsonaga o'zlari ishonib qolishardi. Qamariddin ham otasining uchuvchi, onasining harbiy vrach ekaniga, ular urushning oxirgi kuni Berlinda halok bo'lishganiga ishonib qolayozgan edi. Sanashni o'rganganidan keyingina o'zining urushdan yigirma yil o'tgach tug'ilganini bilib qoldi. Boshqa afsona to'qishga to'g'ri keldi: ota-onasi Toshkentda yer qimirlaganda odamlarni qutqarayotib halok bo'lishgan. Uchinchi sinfda o'qiyotganida bu afsona ham barham topdi. Aniq eslaydi: bahor edi. Osmonda pag'a-pag'a oppoq bulutlar suzib yurardi. Hovlidagi daraxtlar gullagan palla edi. Uni direktor xonasiga chaqirdilar. Sochi kalta qirqilgan, lablariga qizil, ko'zlariga surma tortilgan oq shim, oq kurtka kiygan chiroyli ayolni ko'rib „kim ekan bu“ degan xayolda unga tikilib qoldi.

— Qamariddin degan azamatimiz shu, — dedi direktor.

Ayol o'rnidan turib, quchoq ochdi.

— O'g'lim, jonim o'g'lim, — deb Qamariddin tomon yurdi.

Qamariddin avvaliga anqayib turdi. Bolalik ongi onasini avval Berlinga, keyinroq Toshkentga dafn etgan edi. Uning tasavvuridagi onasi dastlab fashistlardan ham qo'rqmaydigan qahramon, keyinroq odamlarga kuyunuvchi, mehribon ayol edi. Tasavvuridagi ikki ona ham tasavvuridagi qabrda yotibdi. Bu olif-ta kim bo'ldi? Rostdan onasimi? Bundan olti-yetti yil avval shu voqea sodir bo'lsa, balki Qamariddin o'zini uning bag'riga otardi. Hozir uni nima ushlab turibdi? „Qani, Qamariddin chop, uning

bag'riga, quvon, shodlan, onang keldi!“ deydi bir ovoz. „Qamariddin qochib qol, bu ona emas, yalmog'iz. sendan o'n yil xabar olmagan xotin ona bo'larkanmi?“ deydi ikkinchi ovoz.

Ayol Qamariddinni go'dak fahmlab, xato qilgan edi. Ota-onasiz o'sayotgan bolalarning hayot falsafasi, hayot haqidagi, beimon otalar, bevafo onalar haqidagi tushunchalari ancha barvaqt shakllanadi. Ularning mitti yuraklarida bu beimonlarga, bu bevafolarga nisbatan nafrat ancha ilgari ko'z ochgan edi. Qamariddinni qochishga undagan ikkinchi ovoz ana shu nafrat ovozi edi. U shu ovozga quloq tutdi. Onasi ikkinchi, uchinchi kelganda ham yaqinlashmadi. Buvisi yo'qlab kelganda „aying, endi ko'rinmasin, o'ldiraman“ dedi. Buvisi o'n yashar boladan bunday gap kutmagan edi, qo'rqib ketdi. Ancha nasihat qildi, onasini maqtadi. U o'sha onda bolaning ahdi qat'iy ekanini fahmladi. Shundan so'ng o'zini „ona“ deb tanitgan ayol ikki yilgacha kelmay qo'ydi. Faqat bir marta — buvisi olamdan o'tganda, kelib olib ketdi. U mehribon kampirning o'limi Qamariddinda mehr-shafqat uyg'otar, deb o'ylagan edi. Yo'q, Qamariddin ikki kundan so'ng bolalar uyiga qaytdi.

Buvisidan so'ng bu olam aro Qamariddinning yolg'iz o'zi qolgan edi. O'rtoqlari bilan ham, enagalari bilan ham ishi yo'q edi. U barcha xo'rliklarga oltinchi sinfga qadar chidadi. Sinfda bironing daftarimi, qalamimi yo'qolsa Qamariddindan hadiksirashardi. U kurash to'garagiga qatnashar, o'zidan kattaroqlarga ham bas kelardi. Undan yiqilganlar „davlatning tekni ovqatini yeb quturyapti-da, bu“ deb jig'iga tegishardi.

Qamariddin oltinchi sinfda o'qir edi. O'qishning ikkinchi haftasi edi. Maktab yo'li ikki qavatli kottejlar yonidan o'tardi. Qamariddin bu yerdan o'tayotganda „ana, detdom bolalari“ degan haqoratomuz so'zlarni ko'p eshitgan. Bu safar havorang „Volga“ atrofida uch bola turgan ekan.

— E, haromi tashlandiqlar, bu ko'chadan yurmalar, — dedi ulardan biri. Qamariddin uni tanirdi. Otasi shu „Volga“ning, shu uyning egasi. O'zi sakkizinchida o'qiydi, umrida ovqat yemaganday ozg'in, rangpar bola. Nimasiga oliftagarchilik qiladi, Qamariddin tushunmaydi. Agar Qamariddin yolg'iz bo'lganida bu gapga balki indamasdi. Yonida uchinchi sinfda o'qiydigan to'rt qizaloq bor. Ular balki „haromi“, „tashlandiq“ degan so'zlarning ma'nosiga tushunib yetishmas. Ammo Qamariddin yaxshi biladi



bu soʻzlarni. U ana shu qizaloqlar oldida haqorat uchun oʻch olishga oʻzini majbur deb his etdi. Papkasini yerga qoʻyib, bolaga yaqiniashdi-da, jagʻiga musht tushirdi. Bu bolaga shuning oʻziyoq kifoya qildi. Ikkinchi bola hamla qilgan edi Qamariddin yelkasidan oshirib otdi. Uchinchi bola unga yaqinlashishga jurʼat etolmay, qochib qoldi. Bu orada „Volga“ning egasi chiqdi.

— Oʻzlari boshlashdi, — dedi Qamariddin undan najot kutib. U esa koʻzlari moʻltillab turgan bolaga tarsaki tortib yubordi.

— Haromi, beadab, turqingni koʻrsatma bu yerda, — dedi soʻkinib.

Qamariddin yigʻlab yubordi. Qoʻrquv bilan qarab turgan qizchalar yoniga qaytib, papkasini qoʻliga oldi. U ilojsiz edi, bu odamga kuchi yetmasdi, ammo alamini ham ichiga sigʻdirolmasdi.

— Oʻzing haromisan! — dedi u bor ovozda haqirib. Shundan keyingina bir oz yengil tortganday, alamlari unutilganday boʻldi.

Ertasiga Qamariddinning axloqi maktabda ham, bolalar uyida ham muhokama etildi. Qamariddin uch-toʻrt kungacha azobda yurdi.

„Nima uchun gunohkor emas, begunoh odam jazolanadi? Aybim ota-onam yoʻqligimi, yetimligimmi? Endi hamisha shunday boʻlaveradimi? Nima qilishim kerak? Himoyachim kim mening?“ Qamariddin koʻp oʻyladi. U hayotda bundan battar nohaqliklar ham borligini hali bilmasdi. Uning uchun eng katta nohaqlik — tirik yetimlik. Boshqa nohaqliklar shundan kelib chiqaveradi. Sening himoyaching yoʻq, hech kim senga qayishmaydi, nohaqlikka qarshi oʻzing kurashishing kerak. Oʻzingni oʻzing himoya qil, kurash, yengib chiq. Kimligingni koʻrsat ularga! Agar yengib chiqolmasang, oʻzingni koʻrsatib qoʻya olmasang, oʻlib ketganing ming marta yaxshi! Qamariddin shu qarorga keldi. Aql nuqtayi nazaridan qaralganda bu notoʻgʻri qaror, biroq yaxshilar mehriga muhtoj, qalbi zada bola uchun esa birdan-bir toʻgʻri yoʻl shu edi.

Bir kuni kechki ovqatdan keyin haqoratga guvoh boʻlgan qizlarni, hamisha kalaka ostida yuradigan zaifroq bolalarni toʻpladi-da, kottejlar tomon boshladi. Oʻsha kottej, oʻsha „Volga“, oʻsha bolalar... faqat uchta emas, beshta. Hammasi qiltiriq. Qamariddin gʻazabga minsa beshoviga bas kela oladi.

— Men senga nima deganman? — dedi tunov kuni musht

yegan bola. U sheriklariga orqa qilib gapirgan bo'lsa ham, ovozida hadik bor edi.

— Sendan kechirim so'ragani keldim, — dedi Qamariddin.

— O, detdomda odam tarbiyalaydigan bo'lishibdi,— dedi bola xaxolab kulib.

Qamariddin unga yaqinlashib qo'l uzatdi:

— Kechir.

— Nazimchik, bechorani kechira qol. O'zi shundog'am xudo urib qo'yibdi, — dedi bolalardan biri.

Nozim deganlari „ha, mayli“ deb qo'l berdi. Qamariddin bu nozik panjalarni mahkam qisib edi, bola ingrab, o'tirib qolayozdi.

— Men sendan, haromi, o'sha kuni yaxshilab urmaganim uchun kechirim so'ramoqchiman!

Qamariddin shunday deb uni o'ziga siltab tortib, chalib yubordi. Nozim voy-voylashga ham ulgurmay, o'zini Qamariddinning yelkasida ko'rdi. Nafas o'tmay esa o'rtoqlari ustiga uchib tushdi. Qamariddin duch kelgan bolani ushlab uraverdi. Bu orada Nozimning otasi pijama kiygan ahvolda yugurib chiqdi. Endi Qamariddin undan najot kutib turmadi. Katta toshni olib shaylandi. U odamning vajohati yomon edi. Ayni choqda, Qamariddinning ko'ziga ham hech nima ko'rinmasdi — u toshni moljallab, zarb bilan otdi. U odam o'zini himoya qilishga ulgurmay, boshini changallaganicha o'tirib qoldi. Shunda Qamariddin yugurib kelib uni tepdi. Kap-katta odam kichkina bolaning tepkisidan cho'zildi. Qamariddin bunga ham qanoat qilmay, qo'liga haligi toshni olib, mashinaga otdi. Mashina oynasi chil-chil sindi. Qamariddin ana shundan keyingina qochdi. Bolalar uyiga emas, o'zini duch kelgan ko'chalarga urdi. Tunda vokzalga bordi. Yurib ketayotgan poyezdga osilib chiqdi. Xullas, uni besh kundan keyin Qizil O'rdada tutib, iziga qaytardilar. Endi u o'zi uchun qadrdon bo'lib qolgan bolalar uyiga emas, balki tarbiyasi og'ir bolalarning maxsus maktabiga jo'natildi. Qamariddin atrofi baland devor, simto'siq bilan o'ralgan maxsus maktabga shu zaylda tushdi. Dastlabki qasos uni dastlabki jazo, dastlabki qamoq bilan mukofotladi.

Maxsus maktabda yaxshilik haqida ko'p gaplar eshitdi. Tinglagan nasihatleri to'plansa, katta bir kitob bo'lar. Biroq u nasihatlarni quloqqa ilmadi. Undagi alamzadalik qora buluti har qanday yorug'lik, har qanday nurga to'siq bo'la olardi. Xullas,

yaxshilik nuri uning yuragiga yo'l topmadi, qalbiga sepilgan yaxshilik urug'i yorug'likdan bebahra bo'lgani uchun chiqmadi. Uning ko'z oldidan „Volga“ yonidagi qiltiriq, uning vajohatli otasi ketmas edi. Ular bilan kunda bir urishardi. Ulardan yana qasos olishning ming bir xilini o'ylab topardi. Kunlar, oylar o'tgan sayin shu baland devor ortida erkin yurgan barcha odam o'sha qiltiriq, o'sha vajohatli otaday tuyulaverdi unga. Bir necha kishiga nisbatan bo'lgan g'azabi ortib, butun odamzoddan nafratlana boshladi.

Nafrat o'qiga, eng avvalo, bevafo onasi, so'ng beimon otasi duch bo'lishgan edi. Endi ular haqidagi afsona tumanday tarqalib ketgan, ularning asl basharalari quyosh yorug'ida mana man deb turardi. Maxsus maktabning katta, og'ir jigarrang darvozasi bo'lardi. Uning ro'parasidagi o'rindiqqa o'tirib, Qamariddin xayol surardi: „Hozir qo'limga miltiq berib qo'yishsa-yu, darvozadan otam bilan onam kirib kelsa, shartta otardim. Ana undan keyin o'zimni ham otib yuborishsa mayli, Yo'q, avval sud bo'lishi kerak. Sudda gapirishim kerak. Bolasini tashlab ketgan ota-onaning jazosi shu, deymen. Tirik yetimlar, hammangiz ablah ota-onangizni topib, otib yuboring. Yolg'on gaplar to'qib, ularni yaxshi odam qilib ko'rsatmang bir-biringizga, ayamay otib tashlang, deymen. Tirik yetimlarga miltiq beringlar, deymen! Ana shundan keyin meni otishsa ham mayli.

Qamariddin shunday o'ylagani bilan onasining yoniga qaytishga majbur bo'ldi. To'g'rirog'i, onasi uni garovga olgani sababli maxsus maktabdan barvaqt chiqarishdi. Hunar bilim yurtiga kirishga majbur qilishdi. Uning bundan bo'lak iloji yo'q edi. Qamariddinni oddiy maktablarga qabul qilishmas edi. U yerdagilar bo'sh o'qiydigan, sho'xroq bolalardan qutulish payida yurishadi. Qamariddindaqalarni ko'rishganda dod deganday qilib eshiklarini taqa-taq bekitishadi. Qamariddin avval o'qigan maktabiga ham bordi. Har holda yaxshi o'qirdi, sportda peshqadam edi. Yo'q, bu gaplar unutilganday, qabul qilishmadi. U hunar bilim yurtiga uch kungina qatnadi. Keyin bormay qo'ydi-bilim yurtidagilar uning ketib qolganidan quvonishdimi, har qalay nimaga kelmayapsan, deb xabar olishmadi. Qamariddinday „tarbiyasi og'ir bolaga“ ularning ham toqati yo'q edi. Qamariddin faqat militsiyagagina kerak ekan. Dam-badam

inspeksiyaga chaqirishadi. Ishga joylashga yordam hermoqchi bo'lishdi. Qamariddin ishlashga rozi, o'qishdan ko'ngli sovib bo'lgan. Ammo ishga oladigan azamat yo'q. Hali u, hali bu bahona. Onasi ishda, o'zi kun bo'yi ko'chada. Omadini qarang, u ko'chadagilarga ham kerak ekan, u kabi bola kam emas ekan. Pes pesni qorong'ida topganiday, ko'chabazorilar bir-birlari bilan tez topishar ekan. Shu ahvolda erkin yuraverdi. Ammo to'daga qo'shilib birovlarni tunamadi. Buni mayda ish deb bildi. Uning hayotdan alami bor, qasos olganda ham birvarakayiga olishni istardi. Shunday qasos oni yaqinlashib kelardi.

Ularnikiga bir odam serqatnov edi. Dastlab ko'ringanda onasi „dadangning do'sti, bizdan xabar olib turadi“ deb izoh berdi. Qamariddin „dadamning o'zi qayerda, nima uchun o'zi xabar oimaydi“ deb so'ramadi. U go'dak emaski, bu odamning maqsadini bilmasa. Avvaliga Qamariddin qo'qqisidan kirib qolsa, ichib o'tirganlarini yashirishga harakat qildilar. U go'l emaski, aroqning hidini bilmasa. Keyinroq borib yashirmay ichaverdilar. Bir kuni Qamariddin kelib, u kishining ro'parasiga o'tirdi. Ko'chada bolalar bilan musallas ichgan, shirakayf edi. Piyolada onasiga quyilgan aroq turgan ekan, shartta olib ichib yubordida, yana quyding, deb „otasining do'sti“ga uzatdi.

— Yoshlik qilasan, — dedi u odam piyolani chetga olib qo'yib.

Shu paytgacha Qamariddin u bilan deyarli gaplashmagan edi. Salom berardi-yu, ko'chaga chiqib ketardi. Bugun kayf ta'sirida, qitmirlik qilgisi keldi.

— Sening bolang hormi? — dedi u dabdurustdan sensirab.

— Bor. — dedi „otasining do'sti“ g'azabini ichiga yutib.

— Detdomdami?

— Nimaga detdomda, uyda.

— Tashlab ketmaysanmi?

— Jinni bo'lganmisan?

— Bolalaringni tashlab, onamga uylan. Meni o'g'il qilib ol.

Shu paytda oshxonadagi onasi kirib, ularning suhbatidan lol bo'lib, tosh qotdi. „Otasining do'sti“ ham bu taklifdan tamom gangidi.

— Qamarjon, bunaqa masalada hazil qilma.

— Uylansang uylan, bo'lmasa o'ldiraman.

— Qamar! — dedi onasi, uni yelkasiidan ushlab.

Qamariddin qitmirlik bilan ularni masxaralamoqchi edi.

Ammo o'zi kutmagan holda nafrati uyg'onib, g'azabi qo'ziy boshladi.

— Sen ablahsan, odammassan,— dedi u, onasining silab-siy-pashiga e'tibor bermay.

U odam o'rnidan turib, eshik tomon yurdi. Qamariddin irg'ib turdi-da, yo'lini to'sdi.

— Sen hayvonsan! Sen... san! — deb haqoratlashda davom etdi.

Bu mishiqidan shunday so'zlarni eshitishga ori keldi u odamning: Qamariddinning yuziga shapati qo'yib yubordi. Xuddi o'sha kottej, o'sha „Volga“ egasiday urdi. Unda Qamariddin yig'lab yuborgan edi. Bu safar yig'lamadi, kuldi. Bu kulgusida zahar zohir edi. Bu kulgisi yomon bir narsaning darakchisi edi. Qamariddin kulib turganicha uning qorniga kalla qilib bukchaytirib qo'ydi. Tepmoqchi edi, o'rtaga onasi tushdi. Qamariddin „ha, mayli“ dedi-da, oshxonaga kirib, katta pichoqni oldi. Xonaga kirganida onasi stulda, u odam esa yerda onasining tiz-zasiga bosh qo'yib o'tirgan edi. Onasi pichoq ushlagan Qamariddinni ko'rdi. Baqirib yubordi. Ammo u odam boshini ko'tarishga ulguradi. Qamariddin otilib kelib uning bo'yniga pichoq sanchdi. Oshxonada, pichoq olayotgan choqda, onasini ham o'ldirishni fikr qilgan edi. Ammo onasiga qo'l ko'tara olmadi. Nimaga shunday bo'lganini keyinroq ham ko'p o'yladi. Biroq ming o'ylagani bilan sababini bilolmadi. U bir narsani aniq bilardi: uni o'zi ham sezmagani qandaydir kuch ushlab qolgan edi.

U maxsus maktabda yurganida beimon otasini, bevafo, bemehr onasini o'ldirishni xayol qilardi. Onasini o'ldirolmadi, biroq begonani o'ldirdi. „To'g'ri qildim, — deb o'ylardi u qamoqda yurgan kezlarida, — bolalari beimon otadan qutulishdi. Bolalarini aldash yurgan odam odammidi?“.

Sud bo'ldi. Sudda yillab o'ylab yurgan gaplarini aytdi. Gaplar e'tiborga olinmadi. U o'zini endi bolalar axloq tuzatish mehnat koloniyasida ko'rdi. Uch yil shu yerda bo'ldi. Keyin kattalarning koloniyasiga o'tdi. Qimor ham, aroq ham, nasha ham, bir-birini bo'g'ishlar... hammasi bor edi bu yerda. Yetti yilda o'zi Asrorga aytganday, „akademik“ darajasiga yetdi. Onasi qamoqdan qutulib chiqqan o'g'lini kutib olmadi. Uyga o'zi bostirib bordi. Unga boshpana kerak edi. Uni kutib turgan birodarlari bor edi. O'shalar bilan ish boshladi.

*Asarni o'qib tugatgach, quyidagi reja asosida voqealar rivojini eslang va qayta hikoyalashga tayyorlaning*

### ***Muqaddima***

1. Quyosh qanday chiqadi?
2. Bahor quyoshga o'xshaydi.
3. Panjara ortidagi bahor.
4. Ozodlik iztirobi.
5. Axloq tuzatish koloniyasi bolalari haqida.
6. Koloniya bolalarining ruhiy olami.
7. Bola bilan suhbat.
8. Bola orzusi.

### ***Uyqusiz tun***

1. Asrorning cho'chib uyg'onishi.
2. Kecha bo'lgan voqea: jinoyat.
3. Qamariddin.
4. Asrorga qamoqdan o'lim afzal.
5. Qo'rquv.
6. Ona tasallisi.
7. Ma'suma ona xayollari.
8. Asror uchun uch yo'l: oq shayton(otasi), qora shayton (Qamariddin), ilm yo'li (ustoz Mahkam aka).
9. Asrorning qo'rqinchli tushi.
10. Maktabga borish haqida ikkilanish.
11. Dilfuza bilan uchrashuv.
12. Zoir.
13. To'y haqida.
14. O'tmish.Qamariddin bilan tanishuv.

### ***Militsiyaga yetib kelgan xabar***

1. Mayor Maqsud Soliyev nafaqaga chiqmoqchi.
2. Mayor o'ylari.
3. Yana bir jinoiy ish.
4. Guvoh Imomaliyev bilan suhbat.
5. Imomaliyev bergan guvohlik.

6. Leytenant Mullaqo'ziyev bilan suhbat.
7. Tal'at Shoumarov.
8. Pivoxonada.

### ***„Kecha qayerda edik?“***

1. Asror maktabda.
2. Aljabrdagi o'ylar.
3. Muallimning Asrordan xavfsirashi.
4. Geografiya o'qituvchisi haqida o'ylar.
5. Geografiya o'qituvchisi A'zamxonova bilan tortishuv.
6. Otaulla.
7. Otaullaning asl muddaosi.
8. Adabiyot darsi. „Baxtli bolalik“ mavzusida insho.
9. Qamariddin bilan uchrashuv.
10. Salimning jarohati.

### ***Ashyoviy dalil***

1. Pivoxona.
2. Iltifot.
3. Tal'at bilan suhbat.
4. Suvdan topilgan murda.
5. Tal'at pivoxonadagilar haqida gapirib berdi.
6. Tekshiruvlar boshlandi.

### ***Alamzada odam***

1. Qamariddinning jinoyat yo'liga kirib kelishi.
2. Qamariddin bilan suhbat. Qamariddin hayotining uzun yo'li.

### ***Bir ipning ikkinchi kalavasi***

1. Ekspertiza xulosasi.
2. Sanjar Keldiyorov.
3. Sanjarning uyida.
4. Guvohlikka –qo'shnilar.
5. G'oliblik nurlari.
6. Tal'atning tekinxo'r tanishi.



## Savol va topshiriqlar

1. „Baxtli bolalik“ mavzusida insho yozish masalasining asarga kiritilish sabablari haqida nimalar deya olasiz? Parchaning vazifasi nimadan iborat?
2. Qamariddinning ota-onasi va umuman, odamlar haqidagi fikrlariga qanday qaraysiz?
3. Yetimxonadagi bolalarning to‘qigan afsonalaridan kulmasliklari va bir-birini tushunishlariga qanday munosabat bildirsa olasiz?
4. Asarda : „Ota-onasiz o‘sayotgan bolalarning hayot falsafasi... ancha barvaqt shakllanadi,“ — degan qat’iy fikr bor. Buning sabablari haqida mulohaza yuriting.
5. Qamariddin haqidagi ijobiy va salbiy fikrlaringizni ikki ustunga yozib chiqing. Uning orzulari, tuyg‘ulari haqida ham unutmang.
6. Qamariddinning fe‘l-atvori, holati boshqacha bo‘lishi mumkinmidi?
7. Asror haqidagi o‘ylaringiz?
8. Adabiyot o‘qituvchisi haqidagi mulohazalaringiz?
9. Adibning yoshlarga nisbatan kuyinchakligini izohlay olasizmi?
10. Adibning yozuvchi sifatida shakllanishida kattalarning o‘rni nimada deb o‘ylaysiz?
11. Asarni o‘qib tugatgach, qolgan bo‘limlari yuzasidan mustaqil reja tuzib, qayta hikoyalashga tayyorgarlik ko‘ring.





## JAHON ADABIYOTIDAN

### *Jek London*

Amerika demokratik adabiyotining yirik vakili, asarlarida xalq ommasining o'z huquqlari uchun kurashini aks ettirgan atoqli yozuvchi Jek London Kaliforniya shtatining San-Fransisko shahrida, fermer oilasida tug'ilgan. U yoshligidayoq hayotning ko'p mashaqqatlarini boshidan kechirgan. Iqtisodiy ahvoli sabab universitetni tashlagan. Yozuchining adabiy faoliyati 1898-yildan boshlangan. U o'z umrida 150 dan ortiq hikoya yozgan bo'lib, hikoyalarida asosan mamlakat shimoli va Okeaniya orollaridagi hayotni zo'r badiiy mahorat bilan tasvirlagan. Bu hikoyalari unga katta shuhrat keltirdi. „Oq sukunat“, „Qirq mil narida“, „Otalar xudosi“, „Sovuq bolalari“ kabi hikoyalarining qahramonlari har xil toifadagi, har xil fe'l-atvorli kishilardir.

U 1903- yilda Angliyaga qilgan sayohatidan keyin „Tubanlik kishilari“ degan ocherklar to'plamini nashr ettirdi. Bu kitobda yozuvchi londonlik ishchilarning qashshoq hayotini tasvirlaydi.

Jek London o'zining hikoyalarida tabiyatning asov kuchlariga qarshi mardona kurashuvchi kishilar hayotini zo'r badiiy mahorat bilan tasvirlaydi. Uning „Hayotga muhabbat“ hikoyasi fikrimizga yorqin misol bo'la oladi. Bu hikoyada hayotga bo'lgan muhabbatning o'lim ustidan g'alabasi ifodalangan.

#### „HAYOTGA MUHABBAT“

(*Hikoya*)

Ular oqsoqlanib, soyga tomon tushib borardilar. Hamrohlardan biri, oldinda borayotgani toshloq yerda qoqilib, gandaraklab ketdi. Ikkalasi ham charchab, holdan toygan va tishini-tishlariga qo'yib, taqdirga tan berganliklari yuzlaridan ko'rinib turardi — bu uzoq vaqt chekkan qiyinchiliklari oqibati edi. Orqalaridagi qayish bilan tortib bog'langan og'ir yuklari yelkalarini ezardi. Ikkalasida ham bittadan miltiq. Ikkalasi ham bukchayib, ko'zlarini yerdan uzmay borardilar.

— Qani endi yashirib qo‘ygan joyimizdagi o‘qlardan hozir ikkitaginasini bo‘lsa, — deb qo‘ydi ulardan biri.

Azbaroyi madorsizlikdan ovozi zaif chiqdi. U juda behafsalalik bilan gapirardi. Toshlarga urilib, ko‘piklanib oqayotgan sutdek oppoq suvga endi oyoq bosgan sherigi esa unga hech narsa deb javob bermadi.

Ikkinchisi ham sherigi orqasidan suvga tushdi. Suv muzdek sovuq bo‘lishiga qaramay, ular oyoq kiyimlarini yechmadilar. Suv shu qadar sovuq ediki, oyoqlari barmoqlarigacha uvishib qoldi. Ba‘zi joylarda suv tizzadan kelardi. Shunda suv shitob bilan urganda, ular o‘zlarini tutolmay, gandraklab ketardilar.

Orqada kelayotgan yo‘lovchi silliq toshga tiyg‘anib ketib, yiqilishiga oz qoldi, og‘riqdan qattiq ixrab yubordi, ammo yiqilmadi. Boshi aylandi, shekilli, munkib ketib, xuddi havodan madad so‘raganday, bo‘sh qo‘lini oldinga cho‘zdi. O‘zini o‘nglab oldida, oldinga qadam bosdi, lekin yana toyib ketib, yiqilishiga sal qoldi. Shundan keyin, to‘xtab o‘z sherigiga qarab qo‘ydi: sherigi esa orqasiga ham qaramay, hamon oldinga qarab ketmoqda edi.

Orqada qolgan bir narsani o‘ylagandek birpas qimirlamay turdi, keyin:

— Menga qara, Bill, oyog‘imni chiqarib oldim, shekilli! — deb qichqirdi.

Bill oyoqlarini sudrab, sutdek oppoq suvdan kechib borardi. U orqasiga biror marta ham qayrilib qaramadi. Sherigi uning orqasidan qarab turardi. Uning yuzi avvalgidek hech narsani ifoda qilmasa-da, ko‘zlarida yaralangan bug‘u singari chuqur qayg‘u ifodasi aks etdi.

Mana Bill qarshi qirg‘oqqa o‘tib oldi-da, kalovlanib yurib ketdi. Suvning o‘rtasida turgan hamrohi undan ko‘zini olmay qarab turdi. Uning lablari shu qadar titrar ediki, o‘siq sariq mo‘ylovi uchib-uchib ketardi. U tilining uchi bilan qovjiragan lablarini bir yalab oldi-da:

— Bill! — deb qichqirdi.

Bu falokatga yo‘liqqan odamning jon achchig‘idagi qichqirigi edi, ammo Bill qayrilib ham qaramadi. Ketib qolgan sherigining orqasidan uzoq vaqt qarab turdi: sherigi lapanglab, oqsoqlanib, qoqilib-suqilib, tepalikda ko‘ringan egri-bugri chiziqlar tomon asta-sekin ko‘tarilib borardi. Bill to tepalikni oshib, ko‘zdan g‘oyib bo‘lguncha, sherigi orqasidan qarab turdi. Shundan

keyin u tarafdin ko'zini uzdi-da, Bill ketgandan keyin yolg'iz o'zi qolgan yerni bir-bir ko'zdan kechirib chiqdi.

U butun og'irligini bir oyog'iga solib turib, soatini oldi, soat to'rt edi. So'nggi ikki hafta ichida u hisobni yo'qotib qo'ydi: iyulning oxiri yoki avgustning boshlari bo'lganligi sababli quyosh shimol-g'arbda bo'lishi kerak edi. U janub tomonga qaradi. Mana shu ko'rimsiz tepalik orqasida, allaqayerdadir. Katta Ayiq ko'li bor, xuddi o'sha tomonda Kanada sahrosidan mudhish Shimoliy Qutb doirasi o'tadi, deb o'ylab qo'ydi. U turgan soy Kappermayn daryosining irmog'i, Kappermayn esa shimol tomonga oqib, Koronatsiya ko'rfaziga, Shimoliy Muz dengiziga quyiladi. Uning o'zi u yerlarga hech qachon bormagan, lekin buning hammasini Gudzon ko'rfazi kompaniyasining kartasida ko'rgan edi.

U o'zi yolg'iz qolgan joyini yana bir marta ko'zdan kechirdi. Tevarak-atrof jimjit, ko'rimsiz edi. Na daraxt, na buta, na o't-o'lan ko'rinadi — poyonsiz va dahshatli sahrodan boshqa hech narsa yo'q. Uning ko'zlarida qo'rquv ifodalari ko'rindi.

— Bill! — deb pichirladi. — Bill! — deb takrorladi u yana ketidan. Poyonsiz sahro go'yo qudratli kuchi bilan bosayotganday, o'zining mudhish sokinligi bilan ezayotganday bo'ldi: u loyqalanib oqayotgan soy o'rtasida cho'qqayib o'tirib qoldi. U xuddi bezgak tutayotgandek qaltirab ketdi, shu payt miltig'i shalp etib suvga tushdi. Bu uni o'ziga keltirdi. U qo'rquvni yengib, es-hushini yig'di, keyin qo'lini suvga tiqib, piypasladi-da, miltig'ini topdi. So'ng mayib oyog'iga og'irlik kamroq tushsin deb, yukni chap yelkasiga oldi-da, og'riqdan basharasini burishtirib, juda ehtiyotlik bilan asta-sekin qirg'oqqa tomon yurdi.

U to'xtamay yuraverdi. Og'riqqa sira parvo qilmay, Bill oshib o'tgan tepalik ustiga shosha-pisha dadil chiqaverdi. Tepalikka chiqib qarasa, vodiya hech kim ko'rinmadi. Uni yana qo'rquv bosdi. keyin qo'rquvni yengib, qopini chap yelkasiga yana ham ko'proq surib, oqsoqlanib-oqsoqlanib, pastga tusha boshladi.

Vodiyning pastligi chalchiqzor bo'lib, chimliq jiqqa suv edi. U har qadam bosganda suv sachrar, nam chimliqdan oyog'ini har ko'targanda, shalop-shulup etgan tovush chiqardi. U Billning izidan yurishga intilib, ko'loblarni ayianib o'tar yoki chimliqlarda xuddi orol singari cho'qqayib turgan toshlar ustidan borardi.

U yoig'iz qolgan bo'lsa ham yo'ldan adashmadi. Yana biroz yurgandan keyin atrofni pastakkina, nimjon, quruq pixta va

archalar o'rab olgan kichkina Titchinichili ko'liga yetib borishini bilardi, bu ko'lining nomi mahalliy tilda „Kichik og'ochlar o'lkasi“ degan ma'noni anglatardi. Shu ko'lga bir ariq kelib quyiladi, suvi ham loyqa emas. Ariq bo'ylarida qamish o'sadi. Buni u yaxshi eslaydi — lekin u yerda daraxt yo'q. Shu yerdan g'arbga tomon boshqa bir ariq oqadi, shu ariq yoqalab u Diz daryosiga qadar boradi. Xuddi o'sha yerda to'nkarib, ustiga tosh bostirib qo'yilgan qayiqni topadi. U qayiqning ostida miltiq o'qi, qarmoq, qarmoq iplari, kichik bir to'r, umuman, ovqat topish uchun zarur bo'lgan narsalarning hammasi yashirib qo'yilgan. Bundan tashqari, o'sha yerda oz bo'lsa ham un, bir parcha go'sht, loviya ham bor.

Bill uni o'sha yerda kutib turadi, keyin ikkisi Diz daryosi bilan Katta Ayiq ko'liga boradilar. undan keyin ko'ldan o'tib janubga, to Makkenzi daryosiga yetib olguncha, janubga qarab boraveradilar. Janubga, hamma vaqt janubga qarab boraveradilar, qish esa ularni quvib boradi. Tez oqar soy va jilg'alar muz bilan qoplanadi, sovuq tushadi, ular esa janubga, Gudzon ko'rfazidagi faktoriyalardan biriga yetib oladilar, u tomonlarda baland-baland azamat daraxtlar o'sadi va oziq-ovqat ham istagancha topiladi.

Zo'rg'a sudralib borayotgan yo'lovchi mana shular haqida o'ylar edi. Lekin yurish qanchalik og'ir bo'lmasin. Bill uni yolg'iz tashlab ketmaydi, degan fikrga ishonish undan ham qiyin edi. Bill hech shubhasiz uni narsalar yashirilgan joyda kutib o'tiradi. U shunday deb o'ylashi kerak, aks holda bundan keyin kurashni davom ettirishning hech hojati yo'q — unda oyoqni cho'zish-u, o'lib qo'ya qolishdan boshqa iloj yo'q. Quyoshning xira gardishi shimoli-g'arb tomonga sekin-asta yashirinayotgan qishdan qochib, janub tomonga qo'yiladigan har qadamini bir necha bor hisoblab chiqdi. U narsalar yashirilgan joydagi va Gudzon kompaniyasining omboridagi oziq-ovqat zapasini qayta-qayta o'z xayolidan kechirdi. Ikki kundan beri u hech narsa yegani yo'q, lekin undan ilgari ham to'yib ovqat yemagan edi. U tez-tez egiilib, rangsiz botqoq mevalarini uzib, og'ziga solar va chaynab yutib borardi. Mevalar juda sersuv, suvi ichiga ketib, og'zida faqat taxir va qattiq urug'largina qolardi. Bu mevalar qorin to'yg'izmasligini u bilardi, shunday bo'lsa ham ularni sabr bilan chaynar, chunki umid achchiq haqiqat bilan hisoblashishini istamas edi.

Soat to'qqizlarda u oyog'ining katta barmog'ini o'tkir tosh qirrasiga urib oldi. Charchoq va darmonsizlikdan gandarablab, yiqilib tushdi. Bir yonboshiga ag'nab, anchagacha qimirlamay

yotdi. Bir ozdan keyin orqasidagi qop qayishini yelkasidan chiqarib, ixrab-ixrab o'tirib oldi. Hali uncha qorong'i tushganicha yo'q edi, g'ira-shirada toshlar orasini paypaslab, quruq xas-cho'p yig'a boshladi. Bir tutam xas-cho'p yig'ib, o't yoqdi, keyin kotelokka suv solib, burqsib yonayotgan o'tga qo'ydi.

U qopini ochib hammadan burun gugurtlarni sanab ko'rdi. Hammasi bo'lib oltmish yetti dona gugurt cho'pi bor edi, U yanglishgan bo'lmay, deb gugurt cho'pini uch marta sanab chiqdi. Gugurtni uch bo'lakka ajratib, har bir bo'lagini bir qog'ozga o'radi. Bir bo'lagini bo'sh hamyonga solib qo'ydi, ikkinchisini ohori to'kilgan shapkasining astariga tiqdi, uchinchisini esa ko'kragiga yashirib qo'ydi. Shundan keyin uni birdan qo'rquv bosdi: uch bo'lak gugurtni yana qaytadan ochib sanab ko'rdi. Gugurt cho'plari avvalgidek oltmish yetti dona edi.

Oyoq kiyimini o'tga tutib quritdi, moka'sini julduri chiqib ketgan, odehyaldan tikilgan paypoqlari teshik, oyoqlari bo'lsa qontalash bo'lib ketgandi. To'pig'i shishib, xuddi tizzasidek yo'g'on bo'lib ketgandi. U odeyallardan bittasining chetidan uzun qilib yirtib oldi-da, to'pig'ini mahkam siqib bog'ladi. Keyin yana bir necha parcha yirtib, mokasini va paypoq o'rnini bosar deb, oyog'iga aylantirib o'radi-da, qaynagan suvdan ichib oldi, soatni buradi, so'ng odehyalga o'ranib yotdi.

U dong qotib uxladi. Yarim tunga borib qorong'i tushdi, lekin bu uzoqqa cho'zilmadi Sharqi-shimoldan quyosh ko'tarildi, to'g'rirog'i, o'sha tomondan tong yorisha boshladi, chunki quyosh yuzini quyuq tuman qoplagan edi. Soat oltida u chalqancha holda uyqusidan uyg'ondi, kulrang osmonga qaradi va och qolganini sezdi. Tirsagiga suyanib, qaddini ko'targan edi, qulog'iga qattiq pishqirgan tovush eshitildi. Qarasa, unga hushyorlik va qiziqish bilan bir bug'u qarab turibdi. Bug'u undan ellik qadamcha narida turardi. Shu ondayoq tovada jizillab qovurilayotgan bug'u go'shtining hidi dimog'iga urilgandek, o'zi go'sht mazasini totgandek bo'ldi. Beixtiyor o'qi yo'q miltig'ini olib o'qtaldi, tepkisini bosib yubordi. Bug'u cho'chib bir chekkaga tashlandi va tuyoqlarini tapillatib qochib ketdi.

U so'kinib, miltig'ini uloqtirib tashladi, ixrab-ixrab o'rnidan turishga urinib ko'rdi, ancha uringandan keyin zo'rg'a turib oldi. Bo'g'inlari xuddi zanglab qolgandek edi, qaddini rostlash yoki bukish juda mashaqqatli edi. Nihoyat u oyoqqa bosgandan keyin

ham odamga o'xshab tik turib olish uchun rosa bir minutcha urindi.

U chog'roq bir tepalik ustiga chiqib, atrofga nazar tashladi. Bo'z rang chimliq dengizdan boshqa hech narsa — na daraxt, na biron buta — hech narsa ko'rinmasdi. Osmon bo'z rangda edi. Quyosh na nur sochadi, na yilt etgan shu'lasini ko'rsatadi. U, shimol qayoqda ekanini, kecha kechqurun bu yerga qaysi tomondan kelganini eslay olmadi. Lekin u yo'ldan adashmagan edi. Buni u yaxshi bilardi. U tezda „Kichik og'ochlar o'lkasi“ga yetib oladi. U o'lka shu yaqin orada, chap tomonda bo'lishi kerak, ehtimol xuddi mana shu ko'rinib turgan tepalikning narigi tomonidadir.

U tepalikdan qaytib tushib, yo'lga otlandi. Tugunini tugdi, uch bo'lak qilib yashirgan gugurtlari turibdimi, yo'qmi, deb paypaslab ko'rdi, lekin sanab o'tirmadi. U bug'uning terisidan tikilgan xaltachaga qarab turib, xayol surib qoldi. Xalta uncha katta emas, ichidagi narsalari bilan bir hovuch kelardi. Lekin og'irligi o'n besh qadoq bo'lib, boshqa yukning og'irligidan qolishmasdi, — uni mana shu tashvishga solardi. U xaltani bir tomonga surib qo'yib, boshqa narsalarni o'ray boshladi. Keyin xaltachaga qaradi-da, uni shartta qo'lga oldi, xuddi sahro uning qo'lidan oltinni tortib olayotgandek, atrofga xo'mrayib qaradi. Yana o'rnidan turib yo'lga tushganda, boshqa narsalar qatori xaltacha ham uning orqasida edi.

U chapga burildi. Ahyon-ahyonda to'xtar va botqoq mevalaridan terib yer edi. Uning oyog'i butunlay qotib qoldi, o'zi borgan sari kuchliroq oqsar, lekin oyoq og'rig'i qornidagi og'riqqa qaraganda hech gap emasdi. Ochlik azobi uni ko'proq qiynar, qornidagi og'riq esa unga ich-ichdan azob berardi. Endi u „Kichik og'ochlar o'lkasi“ga yetib olish uchun qaysi tomonga yurishni bilmasdi. Mevalar uni ochlik azobidan qutqarolmas, til va tanglaylarini lovullatib achitardi. Kichikroq bir soylikka yetib borganda, toshlar orasidan qanotlarini qoqib, qir-qirlashib bir to'p oq kaklik ko'tarildi. U kakliklarga qarab tosh otdi, lekin tegizolmadi. Keyin u yukini yerga qo'yib, xuddi chumchuq poylagan mushukdek, kakliklarning orqasidan pusib, o'rmalab bora boshladi. Shimi o'tkir tosh qirralariga tegib yirtilib ketdi, tizzalaridan oqqan qon qonli iz qoldirib borardi. Lekin ochlik azobi shu qadar kuchli ediki, u boshqa hech qanday og'riqni sezmasdi. U chalchiqzor chimliqlar ustidan o'rmalab borar.

kiyimlari shalabbo bo'lib ketgan, badani sovuqdan dir-dir titrardiyu, lekin u faqat ovqat haqida o'ylar, boshqa hech narsani sezmasdi. Atrofidan ha deganda par etib uchib ketayotgan kakliklarning qir-qiri endi uni masxara qilayotgandek tuyildi. U kakliklarni so'kib qo'ydi-da, ularga qarab qichqirmoqqa boshladi.

Bir gal u kaklikka juda yaqin kelib qoldi, qush chamasi uxlab yotgan bo'lsa kerak. U qush toshlar orasidagi uyasidan parillab uchib chiqmaguncha, odam uni ko'rmadi. Kaklik bexosdan parillab chiqib qolganiga qaramay, odam changal soldi. Qo'lida qushning uchta pati qoldi. U uchib ketayotgan qush orqasidan uzoq qarab turdi, kaklik go'yo uning boshiga katta halokat keltirgandek, odam ko'nglida qushga nisbatan cheksiz nafrat uyg'ondi. Keyin orqasiga qaytib, yukini ko'tarib oldi.

Choshgohda u bir botqoqqa yetib keldi, bu yerda ov ko'proq edi. Xuddi unga o'chakishganday, oldidan yigirmatacha bug'u o'tib ketdi, ular shunday yaqindan o'tdiki, miltiq bilan bemalol otib olsa bo'lardi. Bug'ularni quvlagisi keldi, quvlasa ushlab olishiga juda ishonardi. Uning oldidan kaklik tishlagan bir qora tulki ham o'tib ketdi. U qichqirib yubordi. Shunday qattiq qichqirdiki, cho'chib ketgan tulki o'zini bir chetga urdi, ammo kaklikni og'zidan tushirmadi.

Kechqurun u qamishlar orasidan oppoq ohakdek loyqalanib oqayotgan ariqcha yoqalab borardi. Bir qamishning ostidan mahkam ushlab, xuddi piyozga o'xshagan bir narsani sug'urib oldi. Qamishning tomiri yumshoq bo'lib, chaynaganda qars-qars ovoz chiqarar edi. Lekin mazasi taxir, xuddi chalchiqzor mevasiga o'xshagan sersuv bo'lib, och qorinni to'yg'izmasdi. U yukini yerga tashladi-da, xuddi kavsh qaytarayotgan molga o'xshab kavshana-kavshana qamishlar orasidan o'rmalab ketdi.

U juda charchagan, biroz orom olgisi, yotib uxlagisi kelardi, lekin „Kichik og'ochlar o'lkasi“ga yetib olish orzusi, undan ham zo'rroq bo'lgan ochlik azobi unga tinchlik bermasdi. U bunday uzoq shimolda qurt va qurbaqa bo'lmasligini bilsa ham, chuqurchalardan qurbaqa axtarar, oyoqlari bilan yerni titkilab, qurt qidirar edi.

U har bir ko'lmakni sinchiklab qaradi. Nihoyat qosh qorayganda, bir chuqurda bittagina baliq suzib yurganini ko'rib qoldi. U qo'lini yelkasigacha suvga tiqdi. Lekin baliqcha qo'ldan sirg'alib chiqib ketdi. U baliqni ikki qo'llab tutmoqchi bo'lib suvni

loyqalatib yubordi. Esi-dardi baliq bilan bo'lib, hayajondan suvga tushib ketdi, beligacha suvga botdi. Suvni shunday loyqalatib yubordiki, baliqni ko'rib bo'lmay qoldi. Shundan keyin u suvning tinishini kutib turdi.

U yana baliqni tutish bilan ovora bo'ldi, suvni yana loyqalatib yubordi. Ortiq kutishga toqati qolmadi. Yukka qo'shib bog'langan paqirchani oldi-da, chuqurdagi suvni chetga olib to'ka boshladi. Avvaliga u zo'r berib ishladi, usti-boshi shalabbo bo'lib ketdi, shoshganidan suvni chuqurga shunday yaqin to'kar ediki, suv yana qaytib chuqurga oqib tushardi. So'ngra u qo'lining titrashi va yuragining qattiq urishiga qaramay, xotirjam ishlashga qaror berdi. Yarim soatdan keyin chuqurchada bir hovuch ham suv qolmadi. Biroq baliq yo'q bo'lib qolgandi. Uning ko'zi toshlar orasidagi bir yoriqqa tushdi. Baliq shu yoriqdan katta bir chuqurga o'tib ketibdi, u chuqurda suv shu qadar ko'p ediki, uning suvini bir kecha-yu bir kunduzda ham tamom qilib bo'lmasdi. Yoriq borligini ilgari bilganida, hammadan burun uni tosh bilan berkitib qo'ygan bo'lardi, shunda baliq uning qo'lidan qochib qutulolmasdi.

Odam chalchiq yerga o'tdi-da, alamiga chidayolmay, yig'lab yubordi. Boshda sekin-sekin yig'ladi. Keyin atrofni o'rab olgan shafqatsiz cho'lni uyg'otmoqchi bo'lganidek ovozining boricha ho'ngrab yig'layverdi. A'zoyi badani titrab, uzoq yig'ladi.

U o't yoqdi. Qaynagan suvdan ancha ichib, bir oz isidi, yotish uchun tosh ustiga kechagidek joy qildi. Yotishdan avval gugurtning ho'l, quruqligini tekshirib ko'rdi va soatini burab qo'ydi. Odeyal ho'l va muzdek edi. Og'riqdan oyoqlari o'tday yonar, lekin u faqat ochlik azobini sezar edi, xolos. Kechasi har xil ziyofatlar, mehmondorchiliklar va dasturxonga tortilgan turli noz-ne'matlarni tushida ko'rib chiqdi.

U sovuq qotib uyg'ondi, tobi qochgandi. Quyosh ko'rinmasdi. Yer-u ko'kning bo'zrang tusi yana ham quyuglashgan, qattiq shamol esar, birinchi qor tepaliklarni oppoq libosga burkagan edi. U o't yoqib, suv qaynatguncha havo yana ham quyuglashgandek, yana ham sovuqlashgandek tuyuldi. Laylak qor yog'a boshlagan edi. Qor avvaliga yerga tushishi bilan eriyverdi, lekin hora-bora ko'payib, yer betini qoplab oldi-da, quruq xas-cho'plarni ho'l qilib, o'tni o'chirdi.

Bu unga yukini orqasiga ko'tarib, boshi og'gan tomonga qarab yo'lga chiqish uchun signal bo'ldi. U endi „Kichik og'ochlar



o'lkasi" haqida ham, Billi haqida ham, Diz daryosi sohilida qayiq ostiga yashirilgan narsalar haqida ham o'ylamasdi. Uning xayoliga ovqatdan bo'lak narsa kelmasdi. Ochlik uni aqldan ozdirdi. U qayoqqa ketayotganini ham o'ylamay qo'ydi. Unga endi ikki dunyo bir qadam bo'lib qolgandi. Ishqilib tekis yerda yursa bo'lgani edi. Yo'lda ketarkan, u mazasi achchiq bir o'simlik topdi, giyohdan qancha topsa, hammasini yedi. Lekin bu giyoh juda oz ekan, u yerga yoyilib o'sganidan, qor tagida qolgan edi.

Shu kecha u o't yoqmadi, suv ham qaynatmadi, odeyal ichiga kirib oldi-da, ochligicha yotib qoldi. Qor asta-sekin sovuq yomg'irga aylandi. Yuziga yomg'ir tomchilari tushayotganini sezib, tez-tez uyqusidan uyg'onardi. Tong otib, yana quyoshsiz, bulutli kun boshlandi. Yomg'ir tingan. U endi ochlik to'g'risida o'ylamay qo'ygandi. Qorni sal-pal og'rirdi xolos, ammo bu og'riq unga unchalik azob bermasdi. Uning fikri bir oz ravshanlashdi. Endi u yana „Kichik og'ochlar o'lkasi" haqida. Diz daryosi bo'yiga yashirib qo'yg'an narsalar haqida o'ylay boshladi.

U yirtiq odeyaldan qolgan qismini yana uzunasiga yirtib, shilini qontalash bo'lib ketgan oyog'ini bog'ladi, chiqqan to'pig'ining lattasini yangiladi-da, yana yo'lga tushishga hozirlandi. Yukni ko'tarib olishdan oldin bug'u terisidan tikilgan xaltaga uzoq tikilib turdi-yu, yana xaltani o'zi bilan olib ketdi.

Yomg'ir qorni eritib yuborgandi, tepachalarning cho'qqilarigina oqarib turardi. Quyosh ko'rinib qoldi, bundan foydalanib, yo'lovchi dunyoning to'rt tomonini belgilab oldi, yo'ldan adashganligi aniq bo'ldi. So'nggi kunlarda chap tomonga ko'proq ketib qolgan bo'lsa kerak, endi u to'g'ri yo'lga tiishib olish uchun o'ng tomonga qarab yura boshladi.

Ochlik azobi unga kor qilmay qolgan edi-yu, lekin u o'zining holdan ketganini sezdi. Dam olgani tez-tez to'xtar, yerdan meva terar va qamishlarni tomiri bilan sug'urib olardi. Uning tili qaq-rab, shishib ketdi. Og'zida ham achchiq va bemaza ta'm bor edi. Hammadan ko'proq uni yuragi bezovta qilardi. U bir necha qadam bosmasdan, yuragi duk-duk urib ketar, qinidan chiqib ketay deb, dukkillab ura boshlardi-da, nafasi bo'g'ilib, boshi aylanar, o'zidan ketib qolay derdi.

Tush paytida u katta bir chuqurda ikkita tanga baliq suzib yurganini ko'rib qoldi. Chuqurning suvini quritib bo'lmasdi. Lekin u o'zini ancha bosib olgandi, paqirchasi bilan baliqlarni tutib oldi. Baliqlar jimjiloqdek-jimjiloqdek kichkina edi. Lekin

uning uncha ovqat yegisi yo'q edi. Qorin og'rig'i ancha pasaygandi. U baliqlarni xomligicha og'ziga solib, hafsala bilan chaynay boshladi. Ishtahasi bo'lmasa ham, ovqat yeyishga o'zini majbur qildi, chunki yashamoq uchun ovqat yeyish zarurligini yaxshi bilardi.

Kechqurun u yana uchta tanga baliq tutdi, ikkitasini yeb, uchinchisini ertalabga olib qo'ydi. Quyosh onda-sonda uchrab turgan xashaklarni quritgandi, u suv qaynatib ichib, bir oz isidi. O'sha kuni u o'n mildan ortiq yo'l bosolmadi. Ertasiga yuragi qattiq urib, besh milga yaqin yo'lni bosib o'tdi. Qorni ortiq og'rimay qo'ydi. Endi u notanish yerlardan borardi, bug'ular tez-tez uchrrar, hatto bo'rilar ham ko'rinib qolardi. Uning qulog'iga ularning uvillagani tez-tez chalinaradi. Bir marta u pusib yo'lni kesib o'tayotgan uchta bo'rini ko'rib qoldi.

Yana tun kirdi. Tongda u bir oz o'ziga kelib, xaltaning gayishini yechdi-da, ichidagi oltinni yerga to'kdi. Oltinni babbaravar ikki qismga bo'ldi. Bir bo'lagini lattaga o'rab, uzoqdan yaxshi ko'rinib turadigan bir tepalikka, toshlar orasiga yashirib qo'ydi. Ikkinchi qismini yana xaltaga solib, og'zini bog'ladi. Keyin u bitta-yu bitta odeyalini yirtib, oyoqlarini o'radi. Lekin u hamon miltig'ini tashlamasdi, chunki Diz daryosi bo'yida yashirib qo'yilgan narsalar orasida patronlar bor, axir.

Bugun hamma yoqni quruq tuman qopladi. Shu kuni u yana ochlik azobini tortdi. Yo'lovchi juda zaiflashib qolgan, tez-tez boshi aylanar, vaqti-vaqti bilan hech narsani ko'rmay qolardi. U endi tez-tez qoqilar, yiqilar edi. Bir marta u kaklik uyasi ustiga yiqilib tushdi. Uyada endigina tuxumni yorib chiqqan kaklik bolalari bor ekan. U shoshib-pishib ularni tiriklayin og'ziga sola boshladi. Kaklik bolalarining suyaklari uning tishlari orasida xuddi tuxum po'stlog'i singari qisirlar edi. Ona kaklik uning tepasida charx aylanib, uchib yurar va achchiq-achchiq faryod qilardi. Odam miltiq qo'ndog'i bilan kaklikni urib tushirmoqchi bo'ldi, lekin qush chap berib qochdi. Keyin u kaklikka tosh ota boshladi, qanotini sindirdi. Kaklik yaralangan qanotini sudrab, bir tomonga qarab qochdi. Odam uning orqasidan quvlashga tushdi.

Kaklik bolalari uning ishtahasini yana ham ochib yubordi. U kalovlanib, oqsoqlanib, goh kaklikka tosh otib, bo'g'iq tovush bilan qiyqirar, goh har yiqilganda chidam bilan o'rnidan turib,

qovog'ini solib, indamay qadam tashlar edi, boshi aylanganda hushidan ketmaslik uchun ko'zlarini ishqalar edi.

Kaklik orqasidan quvib borayotib, pastlikdagi bir chalchiq-zorga duch keldi. Uning ko'zi ho'l chimliqdagi odam iziga tushdi. Bu izlar uniki emasligi ravshan edi. Billning izlari bo'lsa kerak. Lekin u to'xtab turolmasdi, chunki kaklik tobora undan uzoqlashar edi.

U qushni quvlay berib charchatdi, lekin o'zining ham tinkasi quridi. Kaklik yonboshiga ag'darilib og'ir-og'ir nafas olib yotardi, lekin odam ham o'n qadamcha berida entikib yotar, qushga yetib olishga sira ham madori qolmagandi. Odam bir oz dam oldi, lekin qush ham nafasini rostlagandi. U qo'l uzatish bilan qush tipirlab qochdi. Yana quvishga tushdi. Qosh qorayib, qush ko'zdan g'oyib bo'ldi. Odam juda charchaganligidan madori qurib qoqildi va orqasidagi yuki bilan yiqildi-da, yuzlari shilinib ketdi. U anchagina qimirlamay yotdi, keyin yonboshiga ag'darilib, soatini burab qo'ydi-da, tong otguncha shu holatda yotib qoldi.

Yana tuman bosdi. Odeyalning yarmisi oyoqni o'rashga ketdi. Billning izini u qaytib topolmadi. Endi unga baribir edi. Ochlik uni tinmay olg'a haydardi. Bordi-yu... Bordi-yu, Bill ham adashib qolgan bo'lsa-chi? Tushga borib u juda ham holdan toydi. U yana oltinni ikkiga bo'ldi. Bu gal o'lchab o'tirmay, yarmisini yerga to'kib qo'ya qoldi. Kechga borib, odeyalning yarmini, paqircha va miltiqni olib qolib, oltinning hammasini yerga to'kib tashladi.

Ba'zi bir fikrlar uning miyasini juda chulg'ab olgandi. Tasavvurida miltiqda xuddi bir o'q bordek, u esa buni ko'rmay qolgandek edi. Shu bilan bir vaqtda miltiqda o'q yo'qligini yaxshi bilardi. Lekin bu xom xayol uni sira tinch qo'ymasdi. Pirovardida miltig'ini qarab, o'qning yo'qligiga ishonch hosil qildi. Shunday hafsalasi pir bo'ldiki, go'yo u haqiqatdan ham o'q borligini kutgan edi.

Yarim soat o'tdi, Keyin miyasiga yana o'sha fikr keldi, u bu fikrni miyasidan chiqarib tashlayolmadi-da, o'zini bir oz ovutish uchun miltig'ini yana tekshirib chiqdi. Ahyon-ahyonda miyasi ishlamay qolar, o'zi esa jonsiz narsadek beixtiyor kalovlanib borar edi; g'alati xayollar va bema'ni tasavvurlar uning miyasini qurtday kemirar edi. Lekin u tez o'ziga kelardi, chunki ochlik uni hamma vaqt haqiqatga qaytishga majbur qilardi. Bir marta uning ko'z oldida shunday bir ajib manzara paydo bo'ldiki, hushidan ketib

qolishiga sal qoldi. Uning oldida bir ot turardi. Ot! U ko'zlariga ishonmadi. Ko'z oldi jimirlashib, atrofni tuman bosganday bo'ldi. U zo'r berib ko'zini ishqaladi, ko'z oldi ravshanlanganda qarasa, qarshisida ot emas, kattakon bir targ'il ayiq turibdi. Ayiq unga o'qrayib-o'qrayib qarardi. U miltig'ini yelkasidan oldiyu, shu ondayoq esini yig'di. Miltiqni qo'yib, munchoq qadalib tikilgan qinidan pichog'ini sug'irdi. Uning oldida go'sht va hayot turardi. Bosh barmog'i bilan pichoqning tig'ini tekshirib ko'rdi. Pichoqning tig'i ham, uchi ham o'tkir edi. U hozir ayiqqa tashlanib, uni o'ldiradi. Lekin uning yuragi xuddi xavfdan ogohlantirayotgandek, duk-duk ura boshladi. Keyin birdan yuragi qinidan chiqar darajada sakrab ketdi; miyasi xuddi iskanjaga olgandek qattiq og'ridi, ko'z oldi qorong'ilashdi.

Hozirgina jo'sh urib turgan botirlik o'rnini qo'rquv egalladi: u shu qadar zaif tortib ketdiki ayiq hujum qilsa, nima bo'ladi? U mumkin qadar haybatliroq bo'lib ko'rinish uchun qaddini rostladi, pichoqni qo'lga olib, to'g'ri ayiqning ko'zlariga tikildi. Yirtqich lapanglab oldinga bir qadam bosdi, ikki oyog'ini ko'tarib o'kirib yubordi. Odam qochganda, ayiq uning orqasidan quvgan bo'lardi. Lekin odam qo'rquvni bosib, o'rnidan qimirlamadi; u ham yirtqich hayvonday dahshat bilan o'kirib yubordi, bu o'kirik qo'rquv ifodasi edi, chunki qo'rquv yashash uchun kurash bilan chambarchas bog'liqdir.

Ayiq undan qo'rqmay, tik turgan mana shu sirli maxluqdan hayiqib, o'kirganicha bir tomonga chekindi. Lekin odam o'rnidan qimirlamadi. U xavf o'tib ketguncha qaqqayib turaverdi, keyin xuddi bezgak tutgandek, titrab-qaqshab ho'l chimliqqa yiqildi.

U bir oz o'ziga kelib, qo'rquv ichida yana yo'lga tushdi. U endi ochlikdan o'lishdan emas, balki hayot uchun kurashning so'nggi intilishlari so'nguncha yirtqich hayvonlar panjasida o'lib ketishdan qo'rqardi. Atrofida bo'rilar izg'ib yuribdi.

Bo'rilar ikkita-ikkitanadan, uchta-uchtadan bo'lib, tez-tez uning yo'lini kesib o'tishardi. Lekin ular odamga yaqin kelishmasdi. Ular juda ham ko'p emasdi. Bundan tashqari, ular qarshilik ko'rsatmaydigan bug'ularni ovlashga o'rganishgan edi, ikki oyoqli g'alati maxluq esa chang solib qolsa ham, tishlab olsa ham, ajab emasdi.

Kechga borib u yerda sochilib yotgan suyaklarni ko'rib qoldi. Bo'rilar xuddi mana shu yerda ovni qo'lga tushirishgan edi. Bir soat ilgari bu bug'ucha sakrab-sakrab, ma'rab yurgandi. Odam

top-toza qilib qo'yilgan, yarqiroq qizg'ish suyaklarga qarab turdi. Suyaklarning rangi qizg'ish edi, chunki undagi hayot hali so'nmagandi. Kechqurunga borib, ehtimol, uning taqdiri ham shunday bo'lar. Hayot shunaqa, hayot bevafo va bebaqo. Lekin hayot alam chektiradi, o'limda esa qiynalish yo'q. O'lmoq uxlamoqdir, O'lim orom olmoqdir. Bo'lmasa nima uchun u o'lishni istamaydi?

Lekin u uzoq o'ylab o'tirmadi. Ko'p o'tmay u cho'kka tushdida, suyaklarni kemira boshladi, suyaklarga qizg'ish tus berib turgan hayotning oxirgi nishonalarini so'rmoqqa tutindi. Go'shtning o'tmishdan qolgan xotira singari bo'lib tuyulgan sezilar-sezilmas mazasi uni o'zini yo'qotar darajada hayajonga soldi. Suyakni tishlari orasiga olib, g'ajiy boshladi. Goh suyak sinar, goh uning tishi sinardi. Keyin u suyakni tosh bilan yanchib, ochko'zlik bilan yuta boshladi. Shoshilganidan toshni barmoqlariga urar, ammo qancha hovliqmasin, nima uchun og'riqni sezmayotirman, deb ajablanib qo'yardi.

Qor va yomg'irli kunlar yetib keldi. U endi qachon yotib, qachon yo'lga tushganini eslay olmasdi. Vaqtni surishtirmay, kechasi ham, kunduzi ham yo'l bosdi, yiqilgan yerida dam oldi, undagi so'nayotgan hayot uchquni alangalandi deguncha yana oldinga qarab o'rmaladi. Odam endi hayot uchun kurashmay qo'ydi. Undagi hayotning o'zi o'lishni istamas, shuning uchun ham uni ilgariga haydardi. U ortiq azob chekmasdi. Uning asablari uyushib qolgan, miyasi esa g'alati xayollar, shirin tushlar bilan tola edi.

U yo'lda borarkan, bitta qo'ymay yig'ishtirib olgan suyaklarni tinmay so'rar va chaynar edi. U ortiq tepaliklarga ko'tarilmas, ariqlarni kechib o'tmasdi, u endi keng vodiyaning oqib o'tayotgan anhor yoqalab borardi. Uning ko'ziga xayoliy manzaralar ko'rinardi. Uning tani bilan joni birga borardi-yu, shunday bo'lsa ham, ular bir-birlaridan ajralgandek edi: ularni bir-birlariga bog'lab turgan hayot rishtasi shu qadar ingichka edi.

Bir kuni u yassi tosh ustida yotganida hushi o'ziga keldi. U uzoq vaqtgacha qimirlamay yotdi. Quyosh saxiylik bilan nur sochib, uning ayanchli badanini isitar edi. U ming azob-uqubat bilan bir yonboshiga ag'darildi. Pastda katta sokin bir daryo oqib yotardi. Bu daryo odamga notanish edi: bu uni ajablantirdi. U notanish daryoning oqimini shoshmasdan, sovuqqonlik bilan

to ufqqa qadar kuzatdi-da, daryoning uzoqda yarqirab turgan dengizga quyilayotganini ko'rdi. Shunday bo'lsa ham bu narsa uni sira hayajonlantirmadi. „Qiziq, — deb o'yladi u. — Ko'zimga shunday ko'rinyaptimi yoki miyam aynib qoldimikin“. Dengiz o'rtasida langar tashlab turgan kemani ko'rganda bu fikrning to'g'ri ekanligiga yana bir bor ishondi. U bir zumga ko'zlarini yumib yana ochdi. Qiziq, o'sha narsalar yana ko'rindi. Bunga ajablanmasa ham bo'lardi. Miltig'ida patron bo'lmaganidek, mana shu sahroning qoq o'rtasida dengizning ham, kemaning ham bo'lishi mumkin emasligini bilardi u.

Orqadan xirillagan bir tovush eshitildi, bu xo'rsinishmi, yo'talmi — bilib bolmas edi. G'oyat zaiflik va karaxtlikni juda sekinlik bilan yengib, u ikkincli yonboshiga ag'darildi. Yaqinida hech narsa ko'rinmadi. U sabr bilan kuta boshladi. Yana xirillagan va yo'tal tovushi eshitildi. Yigirma qadamcha narida o'tkir qirrali ikki toshning orqasidan bir bo'ringning kulrang boshi ko'rindi. Uning quloqlari boshqa bo'rilarniki singari tik emas, ko'zlari xira va qon quyilgan, boshi solingan. Bo'ri kasal bo'lsa kerak: u tinmay aksa urar va yo'talar edi.

„Hech bo'lmaganda bunisi haqiqatdir“ deb oyladi u va sarob pardasi bilan qoplanmagan, haqiqiy dunyoni ko'rish uchun boshqa yonboshiga ag'darildi. Lekin dengiz hali ham ilgarigidek uzoqda yaltirab turar, kema ham aniq ko'zga chalinardi. Ehtimol, bu rostdan ham haqiqatdir. U ko'zlarini yumib o'ylay boshladi. Pirovardida hamma narsa ayon bo'ldi. U sharqishimolga qarab yurgan va Diz daryosidan uzoqlashib, Kappirmayn daryosi vodiysiga kelib qolgan. Sokin oqayotgan shu daryo Kappirmayn daryosining xuddi o'zginasi. Yaltirab turgan dengiz Shimoliy Muz dengizi. Bu kema Kit Overmanning kemasi bo'lib, Makkenzi daryosi dengizga quyiladigan joydan sharq tomonga ancha ketib qolgan. Bu kema Koronatsiya ko'rfazida turibdi. U bir vaqtlar ko'rgan Gudzon ko'rfazi kompaniyasining kartasini esladi-yu, shunda bor gap ravshan va tushunarli bo'lib qoldi.

U yerga o'tirib oldi-da, eng zarur ishlar haqida o'ylab ketdi. Oyoqlarini o'rab bog'lagan odehyal parchalari titilib ketganidan oyoqlari shilinib, qip-qizil go'sht bo'lib qolgandi. Eng so'nggi odehyalni ham ishlatib bo'lgan. Miltiq bilan pichoq yo'qolgan. Qalpog'i ham tushib qolibdi, qalpoq bilan birga astariga yashirilgan gugurt ham yo'qolgandi, lekin qog'ozga o'rab, hamyoniga

yashirib qo'yan gugurt hali ham turibdi. U soatiga qaradi, soati yurib turar va o'n birni ko'rsatardi. Soatni burab turgan bo'lsa kerak.

U xotirjam, aqli joyida edi. Juda ham holdan toyganiga qaramay, og'riqni sezmas, ovqat yegisi ham kelmasdi. Ovqat haqida o'ylagisi ham kelmasdi. U nima qiimasin, hammasini idrok hukmi bilan qilardi. U shimining pochasidan to tizzasigacha yirtib oldi-da, to'pig'ini o'rab bog'ladi. Chelakchasini nima uchundir tashlamagan edi. Kemaga qarab yo'l solishdan avval suv qaynatib ichish kerak, bu safarning juda og'ir bo'lishini u oldindan bilardi.

U juda sekin qimirlar, shol odamdek qaltirar edi. Quruq xashak yig'moqchi bo'ldi-yu, lekin o'rnidan turolmadi. Bir necha marta o'rnidan turishga urinib ko'rdi, bo'lmagach, emaklab ketdi. Bir gal hatto kasal bo'riining oldiga juda yaqin borib qoldi. Bo'ri istar-istamas o'zini chetga oldi va zo'rg'a tilini qimirlatib, tumshug'ini yaladi. Uning tili sog'lom bo'rinikidek qizil emas, kulrang, sarg'ish bo'lib, yelim singari quyuq shilliq bilan qoplangan. Odam qaynagan suvdan ichdi-da, deyarli kuch-quvvatdan qolgan bo'lsa ham, o'rnidan turishga, hatto yurishga ham madori yetishini his qildi. Minut sayin to'xtab dam olardi, hazo'r qadam tashlar, bo'ri ham uning orqasida xuddi shu yo'sinda sudralib borardi.

Qorong'i tushib, yarqirab turgan dengiz zulmat ichiga g'arq bo'lganda, u oraliqdagi masofa ko'p emas to'rt milga qisqarganini angladi.

Tun bo'yi kasal bo'riining yo'talishi va ha'zan bug'u bolalarining ma'rashi eshitilib turdi. Atrofdan hayot qaynamoqda, u kuch-quvvatga to'la, sog'lom hayot. U esa orqasidan kasal bo'ri ergashib kelayotganini, kasal odam avval o'ladi, degan umidda ekanligini tushunar edi. Ertalab turib qarasa, bo'ri unga g'amgin va ochko'zlik bilan tikilib turibdi. Bo'ri dumini qisib, xuddi tinkasi qurigan it kabi boshini quyi solib turardi. Bo'ri sovuq shamolda qaltirar, odam xirillagan tovush bilan unga so'z qotganda, tishini tirjaytirib, irillar edi.

Ufqdan yorqin quyosh ko'tarildi. Odam choshgohga qadar yiqilib-surilib yaltiroq dengizda turgan kemaga qarab yurdi. Tushdan keyin u bir izga duch keldi. Bu boshqa bir odamning izi bo'lib, u odamning emaklab yurgani bilinib turardi. „Ehtimol bu Billning izidir“ deb o'yladi u xotirjam. Unga baribir edi.

To'g'risi, u hech narsani sezmay, hech narsadan hayajonlanmay qo'ygani edi. U hatto og'riqni ham sezmasdi. Qorin bilan asablari go'yo mudrab qolgandek. Lekin hali so'nmagan hayot uchquni uni olg'a boshlardi. U juda charchagan, lekin sira o'lgisi kelmas edi. Shuning uchun ham u chalchiqzordan meva terib yer, tanga baliq ovlar, suv qaynatib ichar va olazarak bo'lib kasal bo'rini kuzatar edi.

U o'rmalab o'tgan boshqa odamning izidan borardi. Ko'p o'tmay, o'zidan oldingi odamning manziliga yetib keldi. Ho'l chimliq ustida kemirib tashlangan suyaklar va bo'rining iziga ko'zi tushdi, Yerda xuddi o'zinikiga o'xshash, o'tkir tishlar tortqilab yirtgan bug'u terisidan tikilgan xalta yotardi. Bunday og'ir yukni ko'tarishga madori kelmasa ham kuchsiz barmoqlari bilan qopni yerdan ko'tarib oldi. Bill oltinlarini so'nggi minutlarga qadar tashlamagan. Ha-ha-ha! U hali Billning ustidan masxara qilib kuladi, tirik qoladi va xaltani yarqirab turgan dengizdagi kemaga olib ketadi. U xuddi qarg'aning qag'illashiga o'xshagan bo'g'iq ovozda dahshatli qilib kulardi. Kasal bo'ri ham unga jo'r bo'lib xirillagan tovush bilan uvilladi. Odam darhol jim bo'ldi. Agar mana shu suyaklar Billniki bo'lsa, shu toza kemirilgan, qizg'ish suyaklar Billniki bo'lsa, qanday qilib uning ustidan kulyapti-ya!

U yuzini o'girib oldi. Nima qilsin, Bill uni tashlab ketdi, lekin u Billning oltinlarini olmaydi, uning suyaklarini kemirmaydi. Agar mening o'rnimda Bill bo'lganda shunday qilgan bo'lardi, deb o'ylab qo'ydi va kalovlanib yo'lga tushdi.

U kichkina bir ko'lga duch keldi, Baliq yo'qmikan deb, chuqurchaga engashib qaradi-yu, xuddi ilon chaqqandek seskanib, o'zini orqaga tashladi. Suvda u o'z aksini ko'rib qoldi. Basharasi shu qadar qo'rqinchli ediki, bu diydasi qotib qolgan odamning ko'ngliga vahima soldi. Ko'lchada uchta baliq suzib yurardi, lekin ko'lcha kattagina bo'lib, suvni quritishga uning qurbi yetmasdi. U baliqlarni chelakcha bilan tutishga urinib ko'rdi, keyin bu fikrdan qaytdi. O'lgundek charchaganidan suvga yiqilib, cho'kib ketaman, deb qo'rqdi. Cho'kib ketishidan qo'rqib u qumloq sohilda yog'och xodalar ko'p bo'lsa ham, sol yasab, daryodan suzib ketishga jur'at qilolmadi.

O'sha kuni u kemagacha bo'lgan masofani uch milga qisqartirdi. Ertasiga esa ikki mil yo'l bosdi. Endi u xuddi Billga o'xshab o'rmalab borardi. Beshinchi kun kechqurun kemaga



yetish uchun yana yetti mil yo'l qolgan edi: endi bir kunda bir mil yo'l bosishga ham madori qolmadi. Erta kuzning iliq kunlari hali tugamagan edi, u esa goh o'rmalar, goh hushidan ketib yiqilardi, kasal bo'ri esa yo'talib, aksa urib, uning orqasidan qolmay, sudralib borardi. Odamning tizzalari qip-qizil go'shti bo'lib ketgan, tovonlari bundan ham battar edi. Ko'ylagidan yirtib olib, tizza va tovonlarini o'rab bog'lagan bo'lsa ham orqasidan chimliq va toshlar ustiga qonli iz qoldirib borardi. U bir marta orqasiga qayrilib qarab, bo'rining ochko'zlik bilan qonli izlarni yalayotganini ko'rib qoldi. Agar bo'rini bir yoqliq qilmasa, holi nima kechishini juda yaxshi bilardi. Shundan keyin hayotda uchrashi mumkin bo'lgan kurashlarning eng shiddatlisi boshlandi: emaklab borayotgan kasal odam, uning orqasidan sudralayotgan kasal bo'ri ikkisi ham chala o'lik holda bir-birini poylashib, sahradan sudralib bordilar.

Bo'ri sog' bo'lganda, odam bunchalik qarshilik ko'rsatib o'tirmagan bo'lardi, lekin mana shu badburush, deyarli o'laksa bo'lib qolgan razil maxluqning qorniga tushishini o'ylasa, ko'ngli aynir edi. U yana alahlay boshladi, yana ko'ziga allanimalar ko'rina boshladi, bu safar uning o'ziga kelishi ancha qiyin bo'ldi.

Bir marta xuddi qulog'i ostida kimdir tez-tez nafas olayotganini eshitib, hushiga keldi. Tepasida turgan bo'ri o'zini orqaga tashladi va qoqilib ketdi-da, nimjonligidan yiqilib tushdi. Bu juda kulgili edi, lekin odam kulmadi. U hatto qo'rqmadi ham. U endi qo'rqish nimaligini ham sezmay qolgan edi. Uning ongi bir minutga ravshanlashdi, u o'ylab ketdi. Kemaga qadar endi ko'pi bilan to'rt mil yo'l qolgandi. U tuman bosgan ko'zlarini ishqalab, kemani juda ravshan ko'rdi, yarqirab turgan dengizni kesib o'tayotgan oq yelkanli qayiqchani ham ko'rdi. Lekin bu to'rt millik masofani bosib o'tishga holi qolmagan edi. Odam buni bilardi, shuning uchun ham bezovtalanmadi. Yarim mil ham yo'l bosa olmasligiga aqli yetardi. Shunday bo'lsa ham yashashni istardi. Shuncha azob-uqubatlardan keyin o'lib ketish bema'nilik bo'lardi. Taqdir undan juda ko'p narsa talab qilardi. Joni halqumiga tiqilganda ham u o'limga bo'ysunishni istamasdi. Ehtimol, bu aqlsizlik edi, lekin u o'lim changaliga tushib qolgan bo'lsa ham, uning changalidan qutulib chiqish uchun jon-jahdi bilan kurashaverdi.

U ko'zlarini yumib, bor kuchini to'pladi. Xuddi to'lqin singari uning vujudini bosib olayotgan alahsirashga yon bosmaslik uchun o'zini tetik tutishga urinardi. Bu to'lqin o'qtin-o'qtin ko'tarilib, uning ongini xiralashtirardi. Ba'zan u chorasiz tipirchilab, o'zini bilmay qolar, keyin yana bir amallab hushini yig'ar edi.

U qimirlamasdi, chalqancha yotganicha kasal bo'ringing xirillagan tovushi tobora yaqinroq eshitilayotganiga quloq soldi. Bo'ringing nafasi juda yaqindan eshitila boshladi-yu, qurg'ab qolgan til xuddi shildiroq qog'oz singari uning yuzini timdaladi. Qo'llari yuqoriga cho'zildi, barmoqlari xuddi changak singari bukildi, lekin mehnati zoye ketdi. Tez va ishonch bilan harakat qilish uchun kuch kerak, unda esa kuch yo'q.

Bo'ri sabrli edi, lekin odam undan ham sabrliroq edi. U hushdan ketib qolmaslik uchun urinib va bo'rini poylab, yarim kun qimirlamasdan yotdi. Bo'ri uni yemoqchi edi, qo'ldan kelsa, odam ham bo'rini yemoqchi edi. Vaqti-vaqti bilan u hushidan ketib qolar, shunda u uzoq-uzoq tushlar ko'rar edi; lekin tushida ham, o'ngida ham mana hozir bo'ri tili bilan meni yalaydi, deb kulib yotardi.

Nafas tovushini eshitmadi, lekin bo'ri uning qo'lini yalayotganligini sezib, o'ziga keldi. Odam kutib yotdi. Bo'ri uning qo'lini tishlari orasiga olib kuchining boricha qisdi, keyin u shuncha vaqtdan buyon kutgan g'animatiga qattiqroq botiraverdi. Lekin odam ham shu paytni sabrsizlik bilan kutgandi, uning tishlangan qo'llari bo'ringing jag'ini qisdi. Bo'ri bazo'r o'zini himoya qilardi, odam bir qo'li bilan uning jag'ini qisardi, ikkinchi qo'lini ham uzatib bo'ringing tomog'idan bo'g'a boshladi. Besh minutdan keyin odam o'zining butun og'irligi bilan bo'rini bosib tushdi. Bo'rini bo'g'ib o'ldirish uchun uning kuchi yetmas, shunda odam tishi bilan bo'ringing tomog'iga yopishdi, uning og'zi yungga to'ldi. Yarim soat o'tdi, odam o'z tomog'iga issiq qon quyilayotganini sezdi. Xuddi uning og'ziga eritilgan qo'rg'oshin quyilayotgandek, uni yutish bir azob edi. Lekin u o'zini chidashga majbur qildi. Keyin odam chalqanchasiga ag'darildi-da, uyquga ketdi.

Kit ovlovchi „Bedford“ kemasida ilmiy ekspeditsiya a'zolari bor edi. Ular kema palubasida turib, qirg'oqda g'alati bir maxluqni ko'rib qolishdi. Bu maxluq qum ustida zo'rg'a o'rmalab

dengiz tomonga kelardi. Olimlar buning nima ekanligini bilolmadilar, tabiiyotshunos bo'lganliklari uchun qayiqchaga o'tirib qirg'oqqa suzib ketdilar. Ular tirik bir maxluqni ko'rdilar, lekin uni odam deb bo'ladimi?! U hech narsani eshitmas, hech narsani tushunmas, qum ustida ulkan qurt singari buralar edi. U oldinga deyarli siljimas, lekin orqasiga ham qaytmasdi, buralib-buralib oldinga qarab harakat qilar va soatiga yigirma qadamdan yo'l bosardi.

Uch hafta o'tgandan keyin u „Bedford“ kemasida karavotda yotgan holda ko'z yoshlarini oqizib, o'zining kimligi va qanday mashaqqatlarni boshidan kechirganini hikoya qilib berdi. U onasi, serquyosh janubiy Kaliforniya, apelsin daraxtlari va gullar orasiga ko'milgan uyi haqida poyma-poy gapirib berdi.

Bir necha kum o'tgandan keyin u olimlar va kapitan bilan birga kayut-kampaniyada o'tirar edi. U ovqatning mo'lligidan quvonar, boshqalarning og'ziga tushib yo'q bo'lib ketayotgan har bir luqma uni zo'r tashvishga solardi. Uning aqli joyida, lekin stol atrofida o'tirgan odamlarga nafrat bilan boqardi. Ovqatning tamom bo'lib qolishidan qo'rqib, bezovta bo'lardi. U hadeb oshpazdan, xizmatchi boladan, kapitandan ovqat zapasini surishtirardi. Ular yuz martalab tasalli bersalar ham ishonmas, o'z ko'zi bilan ko'rgani ovqat omboriga tez-tez tushib turardi.

Kemadagilar uning o'nglanayotganini sezib qoldilar. U kun sayin semiraverdi. Olimlar bosh chayqab turli taxminlar qilishardi. Unga ovqatni kamroq bera boshladilar, lekin shunda ham semirib, qorin sola boshladi.

Matroslar bunga kulishardi, ular gap nimada ekanligini bilishardi. Olimlar uning orqasidan poylab, sirni bilib oldilar. Ertalab nonushtadan keyin u bakka chiqar va matroslarga xuddi tilanchiday qo'l cho'zardi. Matros kulib, unga suxari berardi. U ochko'zlik bilan suxarini olar va xuddi oltinga ko'zi tushgan xasisdek, nonni qo'ltig'iga urardi. Boshqa matroslar ham yo'lini topib, uni quruq qo'ymasdi.

Olimlar indamay, uni o'z holiga qo'yib qo'yidilar. Ular o'ziga bildirmay uning karavotini tekshirdilar. Karavotning osti suxari bilan to'la edi. To'shakning ichiga ham suxari to'ldirgan ekan. Har bir burchakka suxari yashirilgan. Lekin uning miyasi joyida edi. U faqat, yana och qolguday bo'lsam, deb shuning chorasini

ko'rardi, xolos. Olimlar bu kasallik tez o'tib ketadi, degan fikrda edilar. Haqiqatan ham „Bedford“ kemasi San-Fransisko gavaniga langar tashlamasdan o'q bu kasallik o'tib ketdi.

*Asarni o'qib tugatgach, quyidagi reja asosida voqealar rivojini eslang va qayta hikoyalashga tayyorlaning*

1. Ikki hamrohning soydagi sayohati.
2. Yo'lovchilarning suvdagi holati.
3. Billning suvdan chiqishi.
4. Tevarak atrofning ko'rinishi.
5. Uning ko'zlaridagi qo'rquv ifodasi.
6. Qirg'oq tomon yurishi.
7. Vodiy.
8. Billning izidan.
9. Ikki hamrohning Katta Ayyiq ko'liga borishi.
10. Hamrohining Billga ishonchi.
11. Unung sahrodagi ahvoli.
12. Uning „Kichik og'ochlar o'lkasi“ga yetib borishi.
13. Kaklik go'yo unga falokat keltirgandek edi.
14. U kechqurun ariqcha tomon yurib borardi.
15. Uning esi-dardi baliqda edi.
16. Odamning cho'lda sovuq qotib uyg'onishi.
17. Uning ochlikdagi ahvoli.
18. Odamning bo'rilarga duch kelishi.
19. Hayotning beshavqat sinovi.
20. Qora va yomg'irli kunlar.
21. Uning Diz daryosidan uzoqlashishi.
22. Kasal bo'rining ahvoli.
23. Yo'lovchining hayot uchun kurashi.
24. U haqida olimlarning fikri.
25. „Bedford“ kemasidagi kasallik.



**Savol va topshiriqlar**

1. Adib asarlarining xronologik jadvalini tuzishga harakat qiling.
2. Adibning siz tanishgan „Hayotga muhabbat“ asari sizga tanish bo'lgan qaysi asarni eslatdi? Ikki asar o'rtasidagi o'xshash va farqli tomonlarini sanang.

---

**Chingiz Aytmatov**  
(1928- yilda tug'ilgan)

---

*Chingiz Aytmatov hayoti va ijodiy faoliyati yuzasidan o'rta umumta'lim dasturi bo'yicha mustahkamlovchi savol va topshiriqlar*

1. Chingiz Aytmatovning „Oltovlon va yettinchi“ (5-sinf) nomli rivoyati mazmunini eslang. Asar nima uchun bunday nomlangan.
2. „Oltovlon va yettinchi“ rivoyati adibning qaysi asaridan olingan.
3. Adibning „Oq kema“ asarini o'zbek tiliga kim tarjima qilgan?
4. Adibning „Oq kema“ asarida qanday ramziy obraz bor? Ramziy obrazlarni yana qaysi asarlarda uchratgansiz?
5. Adibning o'zingiz bilgan asarlarini sanang.

### **Hayoti va ijod yo'li**

Chingiz Aytmatov 1928- yilda Qirg'izistonning Talas vodiysidagi Shakar qishlog'ida tug'ilgan.

U o'zining „Jamila“, „Yuzma-yuz“, „Momo yer“, „Alvido, Gulsari“, „Baydamtol sohillarida“, „Birinchi muallim“, „Oq kema“, „Asrga tatigulik kun“, „Qiyomat“, „Kassandra tamg'asi“ ... kabi qator asarlari bilan o'quvchilar mehrini qozongan.

Asarlari jahon adabiyoti kutubxonasida o'ziga xos o'rin egallagan adiblar hamma davrlarda ham sanoqli bo'lgan. Adib sifatida jahonga tanilmoq uchun nihoyatda katta iqtidor, Olloh tomonidan beriladigan teran tafakkur va chuqur mushohada sohibi bo'lmoq zarur. Bugungi kunning zabardast shoiri, O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov o'z she'rlaridan birida:

„Shoirlik bu butkul o'zdan kechmoqdir.  
Limmo-lim fidolik mayin ichmoqdir,“—

deya to'g'ri ta'rif bergan edi. Darhaqiqat, ikki qator narsa yozib, odamlar ko'nglidagi so'zni topish nihoyatda mushkul.

O'zni kelsa, tan olishimiz kerak, o'z yaqin birodarimizning ko'nglini olishga qiynalamiz. Shoirlar esa so'z atalmish bo'stonning gullarini shu qadar teran qalb bilan teradilar-ki, bir yo'la bir necha odamlar yuragidagi so'zni topishga, topib aytishga, ayta olishga muyassar bo'la oladi. Qirg'iz xalqining ardoqli adibi Chingiz Aytmatov nafaqat o'z xalqi, balki ko'pmillatli, jahon adabiyoti muxlislari qalbidagi so'zni topib ayta olgan yozuvchidir. Adibning qahramonlari hamisha oddiy va sodda odamlar. Ular goh uzoq o'tmishda afsonalar qahramonlari, goh tarixiy shaxslar, goh XX asr boshidagi qiyinchiliklar qahramonlari, goh yangi yerlarni o'zlashtirayotgan zamondoshlarimiz, goh urush qatnashchilari, gohida esa ilm-fan va texnika rivojlangan mana shunday farahbaxsh zamonlarda ham o'rmonlar ichida joylashgan oddiy kulbalarni o'zlariga qismat deb bilgan nihoyatda sodda. lekin shu bilan barobar, insoniy teran qalb va keng yurak sohiblari bo'lib gavdalanadi.

Ular „Birinci muallim“da Duyshe va Oltinoy; „Jamila“da Jamila, Sodiq, Doniyor; „Oq kema“da Mo'min chol yoki bolakay va boshqalar...

Jamila o'ziga xos g'ururga, o'ziga xos teran aql va nomusga ega shaxs. Qishlog'idagi hamma yigitlar uchun g'ururini hamma narsadan ustun qo'yib, yaxshi ma'noda qasos oladi: ko'pkari chopishga kelgan qo'shni qishloqlik yigitlarni poygada yengadi, natijada mag'lub bo'lgan yigit Jamilaga, albatta, uylanaman, deb ahd qiladi. Shu poyga oqibati o'laroq, kunlardan bir kuni Jamilani o'z qishlog'ining urf-odatiga ko'ra olib qochadi.

Jamila Sodiqdan o'zining iliq va samimiy munosabatiga yarasha ehtirosli shirin so'zlar, va shu bilan birga, ozgina bo'lsa-da, e'tibor kutadi. Qo'qqisdan boshlangan urush juda ko'plab begunoh insonlar qatorida Jamilaning ham endigina boshlangan shirin hayotini hijron azoblari bilan almashtiradi.

Urush ko'rgan inson sifatida asarda Doniyor obrazi berilgan. U urush haqida gapirib berishlarini so'raganda, qo'yinglar shu urushni, deya bu mavzuga hamisha bir so'z bilan nuqta qo'yadi. Muhabbat masalasida hamisha mag'rur va hamisha sadoqatli Jamila frontdan, ehtiros va sehrli so'zlarga to'la maktablar kutar edi. Turmush o'rtog'ining ota-onasiga yozgan xatlarining bir chekkasidagi „Jamila ham yuribdimi?“ — degan jumalari Jamilaning bu yerda faqat Sodiq uchungina chekayot-

gan azoblari oldida hech narsa emas edi. Jamila ortiqcha hech narsa izlamadi. Ortiqcha hech qanday hashamat va kibr-u havoga talabgor bo'lmadi. Izlagani faqatgina e'tibor edi, o'zi quyosh harorati kabi sevgi egasi bo'lgani holda, mitti yulduzchadekkina iliqlik lozim edi u uchun nazarimizda. Jamila o'zi izlayotgan narsasini o'z atrofidan va to'g'rirog'i, o'z kutganidan topmadi. Shu sababli muqaddas muhabbatni hamma narsadan ustun qo'yadi.

### **Chingiz Aytmatov o'zi haqida:**

Aytmat bobomni men ko'rmaganman. U 1918—1920- yillarda vafot etgan. Men esa 1928- yil 12- dekabrda tug'ilganman. Mening otam rus-tuzem maktabida o'qigan va keyin u ikki marotaba Moskvada o'qidi. Qirg'izistonda rahbarlik lavozimlarida ishladi. Onam—Nagima Hamzayevna Aytmatova o'qimishli, o'z davrining ilg'or xotin-qizlaridan edi.

Buvim mening bolaligimni turli ertak, qo'shiq, dostonlar bilan bezagan. U meni turli davralarga, to'y-hashamlarga o'zi bilan birga olib borardi...

### **„JAMILA“ (Qissadan parcha)**

...Jamilaning ikki ot qo'shilgan aravani bemalol haydab ketishiga hech ham shubha qilganim yo'q. Chunki u yoshligidan yilqichilar orasida o'sib, katta bo'lgan, tog' etagiga joylashgan Baqaylar ovulidagi yilqichining qizi edi. Sodiq akam ham chavandoz bo'lgan ekan; u bir kuni yaylovdagi chorvadorlar to'yi munosabati bilan o'tkazilgan poygada Jarmilaga yetolmay qolgan ekan. Shundan keyin izza bo'lib, uni olib qochib ketganligini bilardim. Ovsin-ajinlar bo'lsa, hecham-da, ular bir-birlarini yaxshi ko'rib topishgan, deyishardi. Har qalay, nima bo'lsa ham, ular uch-to'rt oy birga turishgan, keyin Sodiq akamni armiyaga olib ketishgan edi. Bilmadim, yoshligidan otasi bilan birga dala-dashtlarda yilqi haydashib, ot chopishib, erka o'sganidanmi yoki bitta-yu bitta qiz bo'lganligi uchunmi, ishqilib, Jamilaning xatti-harakatlarida allaqanday jo'shqinlik, erkaklarga xos fazilat bor edi. Har bir ishga astoydil kirishar, boshqa kelinlardek boshim, belim og'riyapti deb sira zorlanmasdi. Biroq o'zi ham birovga

haqini ketkazmaydigan, aytishgan bilan aytishib, soʻkishgan bilan soʻkishadigan oʻjar ayollardan edi. Uning ovuldagi kelinlar bilan yumdalashgan vaqtlari ham boʻlgandi.

Yon-atrofdagi odamlar:

— E, bu qanday shaddod kelin oʻzi! Tushganiga hech qancha vaqt boʻlmay, tilidan zahar sochadi-ya! — deganlarida, oyim:

— Mayli, shunisi yaxshi! Kelinimiz ochiq-yoriq, sira boʻsh kelmaydi... Ana shunday koʻnglida kiri yoʻq odam yaxshi, indamay yurgan pismiqlardan qoʻrqish kerak. hamma fisq-fasod oʻshalardan chiqadi. — deb javob qaytarardi.

Otam bilan haligi „ishchan“ degan oyim boshqa qaynota, qaynonalardek Jamilani turtmay, soʻkmay, aksincha, oʻz farzandlaridek erkalatishib: „Xudo ishqilib oʻziga insof bersin, toʻgʻri yurib, toʻgʻri tursa boʻlgani!“ deyishardi. Ular voyaga yetgan toʻrt oʻgʻillarini armiyaga joʻnatishib, ikki xonadondagi yakka-yu yagona kelinni ranjitishadimi? Biroq men oyimning baʼzi ishlariga hayron qolardim. Boshqalarni qoʻyib turaylik, oyim birovlarining qoʻliga qaraydigan ayollardan emas edi. Har yili kuz kelishi bilan odati boʻyicha otam tayyorlagan olti qanotli qora oʻtovni tikib, archa tutatardi. Bizlarni chizgan chizigʻidan chiqmaydigan qilib tarbiyalab, hargiz ikki oilaning boshini qovushtirib kelardi. Oyimning aytgani aytgan, degani degan edi. Ammo Jamila oramizda ajralib turardi. Toʻgʻri, u kampirlardan bir oz tortinar, ularning hurmatini joyiga qoʻyar, biroq ovuldagi koʻpchilik kelinlardek indamay boshini quyi solib oʻtirmas yoki teskari qarab poʻngʻillamas, koʻnglida borini yashirib oʻtirmay, shartta gapirib qoʻya qolar edi. Gaplari oʻrinli boʻlsa, oyim uni koʻpincha maʼqullar, lekin oʻshanda ham oʻz gapini ikki qilmasdi. Nazarimda, oyim uni bir soʻzligi, toʻgʻriligi uchun oʻziga yaqin tutar, kelajakda uni ikki xonadonning boshini qovushtirib, roʻzgʻorning rizq-barakasini oʻzidek saqlay oladigan uddaburon oʻrinbosar qilib qoldirish niyatida boʻlsa kerak.

— Xudoga shukr, tagli-joyli yerga tushding, bolam. Bu ham boʻlsa sening baxting, buni sira ham yodingdan chiqarma. Xotin degan tangrining berganiga shukr qilib, roʻzgʻorida birini ikki qilib yursa, shuning oʻzi katta davlat. Biz chol-kampir topgan-tutganimizni oʻzimiz bilan birga goʻrga olib ketarmidik... Oʻz qadr-qimmatingni bilsang, sira kam boʻlmaysan, doim martabang baland boʻladi, bolam,— deb eslatib turardi.

Toʻgʻri, chol-kampirlarning choʻchiganicha bor edi: Jamila



juda sho‘x, yosh bolaga o‘xshardi. Bir qarasangiz, o‘zidan o‘zi kampirlarga suyaklib erkalanar, yo bo‘lmasa, birdan qah-qah urib kular yoki ko‘chadan kirib kelayotganida xuddi yosh qizchalardek ariqdan larsillab sakrab o‘tar yoxud o‘zicha xirgoyi qilib yurardi. Kampirlar Jamilaning bu qiliqlarini o‘zlaricha gap qilib: „Hali bola-da, bora-bora quyulib qoladi“, — deb qo‘yishardi. Menga bo‘lsa yangamning shunaqaligi yoqardi. Ba‘zida ikkovimiz olishib, kurashib, quvlashib ham ketaverdik.

Jamila sarvqomat, bejirim ayol edi. Ikki o‘rim qora sochini boshiga chambarak qilib o‘rib, ustidan tang‘ib olgan oppoq durrasi uning bug‘doyrang kulcha yuziga shunday yarashib tushar ediki, asti qo‘yaverasiz! Jamila kulganda uning shahlo ko‘zlarida navqiron yoshlik barq urar, shunda u beixtiyor qaddini rostlab, ovulning sho‘x laparlarini kuylab yuborardi. Ovuldagi yigitlar, ayniqsa, frontdan qaytib kelgan yigitlarning Jamilani ko‘z ostiga olishib, tegishib yurganlarini necha bor payqardim. Hangomatalab yangam ular bilan bemalol hazil-huzul qilishardi-yu, biroq haddidan oshganlarning ta‘zirini berib qo‘yardi. Baribir bu mening izzat-nafsimga qattiq tegar, yangamni rashk qilardim. Shuning uchun ham haligi „bezorilarga“ o‘zimni ko‘rsatib qo‘yay deb: „Hoy, bilib qo‘yinglar, bu mening yangam bo‘ladi-ya, ko‘p pashshaxo‘rda bo‘laver manglar“ degandek, ularning so‘zini shartta bo‘lib, viqor bilan xo‘mrayib qarardim: „Endi nima qildik, buning yangasi ekan-ku!“ deb yigitlar masxara qilib kulishganda, qizarib-bo‘zarib, azbaroyi xo‘rligim kelganidan yig‘lab yuboray derdim. Buni sezgan yangam xursand bo‘lib, kulgidan o‘zini tiyolmay jilmayib: „Ishlaring bo‘lmasin, nima, yanga degan yerda qolibdimi? Yur ketdik, qaynim!“ deb ularning battar qitig‘iga tegar, so‘ngra boshini mag‘rur ko‘targancha dadil qadam tashlab ketardi. U yigitlarning ta‘zirini berganidan ham xursand bo‘lib, ham o‘ziga xo‘rligi kelib, menga qarab bir kulimsirab qo‘yardi. Balki u: „E, tentak, yangamga ko‘z-quloq bo‘laman deysanmi? Agar buzilaman desam, ming ko‘z-quloq bo‘lsang ham buzilaman. Axir men chumchuq emasman-ku“, degan xayolga borganmikin? Men ham o‘shanday vaqtlarda aybdor kishidek g‘ing demasdim. Ammo bir ozdan so‘ng yangam xiyol yozilib: „Obbo kichkina bola-yey, juda g‘alatisandada!“ deb meni yana bag‘riga bosib, peshonamdan o‘pard.

Ha, chindan ham yangamni hech kimga ravo ko'rmay, rashk qilardim, uning quvnoqligi, o'zini erkin tutishi bilan faxrlanardim. Biz u bilan juda apoq-chapoq, bir-biridan hech narsani yashirmaydigan sirdosh do'stlardek edik. Nega shundayligini o'zim ham bilmasdim. O'sha kezlarda ovulda erkaklar juda oz edi. Shu sababli ba'zan yigitlar ko'krak kerib, balandparvoz gapirib, ovulda „mendan boshqa yigit yo'q“ degandek, ayollarni hecham nazarpisand qilishmasdi. Bir kuni pichan o'rimida, yur, desam, bo'ldi. orqamdan ergashib kelaveradi, deb o'ziga ishonganlarning biri — uzoq qarindoshimizning o'g'li Usmon yangamga tegajoqlik qilavergan edi, u Usmonning qo'lini siltab yubordi-da, g'aram soyasida o'tirgan joyidan turarkan:

— Tur yo'qol! — deb o'shqirdi va teskari qarab oldi. — Qo'llaringdan modabozlik qilishdan boshqa ish kelarmidi.

G'aram ustida taltayib yotgan Usmon qalin lablarini nafrat bilan burishtirib to'ng'illadi:

— Ol-a, mushukning bo'yi shiftga osig'liq turgan go'shtga yetmay, puf, sassiq, degan ekan... Shunga o'xshab, ko'p noz qilaverma. Ichingda jon-jon deb turibsan-u yana...

Jamila unga yalt etib qaradi-da:

— Jon-jon deb tursam turgandirman. Lekin peshonamga yozilgani shu ekan, nima qilay. Ey, ahmoq, buning kuladigan joyi bormi? Jon-jon deyish u yoqda tursin, ming yil toq o'tsam ham senga o'xshagan shumshuklarga nazarimni solmayman. Ahmoqsan. Ilgaridek tinch zamon bo'lganda shunday deb bo'psan edi! — dedi.

— Shuni aytyapman-da! Urushning kasofati bilan qamchi yemay quturib yuribsan-da, — dedi istehzo bilan Usmon ko'zlarini o'ynatib tamshanarkan. — Mening xotinim bo'lganingdami, nima qilishimni o'zim bilardim!

Jamila lablari dir-dir titrab, Usmonga yeb qo'ygudek bo'lib qaradi, unga bir narsa demoqchi bo'lib og'iz juftladi-yu, lekin „shu ahmoq bilan aytishib nima obro' topdim“, deb o'yladi shekilli, jirkanish bilan „tuf“, dedi-da, yerda yotgan panshasini yelkasiga tashlab, indamay nari ketdi. Men berigi tomonda aravaning ustidan xashak tushirayotgan edim. Jamila meni ko'rishi bilan boshqa tomonga burilib ketdi. Yangam mening qay ahvolda ekanimni sezgan edi. Nazarimda, yangamni emas, meni haqorat qilishgandek izza bo'lib, g'azabim qaynab ketdi. „Nega

ularga yondashasan, nega ular bilan gaplashasan?“ deb yangamga jonim achidi-yu, ichimda uni koyidim.

Jamila o'sha kuni kechgacha noxush yurdi, kulmadi ham, gapirmadi ham. Men shoti aravani haydab g'aram oldiga borganimda, Jamila meni gapirmasin deb ataylab ishga alahsitib, dilini o'rtayotgan o'y-fikrlarini yashirishga harakat qildi, u panshaxasini kattakon pichan g'aramga sanchdi-da, go'yo tog'ni ag'darayotgandek uni yerdan shartta ko'tarib, yuzini yashirganicha g'ayrat bilan pichanni aravaga otaverdi. Undan uzoqlashar ekanman, qayta-qayta orqamga qayrilib qarardim: yangam panshaxa dastasiga suyanib, bir oz xomush turar, o'ylanib qolar, keyin yana ishga tushib ketardi.

Men aravaga oxirgi marta pichan bosar ekanman, Jamilaning botib borayotgan quyoshga uzoq tikilib turganini payqadim. Quyosh daryoning narigi yog'ida, qozoq dashtlarining allaqayerida o't yoqilgan tandinning og'zidek alangalanib, holdan toyib, osmonda suzib yurgan pag'a-pag'a bulut parchalarini qizg'ish rangga bo'yab, binafsharang dashtlikka so'nggi shu'lalarini sochib, asta-sekin ufq orqasiga o'tib borardi. Jamila qo'li bilan quyoshni to'sib, o'sha tomonda ajib bir manzara bordek, ko'zlarini uzmay, kulimsirab qarab turardi. Endi uning chehrasi ochilib, ko'ngli ancha ko'tarilgan edi.

O'shanda Jamila mening aytmagan, lekin yuragimda tugilib, tilim uchida turgan: „Nega ularga yondashasan, nega ular bilan gaplashasan!“ — degan ta'namga javob berayotgandek:

— Haligi gaplarimni ko'nglingga olma, kichkina bola,—deb go'ydi, eng yaqin sirdoshi bilan dardlashayotgandek. —Usmon ham odammi? It ham bir, u ham bir.

Jamila botib borayotgan quyoshdan ko'zini uzmay, indamay qoldi, keyin go'yo menga emas, o'ziga gapirayotgandek yana shunday dedi:

— Bunday kishilar ko'nglingdagini bilarmidi... Buni hech kim bilmaydi. Xudo bilsin, bunday erkaklar dunyoda yo'qdir ham!

Men aravani qaytarishga ham ulgurmasdan qaragam, Jamila allaqachon narigi tomonda ishlayotgan kelinlar oldiga yugurib borib, ular bilan chaqchaqlashib, quvalashib yuribdi. Olovdek tovlanib turgan kechki shafaqqa qarab ko'ngli ochildimi yoki bugun yaxshi ishlaganidan xursand bo'ldimi, har qalay. kayfi chog' edi.

Xashak ortilgan arava ustida o'tirar ekanman, Jamilaning qo'llarini keng yozgancha oppoq durrasini hilpiratib chopib borayotganini ko'rib, ko'nglim ancha taskin topdi: „Ha, Usmon o'zi kim-u uning so'zi nima bo'lardi?“

— Chuh, jonivor, chuh! — deb otga qamchi urdim...



### *Savol va topshiriqlar*

1. Adibning shaxsi ko'magida o'zingizda biror sifatni kashf etishga yoki biror fazilatni rivojlantirishga urinib ko'ra olasizmi?
2. „Jamila“ qissasidagi Jamila obrazi va xarakterini ochib beruvchi fikrlaringizni gapiring.
3. Jamilaning: „Bunday kishilar ko'nglingdagini bilarmidi?.. Buni hech kim bilmaydi,“ — degan xulosasiga qanday munosabat bildira olasiz?
4. Jamilaning kechinmalari haqidagi fikrlaringizni ayting.



## MUNDARIJA

<b>Soʻzboshi</b> .....	3
Yod olinishi lozim boʻlgan asarlar .....	4
Oʻquvchilar quyidagilarni bilishlari kerak .....	4
<b>Adabiyot — soʻz sanʼati</b> .....	5
<b>Soʻzning sehrli kuchi. Oʻzbek mutafakkirlari soʻz qudrati haqida</b> ...	7
„Alpomish“ dostoni .....	12
„Ravshan“ dostoni .....	13
<b>Dostonlar va dostonchilik maktablari haqida. Doston</b> .....	15
Doston kuylash tartibi .....	15
Dostonchilik maktablari .....	16
Dostonlar tasnifi .....	16
„Avazxon“ dostoni .....	17
<b>Afsonalar</b> .....	22
<b>Oʻrxun-Enasoy obidalarining adabiy-badiiy qimmatini.</b>	
<b>Tunyuuq va Kultegin bitiklari</b> .....	23
<b>Oʻrta Osiyoning qomusiy olimlari</b> .....	25
<b>Al-Xorazmiy</b> .....	25
<b>Abu Rayhon Beruniy</b> .....	26
<b>Abu Nasr Forobiy</b> .....	27
<b>Abu Ali ibn Sino</b> .....	29
<b>Yusuf Xos Hojib</b> .....	31
Tilning fazilatlarini .....	33
<b>Imom Muhammad Ismoil al-Buxoriy</b> .....	36
Hadislar—maʼnaviy bilimlar qomusi .....	36
Hadislardan namunalari .....	37
<b>Ahmad Yugdakiy</b> .....	39
„Hibat ul-haqoyiq“ asaridan parchalar .....	40
<b>Ahmad Yassaviy</b> .....	41
Hikmatlar .....	43
<b>Nosiriddin Burhoniddin oʻgʻli Rabgʻuziy</b> .....	45
Rabgʻuziy hikoyatlari haqida .....	45
„Qissasi Rabgʻuziy“ asaridan parchalar .....	47
<b>Pahlavon Mahmud</b> .....	50
Ruboiylar .....	50
<b>Maylono Lutfiy</b> .....	56
<b>Alisher Navoiy</b> .....	58
„Farhod va Shirin“ dostoni qahramonlari .....	61
Ruboiylar .....	66

G'azallar .....	67
Tuyuqlar .....	68
„Farhod va Shirin“ dostonidan parchalar .....	69
<b>Zahiriddin Muhammad Bobur .....</b>	<b>72</b>
„Qaro zulfing...“ g'azali .....	75
Ruboiylar .....	75
„Boburnoma“ haqida .....	76
„Boburnoma“dan parcha .....	77
<b>Boborahim Mashrab .....</b>	<b>79</b>
G'azallar .....	80
<b>Shermuhammad Munis .....</b>	<b>83</b>
„Firdavs ul-iqbol“ solnomasidan parcha .....	83
„Munis ul-ushshoq“ devonidan parcha .....	84
„Munis ul-ushshoq“ asari haqida .....	85
<b>Xo'janazar Huvaydo .....</b>	<b>86</b>
„Rohati dil“ dostonidan parcha .....	86
<b>Uvaysiy .....</b>	<b>90</b>
G'azallar .....	92
<b>Nodira .....</b>	<b>94</b>
G'azallar .....	95
<b>Almai .....</b>	<b>98</b>
„Kalila va Dimna“dan parcha. Kabutar, tulki, laylak yoki burovlarga yo'l ko'rsatib, o'zlarini falokatdan qutqara olmaganlar haqidagi bob .....	98
<b>Muhammad Aminxo'ja Muqimiy .....</b>	<b>101</b>
„Ey, yori jonim“ g'azali .....	102
<b>Muhammad Sulaymon o'g'li Fuzuliy .....</b>	<b>103</b>
„Etmazmidim“ g'azali .....	103
<b>Sa'diy Sheroziy .....</b>	<b>105</b>
„Guliston“ asaridan parchalar .....	105
<b>Mahmudxo'ja Behbudiy .....</b>	<b>108</b>
„Padarkush“ dramasi haqida .....	108
„Padarkush“ dramasidan parcha .....	109
<b>Abdulla Avloniy .....</b>	<b>114</b>
„Turkiy Guliston yoxud axloq“ asari haqida .....	115
„Turkiy Guliston yoxud axloq“ asaridan parchalar .....	115
<b>Abdulla Qodiriy .....</b>	<b>118</b>
„Kalvak Maxzum...“ hajviyasi haqida .....	119
<b>Hamza Hakimzoda Niyoziy .....</b>	<b>121</b>
„Boy ila xizmatchi“ dramasidan parchalar .....	122
<b>Hamid Olimjon .....</b>	<b>125</b>
She'rlar .....	127

<b>Pirimqul Qodirov</b> .....	130
„Yulduzli tunlar“ romani .....	130
„Yulduzli tunlar“ romanidan parcha .....	133
<b>Erkin Vohidov</b> .....	151
Sheʼrlar .....	153
„Ruhlar isyoni“ (doston) .....	153
<b>Oʻtkir Hoshimov</b> .....	164
„Bahor qaytmaydi“ romanidan parcha .....	165
<b>Abdulla Oripov</b> .....	181
Sheʼrlar .....	181
<b>Shavkat Rahmon</b> .....	187
Sheʼrlar .....	189
<b>Tohir Malik</b> .....	191
„Alvido, bolalik“ asaridan parcha .....	192
<b>Jahon adabiyotidan</b> .....	209
<b>Jek London</b> .....	209
„Hayotga muhabbat“ (hikoya) .....	209
<b>Chingiz Aytmatov</b> .....	229
„Jamila“ (qissadan parcha) .....	231



B 79 **Boboyorov O‘rinboy.**  
Adabiyot: *Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma* / O‘. Boboyorov, F. Xolsaidov. — T.:  
„Ilm Ziyo“, 2006 — 240 b.

1. Muallifdosh

BBK 83 ya 722

**O‘RINBOY BOBOYOROV, FARHOD XOLSAIDOV**

## **ADABIYOT**

*Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma*

Toshkent — „Ilm Ziyo“ — 2006

Muharrir *H. Yusupova*  
Badiiy muharrir *Sh. Qahhorov*  
Musahhih *O. Rahimov*

2006- yil 22- martda chop etishga ruxsat berildi. Bichimi 60×90 1/16.  
„Tayms“ harfida terilib, ofset usulida chop etildi.  
Shartli bosma tabog‘i 15,0. Nashr tabog‘i 15,0. 5000 nusxada bosildi.  
Buyurtma № 62

„ILM ZIYO“ nashriyot uyi, Toshkent—129, Navoiy ko‘chasi, 30-uy.  
Shartnoma № 7-06

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining G‘afur G‘ulom nomidagi  
nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent, 128.  
U. Yusupov ko‘chasi, 86. 2006.